**F. Vohidov**

# JAHON TARIXI

## DARSLIK YUZASIDAN MAVZULI TESTLAR TO`PLAMI




*JAVOBLARI BILAN*

*F. Vohidov*

# JAHON TARIXI

***(8-sinf)***

***DARSLIK YUZASIDAN MAVZULI TESTLAR TO`PLAMI***

Toshkent
"Adabiyot uchqunlari" 2017

УДК: 94 (076.5)
ББК: 63.3 (62) 35

Muallif: *F. Vohidov*

Mas'ul muharrir: *E. Matyoqubov*

Taqrizchi: *oliy toifali tarix o'qituvchisi F. Sultonov*

Ushbu testlar to'plami 8-sinf jahon tarixi darsligi asosida mavzular ketma-ketligi, izchillik va mantiqiylik asosida tuzib chiqilgan. Bu kitob abiturientlar, umumta'lim maktab o'quvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari, tarix faniga qiziquvchilar, shuningdek, tarix fani o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Mazkur test topshiriqlari foydalanuvchilarga darslikni(tarix fanini) o'zlashtirish jarayonida o'z bilimlarini tekshirish, voqea-hodisalarni tahlil qilish va olgan bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu testlar to'plamidan yuqorida ta'kidlab o'tilgan o'quv maskanlarida chorak, oraliq nazorat, yakuniy nazorat sinovlarida; olimpiada, "Bilimlarlar bellashuvi" va boshqa tanlovlarda foydalanish mumkin.

**ISBN: 978-9943-4659-7-8**

Abdulla Qodiriy nomidagi
viloyat AKM
INV № 2023/7-191

© «Adabiyot uchqunlari», 2017
© Vohidov F, (muall.), 2017

## SO`Z BOSHI

**HURMATLI ABITURYENTLAR VA O`QUVCHILAR!!!**

Sizlarga yangi "**GOLD STAR BEST TEST**" turkumi ostida barcha fanlar bo`yicha tayorlangan ma`ruza va testlar to`plamdan iborat kitoblarni havola etamiz. Ushbu turkumdagi kitoblar **"GOLD STAR EDUCATION"** o`quv markazi o`qituvchilar tomonidan tayorlangan va mutaxassislar tomonidan nashr etishga tavsiya qilingan. Ushbu loyihaning boshqa loyihalardan farqi shundaki, bu turkumdagi barcha testlar va ma`ruzalar Respublikamizning Davlat ta`lim standartlari va Davlat test markazizning talab va takliflarini hisobga olgan holda tuzulgan.

Ushbu loyiha barcha fanlar bo`yicha O`zbekiston Respulikasi Davlat test markazi (DTM) tomonidan tavsiya etilgan darsliklar asosida **tarix, ona tili va adabiyoti, ingliz tili, matematika, fizika, kimyo, biologiya** fanlaridan tayorlangan mukammal, keng qamrovli, universal testlar va ma`ruzalar o`rin olgan.

**Ushbu tukrumdagi barcha ma`ruza va testlar to`plamining ustunlik tomonlari quyudagilar**:

Davlat test markazi (DTM) tomonidan tavsiya qilingan darsliklar asosida tuzulgan;
DTM talablariga moslik;
Mavzulashganlik va izchillik;
Mukammallik va batafsillik;
Keng qamrovlilik va universallik.

8-sinf Jaxon tarixi darsligi asosida tuzulgan ushbu testlar to`plami **"GOLD STAR BEST TEST" turkumidagi dastlabki kitobdir.** Ushbu 8-sinf Jaxon tarixi darsligida berilgan mavzular ketma-ketligi asosida tuzulib chiqilgan bo`lib, unda har bir bob, har bir poragraf bo`yicha batafsil test savollari o`rin olgan. Kitobdagi testlar soddalikan murakkablikka, izchillikka, taqqoslashga, mantiqiylikka asdaslangan.

Mazkur test to`plamining yuqoridagicha tuzulishining sababi shundaki, ***Davlat test markazi tomonidan hozirgi davrda oliy o`quv yurtlariga kirish imtihonlarida tarix fanidan tuzulgan test savollari yuqori darajali murakkablik va mantiqiylikka asoslangan. Ya`ni, DTM abituyentlarning nafaqat davrlar, voqea-hodisar, shaxslarni va statistik ma`lumotlarni bilishishini, balki mavzuni matn asosida mantiqiy to`g`ri tushunib, bilim va ko`nikmaga ega bo`lishini ham talab qilyapti.*** Shuni hisobga olgan holda ushbu to`plamga DTM talablariga mos bo`lgan yuqori saviyali testlar kiritilgan. Bunda o`quvchi avval darslikdagi mavzuni qunt bilan o`qib chiqib, so`ngra o`z bilimini ushbu kitobdagi test savollari bilan tekshirib bilimini mustahkamlaydi.

Bundan tashqari qo`llanmaning oxirida ***xronologik taqqoslash testlari*** kiritilgan bo`lib, bunda o`quvchilar O`zbekiston va Jahon tarixida yuz bergan voqealarni bir-biriga taqqoslay olish ko`nikmasiga ham ega bo`ladi. Qo`llanma oxirida barcha testlarning javobi kiritilgan bo`lib, u siz olgan bilimingizni o`zingiz tomonidan mustaqil baholashingizga yordam beradi.

Aziz o`quvchilar, o`z bilimingizni sinab ko`rish hamda tarix fanidan o`zlashtirayotgan bilimlaringizni davom ettirish uchun mazkur turkumning keyingi nashrlarini sotib olishingizni tavsiya etamiz.

Ilm cho`qqilari sari qadam tashlayotganingizda Sizlarga omad hamroh bo`lsin!

**Kirish: «Yangi tarix»ning boshlanishi.**

1. Olimlar insoniyatning XVI asrdan boshlanadigan tarixiga nima deb nom berganlar?
A) «O`rta asrlar» B) «Qadimgi davr»
C)«Yangi tarix» D) «Eng yangi davr»

2. XVI asr insoniyat tarixida qanday jamiyat deb atalgan jamiyatga asos soldi?
A) kapitalizm B) agrar C)manufaktura
D) sivilizatsiya

3.Olimlar insoniyat tarixining XVI asrdan boshlanadigan davriga «Yangi tarix» deb nom berganlar. Buning sababi shuki, bu davrda …
1) iqtisodiy hayot gurkirab rivojlandi;
2) kishilarning tabiiy tengligi g'oyasini, shaxsning erkinligi va sha'ni kabi demokratik tushunchalarni o`zida aks ettirgan yangicha dunyoqarash shakllandi; 3) dunyoni yangicha tushunish asosida shaxsning tashabbuskorligi, tadbirkorligi uchun keng imkoniyatlar ochildi; 4)sexlar o'rnini manufak-turalar egallay boshladi; 5) ishlab chiqarishning yangi shakllari paydo bo'ldi.
A) 1,2 B) 1,4 C) 2,3 D) 4,5

4.Quyidagi qaysi voqealar olimlarning insoniyat tarixining XVI asrdan boshlangan davriga "Yangi tarix" deb nom berganlik-larining sabablari natijasida ro'y bergan?
1) ishchanlik va intiluvchanlik kabi belgilar paydo bo'ldi; 2) iqtisodiy hayot gurkirab rivojlandi; 3) kishilarning tabiiy tengligi g'oyasini, shaxsning erkinligi va sha'ni kabi demokratik tushunchalarni o'zida aks ettirgan yangicha dunyoqarash shakl-landi; 4) sexlar o'rnini manufakturalar egallay boshladi; 5)badiiy san'atining tez hayotiylashuvi; 6) ishlab chiqarishning yangi shakllari paydo bo'ldi; 7) mehnat qurollari takomillashdi.
A) 2,4,6,7
B) 1,2,4,5
C) 1,3,6,7
D) 2,3,5,7

5.Quyidagi qaysi belgilarning bir qismi yevropaliklarning hayotiga sharqdan kirib kelgan?
A) rivojlangan shahar madaniyati va antik davrga bo'lgan qiziqish
B) ko'plab yangiliklar, ishchanlik va intiluvchanlik
C) yaratuvchanlik, doimiy izlanish va intilish
D) kamtarona hayot tarzi va tashabbuskorlik

6.Quyidagilardan yangi davr xarakterlanadigan omillar keltirilgan javobni aniqlang.
1) yangi davr rivojlangan shahar madaniyati, 2) antik davr tarixiga bo'lgan katta qiziqish, uni ideallashtirish, 3) badiiy san'atining tez hayotiylashuvi.
A) 1,2 B) 2,3 C) 1,3 D) 1,2,3

7.Quyidagi javoblar ichidan to`g`risini aniqlang.
A) iqtisodiy hayot gurkirab rivojlanishi natijasida manufakturalar o'rnini sexlar egallay boshladi
B) ko'pchilik hollarda fojiali oqibatlarga olib kelgan urushlar, qo`zg'olonlar va inqiloblar emas, kishilarning yaratuvchanlik faoliyati, doimiy izlanish va intilish ma'naviyat va madaniyatda, ijtimoiy hayotda va iqtisodiy o'sishda katta ijobiy o'zgarishlarga olib keldi
C) badiiy san'atning tez hayotiylashuvi kabi belgilar dastlab Italiyada paydo bo`lib, keyinchalik butun Osiyoga tarqaldi
D) yangi davr boshlarida Sharq mamlakatlari rivojlanishi ancha yuqori edi

8.Kapitalistik jamiyat atamasiga to`gri ta'rif berilgan qatorni aniqlang.
A)xususiy mulkning asosini sanoat korxonalari tashkil etadigan jamiyat
B) rivojlangan bozor iqtisodiyoti va yuqori sanoat ishlab chiqarishiga asoslangan jamiyat
C) yollanma mehnatdan foydalanmaydigan, kishini kishiga majburlab qaram qilib qo'yiladigan jamiyat
D) A va B javoblar to`g'ri

9.O`z egasiga daromad keltiruvchi mol-mulk va o'zini o'zi ko'paytiruvchi sarmoya ma'nosini beruvchi atama …
A) innovatsiya B) kommunikatsiya
C) capital D) feudal

10. Sarmoyaning asosida nima yotadi?
A) mayorat
B) qat'iy belgilab qo`yilgan mulkchilik, ishlab chiqarish
C)kishini kishiga qonun bilan majburlab bog`lab qo`yish
D) erkin tadbirkorlik faoliyati

11. G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada XVI-XIX asrlarda shakllangaii jamiyat qanday nom olgan?
A) "kapitalistik jamiyat"
B) " teng imkoniyatlar jamiyati"
C) "buyuk jamiyat"
D) " konservativ jamiyat"

12.Sanab o'tilganlardan qaysi biri kapitalizm-ning asosiy tamoyillariga mos kelmas edi?
A) xususiy mulk
B) pul mablag'lari
C) yollanma mehnat
D) kishini kishiga qonun bilan majburlab bog'lab qo'yish

13. Ko'rsatib o'tilgan belgilardari qaysi biri kapitalizmga xos emas edi?
A) xususiy mulk
B) bozor mimosahatlari
C) tadbirkorlik faoliyatining cheklab qo'yilishi
D) demokratiya

14. Kapitalizm feodal jamiyatidan qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi?
1) xususiy mulkdan va yollanma mehnatdan foydalanishda kishilarga keng erkinlik berganligi; 2) kishini kishiga qonun bilan majburlab bog`lab qo`ymaganligi;
3) insonning qobiliyati, salohiyati, g`ayrati va shijoatiga katta yo`l ochganligi;
4) hayot uchun zarur bo`lgan narsa va mahsulotlarning deyarli hammasini o`zi ishlab chiqaradigan xo`jalik: 5) Yevropada an'anaviy jamiyatning davom etganligi
A) 1, 3, 5 B) 1, 2, 3, 4, 5
C)1, 2, 3 D) 2, 4, 5

15. Kapitalizm davrida qanday kashfiyotlar va ixtirolar qilindi?
A) motor, mashina, paroxod, parovoz, temir yo`l, dizel, martin pechi, aviatsiya, telegraf, telefon, televideniye, radio, elektr chiroqlari, yangi energiya manbalari yaratildi.
B) kompas, porox, seysmograf, qog`oz, kalendar, astrolyabiya
C)motor, mashina, paroxod, o`q-yoy, sopol buyumlar
D) dizel, martin pechi, aviatsiya, telegraf, kompas, porox, seysmograf

16.Sharqda (Osiyoda) taraqqiyotning o'ziga xos tomonlari deganda ko'pchilik nimalarni tushunadi?
1) kamtarona hayot tarzi, 2) hukmdorlarning cheklanmagan hokimiyati, 3) diniy sabr-toqat, 4) yer egalari-ning qudratliligi, 5)yer egaligining o'ziga xos shakli, 6) kishilar hayotining davlat tomonidan tartibga solinishi
A)1,2,3,4 B)1,2,4,5 C)1,3,4,5 D)1,3,5,6

17. Quyidagilardan xato fikrni aniqlang.
A) XVI-XVII asrlardan boshlab Sharq mamlakatlarida transport vositalari va kommunikatsiya tizimining rivojlanish sur'atlari G'arb mamlakat-lariga nisbatan pasaydi
B) Bu davrda Sharqda texnik, texnologik va madaniy innovatsiyalar keng tarqalgan bo'lib, ularning ko'pchi-ligi 300-500 va hatto 1000 yil o'tgandan so'ng Yevropada paydo bo'ldi
C) Yangi davr boshlariga kelib Sharq mamlakatlari Yevropaga nisbatan sezilarli darajada orqada qola boshladi
D) Yangi davr arafasida Sharq mamlakatlarida rivojlanish orqada edi.

18. Ma'lumki Yangi davr boshlariga kelib Sharq mamlakatlari Yevropaga nisbatan sezilarli darajada orqada qola boshladi.Buning asosiy sabablari xato berilgan javobni aniqlang.
A)Sharq davlatlarida ishlab chiqarishga jalb qilinmagan harbiy xarajatlarning umumiy miqdori G'arb davlatlarinikidan ancha past edi
B) XVI-XVII asrlardan boshlab Sharq mamlakatlarida transport vositalari va kommunikatsiya tizimining rivojlanish sur'atlari G'arb mamlakat-lariga nisbatan pasaydi
C) O'rta asrlarning oxirlaridan boshlab Sharq mamlakatlari yakkalanish yoki «yopiq

eshiklar» siyosatiga asoslanib, faol tashqi siyosat yuritmadi
D)Yevropalik mustamlakachilar kirib kelishi arafasida Sharqning ko'plab mamlakatlarida tarixan yaratilgan moddiy, ijtimoiy va ma'naviy boyliklarni rivojlantirish o'rniga tabiiy resurslardan uzoq vaqt ekstensiv foydalanish natijasida kelib chiqqan ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz kuzatilayotgan edi.

19.Sharq davlatlarining ishlab chiqarishga jalb qilinmagan harbiy xarajatlarning umumiy miqdori G'arb davlatlarinikidan qanchaga ortiq edi?
A) 5%ga B) 6%ga C) 7%ga D) 8%ga

20.Yangi davr boshlariga kelib Sharq mamlakatlari Yevropaga nisbatan sezilarli darajada orqada qola boshlashining asosiy sabablari natijasida Sharq mamlakatlarining ko'pchiligida qanday voqealar sodir bo'ldi?
A) ular iqtisodiy va ma'daniy sohalarda turg'unlik hollari yuz berdi
B) ular mustamlaka va yarim mustamlakaga aylantirildi
C) ular qo'shni davlatlarni egallashga harakat qila boshladi
D) A va B javoblar to'g'ri

21.Quyidagi qaysi atama texnika, texnologiya, boshqaruv va mehnatni tashkil etish sohasidagi yangiliklar ma'nosini anglatadi?
A) kapital B) innovatsiya C) resurs
D) texnologik yangiliklar

22.Hayot uchun zarur ne'matlarni tabiiy boyliklarning, xususan, yerning hosildorligini oshirish hisobiga emas, yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga ko 'paytirish nima deyiladi?
A)Ekstensiv foydalanish
B)Intensiv foydalanish
C)Realizatsiya
D)Tabiiy intensivlash

## I-bob.Yevropa va Amerika davlatlari

### 1- §. Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning tarixiy ahamiyati.

1. Buyuk geografik kashfiyotlar qaysi asrlarda yevropalik sayyohlar tomonidan amalga oshirilgan?
A) XV asr oxiri - XVII asr o'rtalarida
B) XV asr oxiri - XVI asr boshlari
C)XVI-XIX asrlar
D) XVI-XIX asrning 60-yillari

2. Geografik kashfiyotlar bu - ...
A) yangi tabiiy xom ashyolar zahirasini qidirib topilishidir.
B) bosqinchilik yurishlari natijasida qoshib olingan yerlar.
C)yangi dengiz savdo yo'llarini ochilishidir.
D) odamlar uchun shu vaqtgacha noma'lum bo'lgan yangi yerlarning qidirib topilishidir.

3. Buyuk geografik kashfiyotlarning amalga oshirilishiga sabab bo'lgan omillardan biri qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Yevropada avj olgan o'zaro urushlar va buning natijasida ahoh kambag'al qatlamining yer mulkdan ajralib qolishi va ishsizlik
B) XV asr oxiri XVI asr boshlariga kelganda Yevropada tovar ishlab chiqarishning yuqori sur'atlarda o'sa boshlashi va xomashyoga bo'lgan talabning oshishi hamda xomashyoning boshqa o'lkalardan olib kelishga zarurat tug'ilishi
C) turklar va arablar bosqini natijasida yevropalik-larning o'z yerlaridan haydalishi
D) din peshvolarining boshqa joylardagi muqaddas yerlarni bosib olish va u yerda yangi davlatlar barpo etishga bo'lgan intihsh

4. Buyuk geografik kashfiyotlarning amalga oshirilishiga sabab bo'lgan omillardan biri qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Yevropada avj olgan o'zaro urushlar va buning natijasida aholi kambag'al qatlamining yer mulkdan ajralib qolishi va ishsizlik
B) O'rta yer dengizidan o'tadigan savdo yo'lining usmonli turklar qo'lida qolib ketishi
C) turklar va arablar bosqini natijasida yevropaliklarning o'z yerlaridan haydalishi
D) din peshvolarining boshqa joylardagi muqaddas yerlarni bosib olish va u yerlarda yangi davlatlar barpo etishga bo'lgan intilish

5. Dengiz savdo yo`llarini ochishga imkon beruvchi nimalar mavjud edi?
A) qo`shin va harbiy kemalar
B) savdo kompaniyalar va manufakturalar
C) zamonaviy kemalar, harbiy qurollar, kompas, astrolyabiya
D) motor, mashina, paroxod, parovoz, temir yo`l va aviatsiya

6.Olimlar tomonidan «Buyuk kashfiyotga olib kelgan buyuk xato» deb berilgan ta'rif quyidagi qaysi shaxs nomi bilan bog'liq?
A) M.Valdzemyuller B) P.Toskanelli
C) L.Torres D) F. Magellan

7. Osiyo qit'asi qirg'oqlari Atlantika okeanining g'arbiy sohilida deb hisoblagan olimni aniqlang.
A) G. Gallom B) P. Toskanelli
C) A. Vespuchi D) M.Valdzemyuller

8.Yerning dumaloqligi haqidagi ta'limotlardan kelib chiqib, dunyo xaritasini tuzgan italiyalik olimni aniqlang.
A) F. Magellan B) P. Toskanelli
C) M. Vaidzemuller D) A.Vespuchchi

9. Buyuk geografik kashfiyotlarning tashabbuskorlari qaysi davlatlarning dengiz sayyohlari bo`lishdi?
A) Angliya va Fransiya
B) Portugaliya va Ispaniya
C)Portugaliya va Italiya
D) Ispaniya va Rossiya

10.Xristofor Kolumb qaysi yillarda yashab o`tgan?
A) 1454-1512-yillarda
B) 1483-1546-yillarda
C)1451-1506-yillarda
D) 1558-1603-yillarda

11. Buyuk geografik kashfiyotlarni amalga oshirgan Xristofor Kolumb qanday harbiy lavozimga ega edi?
A) marshal B) admiral
C)kapitan D) kontradmiral

12. Xristofor Kolumb o`z oldiga nimani maqsad qilib qo`ygan edi?
A) Hindistonga Shimoliy muz okeani orqali boradigan yo`l ochishni
B) Hindistonga Hind okeani orqali boradigan yo`l ochishni
C) Hindistonga Tinch okeani orqali boradigan yo`l ochishni
D) Hindistonga Atlantika okeani orqali boradigan yo`l ochishni

13. Olimlar qaysi xatoni Buyuk kashfiyotga olib kelgan buyuk xato, deb atadilar?
A) X. Kolumbning Hindistonga emas, Amerikaga kelib qolganligini
B) P. Toskanelli yerning ekvator bo`ylab uzunligini aniqlashda 12 ming kilometrga adashgani
C) M.Valdzemyuller yaratgan ilk globusda Hindistonga boradigan yo`lni noto`g`ri ko`rsatganligi
D) Amerigo Vespuchchi tomonidan dunyo xaritasida ekvator bo`ylab uzunligini aniqlashda 12 ming kilometrga adashgani

14. Buyuk geografik kashfiyotlarni amalga oshirgan quyidagi dengizchilardan qaysi biri portugaliyalik emas?
A) Amerigo Vespuchchi
B) Vasko da Gama
C) Fernan Magellan
D) Kabral

15. Yerning dumaloqligi haqidagi ta'limotdan kelib chiqib, dunyo xarilasini yaratgan olimning vatani qayer?
A) Ispaniya B) Portugaliya
C) Italiya D) Angliya

16. Quyidagilardan lotaringiyalik bo'lgan shaxsni aniqlang.
A) X.Kolumb B)Vasko Da Gama
C)M.Valdzemuller D)A.Vespuchchi

17. Asli portugaliyalik bo'lgan qaysi dengizchilar Ispaniyadan sayohatga chiqishgan?
1) Xristofor Kolumb; 2) Amerigo Vespuchchi; 3)Vasko da Gama; 4)Fernan Magellan; 5) Torres
A) 1,2 B) 2,4 C) 1,5 D) 3,4

18. Qachon X. Kolumb Ispaniya qirollik oilasi bilan Hindiston sari suv yo`li ochishga xizmat qiluvchi ekspeditsiyani boshlash haqida shartnoma tuzishga muvaffaq bo`ldi?
A) 1492-yilda B) 1498-yilda
C)1494-yilda D) 1496-yilda

19. X. Kolumb qachon birinchi ekspeditsiyasini boshladi?
A) 1492-yilning 12-oktabrda
B) 1492-yilning 16-sentabrda
C) 1492-yilning 6-avgustda
D) 1492-yilning 10-mayda

20. Amerika qit'asining rasman kashf etilgan sanasini aniqlang.
A) 1492-yil 12-oktabr B) 1494-yil 4-mart
C) 1492-yil 6-avgust D) 1496-yil 10-may

21. 1499-1501-yillarda portugaliyaliklar ekspeditsiyasi tarkibida Braziliya qirg'oqlarini tadqiq etgan olimni aniqlang.
A) X. Kolumb B) Vasko da Gama
C) L.V. Torres D) A. Vespuchchi

22. XV asr ohiridagi Xristofor Kolumbning kashfiyotlari yangi yerlarni ...
A) Ispaniya mustamlakalariga aylantirish bilan birgalikda amalga oshirilgan.
B) sotib olish bilan birga olib borilgan.
C) ijaraga olish orqali amalga oshirilgan.
D) Angliya mustamlakasiga aylantirishga qaratilgan.

23.Amerika qit'asini aylanib o'tib, Hindistonga boradigan dengiz yo'lini ochgan dengizchi nomini toping.
A) Fernand Magellan B) Xristofor Kolumb
C) Vasko da Gama D) Frensis Dreyk

24. Atlantika okeani orqali Hindistonga boriladigan dengiz yo`lini ochgan sayyoh nomini aniqlang.
A) Frensis Dreyk B) Xristofor Kolumb
C) Fernand Magellan D) Vasko da Gama

25. Kolumb kashf qilgan yerlarning yangi qit'a ekanligini isbotlagan florensiyalik dengiz sayyohi Amerigo Vespuchchi qaysi yillarda yashagan?
A) 1475-1564 B) 1451-1506
C) 1433-1507 D) 1454-1512

26. Qachon portugaliyalik dengizchi F. Magellan Amerika qit'asini aylanib o'tib, Hindistonga boradigan dengiz yo`lini ochdi?
A) 1515-yilda B) 1507-yilda
C) 1522-yilda D) 1519-yilda

27. Qaysi javobda quyida berilgan kashfiyotlarning sanasi to'g'ri ko'rsatilgan?
1) Portugaliyalik dengiz sayyohi Vasko da Gama Atlantika orqali Hindistonga boradigan dengiz yo`lini kashf etdi;
2) Portugaliyalik dengizchi F.Magellan Amerika qit'asini aylanib o'tib Hindistonga boradigan dengiz yodini ochdi;
3) Dunyoni aylanib suzish nihoyasiga yetkazildi;
4) L.V.Torres boshchiligidagi ekspeditsiya Avstraliyani kashf etdi;
a) 1605-yil; b) 1522-yil; c) 1519-yil;
d) 1498-yil.
A) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a B) 1-c, 2-b, 3-a, 4-d
C) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c D) 1-a, 2-d, 3-c, 4-b

28. Qachon, qaysi davlatda yangi dunyo «Amerika» deb nomlangan birinchi globus yaratilgan?
A) 1646-yil, Germaniya
B) 1671-yil, Angliya
C) 1515-yil, Germaniya
D) 1592-yil, Angliya

29. 1498-yilda Atlantika okeani orqali Hindistonga boradigan dengiz yo'lini ochishga muvaffaq bo'lgan dengiz sayyohi nomini aniqlang.
A) Vasko da Gama B) Kabral
C) Xristofor Kolumb D) Amerigo Vespuchchi

30. Dengizchi admiral Xristofor Kolumb vafot etganidan qancha vaqt o'tib, lotaringiyalik xarita-shunos olim M.Valdzemyuller Kolumb kashf etgan yangi qit'ani "Amerika" deb atashni taklif etdi?
A) 2 yil B) 1 yil C) 5 yil D) 10 yil

31. Kolumb kashf etgan yangi qit'ani 1507-yilda Amerika deb atash taklifi bilan chiqqan olim Valdzemuller qayerlik edi?
A) Portugaliyalik B) Genuyalik

C) Venetsiyalik D) Lotaringiyalik

32. X.Kolumb ochgan qit'aga, "Yangi dunyo" deb nom bergan dengizchi qayerlik edi?
A) lotaringiyalik B) genuyalik
C) portugaliyalik D) italiyalik

33.Nechanchi yilda uyushtirilgan ekspeditsiya Yerning dumaloqligini, uning katta qismi suv bilan qoplanganligini isbotladi?
A) 1605-y. B) 1492-y. C) 1522-y. D) 1507-y.

34.1605 - yilda L.V.Torres boshchiligida qaysi qit'a kashf etilgan?
A) Avstraliya B) Amerika
C) Ispaniya D) Xindiston

35.Quyidagi qaysi voqealar orasida bir asrlik (100 yil) farq bor?
1) X.Kolumb ekspeditsiyasining boshlanishi;
2) "Yengilmas armada"ning mag'lub bo'lishi;
3) Braziliyaning kashf etilishi;
4) Avstraliyaning kashf etilishi;
5) "Ost-Indiya" kompaniyasining tuzilishi:
6) Atlantika orqali Hindistonga boradigan dengiz yo'lining kashf etilishi
A) 1, 2 B) 4, 5 C) 3, 5 D) 5, 6

36. Nima tufayli global sivilizatsiyaning asoslari yaratildi?
A) Amerikaning kashf qilinishi
B) Buyuk geografik kashfiyotlar
C) Yangi savdo yo'llarining ochilishi
D) Ilm-fan kashfiyotlari

37. Buyuk geografik kashfiyotlarning ahamiyati nimalardan iborat bo'ldi?
1) geografiya, tarix, etnografiya va okeanshunoslik fanlari yangi xulosalar, ma'lumotlar bilan boyidi; 2) yangi dengiz savdo yo'llari ochildi; 3) jahon savdosini vujudga keltirdi; 4) xalqlarning o'zaro hamkorligiga asos soldi; 5) manufakturalarning vujudga kelishiga imkon yaratdi
A) 1.3,5 B) 2.3.4 C) 1.2,3 D) 1.2.3.4.5

38. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida O'rta Yer dengizida... yo'llari qayerga ko'chdi?
A) Hind okeaniga
B) Shimoliy muz okeaniga
C) Tinch okeaniga D) Atlantika okeaniga

39.Vitse atamasiga to'g'ri ta'rif berilgan variantni toping.
A) o'rinbosar
B) vitse-qiroliikda qirol nomidan mustamlaka o'lkalarni boshqaruvchi shaxs
C) davlat amaldori
D) barcha javoblar to'g'ri

40. Admiral qaysi so'zdan olingan va qanday ma'noni bildiradi?
A) lotincha, harbiy hukmdor.
B) arabcha, dengiz hukmdori, hokimi.
C) inglizcha, dengiz hukmdori, hokimi.
D) fransuzcha, harbiylar boshlig'i.

41.Qaysi astronomik asbob XVII asrgacha xizmat qilib, joyning geografik koordinatalarini, vaqtni, yulduzlarning chiqish va botish paytini aniqlab bergan?
A) astrolyabiya B) kompas
C) sekstant D) trekver

42. Izlab topish, tekshirish natijasida topiladigan, yaratiladigan ilmiy yangilik qaysi so'z bilan ifodalanadi?
A) arxeologik topilma B) ma'naviyat
C) kashfiyot D) ma'rifat

43. G'arbiy yarim sharda qit'a mavjudligini buyuk allomalarimizdan kim faraz qilgan edi?
A) Ahmad al-Farg'oniy
B) Abu Rayhon Beruniy
C) Al-Xorazmiy
D) Abu Nasr Forabiy

44. Amerika qit'asi Xristofor Kolumbning jasorati tufayli kashf etilgan bo'lsada, G'arbiy yarim sharda qit'a mavjudligini bu kashfiyotdan necha asr avval faraz qilingandi?
A) 5.5 asr avval B) 2,5 asr avval
C) 3.5 asr avval D) 4.5 asr avval

45. Abu Rayhon Beruniy o'zining qaysi asarida G'arbiy yarim sharda qit'a mavjudligini faraz qilgan edi?
A) "Geodeziya" B) "Mineralogiya"
C) "Hindiston"
D) "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"

46. Abu Rayhon Beruniy o'zining "Hindiston" asarida yozib qoldirgan "Muhit okeani" qaysi okeanlar hisoblanadi?
A) Hind va Atlantika okeanlari
B) Atlantika va Tinch okeanlari
C) Tinch va Hind okeanlari
D) Shimoliy muz va Atlantika okeanlari

## 2- §. Yevropaliklarning mustamlakalar uchun kurashi.

1.Qaysi voqea Yevropa davlatlarining mustamlakachilik siyosati uchun yo'l ochdi?
A) konkistaning boshlanishi
B) rekonkistaning tugashi
C)Buyuk geografik kashfiyotlar
D) astrolyabiyaning kashf etilishi

2. Qay tarıqa Yevropa davlatlarining mustamlakachilik siyosati boshlandi?
A) Angliyaning eng qudratli dengiz davlatiga aylanishi natijasida
B) Ispaniyaning «Yengilmas armada»sining yengilishi natijasida
C)Kabralning Braziliyani kashf etishi va uni Portugaliya qirolining mulki. deb e'lon qilishi
D) Ispaniya bayrog'i himoyasi ostida yangi ochilgan yerlar Ispaniya qiroli mulki deb e'lon qilinishi natijasida

3. Mustamlakalar dastlab bosib olgan hududlarda qanday ekinzorlar barpo etildi?
A) sholi va bo'g'doy
B) paxta va shakarqamish
C) arpa va kofe
D) makajuxori va paxta

4. Nima sababdan Ispaniya mustamlakaga aylantirgan hududlardagi hindularning soni keskin kamayib ketdi?
A) Afrikadan negr qullarni ommaviy ravishda olib kelinishi
B) konkista siyosatining yuritilishi tufayli
C)hindularning ommaviy ravishda boshqa hudularga ketib qolishi tufayli
D) shafqatsiz ekspluatatsiya va yevropaliklar olib kelgan turli yuqumli kasalliklar tufayli

5. Yevropalik mustamlakachilar boshlagan konkista siyosati (1510-yil) qachongacha davom etgan?
A) XVII asr oxirigacha
B) XVIII asr o'rtalarigacha
C) XVII asr o'rtalarigacha
D) XVII asr boshlarigacha

6.Tekin ishchi kuchiga ega bo'lgan mustamlakachilar 1510-yildan boshlab yurita boshlagan Konkista siyosati qachongacha davom etgan?
A) XVII asr boshlarigacha
B) XVIII asr boshlarigacha
C) XVI asr oxirigacha
D) XVII asr o'rtalarigacha

7.Ispaniya qiroli 1512-yilda chiqargan qonun to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
A) mahalliy hindularni qulga aylantirishni taqiqlovchi qonun
B) "Konkista" siyosatini joriy etish to'g'risidagi qonun
C) hindularni o'ldirishni ta'qiqlovchi qonun
D) mustamlakalarda Afrikadan olib kelingan qora tanlilar mehnatidan foydalanish to'g'risida qonun

8.Qaysi davrdan boshlab mustamlakachilar Afrikada yashovchi aholini qulga aylantirib, Amerikaga olib kela boshladi?
A) XVII asr boshlaridan
B) XV asr oxiridan
C) XVI asr o'rtalaridan
D) XVI asr boshlaridan

9. Ispaniya Amerika qit'asidagi koloniyalarni boshqarish uchun XVI asrda nechta vitse qirollik tashkil etgan?
A) 5 B) 4 C) 3 D) 2

10. XVI asrning birinchi yarmida Ispaniya Amerikadagi qaysi hududlarni egalladi?
1) Kolumbiya; 2) Meksika; 3) Ekvador;
4) Chili; 5) Argentina; 6) Peru; 7) Boliviya;
8)Braziliya
A) 1, 3, 6, 7 B) 1, 2, 4, 5
C) 2, 6, 7, 8 D) 3 ,4, 5, 7

11.Yevropaliklarning mustamlakalar uchun kurash davrida (XVI asr) quyidagi hududlarining qaysi birlari Ispaniya tomonidan keyinroq zabt etilgan?
A) Chili, Argentina B) Ekvador, Boliviya
C) Kolumbiya, Peru D) Kolumbiya, Ekvador

12. Quyidagi berilgan voqealar orasida boshqalariga nisbatan keyinroq sodir bo'lganini toping.
A) Ispaniyaning Filippin orollari ustidan o'z hokimiyatini o'rnatishi
B) Amerika sivilizatsiyasining markazi Mayya davlatining Ispaniyaga to'la bo'ysundirilishi
C) Buyuk Britaniyaning Shimoliy Amerikadagi birinchi mustamlakasiga asos solinishi
D) Mustamlakachilarning Afrikada yashovchi aholini qulga aylantirib Amerikaga olib kela boshlashi

13. Ushbu berilgan voqealar xronologik to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) Ispaniya Amerika sivilizatsiyasining markazi bo'lgan Mayya davlati hududlarini to'la bo'ysundirdi; 2) dunyo bo'ylab birinchi aylana sayohat tugadi; 3) boshqa xaritalarda ham Kolumb kashf etgan yerlar "Amerika" deb yoziladigan bo'ldi; 4) Ispaniya Filippin orollari ustidan ham o'z hokimiyatini o'rnatdi;
a) 1522-yil; b) 1529-yil; c) 1679-yil;
d) 1569-yil
A) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c B) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a
C) 1-c, 2-a, 3-d, 4-b D) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b

14. Quyidagi ko'rsatilganlardan qay biri hindu etnik guruhlari va qabila ittifoqlarining barham topishiga olib kelgan?
A) mustamlakachilik
B) konkista siyosati
C) ekspluatatsiya
D) geografik kashfiyotlar

15. Ispaniya bosib olgach hindularning tili qaysi til bilan almasha boshlagan?
A) fransuz tili B) portugal tili
C) ingliz tili D) ispan tili

16. Filippin orollari kimning sharafiga atala boshlandi?
A) Angliya taxt vorisi, shahzoda Filipp
B) Italiya taxt vorisi, shahzoda Filipp
C) Ispaniya taxt vorisi, shahzoda Filipp
D) Portugaliya taxt vorisi, shahzoda Filipp

17. Ispanlar Filippin orollarini qachon mustam-lakaga aylantirdilar?
A) 1679-y B) 1500-y C) 1529-y
D) 1565-y

18. Portugaliya dengiz sayyohi Kabral 1500-yilda
A) Braziliyani kashf etdi
B) Filippin orollarini kashf etdi
C) "Ost-Indiya" kompaniyasiga asos soldi
D) Karib dengizi orollarini kashf etdi

19. Portugaliyaning Braziliyani xo'jalik uchun o'zlashtirishi asosan nima hisobiga amalga oshirilgan?
A) unumdor yerlarni Yevropadan kelgan oq tanlilarga taqsimlab berish hisobiga
B) mahalliy hindularni shafqatsiz ekspluatatsiya qilish hisobiga
C) Yevropadan keltirilgan yangi texnikani keng qo'llash hisobiga
D) Afrikadan keltirilgan qullar mehnati hisobiga

20. Yevropa davlatlari o'rtasida mustamlakalar uchun kurash boshlanishiga nima sabab bo'ldi?
A) Yangi davrga o'tilishi
B) Buyuk geografik kashfiyotlarning boshlanishi
C) Angliyada manufaktura ishlab chiqarishining tobora rivojlanishi
D) mustamlakachilarning konkista siyosatini yurita boshlashi

21. XVI asr oxirida Angliya-Ispaniya o'rtasida urushga olib kelishi muqarrar bo'lgan sababni aniqlang.
A) Angliya burjuaziyasi boylikni mustamlakalardan olishga harakati
B) Ispaniya boshqa davlatlar savdogarlarining mustamlakalarida savdo qilishini ta'qiqlashi
C) har ikki davlatning Hindistonga egalik qilishga urinishi
D) Angliyaning chetga katta miqdorda tovar chiqarishi

22. 1588-yilda ...
A) mustamlakachilar konkista siyosatini yurita boshladilar
B) Angliya va Ispaniya harbiy-dengiz floti o'rtasida hal qiluvchi jang bo'lib o'tdi.

C) Ispaniya qiroli mahalliy hindularni qulga aylantirishni taqiqlab qo'yuvchi qonun chiqardi

D) Angliya birinchi mustamlaka Virginiyaga asos soldi.

23. «Yengilmas armada»ning halokati qanday oqibatga olib keldi?

A) Ispaniya boshqa davlatlar savdogarlarining ispan mustamlakalari bilan savdo qilishini taqiqlab qo'yishga

B) Ispaniyaning dengizdagi [illegible] yetkazdi. Angliya eng qudratli dengiz davlatiga aylana borishiga

C) Buyuk geografik kashfiyotlarning boshlanishiga

D) Yevropa davlatlari o'rtasida mustamlakalar uchun kurash boshlanishiga

24. Qaysi davrdan boshlab Angliya eng qudratli dengiz davlatiga aylana bordi?

A) XVI asrning boshidan

B) XVI asrning o'rtasidan

C) XVI asrning oxiridan

D) XVI asrning [illegible] yarmidan

25. [illegible] qaysi omil mustamlakalar [illegible] imkon berdi?

A) [illegible] muhim dengiz savdo yo'llaridagi davlatga aylanganligi

B) savdo kompaniyaga ega ekanligi

C) qudratli dengiz davlatiga aylanishi

D) [illegible] qo'shinga ega bo'lishi

26. [illegible] qudratli dengiz davlatiga aylangan Angliya o'z mustamlakalarini qaysi hududni bosib olishdan boshlagan?

A) Janubiy Amerikani

B) Shimoliy Amerikani

C) Hindistonni

D) Filippin orollarini

27. [illegible] mustamlakachilar tomonidan qachon [illegible] mustamlaka - Virginiyaga asos solindi

A) XVII asr boshlarida

B) XVII asr o'rtalarida

C) XVII asr oxirlarida

D) XVI asr boshlarida

28. «Ost-Indiya» kompaniyasi qachon [illegible]lgan?

A) 1588-yilda B) 1588-[illegible]

C) 1600-yilda D) 15[illegible]

29. «Ost-Indiya» kompaniyasiga qanday huquq berilgan edi?

A) Angliyaga paxta olib kelish

B) mustamlakalar bilan savdo qilish

C) o'z savdo hududlarida to'liq harbiy va sud hokimiyatini amalga oshirish

D) Hind va Tinch okeanlari sohilida joylashgan mamlakatlar bilan savdo qilish

30. "Ost Indiya" kompaniyasi kuchayib ketgan davrda Angliya savdogarlari kimlarni Osiyodan siqib chiqara boshlaganlar?

A) ispanlarni B) portugallarni

C) fransuzlarni D) boburiylarni

31. «Ost-Indiya» kompaniyasi Boburiy hukmdorlardan qanday huquqini qo'lga kiritdi?

A) o'z savdo manzilgohlarining qal'aga aylantirish

B) Hindistonda savdo vakolatxonalar ochish

C) portlarga imtiyozli kirish

D) Hindistonda boj to'lamay savdo qilish.

32. «Ost-Indiya» kompaniyasi Hindistondan Yevropaga qaysi tovarlarni yuborardi?

A) paxta, shakarqamish

B) makajuxori, kungaboqar

C) mato, ziravor

D) kofe, shakarqamish

33. Inglizlar Hindistonda yanada mustahkamroq o'rnashib olish uchun .

A) o'z savdo manzilgohlarini qal'aga aylantira borganlar.

B) turli savdo kompaniyalarga asos soldi

C) u yerda turli savdo vakolatxonalarini ochdi

D) u yerdagi

34. Angliya hukumati tashqi savdoni chet davlatlar bilan savdo ishlarini olib borish uchun kimlar ixtiyoriga topshirib qo'ydi?

A) hukmron sulola namoyondalariga

B) boy savdogarlar tuzgan turli kompaniyalar ixtiyoriga

C) [illegible]

D) "Yengilmas armanda"

35. Bir yilda sodir bo'lgan voqealar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
A) Amerigo Vespuchchi vafot etdi, Ispan qiroli mahalliy hindularni qulga aylantirishni taqiqlovchi qonun chiqardi
B) Ispanlar konkista siyosatini boshlashdi, Kabral Braziliyani kashf etdi
C) Yelizaveta Angliya taxtiga chiqdi, "Yengilmas armada" mag'lubiyatga uchradi
D) Nant edikti imzolandi, Boris Godunov vafot etdi

36. Armada nima?
A) o`rinbosar B) zabt etish, bosib olish
C)dengiz hukmdori, hokimi D) katta flot

37. Zabt etish, bosib olish ma'nosini beruvchi atamani qayd eting.
A) Armada B) Konkista C)Vitse
D) Ekspluatatsiya

38.Rivojlangan davlatlar tomonidan bosib olinib, ekspluatatsiya qilinuvchi mamlakat nima deb ataladi?
A) rekonkista B) konkista
C)ekspluatatsiya D) mustamlaka

39. Kolumbning sayohatidan so`ng Karib dengizi orollari nima deb atalgan?
A) Ost-Indiya B) Vest-Indiya
C)Hindiston D) Meksika

40. Sharqiy Hindiston ma'nosini beruvchi atamani aniqlang.
A) Kuba B) Hindiston
C) Vest-Indiya D) Ost-Indiya

41. Ishlab chiqarish vositalari egasining boshqalar mehnati mahsulini o`ziniki qilib olishi nima deb ataladi?
A) mustamlaka B) ekspluatatsiya
C) konkista D) rekonkista

42. Quyida berilgan atamalarning ma'nosi bir-biriga to'g'ri bo'lgan javobni aniqlang.
1) armada; 2) vitse; 3) konkista;
4) Vest-Indiya; 5) Ost-Indiya;
6) ekspluatatsiya;
a) boshqalar mehnatini o'ziniki qilib olish;
b) G'arbiy Hindiston; c) zabt etish;
d) katta flot; e) Sharqiy Hindiston;
f) o'rinbosar.
A) l-c,2-d, 3-a, 4-e, 5-b, 6-f
B) l-d. 2-f. 3-c, 4-b, 5-e, 6-a
C) 1-f, 2-c, 3-d, 4-b, 5-c. 6-a
D) l-d, 2-f, 3-a, 4-c, 5-b. 6-c

## 3- §. Yangi davr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.

1.Tarixning yangi davri boshlarida ham G'arbiy Yevropada jamiyatning hukmron tabaqalari bo'lgan qatlamni aniqlang.
A) ruhoniylar va dvoryanlar
B) ruhoniylar va burjuaziya
C) burjuaziya va yangi dvoryanlar
D) bankirlar va yangi dvoryanlar

2. G'arbiy Yevropada qaysi davrga kelib savdogar (negosiant) va bank egalari burjuaziyaning yuqori qatlamiga aylandi?
A) XVI asr oxiriga kelib
B) XVII asr boshlariga kelib
C) XVII asr oxiriga kelib
D) XVII asr o'rtalariga kelib

3.Yangi davr boshlarida G'arbiy Yevropa ijtimoiy hayotida yuz bergan eng muhim o'zgarishlardan biri burjuaziyaning soni va jamiyat hayotidagi o'rnining ortishi bo'ldi. Mazkur hodisa qanday jarayonning oqibati edi?
A) Salib yurishlari davrida Sharqdan keltirilgan boyliklar muayyan kishilar qo'lida to'planib borganligining.
B) ilmiy bilimlar rivoji oqibatida katolik cherkovi va yirik feodallar nufuzi va ta'siri pasayishining;
C) Ichki va tashqi savdoda shaharlar mavqei tobora yuksalib borganligining;
D) Markazlashgan monarxiya davlatlari tashkil topishining;

4. Yangi davrda qanday jarayon ingliz savdogarlarini kompaniyalarga birlashishga majbur etgan edi?
A) dengiz osha savdo qilish
B) quruqlikdagi savdo taraqqiyoti
C) ichki savdoning keskin o'sishi
D) hunarmandchilikning yuqori darajasi

5. Yevropada dastlabki aksiyadorlik jamiyatlarining tashkil topishiga sabab bo'lgan omillarni aniqlang.
1) savdogarlaming o'zaro birlashuvi; 2) savdo kompaniyalari sonining ortishi; 3) kuiidalik bozorlarga bo'lgan ehtiyoj; 4) savdo monopoliyalarining vujudga kelishi;
5) markaziy hokimiyatning kuchsizlanishi;
6) savdo kompaniyalari orasida kuchli raqobat
A) 1, 2, 3 B) 4, 5, 6 C) 1, 4, 6 D) 2, 3, 5

6. Nechanchi asrdan boshlab G'arbiy Yevropada usti yopiq bozorlar qurilishi keng avj olgan?
A) XV asrdan B) XVII asrdan
C) XVI asrdan D) XIV asrdan

7. Ma'lumki, G'arbiy Yevropa shaharlarida XVII asrdan boshlab usti yopiq bozorlar qurish boshlangan edi. Bnnday bozorlarning eng yirigi qaysi shaliarlarda edi?
A) Parij va Ganzada
B) Lotaringiya va Londonda
C) London va Virginiyada
D) Parij va Londonda

8. XVI asrda "manufaktura" deb nimaga aytilgan?
A) mashinalardan foydalanadigan korxonalarga
B) mehnat taqsimoti asosida faoliyat yurituvchi korxonalarga
C) yengil sanoat korxonasiga
D) hunarmandckilik mahsulotlari sotiladigan korxonaga

9. XVII asrda manufaktura ishlab chiqarishi xo'jalikning asosiy shakliga aylangan Yevropa davlatlarini aniqlang.
A) Gollandiya, Angliya
B) Ispaniya, Fransiya
C) Fransiya, Germaniya
D) Germaniya, Italiya

10. Quyidagi javoblar orasidan to'g'risini toping.
A) XVII asrga kelib manufaktura ishlab chiqarish Gollandiyada xo'jalikning asosiy shakliga aylandi, Fransiyada esa rivojlanish bosqichiga kirdi
B) XVI asrdan boshlab G'arbiy Yevropada usti yopiq bozorlar qurilishi keng avj oldi
C) XVI-XVII asrlarda G'arbiy Yevropada butun aholining katta qismini savdogarlar tashkil etardi
D) XVII asr boshlarida Angliya savdo kompaniyalari Erondan Janubiy Amerikagacha, Shvetsariyadan Afrikagacha bo'lgan juda katta hududlarni o'z ta'siriga olgan

11.Quyidagi qaysi atama dastlab sudya, advokat, notarius, shifokorlarga nisbatan ishlatilgan?
A) negosiant B) burjuaziya C) magnat
D) intelligent

12. Quyidagi qaysi atama „shaharning hurmatli, mo'tabar fuqarolari" degan ma'noni anglatadi?
A) Zodagon B) Dvoryan
C) Puritan D) Burjuaziya

13. O'rta asrlarda Yevropada ulgurji savdo bilan shug'ullan... savdogar bu ...
A) negosiant B) yangi dvoryan
C) burjuaziya D) panteist

14. "Patent" atamasi qaysi tildan olingan?
A) lotin B) nemis C) ingliz D) rus

### 4- §. Yevropada reformatsiya. Germaniyada dehqonlar urushi.

1. Reformatsiya nima?
A) izlab topish, tekshirish natijasida topiladigan, yaratiladigan ilmiy yangilik
B) Xudo to'g'risidagi ta'limot
C) katolik cherkovi ta'limotini isloh qilish
D) bahsda yoki biror ta'limotni bayon qilishda aytiladigan asosiy fikr

2. Reformatsiya dastlab qachon va qayerda bo'lib o'tdi?
A) XVI asrda Ispaniyada
B) XVI asrda Gollandiyada
C) XVI asrda Angliyada
D) XVI asrda Germaniyada

3. G'arbiy Yevropaga reformatsiya qachon yoyilgan?
A) XVII asrning birinchi yarmida

B) XVII asrning ikkinchi yarmida
C) XVII asrning oxirida
D) XVII asrning boshida

4. Qaysi harakat oqibatida katolik cherkovida bo`linish yuz berdi?
A) Rim imperiyasining ikki mustaqil imperiyalarga bo`linib ketishi
B) Reformatsiya
C) Rim Papasi Lev IX va Konstantinopol patriarxi Kirudariylar bir-birini anafema qilishlari
D) Germaniyadagi dehqonlar qo`zg`oloni natijasida

5. Katolik cherkovida bo`linish yuz bergach qaysi oqim vujudga keldi?
A) yeretik B) protestantlik C) pravoslav
D) anglikan

6. Katolik cherkovi ta'limotini isloh qilish maqsadida reformatsiya dastlab ... da bo'lib o'tgan.
A) Germaniya B) Fransiya C) Ispaniya
D) Angliya

7.Reformatsiya Yevropaning qaysi mamlakatida boshlandi?
A) Germaniyada B) Angliyada
C) Italiyada
D) Fransiyada

8. XVI asr boshlarida katolik cherkovi qudratli ekanligini qaysi holatlar belgilaydi? 1) barchaning o`z daromadining 1/10 qismini cherkovga tortiq qilishi; 2) cherkovning katta yer-mulkka ega ekanligi; 3) indulgensiya savdosi; 4) Yevropaning barcha hukmdorlari katolik cherkovi tomonidan tayinlanardi; 5) knyazlar katolik cherkoviga so`zsiz itoat etish to`g risida qasamyod qilardi.
A) 1, 2, 3 B) 1, 3, 5
C)2, 4, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5

9. Katolik cherkoviga qanday savdo katta daromad keltirardi?
A) indulgensiya savdosi
B) hunarmandchilik mahsulotlari savdosi
C) tashqi savdosi D) yer-mulk savdosi

10. Indulgensiya savdosi orqali cherkov ...
A) yer-mulk egasidan katta soliq undirardi.
B) dehqonlarni krepostnoyga aylantirardi.
C) sodir etilgan gunohnigina emas, kelajakda qilinishi mumkin bo`lgan gunohni ham kechirardi.
D) mustamlaka yerlardan daromad undirardi.

11. XVI asrda Germaniyada qanday ahvol hukm surardi?
A) siyosiy tarqoqlik
B) kuchli qirol hokimiyati
C) siyosiy va iqtisodiy barqarorlik
D) qirolning mutloq hokimiyati

12. Nima sababdan Germaniya imperatori amalda real hokimiyatga ega bo`lmagan?
A) katolik cherkovi Germaniyada katta mol-mulkka ega bo`lganligi tufayli
B) siyosiy tarqoqlik tufayli
C) arxiyepiskop va yepiskoplar amalda mustaqil knyazlar sanalganligi tufayli
D) krepostnoylik munosabatlarining taraqqiy etganligi

13. Germaniyada Reformatsiya jarayonining kuchayishiga nima sabab bo'ldi?
A) Nant edikti B) "95 tezis"
C) "Buyuk remonstratsiya"
D) "Utrext uniyasi"

14. 1517-yilda Germaniya aholisi Reformatsiyani nimadan boshladi?
A) Rim Papasiga qarshi xitobnoma chiqarishdan
B) katolik cherkovi ruhoniylarini quvg`in qilishdan
C)Rimga yuboriladigan soliqlarni to`lashdan bosh tortishdan
D) katolik cherkovini isloh (reforma) qilishni talab qilib chiqishidan

15. Reformatsiyani kimlar qo`llab-quvvatladilar?
A) hunarmandlar va dehqonlar
B) ruhoniylar va shaharliklar
C)knyazlarning bir qismi, shaharliklar va dehqonlar
D) yirik yer egallari, dehqonlar va shaharliklar

16. Germaniyadagi cherkovni Rim Papasi qaramog'idan ozod etish talab etilgan xitobnomani aniqlang.
A) Germaniya imperatori Karl IV ning "Cherkov faoliyati to'g'risida"gi xitobnomasi
B) Tyudor Pangosning "Cherkov haqida 100 tezis" xitobnomasi
C) Martin Lyuterning "95 tezis" deb atalgan xitobnomasi
D) Tarixda cherkovni Rim Papasi qaramog'idan ozod etish haqida hech qachon talab qo'yilmagan

17. Ma'lumki, Germaniyada Reformatsiya to'lqinining kuchayishiga Martin Lyuter ta'limoti katta ta'sir ko'rsatdi. Martin Lyuter qayerda ilohiyotdan dars berardi?
A) Vittenberg universitetida
B) Berlin universitetida
C) Vena universitetida
D) Gannover universitetida

18. Nima uchun Rim PapasiningMartin Lyuterni la'natlovchi yorlig'i Germaniya bo'ylab tarqalishining iloji bo'lmadi ?
A) chunki Lyuter qo'rqmay imperatorlik sudiga borganligi uchun
B) chunki Lyuterning inkvizatsiya sudini bekor qilganligi uchun
C) chunki xalq Lyuterni qo'llab-quvvatlayotganligi uchun
D) chunki Lyuter indulgensiya savdosini ma'qullashdan bosh tortganligi uchun

19. «95 tezis» xitobnomasida nimalar nazarda tutilgan?
1) indulgensiya savdosi qattiq qoralangan;
2) Germaniyadagi cherkovni Rim Papasi qaramog'idan ozod etish talab etilgan;
3) cherkovning «kam chiqim cherkov» bo'lishi yoqlangan; 4) M. Lyuterni Rim Papasi etib saylanishini; 5) diniy va'zlar ona tilida o'qilishini;
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 2, 4, 5 C) 1, 3, 5
D) 1, 2, 3

20. Rim Papasi nima sababdan Lyuterni shakkoklikda aybladi?
A) Rim Papasiga qarshi xitobnoma e'lon qilganligi
B) Martin Lyuter cherkov Papasiz ham yashashi mumkinligini va bundan keyin Rimga soliqdan tushgan pullarni yubormaslikni taklif etganligi
C) Germaniyadagi barcha cherkovni Rim Papasiga bo'ysunmaslikka da'vat etganligi
D) Germaniya imperatorini Rim Papsiga qarshi kurashga chaqirganligi

21. Qaysi holat M. Lyuterning katolik cherkovi bilan aloqani butunlay uzganligini anglatar edi?
A) M. Lyuter cherkov Papasiz ham yashashi mumkinligini bayon etganligi
B) M. Lyuter Papaning uni cherkovdan chetlash-tirganligi to'g'risidagi qarorini talabalar ko'z o'ngida yoqib yuborganligi
C) M. Lyuterning Rim cherkoviga yuboriladigan soliqlar miqdorini kamaytirish kerakligini talab etganligi
D) M. Lyuter Germaniya imperatorini saylaydigan 3 nafar arxiyepiskopni mahalliy knyazlar bilan almashtirish kerakligini bayon etganligi

22. Germaniyada dehqonlarning krepostnoylik zulmiga qarshi urushi qachon sodir bo'ldi?
A) 1526-yilda B) 1521-yilda
C) 1517-yilda D) 1524-yilda

23. Germaniyada dehqonlarning krepostnoylik zulmiga qarshi urushining yetakchisi kim bo'lgan?
A) Martin Lyuter B) Tomas Myunser
C) J.Melye D) M.Valdzemyuller

24. Ma'lumki, Germaniyada bo'lib o'tgan dehqonlar urushi yengilgan bo'lsa-da, katta ahamiyatga ega bo'ldi. Uning ahamiyati nimada edi?
A) Germaniyada feodal munosabatlarning tugatilishiga
B) Germaniya imperatorini ruhoniy vakillari tomonidan saylab qo'yilishi bekor qilindi.
C) dehqonlarni yirik yer egallari qaramligidan ozod bo'lishini tezlashtirdi.
D) katolik cherkovi hukmronligiga barham berilishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.
25. Qachon Germaniya reyxstagi Lyuterchi knyazlar talabi bilan har bir nemis knyazi o'zi

va fuqarosi uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to`g`risida qaror qabul qildi?
A) 1526-yilda B) 1517-yilda
C)1529-yilda D) 1555-yilda

26. Qachon reyxstag har bir nemis knyazi o`zi va fuqarosi uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to`g`risidagi qonunni bekor qildi?
A) 1529-yilda B) 1526-yilda
C) 1555-yilda D) 1517-yilda

27. Necha nafar nemis knyazi ruhoniy va dunyoviy feodallarning umumgerman yig`ilishi lyuterchilikning tarqalishini cheklash haqidagi qaroriga qarshi protestga imzo qo`yganlar?
A) 3 nafar B) 4 nafar C) 5 nafar D) 6 nafar

28. "Protestatsiya" – bu …
A) ruhoniy va dunyoviy feodallarning umumgerman yig`ilishi lyuterchilikning tarqalishini cheklash haqidagi qarorga qarshi norozilik hujjati.
B) biror ish yoki harakat qilishga undab yozilgan maktub, yozma chaqiriq, murojaatnoma.
C)bahsda yoki biror ta 'limotni bayon qilishda aytiladigan asosiy fikr.
D) M. Lyuterning Rim Papasiga qarshi xitobnomasi

29. Protestant knyazlar 1555-yilda Rim Papasi bilan tuzgan bitimga ko`ra …
A) har bir nemis knyazi o`zi va fuqarosi uchun faqat katolik dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to`g`risida qaror qabul qildi.
B) endi har bir knyaz o`z fuqarolari uchun istagan dinni yoki katoliklikni tanlash huquqiga ega bo`lganlar.
C) lyuterchilikning tarqalishini cheklash haqidagi qaror qabul qildi.
D) Germaniya avval jo`natib kelayotgan soliqlarni bundan buyun ham jo`natib turishi haqida qaror qabul qildi.

30. Xristianlikda protestantlik oqimi qanday vujudga keldi?
A) Germaniya reyxstagi Lyuterchi-knyazlar talabi bilan har bir nemis knyazi o`zi va fuqarosi uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to`g`risida qaror qabul qildishi tufayli
B) ruhoniy va dunyoviy feodallarning umumgerman yig`ilishi lyuterchilikning tarqalishini cheklash haqidagi qaroriga qarshi chiqishi tufayli
C)Protestant knyazlar Rim Papasi bilan bitim tuzishi tufayli
D) M. Lyuterning Rim Papasiga qarshi chiqishi tufayli

31. Reformatsiya natijasida …
A) yangi diniy ta'limot va knyazlarga bo`ysunadigan cherkov vujudga keldi.
B) dehqonlar feodal jabr-zulmdan xalos bo`ldi.
C)Germaniyada feodal tuzum barham topdi.
D) Germaniya imperatori mavqei oshdi.

32. XVI asr boshlarida Germaniyada katolik cherkovi ...
A) mustaqil knyazliklarga tish-tirnog'i bilan qarshi edi.
B) "95 tezis" deb atalgan xitobnomani qo 'l-lab-quvvatladi.
C) Martin Lyuterga maqtov yorlig'i yubordi.
D) siyosiy tarqoqlik va krepostnoylik munosabat-larining tayanchi edi.

33.Germaniyada reformatsiya natijasida ...
A) Imperator Karl IV barcha knazlar uchun yagona diniy e 'tiqod haqida qonun chiqarishga majbur boidi.
B) Rim katolik cherkovi jipslashuvi o'zining yuqori nuqtasiga ko'tarildi.
C) protestant knazlar Rim Papasi bilan bitim tuzishga erisha olmadilar.
D) knazliklarga bo'ysunadigan cherkov ham vujudga keldi.

34.Germaniya aholisi katolik cherkovini isloh qilish talabi bilan chiqqan yilda (I) va cherkov eshigiga "95 tezis" deb atalgan xitobnoma yopishtirib qo'yilgan yilda (II) Buyuk Britaniyada kimlar hukmdorlik taxtida o'tirganligini aniqlang.
a) Genrix VIII; b) Mariya; c) Yelizaveta I; d) Yakov I
A) I-d; II-a B) I-a; II-a
C) I-b; II-c D) I-a; II-b



Abdulla Qodiriy nomidagi viloyat AKM
INV № 2023/7-191

35.Germaniyada reformatsiya to`lqinining kuchayishiga katta ta'sir ko`rsatgan Martin Lyuter qaysi universitetda ilohiyotdan dars bergan?
A) Myunster B) Vittenberg
C) Birmingem D) Kyoln

36. Ispaniya Filippin orollari ustida hukmronlik o'rnatgan yili jahon tarixida yana qanday voqea yuz berdi?
A) Germaniya reyxstagi din tanlash to'g'risidagi qarorni bekor qildi.
B) Germaniya reyxstagi din erkinligi to'g'risidagi qarorni qabul qildi.
C) Germaniyada reformatsiya boshlandi.
D) Germaniyada Tomas Myunser boshchiligida qo`zg'olon boshlandi.

37. 1526-yilda Germaniya reyxstagi qanday qaror qabul qildi?
A) har bir nemis knyazi o'zi va fuqarosi uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to'g'risidagi qaror
B) M.Lyuteming "95 tezis" xitobnomasini hayotgajoriy etish to'g'risidagi qaror
C) faqat boy-badavlat nemis knyazlari o'zlari uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to'g'risidagi qaror
D) Rim Papasi bilan tuzilgan maxsus bitimning kuchga kirganligi to'g'risidagi qaror

38.Reformatsiya natijasida protestant cherkovi vujudga kelgan yilni aniqlang.
A) 1517-yil B) 1524-yil C) 1540-yil
D) 1555-yil

39. Diniy qoidalar va ular haqidagi Xudo ko`rsatmalarini o`z ichiga olgan asosiy diniy ta'limotni qayd eting.
A) ilohiyot B) tezis
C) kalom D) tasavvuf

40. Quyidagi atamalardan qay biri o`zgartirish kiritib, yaxshilash, tuzatish ma'nosini beradi?
A) isloh B) tezis
C) tasavvuf D) kalom

41. Tezis - bu ...
A) sezgilar vositasida anglab olish mumkin bo`lmagan obyektlarni (sifat, mazmun, mohiyat, hodisa) tadqiq etuvchi fan.
B) biror ish yoki harakat qilishga undab yozilgan maktub, yozma chaqiriq, murojaatnoma.
C) bahsda yoki biror ta`limotni bayon qilishda aytiladigan asosiy fikr.
D) diniy qoidalar va ular haqidagi Xudo ко'rsatmalarini o 'z ichiga olgan asosiy diniy ta'limot.

42. Tezis qaysi so`zdan olingan va qanday ma`noni bildiradi?
A) lotincha, taqsimlanadigan narsa
B) yunoncha, qoida, isbot
C) lotincha, ochiq, aniq-ravshan
D) lotincha, taqiqlayman

43. Xitobnoma - bu ...
A) izlab topish, tekshirish natijasida topiladigan, yaratiladigan ilmiy yangilik.
B) diniy qoidalar va ular haqidagi Xudo ко 'rsatmalarini o 'z ichiga olgan asosiy diniy ta'limot.
C)bahsda yoki biror ta'limotni bayon qilishda aytiladigan asosiy fikr.
D) biror ish yoki harakat qilishga undab yozilgan maktub, yozma chaqiriq, murojaatnoma.

## 5- §. Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi.

1. Mutlaq monarxiya - bu ...
A) oliy hokimiyatning parlament bilan cheklangan monarx qo`lida to`planishidir.
B) oliy hokimiyatning huquqi hech qanday qonun bilan cheklanmagan yagona bir shaxs monarx qo`lida to`planishidir.
C) oliy hokimiyatning toifalar madadiga tayanadigan monarx qo`lida to`planishidir.
D) oliy hokimiyatning yirik zamindorlar va qirol qo`lida to`planishidir.

2. Boshqaruvning mutlaq monarxiya shakli qanday vujudga keldi?
A) mamlakatda yagona bozorning vujudga kelishi natijasida
B) mamlakatdagi barcha toifalar qo`llab quvvatlashi natijasida
C) qonun chiqaruvchi organ qarori natijasida
D) siyosiy tarqoq mamlakatni yagona markaziy hokimiyat qo`l ostida birlashtirish natijasida

3.Angliyada Tyudorlar sulolasi davri tarixiga oid quyidagi ma'lumotlardan qaysi biri to'g'ri berilgan?
A) Angliyada xalqning xohish-iridasi bilan reformatsiya amalga oshdi va bu qirol hokimiyatini yanada mustahkamladi
B) Genrix VIII qirol hokimiyatini yanada mustahkamlash uchun cherkovni yer va boshqa mol-mulklar bilan taqdirladi, ya'ni unimdor yerlarning 2/3 qismini ularga tortiq qildi va sotdi
C) Genrix VIII Tyudor o'zi taxtga o'tirgan vaqtga qadar hali ham mustaqilligini saqlab qolgan ayrim janubiy grafliklar, Shotlandiya, Uels yerlariga yurish qilib butun mamlakatni birlashtirdi
D) Toifaviy vakillik organi bo'lmish parlament butunlay bo'lmasada, o'z ahamiyatini yo'qotdi, yangi soliq joriy etish masalasida parlament roziligining shartligi belgilab qo'yildi

4.Quyidagi qaysi shaxs hukmronligi davrida Angliyada reformatsiya boshlandi?
A) Yelizaveta B) Genrix VIII
C) Mariya D) Genrix VII

5. Angliyada reformatsiya kimning hukmronligi davrida boshlandi?
A) Mariya B) Genrix VII
C) Yelizaveta D) Genrix VIII

6.Tudorlar sulolasi hukmronligi davrida Angliya ichki va tashqi siyosatini belgilash vakolati qaysi organga (kimga) berilgan edi?
A) Maxfiy Kengash B) Cherkov
C) Parlament D) Qirol

7. Angliyada qaysi sulola hukmronligi davrida mutlaq monarxiyaning kuchayishi va dengiz hukmroniga aylanishi yuz bergan?
A) Lankasterlar B) Tyudorlar
C) Styuartlar D) Yorklar

8. XVI asrda Yevropada boshlangan reformatsiya jarayoni Angliyada qanday amalga oshirildi?
A) qirolning xohish va irodasi bilan
B) boy zodagonlarning talabi bilan
C) luteran cherkoviuing tazviqi ostida
D) xalqning talabi bilan

9.Angliyada kimning hukmronligi davrida cherkovga qarashli yerlarning 2/3 qismi sotib yuborildi?
A) Mariya B) Yakov VI
C) Genrix VIII D) Yelizaveta I

10. Angliya hukmdorlardan qay biri butun mamlakatni yagona markaz Londonga bo'ysundirdi?
A) qirol Genrix VIII Tyudor
B) qirolicha Mariya
C) qirol Eduard III
D) qirol Ioann

11. 1509-1547-yillarda Angliyada kim hukmdorlık qildi?
A) Eduard I B) Genrix VIII Tyudor
C)Eduard III D) Ekbert

12. Tyudorlar sulolasidan chiqqan Genrix VIII qirolligi davrida qanday islohat o'tkazdi?
1) feodallar qo'shinlarini tarqatib yubordi;
2) bo'ysunishni istamagan feodallarning qo'rg'onlarini yer bilan yakson qildi;
3) isyonchilarning yerları tortib olindi va qirollik mulkiga qo'shib yuborildi;
4) shaharlarning huquqlari cheklab qo'yildi;
5) katolik ruhoniylarga katta yer-mulk hadya qilindi.
A) 1, 3, 5 B) 2, 3, 4 C)1, 2, 3, 4
D) 1, 2, 3, 4, 5

13. Angliyada kimlar veto huquqiga ega edilar?
A) yirik yer egallari B) saroy ayonlari
C) dvorayanlar D) ingliz qirollari

14. XVI asr Angliya tarixida qanday tarixiy hodisalar bilan ajralib turadi?
A) iqtisodiy inqiroz va siyosiy tarqoqlik
B) reformatsiya, mutlaq monarxiyaning kuchayishi va dengizda Angliya hukmronligining o'rnatilishi
C)mustamlakachlik siyosatining kuchayishi
D) kuchli harbiy qo'shin tuzilishi va dengizda Angliya hukmronligining o'rnatilishi

15. Genrix VIII qirol hokimiyatini yanada mustahkamlash uchun ...

A) yirik yermulk egalarining yerdan va boshqa mol-mulklardan mahrum etish haqida farmon chiqardi.
B) cherkovni yerdan va boshqa mol mulklardan mahrum etish haqida farmon chiqardi.
C)toifa vakillarining maslahat kengashini chaqirdi.
D) Angliyada Rim Papasi hokimiyatini qayta tiklash haqidagi qarorini e'lon qildi.

16.Angliyada kontrreformatsiya siyosatini amalga oshirgan qirolichani aniqlang.
A) Yelizaveta I B) Mariya C) Viktoriya
D) Yelizaveta II

17.Parlamentning Angliyada Rim Papasi hokimiyatini qayta tiklash haqidagi qarori chiqarillishiga erishgan hukmdorni aniqlang.
A) Yelizaveta I B) Yakov I C) Viktoriya
D) Mariya

18. Qaysi javobda Tudorlar sulolasidan bo'lgan birinchi va oxirgi qirol(icha)lar ko'rsatilgan?
1) Yelizaveta I; 2) Mariya; 3) Genrix VII; 4) Richard II.
A) 4,2 B) 3, 1 C) 3,2 D) 4. 1

19.Genrix VIII Tyudor qaysi hududlarga yurishlar qilib, butun mamlakatni birlashtirdi?
A) Irlandiya va Shotlandiyaga
B) shimoliy grafliklar va Uelsga
C) Irlandiya va g'arbiy grafliklarga
D) sharqiy grafliklar va Shotlandiyaga

20.Angliyada mutlaq monarxiya davrida mamlakat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishini ... belgilar edi.
A) Maxfiy Kengash
B) qo'shin bosh sarkardalari va cherkov
C) Bosh Vazir
D) Parlament

21.Angliyada Genrix VIII Tyudor hukmronligi boshlangan yilda Movarounnahrda hukmronlik qilib turgan sulolani aniqlang.
A) Shayboniylar
B) Mang'itlar
C) Ashtarxoniylar
D) Temuriylar

22.Buxoro xonligida Ubaydullaxon hukmronlik qilgan yillarda Angliya qiroli bo'lgan shaxsni aniqlang.
A) Richard II B) Mariya
C) Genrix VIII Tyudor
D) Yelizaveta

23.1553-1558-yillarda Angliyada kim hukmronlik qilgan?
A) Eduard III B) Yakov I C)Mariya
D) Yelizaveta I

24. Qirolicha Mariya Rim Papasi hokimiyatini qayta tiklash to'g'risida parlament qarorini chiqartirgan yilni aniqlang.
A) 1603-yil B) 1558-yil C) 1554-yil
D) 1588-yil

25. Angliya qirolichasi Mariyaning qatag'on siyosati natijasida ko'pchilik protestantlar qayerlarga qochib ketib jon saqladilar?
A) Portugaliya va Germaniya
B) Gollandiya va Ispaniya
C)Fransiya va Italiya
D) Germaniya va Shveytsariyaga

26. Yelizaveta I qaysi yillarda hukmronlik qilgan?
A) 1558-1603-yillarda
B) 1553-1558-yillarda
C) 1509-1547-yillarda
D) 1553-1603-yillarda

27. Yelizaveta I xristianlikning qaysi oqimini davlat dini deb e'lon qildi?
A) protestantlikni B) katolikni
C) pravoslavni D) kalvanizmni

28. Angliyada hukmdorlardan qaysi biri «Cherkov va dunyoviy ishlarning oliy hukmdori» unvoniga ega bo'lgan?
A) Eduard III B) Ioann C) Mariya
D) Yelizaveta I

29.Germaniyada protestant knyazlar Rim Papasi bilan bitim tuzib, unga ko'ra har bir knyaz o'z fuqarolari uchun istagan dinni tanlash huquqiga ega bo'lgan yilda Angliyada kim qirol(icha) edi?

A) Viktoriya B) Mariya C) Yelizaveta I
D) Genrix VIII

30.Angliyada kontrreformatsiya yuz bergan vaqtda Vatanimiz tarixida sodir bo'lgan voqeani aniqlang.
A) Vali Muhammad hukmronligi boshlandi.
B) Abdullaxon II Buxoro taxtini amalda egalladi.
C) Imomqulixon Toshkent yerlarini qozoqlardan xalos etdi.
D) Abdullaxon II Balx va Samarqandni egalladi.

31.Quyidagi tarixiy shaxslarining faoliyatiga oid faktlar to'g'ri moslab ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) Yelizaveta I; 2) Martin Lyuter; 3) Tomas Myunser; 4) Mariya Tyudor;
a) Angliyada kontrreformatsiya o'tkazgan;
b) Germaniyada dehqonlar qo'zg'oloniga rahbarlik qilgan; c) diniy ruhdagi «95 tezis» xitobnomasi yaratgan; d) protestantlikni davlat dini deb e'lon qilgan.
A) 1-a; 2-b;3-c;4-d B)1-c;2-a;3-d; 4-b
C) 1-d; 2-c;3-b;4-a D)1-b;2-d;3-a; 4-c

32. Angliya hukmron tabaqalari nima uchun Yelizavetani qirollik taxtiga o'tkazishga qaror qildilar?
A) qirolicha Mariyaning «Cherkov va dunyoviy ishlarning oliy hukmdori» unvonini olganligi tufayli
B) qirolicha Mariyaning katolik cherkovning boyloiklarini tortib olganligi tufayli
C) qirolicha MariyaningRim Papasi hokimiyatini inkor qilganligi tufayli
D) qirolicha Mariyaning kontrreformatsiya siyosati tufayli

33.Qaysi hukmdor davriga Angliyaning Ispaniya bilan jahon savdosi yo'llari uchun kurashi to'g'ri keladi?
A) Georg V B) Yekaterina C) Yelizaveta I
D) Genrix VII

34. Kimning davrida Angliyada cherkov ibodatlari lotin tilida emas, ingliz tilida o'tkaziladigan boldi?
A) Mariya Tyudor B) Genrix VIII
C) Oliver Kromvel D) Yelizaveta I

35. Rossiyada davlat yerlarining bir qismi oprichinaga ajratilgan paytda Angliyada kim hukmronlik qilgan edi?
A) qirolicha Yelizaveta
B) Yakov VI
C) qirolicha Mariya
D) Genrix VIII Tyudor

36. Yelizaveta I ning asosiy vazifalaridan biri ...
A) dengizda mamlakat hukmdorligini o'rnatish edi.
B) mamlakat yaxlitligini mustahkamlash edi.
C) kuchli harbiy dengiz qo'shin tuzish edi.
D) katolik tarafdorlarini tugatish edi.

37. Angliyaning XVI asrdagi ashaddiy dushmani qaysi davlat edi?
A) Italiya B) Portugaliya C) Germaniya
D) Ispaniya

38. Ispaniya va Angliya o'rtasidagi urush qachon bo'lib o'tdi?
A) 1586-yilda B) 1588-yilda
C) 1579-yilda D) 1592-yilda

39.Buxoro xonlaridan Ubaydullaxon hukmronlik qilgan yillarda Angliya qiroli bo'lgan shaxsni aniqlang.
A) Richard II
B) Mariya
C) Genrix VIII Tyudor
D) Yelizaveta

40. Buxoroga Antoni Jenkinson elchiligi tashrif buyurgan yili Angliya tarixida qanday voqea sodir bo'lgan?
A) Angliya taxtiga Yelizaveta Tyudor o'tirdi
B) Angliyada "Sharafli inqilob" ro'y berdi
C) Angliya va Ispaniya o'rtasidagi urush boshlandi
D) Londonda birinchi birja tashkil topdi

41. Angliyada Tyudorlar sulolasi hukmronligi yillarini aniqlang
A) 1485-1603-yillar B) 1455-1588-yillar
C) 1455-1649-yillar D) 1485-1649-yillar

42.Styuartlar sulolasi asoschisini aniqlang.
A) Mariya B) Yelizaveta I C) Genrix VIII
D) Yakov VI

43. Angliya uchun XVI asr qanday yakunlandi?
A) Angliya Yevropaning buyuk davlatiga va dengiz hukmdoriga aylandi
B) Angliyada Styuartlar sulolasi hokimiyatni egalladi
C) Anglıya dengiz hukmdoriga aylansada, iqtisodiy jihatdan Germaniya va Ispaniyadan ortda edı
D) Angliyada o'zaro urushlar avj olib, siyosiy parokandalik kuchaydi

44. Quyidagilardan noto'g'ri fikrni aniqlang.
A) Protestantlik va lyuteranlik bir-biridan farq qiladi
B) Genrix VIII cherkovni yerdan mahrum etish to'g'risida farmon chiqardi
C) XVI asrda ingliz qiroli veto huquqiga ega edi
D) Tyudorlar davrida yangi soliq joriy etish uchun parlament roziligi shart edi

45. XVI - XVII asrlar o`rtalarida Yevropa-da Rim Papasi rahnomoligida reformatsiyaga qarshi qaratilgan diniy siyosiy harakat nima deyilgan?
A) kontrreformatsiya B)antireformatsiya
G) indulgensiya D) dualism

46.Veto bu -
A) davlat boshlig'ining biror qonuni yoki qarorni kuchga kiritishni tezlatish huquqi.
B) davlat boshlig'ining biror qonunni yoki qarorni kuchga kiritishdan to'xtatib qo'yish huquqi.
C) iqtisodiy atama bo'lib, davlat boshlig'ining tashqi iqtisodiy aloqalaridagi faoliyatini belgilaydi.
D) siyosiy atama bo'lib, davlat boshlig'ining ichki va tashqi siyosatini izohlaydi.

### 6- §. Fransiyada mutlaq monarxiya.

1. XVI-XVIII asrlarda Fransiya mutlaq monarxiyasi quyidagi qaysi iborada o`z ifodasini topgan?
A) «Oy o`z yog`dusini Quyoshdan olganidek, qirol hokimiyati o`z jilosini papalikdan oladi»
B) «Cherkov va dunyoviy ishlarning oliy hukmdori qiroldir».
C) «Xudoning irodasi shuki, har qanday qaram bo`lib tug`ilgan o`ylab o`tirmasdan bo`ysunmog`i lozim».
D) «Davlat – bu men!».

2. XVII asrda Fransiyada ichki va tashqi siyosatga doir barcha masalalarni ...
A) hukumat kengashi hal etgani.
B) general shtatlar hal etgan.
C) viloyat sudlari hal etgan.
D) qirol hal etgan.

3.Fransiyada mutloq monarxiya qaror topishi bilan ...
A) qirollarning irodasi bilan vakillik organlari mavqei yanada oshdi.
B) General shtatlar doimiy faoliyat ko'rsatuvchi davlat organiga aylandi.
C) "Davlat - bu men" degan shior o'z ahamiyatini yo'qotdi.
D) General shtatlar o'zining avvalgi ahamiyatini yo'qotdi.

4. Fransiyada biror marta ham General shtatlar chaqirilmagan vaqtni aniqlang.
A) XVI-XVIII asrlarda
B) 1614-yildan boshlab butun XVII asrda
C) XVI asr birinchi yarmida
D) 1589-1610-yillarda

5. Mutloq monarxiya davrida Fransiya fuqarolariga qanday huquq berilgan?
A) mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga doir barcha masalalarni shaxsan fikr bildirish
B) shahar kengashlarida ishtirok etish
C)viloyatlardagi sudlar ustidan shikoyat qilish
D) qo`shimcha soliqlar ustidan arz qilish

6.XVII asrda Fransiya viloyatlari ham o`z parlamentlariga ega edi. Mamlakat fuqarolariga bu parlamentlarga qanday masala yuzasidan shikoyat qilish huquqi berilgan?
A) ruhoniylar ustidan
B) graflar, gersoglar ustidan
C) qirol xatti-harakatlari ustidan
D) viloyat sudlari hukmi ustidan

7. Ma'lumki, Parij parlamenti katta ta`sirga ega bo`lgan.Uning vakolati mamlakat hududining necha qismiga tarqalgan?
A) 1/5 qismiga B) 1/2 qismiga

C)1/4 qismiga D) 1/3 qismiga

8. XVI asrda Fransiya qirol saroyi hayotining asosiy mazmunini qaysi ahloq tashkil etgan?
A) xalqning manfaatini ustivor deb hisoblovchi ahloq
B) katolik dinni e'zozlovchi ahloq
C)yirik mulkdorlar manfaatini himoya qiluvchi ahloq
D) qirol shaxsini ilohiy deb hisoblovchi axloq

9.Fransiya hududida, ayniqsa, Parij parlamenti katta ta`sirga ega bo'lgan. Uning vakolati mamlakat hududining 1/3 qismiga tarqalgan. Parij parlamenti … huquqiga ega bo'lgan.
A) ijroiya hokimiyat boshlig'i bosh vazirni tayinlash
B) mamlakat ichki va tashqi siyosati yo'nalishini belgilash
C) taxt vorisi yosh bo'sa regent tayinlash
D) mustamlakalardagi vitse qirollarni saylash

10. Qaysi Fransiya qiroli «Davlat - bu men!» degan edi?
A) Karl IX B) Lyudovik XVI
C) Lyudovik XIV D) Lyudovik XVIII

11. Qachon Fransiyada Lyuter ta'limotiga mos g`oya tarqaldi?
A) XVI asr B) XVII asr C) XVIII asr
D) XV asr

12. Qachon Fransiyada «Injil»ning fransuzcha tarjimalari paydo bo`lib, ibodatxonalarda duolar ona tilida o`qila boshlandi?
A) XVI asr B) XV asr C) XVII asr
D) XVIII asr

13. Fransiyada protestantlar nima deb atalgan?
A) yeretiklar B) katoliklar C) gugenotlar
D) lyuteranlar

14.XVI asrda qaysi davlatda boshlangan diniy urush 36 yil davom etgan?
A) Angliyada B) Fransiyada
C) Rossiyada D) Germaniyada

15.Fransiyada diniy urushlar davom etayotgan davrda katolik liga tuzgan shaxsni aniqlang.
A) Karl IX B) Fransua Giz
C) Genrix Burbon D) Genrix Giz

16. Fransiyada Angliya parlamentidan farqli o'laroq, qaysi organning davlat hayotidagi ta'siri zaif edi?
A) Parij parlament B) General Shtatlar
C) Maxfiy kengash
D) viloyatlardagi parlamentlar

17. Fransiyada diniy urushning oldini olish maqsadida qirol Karl IX qanday chora ko`rishga harakat qildi?
A) qirol huzurida hukumat kengashi tashkil etilgan.
B) mamlakat fuqarolariga viloyatlardagi sudlar ustidan shikoyat qilish huquqi berildi.
C) gugenotlar yetakchisi Genrixga o`z singlisi Margaritani turmushga berishga qaror qildi.
D) mamlakatda favquloddagi holat e'lon qilindi.

18. 1572-yil 24 avgust kechasi Parijda xristianlarning Avliyo Varfolomeyga bag'ishlab o'tkaziladigan diniy bayrami kuni arafasida yuz bergan gugenotlar qirg'ini natijasida qancha gugenot halok bo'lgan edi?
A) 2000 ga yaqin B) 30000 ga yaqin
C) 2000 dan ortiq D) 30000 dan ortiq

19. Qaysi voqealardan keyin Fransiyada protestantlik taqiqlandi?
A) Qirol huzuridagi hukumat kengashining qaroridan so`ng
B) Parij parlamenti chiqargan qonunidan so`ng
C) Nant ediktidan so`ng
D) «Varfolomey kechasi»dan so`ng

20. Gugenotlar «Varfolomey kechasi»dan so`ng Fransiyaning qayerida o`z davlatlarini tuzdilar?
A) shimolida B) g`arbida C) sharqida
D) janubida

21. Gugenotlar davlatini kim boshqardi?
A) Lyudovik XIV B) Genrix Navarrskiy
C) Genrix Giz D) Genrix III

22. Fransiyada diniy urushlar davom etayotgan davrda katoliklarning fitnasiga

ko'ra qaysi qirol olib qochilib, majburan monax qilindi?
A) Genrix Giz B) Genrix III
C) Genrix II D) Genrix IV

23. Quyidagi qaysi davlatda 1598-yilda diniy urushlarga yakun yasagan Nant edikti qabul qilingan?
A) Gollandiyada B) Angliyada
C) Fransiyada D) Germaniyada

24. Fransiya qiroli Genrix IV diniy urushlarni to'xtatish va mamlakat yaxlitligiga erishish uchun "Nant edikti"ni imzolagan yilda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.
A) Ispaniya Gollandiya mustaqilligini tan oldi.
B) Angliya-Ispaniya harbiy dengiz flotlari o'rtasida jang bo'lib o'tdi.
C) Angliyada Tyudorlar sulolasi o'rniga Styuartlar taxtni egalladi.
D) Rusda Ryurikovlar sulolasi hukmronligi barham topdi.

25. Niderlandiyada Vilgelm Oranskiy shimoliy hududlar hukmdori deb e'lon qilingan yili Fransi-yada ...
A) Genrix III o'ldirildi.
B) Nant edikti imzolandi.
C) Genrix Novarrskiy taxtga chiqdi.
D) "Varfolomey kechasi" sodir bo'ldi.

26. Diniy urushlardan so'ng Fransiya taxtini kim egallagan?
A) Lyudovik XIX B) Genrix IV
C) Genrix III D) Karl IX

27. Kim tomonidan va qachon Nant ediktini imzoladi?
A) Lyudovik XIV tomonidan 1598-yilda
B) Genrix III tomonidan 1598-yilda
C) Genrix IV tomonidan 1598-yilda
D) Karl IX tomonidan 1598-yilda

28. Qaysi hujjatda katoliklik davlat dini deb e'lon qilinib, gugenotlar quvg'in qilinmaydigan bo'ldi?
A) Lion edikti B) Versal edikti
C) Parij edikti D) Nant edikti

29. Jaholat – bu ...
A) diniy e'tiqodiga yoki biror ta 'limotga qattiq yopishib oluvchi.
B) ilm-ma'rifatdan mahrumlik, qoloqlik.
C) bahsda yoki biror ta 'limotni bayon qilishda aytiladigan asosiy fikr.
D) biror ish yoki harakat qilishga undab yozilgan maktub, yozma chaqiriq, murojaatnoma.

30. Diniy e'tiqodiga yoki biror ta 'limotga qattiq yopishib oluvchi kishini quyidagi ko'rsatilgan qaysi iborada ifodalanadi?
A) regent B) fanat C) tezis D) negosiant

31. Fransiyada qirolning alohida muhim farmoni nima deb atalgan?
A) regent B) patent C) negosiant
D) edikt

**7- §. XVI—XVII asrlarda Rossiya.**

1. Rus davlati qachon Oltin O'rdaga qaramlikdan barham topgan?
A) 1547-yilda B) 1549-yilda
C) 1480-yilda D) 1565-yilda

2. Qachondan boshlab Moskva knyazi Ivan III butun Rus hukmdori unvonini qabul qildi?
A) 1549-yildan B) 1547-yildan
C) 1521-yildan D) 1485-yildan

3. Qaysi javobda Rus podshosi Ivan IV oldida turgan ichki siyosatdagi asosiy masalalar keltirilgan?
A) dvoryanlar tabaqasini kuchaytirish va boyarlar hukmronligini zaiflashtirish
B) mamlakatni bosqinchilardan ozod etish va hududlarni kengaytirish
C) krepostnoylik huquqini zaiflashtirish va bozor munosabatining rivojlanishiga sharoit yaratish
D) boyarlar holatini kuchaytirish va mamlakatning xalqaro o'rnini mustahkamlash

4.Rossiyaning qaysi podshosi davrida Sobor qaroriga Moskva uyezdidan dvoryanlarning ming nafariga yer- ajratib beriladigan bo'ldi?
A) Ivan III davrida B) Pyotr I davrida
C) Vasiliy IV davrida D) Ivan IV davrida

5.To'g'ri ma'lumot berilgan javobni toping
A) Ivan IX davrida krepostnoylik tartibi biroz yumshadi
B) Ivan IV davridan boshlab davlat lavozimlarini ijtimoiy kelib chiqishi zodagonligiga qarab egallash tartibi bekor qilindi
C) Zemstvo soborida dastlab faqat feodallar qatnashgan
D) Rossiyada XVII asrdan boshlab mahalliy boshqaruvda Zemstvo tuzildi

6.Rossiyada Ivan IVni G'arbiy Yevropa qirollari bilan bir qatorga qo'ygan xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan voqea sodir bo'lgan yilni aniqlang.
A) 1485-yil B) 1549-yil
C) 1520-yil D) 1547-yil

7.Rossiyada qaysi hukmdor davrida davlat lavozimlarini faqat zodagon naslidan bo'lganlar egallashi tartibiga chek qo'yildi?
A) Ivan IV B) Vasiliy III
C) Pyotr I D) Ivan III

8. Nima maqsadda 1549-yilda Ivan IV feodallar turli qatlamlari vakillarining birinchi yig'ilishini - Zemstvo soborini chaqirdi?
A) dvoryanlar tabaqasini kuchaytirish orqali boyarlar mavqeini zaiflashtirish maqsadida
B) boyarlar tabaqasini kuchaytirish orqali dvoryanlar mavqeini zaiflashtirish maqsadida
C) yirik zamindorlar mavqeini tugatish maqsadida
D) yer-mulklarni qayta taqsimlash maqsadida

9. Ma'lumki, XVI asrda Zemstvo sobori yangi Sudebnik tuzish haqida qaror qabul qildi. Unga ko'ra, ...
A) «Saylanma rada» deb ataluvchi maslahat kengashini tuzildi.
B) oprichnina siyosati amalga oshirilish belgilab qo yildi.
C) boyarlarning mol-mulkining musodara qilish tartibi belgilab qo'yildi.
D) dvoryanlarning bundan buyon ayblari va nojo ya qilmishlari uchun boyar-noiblar sudiga borishlilari taqiqlandi

10. Ivan IV davrida qanday soliqlar bekor qilindi?
A) qaram dehqonlardan olinadigan soliqlar
B) mahalliy feodallar tomonidan joriy qilinadigan qo'shimcha soliqlar
C) boyar-noiblarning o'zlari uchun aholidan yig'adigan soliqlari
D) dvorayanlarning o'zlari uchun aholidan yig'adigan soliqlari

11. Genrix VIII Tyudor vafot etgan yili Rossiya tarixida qanday voqea yuz berdi?
A) Ivan IV ga toj kiydirildi.
B) Poytaxti Moskva bo'lgan Rossiya to'la birlashtirildi.
C) Zemstvo sobori chaqirtirildi.
D) Oprichnina siyosati joriy etildi

12.Ivan IV oprichnina siyosatini bekor qilishga majbur bo'lgan yilda sodir bo'lgan voqeani belgilang.
A) "Vartolomey tuni" voqeasi yuz berdi
B) Humoyun Eron yordamida taxtni egalladi
C) Utrext uniyasi imzolandi
D) Genrix IV taxtga o'tirdi

13. Quyidagilardan to'g'ri javobni aniqlang.
A) Oprichnina yerlarning podsho hokimiyatining tayanchi bo'lgan boyarlar foydasiga qayta taqsimlanishi ham edi
B) Ivan III 1572-yilda oprichninani bekor qilishga majbur bo'ldi.
C) 1520-yilda Rus yerlarini birlashtirish, asosan, nihoyasiga yetkazildi
D) 1547-yilda Rus katolik cherkovining boshlig'I mitropolit Makariy vafot etgan Buyuk knyaz Vasiliy III ning o'g'li Ivan IV ga Rossiya tarixida birinchi bor podsholik tojini kiydirdi.

14.Quyidagi javoblardan oprichninaga tegishli bo'lmaganini aniqlang.
A) oprichnina yerlarning podsho hokimiyatining tayanchi bo'lgan boyarlar foydasiga taqsimlanishi ham edi
B) oprichnina 7 yildan so'ng bekor qilinadi
C) oprichnina o'z qo'shiniga ega bo'lgan
D) oprichnina boyarlar va feudal tarqoqlik qoldiqlariga kuchli zarba bergan

15. Oprichnina nima?
A) mahalliy o`z-o`zini boshqaruv organi
B) hunarmandlarning ittifoqi
C) podsho hokimiyati dushmanlarini qo`pol zo`rlik va terror vositalari bilan bostirishga urinish siyosati
D) zabt etish, bosib olish

16. Ivan IV qanday laqab bilan atalgan?
A) «Grozniy» B) «Mudriy»
C) «Katta uya» D) «Monamax»

17. Rus podshosi Ivan IV ga podsholik unvonining berilishi ...
A) uni G'arbiy Yevropa davlatlari qirollari bilan bir qatorga qo'ydi.
B) knyazlarning o'zaro kurashlarini yanada kuchaytirib yubordi.
C) G'arbiy Yevropa qirollarining noroziliklariga sabab bo'ldi.
D) Oltin O'rda podsbolarining urushlariga sabab bo'ldi.

18. Rossiyada Ivan IV davrida sodir bo'lgan voqealarni xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.
1) Zemstvo sobori chaqirildi;
2) Ivan IV podsholik tojini kiydi;
3) Sibir xonliklari bosib olindi;
4) Qozon xonligi bosib olindi.
A) 1, 2, 4, 3 B) 2, 1, 4, 3 C) 3, 2, 4, 1
D) 2, 3, 4, 1

19. Sanab o'tilgan voqealardan qaysi biri rus podshosi Ivan IV Grozniy faoliyati bilan bog'liq emas?
A) Qozon xonligining bosib olinishi
B) Shimoliy urush va Boltiq dengizi sohillarining bosib olinishi
C) Astraxan xonligining bosib olinishi
D) Sibir xonligining bosib olinishi

20.XVI asrda Rossiya hududi bosqinchilik urushlari olib borish hisobiga qaysi tomonga qarab kengayib bordi?
A) g'arb va janubga B) sharq va shimolga
C) sharq va janubga D) g`arb va shimolga

21.Rurikovichlar sulolasi Rossiyani necha yil boshqargan?
A) 360 B) 810 C) 700 D) 780

22.Quyidagilardan avvalroq sodir bo'lganini aniqlang.
A) Rossiya hududi 5.4 mln. km$^2$ edi
B) Rossiya Astraxanni bosib oldi
C) Sibir xonliklari Rossiya tomonidan egallandi
D) Oprichnina joriy etildi

23. Rossiya davlati tomonidan XVI asrning ikkinchi yarmidabosib olingan davlatlarni to`g`ri ko`rsatilgan holda qayd eting.
A) Qozon xonligi, Astraxan xonligi, Sibir xonligi
B) Dashti Qipchoq, Qrim, G`arbiy Sibir
C) Qrim xonligi, Qozon xonligi, Sibir xonligi, Qozoq xonligi
D) Sibir xonligi, Qozoq xonligi, No'g'ayO'rdasi

24.1533-yilda 2,8 mln km ni tashkil yetgan Rossiya hududi XVI asr oxiriga kelib ...
A) 3,5 mln km ga yetdi.
B) 4.2 mln km ga yetdi.
C) 5,4 mln km ga yetdi.
D) 5,8 mln km ga yetdi.

25. Qachon Ivan IV Grozniy vafot etdi?
A) 1583-yilda B) 1584-yilda
C) 1585-yilda D) 1586-yilda

26. Ivan IV vafot etgach taxtga kim o`tirdi?
A) Vasiliy III B) Yaroslav Mudriy
C) Fyodor Ivanovich D) Vladimir Monamax

27. Bir yilda bo'lgan voqealar berilgan javobni toping.
A) Usmonli turklar Suriya va Falastinni bosib oldi, Sherxon Sur Hindiston taxtini egalladi
B) Rossiyada Ryurikovlar sulolasi hukmronligi tugadi, Nant edikti imzolandi
C) Shayboniyxon Qunduzni egalladi, Yevropada reformatsiya boshlandi
D) Germaniyada karolinglar sulolasi hukmronligi boshlandi, Obro'y qo'zg'oloni bo'ldi

28. Qachon Zemstvo sobori Boris Godunovni podsho etib sayladi?
A) 1584-yilda B) 1547-yilda
C) 1598-yilda D) 1565-yilda

29. Zemstvo nima?
A) davlat boshlig`ining biror qonunni yoki qarorni kuchga kirishdan to`xtatib qo`yish huquqi.
B) mahalliy o`zini-o`zi boshqarish organlari
C) Rus davlatida dastlab knyazlar, so`ng podsho huzuridagi Oliy davlat kengashi.
D) Rossiyada oliy hokimiyatning monarxiya shaklida idora qilinishi.

30.Rus hukmdori Boris Godunov vafot etgan yilda quyidagi hukmdorlardan qaysilarining hukmronligi tugagan edi?
1) Akbarshoh; 2) Vali Muhammadxon;
3) Boqi Muhammad; 4) Abbos I
A) 2, 4 B) 1,2 C) 1, 3 D) 3, 4

31. Rossiyaning quyidagi qaysi podshosi vafoti-dan so'ng (1605-yil) mamlakatda notinch, alg'ov-dalg'ov kunlar boshlandi?
A) Ivan III B) Mixail Fedorovich Romanov
C) Boris Godunov D) Ivan IV Grozniy

32. Qachon Rossiya tarixida notinch, alg`ov-dalg`ovli yillar boshlandi?
A) 1584-yilda B) 1565-yilda
C) 1611-yilda D) 1605-yilda

33. Rossiya tarixida notinch, alg`ov-dalg`ovli yillarda kimlarning ta`siri yana kuchaydi?
A) dvorayanlar B) posadlar C) boyarlar
D) chernosotlar

34.XVII asr boshlarida Rossiyaning ichki ishlariga zo'r berib aralasha boshlagan davlatlarni aniqlang.
A) Angliya va Fransiya
B) Shvetsiya va Fransiya
C) Germaniya va Shvetsiya
D) Polsha va Shvetsiya

35. Polsha 1609-yilda Moskvani bosib olgach hokimiyat kimlarning qo`liga o`tdi?
A) dvorayanlar guruhi
B) savdogarlar guruhi
C) chernosotlar D) boyarlar guruhi

36. Polsha Moskvani bosib olganda boyarlar o`z imtiyozlarini saqlab qolish uchun ...
A) katta miqdorda tovon to`lashga harakat qildilar.
B) Rossiya taxtiga Polsha qirolining o`g`lini o`tqazishga urindilar.
C) Rossiyaning mag`lubiyatini tan olishga urindilar.
D) Rossiya hududining 3/1 qismini Polshaga tortiq qilishga urindilar.

37.1612 yilda Moskva uchun bo'lgan janglarda ... qo'shinlarini mag'lubiyatga uchradi.
A) Shved B) Fransiya C) Polsha D) Rus

38. Rossiyada polyaklarga qarshi kurashni boshqargan posad oqsoqolini aniqlang.
A) Makariy B) Pojarskiy
C) Stefan Bulavin D) Minin

39. XVII asr boshlarida xalq lashkari to'plashga kirishgan Rossiya vatanparvar kuchlari yetakchilaridan biri bo'lgan qishloq oqsoqolini toping.
A) Dmitriy Pojarskiy B) Boris Godunov
C) Kuzma Minin D) Pavel Pestel

40. Polsha bosqinchilariga qarshi kimlar boshchiligida xalq lashkari to`plashga kirishdilar?
A) posad oqsoqoli Minin vasarkarda, knyaz Pojarskiylar
B) Aleksandr Nevskiy
C) Dmitriy Ivanovich
D) Yuriy Vsevolodich

41. Qachon Moskva uchun bo`lgan janglarda Polsha qo`shini mag`lubiyatga uchratildi?
A) 1610-yilda B) 1611-yilda
C) 1612-yilda D) 1613-yilda

42. 1613-yilda
A) Rossiya tarixida notinch, alg`ov-dalg`ovli yillar boshlandi.
B) Moskva uchun bo`lgan janglarda Polsha qo`shini mag`lubiyatga uchratildi.
C) Ivan IV davlat yerlaridan katta qismini alohida shaxsiy mulkka aylantirdi.
D) Zemstvo sobori Mixail Fyodorovich Romanovni Rossiya podshosi etib sayladi.

43. Qaysi yillarda Rossiyada Romanovlar sulolasi hukmronlik qildi?
A) 1613-1917-yillarda

B) 1605-1917-yillarda
C) 1613-1914-yillarda
D) 1601-1918-yilarda

44. Rus davlatida dastlab knyazlar, so`ng podsho huzuridagi Oliy davlat kengashi nima deb nomlangan?
A) Donolar kengashi B) Saylanma rada
C) Boyarlar dumasi D) hukumat kengashi

45. Lotinchadan qo'rqinch, dahshat ma'nosini beruvchi so`zni aniqlang.
A) sudebnik B) terror
C) oprichnina D) rekrut

46. Raqiblarnı yoqotish yoki qo`rqitish, aholi o`rtasida vahima keltirib chiqarish ma`nosini beruvchi so`zni aniqlang.
A) oprichnina B) rekrut C) sudebnik
D) teror

47. Sudebnik - bu ...
A) qonunlar to`plami
B) boyarlarni jozalash kodeksi
C) oprichninani qonunlashtiruvchi hujjat
D) dehqonlarni feodallarga biriktirib qo`yuvchi qonunlar to`plami

**8- §. Niderlandiya inqilobi.**

1. Niderlandiya XVI asrda hozirgi qaysi davlatlar hududidan iborat bo`lgan?
A) Belgiya, Lyuksemburg, Gollandiya hududlaridan hamda Svetsariyaning bir qismidan
B) Belgiya, Lyuksemburg, Gollandiya hududlaridan hamda Fransiyaning bir qismidan
C) Germaniya, Lyuksemburg, Gollandiya hududlaridan hamda Norvegiyaning bir qismidan
D) Niderlandiya, Germaniya, Lyuksemburg hamda Shetsyaning bir qismidan

2. Qaysi shahar Niderlandiyani XVI asrda daryo orqali Germaniya va Fransiya bilan bog'lagan edi?
A) Vitvaterstrande B) Kaluga
C) Altendorf D) Antverpen

3. XVI asrda Niderlandiyaning iqtisodiy va savdo markazi bo'lgan Antverpen shahri hozirgi qaysi davlat hududida joylashgan?
A) Shvetsiya B) Lyuksemburg
C) Daniya D) Belgiya

4. Qaysi shahar Niderlandiyaning iqtisodiy va savdo markazi edi?
A) Gaaga shahri B) Rotterdam shahri
C) Antverpen shahri D) Amsterdam shahri

5. XVI asrda qaysi shahar jahon savdosining markazi edi?
A) Amsterdam shahri
B) Rotterdam shahri
C) Antverpen shahri
D) Gaaga shahri

6. Antverpen Niderlandiyani dengiz orqali qaysi mamlakatlari bilan bog`lar edi?
A) Belgiya va Ispaniya
B) Lyuksemburg va Fransiya
C) Angliya hamda Skandinaviya
D) Germaniya va Fransiya

7.Antverpen ko`chalaridan har kuni kamida qancha savdo furgonlari o`tgan?
A) 3 mingta B) 2 mingta C) 4 mingta
D) 5 mingta

8. XVI asrda Niderlandiya sanoati, savdosi, qishloq xo`jaligi ...
A) siyosiy tarqoqlik oqibatida deyarli rivojlanmagan mamlakat edi.
B) ayanchli holatga kelib qolgan mamlakat bo`lgan.
C) rivojlanmagan qoloq mamlakat bo`lgan.
D) rivojlangan boy mamlakat bo`lgan.

9.XVI asrda Niderlandiya sanoati, savdosi, qishloq xo'jaligı, rivojlangan davlat bo`lsa ham qaysi davlatning mulkiga aylantirilgan edi?
A) Ispaniya B) Daniya C) Angliya
D) Portugaliya

10. Niderlandiya xalqining ispan zulmiga qarshi harakatida aholining qaysi qatlamlari qatnashdi?
A) hunarmandlar va dehqonlar

B) burjuaziya, hunarmandlar, dehqonlar, savdogarlar va dvoryanlarning bir qismi
C) savdogarlar va dvoryanlar
D) burjuaziya va dvoryanlar

11. Niderlandiya xalqining Ispaniya zulmiga qarshi qo`zg`olonga aholining qaysi tabaqasi rahbarlik qildi?
A) hunarmandlar B) savdogarlar
C) dvoryanlar D) burjuaziya

12. 1566-yil Gollandiyada qo'zg'olon boshlanganda qo'zg'olonchilar Ispaniya zulmining tayanchi bo'lgan nimalarni vayron qildilar?
A) savdo kompaniyalarini
B) manufakturaiarni
C) bandargohlarni
D) cherkov va monastirlarni

13. 1566-yilda Niderlandiya xalqining ispan zulmiga qarshi qo zg'oloniga qaysi qatlam rahbarlik qildi?
A) savdogarlar B) hunarmandlar
C) burjuaziya D) dehqonlar

14. 1566-yilgi Niderlandiya qo'zg'oloni bostirilgach, ispan qiroli Filip II gersog Albani Niderlandiya hukmdori etib tayinlagan edi. Alba boshqamv ishida ...
A) Angliya qirollaridan andoza olishga intildi.
B) Shimoliy Niderlandiya mustaqilligini qo 'Uab-quvvatladi.
C) terror, jallod qilichi va inkivizitsiyani qo'lladi.
D) zimdan ispan qiroliga qarshi kurash olib bordi.

15.Quyidagi qaysi shaxs 1572-yilda Niderlandiya shimoliy hududlari hukmdori deb e`lon qilingan?
A) Karl V B) Vilgelm Oranskiy
C) gersog Alba D) qirol Filipp II

16. 1572-yilda Niderlandiyaning shimoliy hududlari hukmdori deb e'lon qilingan shaxsni aniqlang.
A) gersog Alba B) Karl V
C) qirol Filipp II D) Vilgelm van Oran'ye

17. Ispaniya zulmiga qarshi Niderlandiya xalqining qo`zg`oloni nima bilan yakunlandi?
A) mamlakat sharqiy qismining mustaqillikka erishishi bilan
B) mamlakat janubiy qismining mustaqillikka erishishi bilan
C) mamlakat shimoliy qismining mustaqillikka erishishi bilan
D) mamlakat g arbiy qismining mustaqillikka erishishi bilan

18. Nima uchun Niderlandiya shimolidagi viloyatlar XVI asrda ittifoq tuzdilar?
A) «Isyonlar bo`yicha Kengash»ni barbod etish uchun
B) Ispaniyaga qarshi harbiy flot tashkil qilish uchun
C) Ispaniyaga qarshi zafarli yurish qilish uchun
D) Ispaniyaning hujumiga qarshi tura olish uchun

19. 1579-yilda niderland xalqi ispan bosqiniga qarshi "Utrext uniyasi"ni tuzgan bo'lib, uning a'zolari nimaga va'da berdilar?
A) xuddi yagona viloyat kabi abadiy birlashishga, Ispaniyaga qarshi birgalikda ozodlik uchun kurashishga
B) chet mamlakatlar bilan boshqa aloqalar o'rnatmaslikka
C) Ispaniyaga qarshi Amerika mustamlakalari bilan ittifoq tuzishga
D) o'zaro janjallarga chek qo'yishga va janubiy viloyatlarni Ispaniyga berishga

20.Filipp II ga muxolifatda bo'lgan Niderlandiyaning eng boy va obro'li katta yer egasi bo'lgan shahzoda kim ?
A) Alba B) Vilgelm van Oran'ye
C) Vilgelm de Norman
D) Vilgelm van Burbon

21. «Utrext uniyasi» nima?
A) dushman bosib olgan joylarda ozodlik uchun ko`ngilli ravishda qurolli kurash olib boruvchi ittifoq
B) podsho hokimiyati dushmanlarini qo`pol zo`rlik va terror vositalari bilan bostirishga urinish siyosati
C) Niderlandiyaning oliy hokimiyati
D) Niderlandiya shimolidagi viloyat ittifoqi

22. Mustaqillikka erishgan Niderlandiyaning Shimoli qaysi viloyat nomi bilan atala boshlandi?
A) Gollandiya B) Zelandiya
C) Finlandiya D) Utrext

23. Qachon Ispaniya Gollandiyaning mustaqilligini tan oldi?
A) 1572-yilda B) 1573-yilda
C) 1609-yilda D) 1605-yilda

24. Ma'lumki, Gollandiya Respublikasining tashkil topishi inqilobiy hodisa edi. Bu inqilobiy hodisa nimadan iborat edi?
A) Gollandiyada feodal tuzum butunlay barham topib, kapitalizm gurkirab rivojlana boshladi.
B) milliy-ozodlik urushi natijasida ispan zulmidan xalos bo`ldi.
C) «Utrext uniyasi»ning tuzilishidan iborat edi.
D) Niderlandiya xalqining qo`zg`olonining bo`lib o`tishi edi.

25. Gollandiya Respublikasi hokimiyat kimning qo`liga o`tdi?
A) dvorayanlar B) savdogarlar
C) burjuaziya va dvorayanlar D) burjuaziya

26.Gollandiya Respublikasi to'liq ozodlikka erishgan vaqtda Xiva xoni bo'lgan shaxsni aniqlang.
A) Abulg'oziyxon B) Asfandiyorxon
C) Avaneshxon D) Arab Muhammad

27. Keltirilgan voqealardan faqat to'g'rilarini belgilang.
1) Jordano Bruno 1600-yil Ruan shahrida gulxanda kuydirildi; 2) Migel Servantes ispaniyalik yozuvchi edi; 3) Badavlat kishilar panteizmdan voz kechganlar; 4) Alba Niderlan-diyani tark etgach, Filipp II faqat Janubiy Niderlandiyani o'z qoliga saqlab qoldi; 5) 1485-yil butun Rus hukmdori unvonini olgan Ivan III Moskva kniyazi edi; 6) Angliya hukmdori Genrix VIII ning qatag'on siyosati norozilikni kuchaytirib yuborgan edi
A) 2, 5, 6 B) 1, 2, 4, 6 C) 2, 4, 5 D) 1, 3

28. Inqilob – bu ...
A) iqtisodiyotning bir sohasidagi tanho hukmronlik.
B) taqsimlanadigan narsa.
C) jamiyat rivojlanishida ro`y beradigan tub sifat o`zgarish, eski jamiyatning agdarilishi.
D) ishlab chiqarish vositalari egasining boshqalar mehnati mahsulini o`ziniki qilib olishi.

29.Burjuaziya inqilobi ...
A) xususiy mulkning asosini sanoat korxonalari tashkil etadigan jamiyat uchun kurash
B) feodal jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'layotgan kapitalistik tuzumning kuch bilan ag'darilishi
C) mamlakatda feodal hokimiyatning o'rnatilishi
D) kapitalistik jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'layotgan feodal tuzumining kuch bilan ag'darilishi yoki uning qoldiqlarining tugatilishi

## 9- §. Yevropada Uyg'onish davri madaniyati.

1. Uyg`onish davri dastlab qayerda va qachon yuz bergan?
A) O`rta Osiyoda IX-XII va XIV-XV asrlarda
B) G`arbiy YevropadaXV-XVII asrlarda
C) Sharqda XII-XV asrlarda
D) Shimoliy Afrikada VII-IX asrlarda

2. Uyg'onish davri G'arbiy Yevropada qachon yuz berdi va uning vatani qaysi davlat edi?
A) IX-XII asrlarda, Gretsiya
B) X-XV asrlarda, Ispaniya
C) XII-XVI asrlarda, Fransiya
D) XIV-XVII asrlarda, Italiya

3. G`arbiy Yevropada yuz bergan Uyg`onish davri nima deb atalgan?
A) Renessans B) Reformatsiya
C) Samoderjaviye D) Asketizm

4. Olimlar Uyg`onish davrini qanday bosqich deb baholaganlar?
A) Qadimgi davrdagi turg`unlikdan o`rta asrlar davriga o`tish bosqichi
B) O`rta asrlar turg`unligidan yangi davrga o`tish bosqichi

C) Eng qadimgi davrdagi turg`unlikdan qadimgi davrga o`tish bosqichi
D) Yangi davrdagi turg`unlikdan qadimgi davrga o`tish bosqichi

5. G`arbiy Yevropada Uyg`onish davri qayerning bevosita tasirida yuz bergan?
A) O`rta Osiyo B) Janubiy-G`arbiy Osiyo
C) Old Osiyo D) Janubiy-sharqiy Osiyo

6.Quyidagi davlatlarning qaysi birida kapitalistik jamiyatga xos xususiyatlar boshqa davlatlarga nisbatan ertaroq vujudga kelgan?
A) Fransiya B) Italiya C) Buyuk Britaniya
D) Germaniya

7.G'arbiy Yevropa Uyg`onish davrining asosiy belgilarini quyidagılar dan qaysi biri tashkil etmagan?
A) jaholat va mutaassiblikni rad etish;
B) insonni uluglash, uning iste'dodi, aqliy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish;
C) kapitalistik jamiyatning rivojlanishi ilm-fanning yanada taraqqiy etilishini zaruratga aylantirib qo`yganligi
D) adabiyot va san'atda hayotdagi go'zallikni emas, narigi dunyoni kuylash

8. G`arbiy Yevropa Uyg`onish davrining asosiy belgilarini quyidagi ko`rsatilganlardan qaysilari tashkil etgan?
1) jaholat va mutaassiblikni rad etish;
2) insonni ulug`lash; uning iste'dodi, aqliy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish;
3) kapitalistik jamiyatning rivojlanishi ilm-fanning yanada taraqqiy etilishini zaruratga aylantirib qo`yganligi: 4) adabiyot va san'atda hayotdagi go`zallikni kuylash;
5) inson erki uchun kurash.
A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 5
C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 3, 4, 5

9. Uilyam Shekspir qachon yashab o`tgan?
A) 1547-1616-yillarda
B) 1452-1519-yillarda
C) 1564-1616-yillarda
D) 1483-1520-yillarda

10. Kim insonlarni o`rab turgan olamni sahna, odamlarai esa aktyorlar deb tasavvur qilardi?
A) Rafael Santi
B) Leonardo da Vinchi
C) Migel de Servantes D) U. Shekspir

11. Uilyam Shekspir tomonidan yozilgan asarlarni qayd eting.
A) «Ilohiy komediya», «Adashgano`g`ilningqaytishi», «Romeo va Julyetta»
B) «Don Kixot», «David», «Qirol Lir»
C) «Otello», «Gamlet», «Qirol Lir», «Romeo va Julyetta»
D) «Maxfiy kecha», «Sikstin madonnasi», «Gamlet»

12. Qaysi yozuvchi asaridagi qahramon obrazi «Erkinlik uchun xuddi shon-sharaf uchun qilinganidek, jonni xavfga qo`yish kerak» shiorining amaldagi ifodasi edi?
A) Rafael Santi B) Migel de Servantes
C) Uilyam Shekspir
D) Leonardo da Vinchi

13. Leonardo da Vinchi rassom bo`lishdan tashqari ..
A) shoir, me'mor, haykaltarosh, musiqachi, ixtirochi edi.
B) saroy amaldori edi.
C) shahar hokimi edi.
D) cherkov xodimi edi.

14.Uyg'onish davri namoyandalaridan qaysi biri rasm chizish san`atini "san'atlar malikasi" deb atagan?
A) Leonardo da Vinchi B) Rembrandt
C) Mikelanjelo Buanarroti D) Rafael Santi

15.Quyidagi qaysi ijodkor 1483-1520-yillarda yashab ijod qilgan bo'lib, uning asarlari ichida "Sikstin madonnasi" juda mashhur bo'lgan, zamondoshlari unga "Shu xildagilarning yagonasi" deb baho bergan?
A) Uilyam Shekspir B) Migel de Servantes
C) Rafael Santi D) Leonardo da Vinchi

16."Maxfiy kecha" deb nomlangan devoriy rasm quyidagi ijodkorlarning qaysi biriga tegishli?
A) Rembrandt Van Rein
B) Leonarda da Vinchi
C) Mikelanjelo Buanarroti D) Rafael Santi

17. Leonardo da Vinchi yaratgan tasviriy san'at asarlarini aniqlang.
A) "Mona Liza", "Sikstin Madonnasi"
B) "Apostollar Pyotr va Pavel", "To'quvchi ayollar"
C) "Mariyaning unashtirilisbi", "Adashgan o'g'ilning qaytishi"
D) "Maxfiy kecha", "Chaqaloq tutgan Madonna "

18. «Sikstin madonnasi» asarini kim yaratgan?
A) Leonardo da Vinchi B) Rembrandt
C) Mikelanjelo Buonarrotti D) Rafael Santi

19. Uyg'onish davrining buyuk rassomlardan qay biri 1606-1669-yillarda yashab o'tgan?
A) Leonardo da Vinchi
B) Mikelanjelo Buonarrotti
C) Rembrandt D) Rafael Santi

20. Rembrandt«Adashgano g'ilningqaytishi» asarini yaratishda qaysi rivoyatga asoslanadi?
A) Bibliya B) Injil
C) Tavrot D) yunon asotirlariga

21. Qurilishiga yuz yildan ortiq vaqt sarflangan Rimning va Yevropaning bosh katolik ibodatxonasini aniqlang.
A) Pyotr sobori B) Apostol sobori
C) Avliyo Luka sobori
D) Avliyo Sofiya ibodatxonasi

22. Qaysi javobda 100 yil davomida qurilgan va qurilishida Mikelanjelo ham qatnashgan Rimning bosh katolik cherkovi keltirilgan?
A) Avliyo Pyotr sobori B) Sikstin kapellasi
C) Avliyo Mariya sobori D) Kyoln sobori

23. Bosh katolik ibodatxona - Avliyo Pyotr sobori qurilishini nihoyasiga yetkazgan shaxsni aniqlang?
A) Rafael Santi B) Leonardo da Vinchi
C) Mikelanjelo Buonarratti
D) Migel de Servautes

24. U. Shekspir tug'ilgan yili ...
A) J. Bruno gulxanda kuydirildi
B) G. Galiley inkvizatsiya sudi oldidajavob berdi
C) "Osmon jismlarining aylanishi haqida" asari nashr qilindi
D) Mikelanjelo vafot etdi

25. O'rta asr Yevropa haykaltaroshligida diniy mavzu nima sababdan yuqori turgan?
A) haykaltaroshlar diniy ruhda tarbiya topib ulg'ayganliklari sababli
B) haykallarning asosiy buyurtmachilari cherkov bo'lganligi sababli
C) boshqa mavzuda ijod qilish cherkov tomonidan taqiqlanganligi sababli
D) barcha qissa va dostonlar diniy mavzuda bo'lganligi sababli

26. Atigi 37 yil umr ko'rib, lekin o'z nomini abadiylikka muhrlagan asarlar yaratgan uyg'onish davri vakilini aniqlang.
A) Rembrandt B) Leonardo da Vinchi
C) Rafael Santi D) Mikelanjelo

27. Boshqalariga nisbatan uzoqroq umr ko'rgan Yevropadagi uyg'onish davri vakilini aniqlang.
A) Rafael Santi B) Leonardo da Vinchi
C) Rembrandt D) Mikelanjelo

28. Yozuvchi Daniel Defoning "Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari" asari bosh qahramoni Robinzon obrazida qanday fikr aks etgan?
A) jahon siyosiy maydonida yakkalanib qolgan davlatning qanday voqealarni boshidan kechirishi va iqtisodiy rivojlanish yo'llari
B) yangi shakllanayotgan tadbirkorlar qatlami vakilining uddaburonligi va sog'lom fikrlashi
C) oq tanlilarning jamiyatda qanday vaziyatda bo'lmasin qora tanlilardan ustunligi
D) burjuaziya sinfining mehnatkash aholi ustidan hukmronligi va ularni ekspluatatsiya qilishlari

29.Quyidagi Uyg'onish davri vakillarining aytgan fikrlari to'g'ri moslab ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) M.Servantes; 2) Leonardo da Vinchi;
3) V.Shekspir.
a) «Inson - tabiatning ajoyib mo'jizasi!»;
b) «Rassomlik san'ati - san'atlar malikasi»;

c) «Erkinlik uchun xuddi shon-sharaf uchun qilinganidek jon[illegible] xavfga qo'yish kerak».

A) 1-a, 2-b; 3-c [illegible] B) 1-c; 2-b; [illegible]
C) 1-b; 2-c; 3 [illegible] D) [illegible]

30. Quyidagi [illegible] tegishlisini an[illegible]
A) "Erkinlik u[illegible] xuddi [illegible]sharaf uchun qilinganidek [illegible]avfga qo'yish kerak"
B) "Olam ch[illegible] boys[illegible] uning oxiri yo'q .."
C) "Inson tabiatin[illegible]"
D) "Sizlardan [illegible]"

31. Uyg'onish [illegible] yirik namoyandasi Migel de Servantes yashagan yillarni toping.
A) 1606-1669 yillar B) 1452-1519 yillar
C) 1547-1616 yillar D) 1483-1520 yillar

32.Quyidagi mualliflarning asarlari to'g'ri berilgan javobni toping
1) "Don Kixot"; 2) "Romeo va Juletta";
3) "Dekameron"; 4) "Qo'shiqlar kitobi";
a) Jovanni Bokachcho, b) Franchesko Petrarka; c) Migel Servantes, d) Vilyam Shekspir
A) 1 - d, 2-c [illegible]
B) 1 - c, 2 - d [illegible]
C) 1 - c, 2 - a [illegible] 4 - [illegible]
D) 1 - a, 2 - d [illegible] 4 [illegible]

33. Fransuzchadan qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug'ilmoq ma'nolarini anglatuvchi atamani aniqlang
A) Reformatsiya B) Re[illegible] C) Asketizm
D) Panteizm

## 10- §. Ilm-fan taraqqiyoti.

1. [illegible] ilm-fan taraqqiyotida katta yutuqlarga erishildi?
A) XVII-XVIII asrlarda
B) XV-XVI asrlarda
C) XVI-XVII asrlarda
D) XVIII-XIX asrlarda

2. Nikolay Kopernik qaysi yillarda yashab o'tgan?
A) 1564-1616-yillarda
B) [illegible]547-16[illegible] yillarda
[illegible]452-1[illegible] yillarda
[illegible]473-1[illegible]3-yillarda

3. N. Kopernik qaysi universitetlarida o'qidi?
A) Krakov (Polsha) va [illegible]
B) Bolonya (Italiya) va Ispaniya
C) Sevilya (Ispaniya) va [illegible]
D) Tuluza (Fransiya) va [illegible]

4. N. Kopernik qaysi fan[illegible]rgandi?
A) tarix, falsafa, astronom[illegible] tibbiyot
B) matematika, ritorika [illegible] va huquqshunoslik
C) ilohiyot, tasviriy san'at, [illegible]ziya va falsafa
D) tasviriy san'at, matem[illegible] falsafa, huquqshunoslik va tibbiyot

5. N. Kopernik oddiy maxsus moslamalar yordamida necha yil osmon jismlarini kuzatdi?
A) 20 yil B) 30 yil C) 15 yil D) 27 yil

6. N. Kopernik o'z tadqiqotlariga suyanib qaysi ta'limotdan voz kechdi?
A) Oyda ham Yerdagi kabi tog'lar borligi haqidagi
B) Quyoshning yo'ldoshlari mavjudligi haqidagi
C) Osmon jismlarining harakatsizligi haqidagi
D) Yerning harakatsizligi haqidagi

7. Qaysi olim XVI asrda Yerning Quyosh va o'z o'qi atrofida aylanishini isbotlab berdi?
A) N. Kopernik B) Jordano Bruno
C) Galileo Galiley D) Leonardo da Vinchi

8. Yevropada birinchi bo'lib Yerning o'z o'qi atrofida aylanishini isbotlab bergan va o'z qarashlarini "Osmon jismlarining aylanishi haqida" asarida bayon etgan buyuk olimni aniqlang.
A) Jordano Bruno B) Nikolay Kopernik
C) Jon Lokk D) Galileo Galiley

9. N. Kopernik asari, bu -
A) "Yulduzlar axboroti"
B) "O'zgaruvchan massa nuqtasining dinamikasi"
C) "Osmon jismlarining aylanishi haqida"
D) "Nola falsafasi"

10. «Osmon jismlarining aylanishi haqida» asari qachon chop etilgan?
A) 1616-yilda B) 1543-yilda

C) 1592-yilda D) 1600-yilda

11. Jordano Bruno qachon yashab o'tgan?
A) 1473-1543-yillarda
B) 1452-1519-yillarda
C) 1564-1642-yillarda
D) 1548-1600-yillar

12. Qachon Rim shahrida erkinlik va hurfikrlik dushmani inkvizitsiya hukmi bilan italiyalik faylasuf, astronom va shoir Jordano Bruno gulxanda kuydirilib o'ldirildi?
A) 1616-yil 17-martda
B) 1592-yil 6-yanvarda
C) 1600-yil 17-fevralda
D) 1543-yil 19-mayda

13. Quyidagi ma'lumotlar orasidan to'g'risini toping.
A) Italiyalik rassom Rembrandt yaratgan asarlaridan eng mashhuri "Adashgan o'g'ilning qaytishi" asaridir
B) 1572-yilda Alba Niderlandiya shimoliy hududlarining hukmdori deb e'lon qilindi.
C) 1612-yilda Moskva uchun bo'lgan janglarda shved qo'shini mag'lubiyatga uchradi va Moskva chet el bosqinchilaridan tamomila ozod qilindi.
D) Nikolay Kopernik Polsha va Italiya universitetlarida o'qidi va maxsus moslamalar yordamida 30 yil davomida osmon jismlarini kuzatdi.

14. Quyidagi olimlardan qaysi biri barcha xalqlar uchun fikr erkinligini talab qilgan va shu talabi uchun qatl etilgan?
A) N.Kopernik B) G.Galiley
C) U.Shekspir D) J.Bruno

15. Keyinchalik, J.Bruno ta'limoti tan olingandan so'ng, qayerda haykal o'rnatildi?
A) u dunyoga kelgan joyda
B) u qatl ettirilgan joyda
C) u tadqiqotlar olib borgan joyda
D) u o'qigan oliygohda

16. J. Bruno o'z qarashlarini «Nola falsafasi»deb atadi. Unda qanday ta'limot ilgari surildi?
A) Quyoshning Yer atrofida aylanishi to'g'risidagi
B) Yerning o'z o'qi atrofida harakat qilishi to'g'risidagi
C) olamning cheksizligi to'g'risidagi
D) xudo bilan tabiat bir narsa, ular bir butunni tashkil qiladi, deb hisoblovchi ta'limot

17. Qaysi allomalarning jasoratiga haqiqatga sadoqat, e'tiqod uchun kurashning yorqin namunasi yaqqol namoyon bo'lganini ko'ramiz?
A) U.Shekspir, M.de Servantes
B) Leonardo daVinchidir, Rafael Santi
C) N.Kopermik, G.Galiley, J.Bruno
D) Rembrandt, Mikelanjelo

18. 1564-1642 [illegible] astronom yashab o'tgan?
A) Nikolay Kopernik [illegible]
C) Jordano Bruno [illegible]ardo da Vinchi

19. Qaysi buyuk astronomlardan biri osmon jismlarini kuzatuvchi asbob – teleskopni yaratdi va shu teleskop bilan osmonni kuzatgan Yevropaning birinchi olimi edi?
A) Leonardo da Vinchi B) G. Galiley
C) Jordano Bruno D) Nikolay Kopernik

20. Kimning tadqiqot ishlari Kopernikning ta'limotini tasdiqladi?
A) Nikolay Kopernik B) G. Galiley
C) Jordano Bruno
D) Mikelanjelo Buonarrotti

21. Kimning tadqiqot ishlari Oyda ham Yerdagi kabi tog'lar borligini va hatto Quyoshda dog'lar mavjudligini qayd etdi?
A) Mikelanjelo Buonarrotti B) G. Galiley
C) Jordano Bruno D) Nikolay Kopernik

22. "Yulduzlar axboroti" kitobi muallifini aniqlang.
A) N.Kopernik B) J.Bruno
C) G.Galiley D) G.Leybnis

23. Qaysi Rim Papasi buyuk olim Galileo Galileyga nisbatan chiqarilgan inkvizitsiya sudi qarorini bekor qilgan?
A) Piy IX B) Ioann Pavel II
C) Ioann Pavel III D) Piy XII

24.Davlat hokimiyatini bo'lish, ya'ni ijro etuvchi hokimiyatni qonun chiqaruvchi hokimiyatdan ajratish haqidagi ta'limotni ilgari surgan jamoat arbobini aniqlang.
A) Sharl Furye B) N.Muravyov
C) Jon Lokk D) V.Belinskiy

25.Bir asrda ro'y bergan voqealarni toping. 1) mushket ixtiro qilinishi; 2) diniy reformatsiyaning G'arbiy Yevropa qator mamlakatlariga ham yoyilishi; 3) Angliyada Tyudorlar sulolasi hukmronlgi; 4) Injil-ning fransuzchaga tarjima qilinishi; 5) Rossiyada oprichniklarnig paydo bo'lishi; 6) Ispaniya tomonidan Gollandiya mustaqilligining tan olinishi.
A) 1,3,4,5 B) 1,2,5,6 C) 1,2,4,6 D) 2,3,4,5

26. Qachondan boshlab odamlar suv va shamoldan energiyaning yangi manbai sifatida foydalanishni o`rganib oldilar?
A) XV asrdan B) XVI asrdan
C) XVII asrdan D) XVIII asrdan

27. Qachon shamol-tegirmon ixtiro qilindi?
A) XIV asrda B) XV asrda C) XVI asrda
D) XVII asrda

28. Qaysi asrda tokarlik stanogining ixtiro qilindi?
A) XIV asrda B) XV asrda C) XVI asrda
D) XVII asrda

29. XVII asrda ruda qay usulda olinardi?
A) qazib olish B) portlash yo`li bilan
C) shaxta yo`li bilan
D) shaxtalardagi suvni yuborish orqali

30. Toshko`mirdanqachondan foydalanila boshlandi?
A) XVII asrda B) XVIII asrda
C) XVI asrda D) XV asrda

31. Qaysi omil toshko`mirdan foydalanishning o`ylab topilishiga olib keldi?
A) shamol-tegirmon ixtiro qilinishi
B) shaharlarda sanoat korxonalarining bunyod etilishi
C) manufakturalarning vujudga kelishi
D) o`rmonlar maydoni tobora qisqarib borishi

32. XVII asrda qaysi davlat ko`mir qazib chiqarish markaziga aylandi?
A) Fransiya B) Italiya C) Angliya
D) Germaniya

33. Panteizm – bu . .
A) tuyg`u va istaklarni cheklash yoki bostirish, azob tortish, hayot ne'matlaridan voz kechish.
B) ilm - ma'rifatdan mahrumlik, qoloqlik.
C) diniy e'tiqodiga yoki biror ta'limotga qattiq yopishib oluvchi.
D) xudo bilan tabiat bir narsa, ular bir butunni tashkil qiladi, deb hisoblovchi ta'limot

## 11- §. Angliyada burjua inqilobining boshlanishi.

1. XVI asrda Angliyaning qaysi shahri tashqi savdoda monopol huquqni qo`lga kiritdi?
A) Dartmut B) Oksford
C)Birmingem D) London

2. Qachon Londonda dastlabki birja ochildi?
A) 1628-yilda B) 1600-yilda
C)1601-yilda D) 1602 yilda

3. Quyidagi qaysi kompaniya Angliyada 1600-yilda tuzilgan bo'lib, inglizlarning Hindistonga kirishini ta'minlagan?
A) "Gvineya" B) "Levant" C) "Ost-Indiya"
D) "Moskva"

4. Qaysi omillar Angliyada katta mavqega ega bo`lgan o`rta tabaqaning shakllanishiga olib keldi?
1) Angliyaning dengizda yakka hukmronlikka erishishi; 2) chet ellar bilan savdo-sotiq ishlari tobora kengayib borishi; 3) London tashqi savdoda monopol huquqni qo`lga kiritishi; 4) Londonda badavlat savdogarlar guruhi vujudga kelishi; 5) ichki savdoning rivojlanishi; 6) qishloq xo`jaligida bozor munosabatlarining qaror topishining tezlashuvi
C) Milliy Konvent D) Ta'sis Konventi

42. Davlat suvereniteti bu ...
A) hokimiyatning mamlakat ichida oliyligi va tashqi munosabatlarda to`la mustaqilligi.
B) mustamlaka qaramligi shakllaridan biri.
C) davlat hokimiyatini qonunda ko`zda tutilmagan usullar bilan egallab olish.
D)bir davlatning boshqa davlat hududida o`z mamlakati fuqoralari manfaatlarini himoya qilish, ikki davlat o`rtasida siyosiy, iqtisodoy,

ilimiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish tizimi.

43. Davlat suvereniteti qanday ma'noni bildiradi?
A)lotinchadan birga, markaz.
B)lotinchadan homiy, himoyachi.
C)fransuzchadan oliy hokimiyat
D) inglizchadan cheklanmagan hokimiyat.

44. Bir xil o`lchov, og`irlik va yagona pul birligining qaror topganligini ifodalovchi so`zni toping.
A) Yagona ichki bozor
B) Yagona tashqi bozor
C) bozor infratuzilmasi
D) Davlat suvereniteti

**15- §. Buyuk fiansuz burjua inqilobi va monarxiyaning tugatilishi.**

1. XVIII asr oxirlarida Fransiyada ...
A) tashqi siyosat o'z davriga nisbatan gurkirab rivojlandi.
B) hamon o'rta asr feodal tartiblari hukm surar edi.
C) Milliy Kengash faohyati taqiqlandi.
D) Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi" bekor qilindi.

2 XVIII asr oxirlarida tez-tez "non isyonlari" bo'lib turgan davlatni aniqlang.
A) Fransiya B) Eron C) Rossiya
D) Hindiston

3. XVIII asr oxirida Fransiyada manufaktura ishchilariga faqat qaysi kunigina korxona tashqarisiga chiqishga ruxsat berilardi?
A) yakshanba B) dushanba C) juma
D) shanba

4. XVIII asr oxirida Fransiyada davlatni boshqarish amalda kimlarning qo`lida edi?
A) ruhoniylar va dvoryanlar
B) burjuaziya va dvoryanlar
C) ruhoniylar va burjuaziya
D) dvoryanlar va savdogarlar

5. XVIII asr oxirida Fransiyada kimlar soliq to`lashdan ozod edilar?
A) ruhoniylar va dvoryanlar
B) burjuaziya va dvoryanlar
C)ruhoniylar va burjuaziya
D) dvoryanlar va savdogarlar

6. XVIII asr oxirida Fransiyada qurolli kuchlarida zobitlik lavozimini faqat kimlar egallashgan?
A) Savdogarlar B) Burjuaziya
C) Feodallar D) Zodagonlar

7. Nima sababdan Fransiyaning XVIII asr oxirlarida xalqaro obro`si pasayib ketdi?
A) mutlaq monarxiya hukm surishi
B) o`rta asr feodal tartiblarini hukm surishi
C)tashqi siyosatdagi muvaffaqiyatsizlikka uchrashi
D) ichki siyosatdagi muvaffaqiyatsizlikka uchrashi

8. Quyidagi qaysi omillar Fransiyada inqilob ro`y berishini muqarrar qilib qo`ydi?
1) o`rta asr feodal tartiblarini hukm surishi;
2) o`rta asr feodal tartiblari sanoat va savdoning rivojiga to`siq bo`lganligi;
3) Fransiyada mutlaq monarxiya hukm surishi; 4) tashqi siyosatda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi; 5) urush va soliqlardan qiynalib ketgan xalqning ahvoli tobora og`irlashib borishi.
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 3, 5
C) 2, 4, 5 D) 1, 2, 4

9. Lyudovik XVI General shtatlarni nima maqsadda chaqirdi?
A) mamlakat Konstitutsiyasini qabul qilish
B) «Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi»ni qabul qilish
C) yangi soliqlar joriy etilish va General shtatlar uni tasdiqlash
D) yuqori imtiyozli tabaqalarning mol-mulkini soliqqa tortish

10. Qaysi tabaqa vakillari XVIII asrda General shtatlarda yuqori imtiyozli tabaqalarning mol-mulkini soliqqa tortishni talab qildi?
A) uchinchi tabaqa B) ikkinchi tabaqa
C) birinchi tabaqa
D) ikkinchi va uchinchi tabaqa

11.Ma`lumki Buyuk fransuz burjua inqilobi davrida Fransiyada Uchinchi toifa deputatlari

o'zlarini butun millat vakillari deb e'lon qilganlar va yangi parlament tuzganlar. Parlament qanday atalgan?
A) Milliy Kengash B)Ta'sis Majlisi
C) Qonun chiqaruvchı Majlıs
D) Parij Kommunasi

12. Nima uchun Fransıyada Milliy kengash 9-iyulda Ta'sıs majlisi deb e'lon qilindi?
A) General shtatlar chaqirish uchun
B) Konstitutsiya qabul qilish uchun
C) hokimiyat Parij Kommunasi qo'liga o'tganligi tufayli
D) parlament vazifasini bajaruvchi majlis zarur bo'lganligi tufayli

13. Fransıyada qirolning qaysı rejasi tufayli g'azablangan xalq ommasi qo'zg'olon ko'tardi?
A) yangi soliq joriy etish to'g'risidagi rejasi tufayli
B) Ta'sis majlisini tarqatib yuborish to'g'risidagi rejasi tufayli
C) 3-toifa vakillarining talablarini qondirmaslik to'g'risidagi nqarori tufayli
D) milliy kengash deputatlarini qamoqqa olish to'g'risidagi rejasi tufayli

14. Nima Buyuk fransuz burjua inqilobining boshlanishi bo'ldi?
A) General shtatlarning chaqirilishi
B) Bastiliyaning egallanishi
C) Parij aholisi uchinchi toifa deputatlari talablarini qo'llab-quvvatlashi
D) Yangi Konstitutsiya ishlab chiqilishi

15. Qachon Fransiya Milliy Kengashi o'zini «Ta'sis majlisi» deb e'lon qildi?
A) 1789-yilning 17-iyunida
B) 1789-yilning 9-iyulida
C)1789-yilning 14-iyulida
D) 1792-yilning 10-avgustida

16. Fransiya mutlaq monarxiyasining tayanchi Bastiliya qachon egallandi?
A) 1789-yil 17-iyun B) 1789-yil 9-iyul
C) 1789-yil 14-iyul D) 1792-yil 10-avgust

17. Qay tarıqa Fransiyada mutlaq monarxiya quladi?
A) Lyudovik XVI ni qatl etilishi tufayli
B) mamlakat Konstitutsiyasini qabul qilinishi tufayli
C)Ta'sis majlisi «Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi»ni qabul qilishi tufayli
D) hokimiyat inqilobchilar vakillaridan tuzilgan Parij Kommunasi qo'liga o'tishi tufayli

18. Fransiyada mutlaq monarxiya qulagach hokimiyat tepasiga kimlar keldi?
A) ruhoniy va dvoryanlar B) savdogarlar
C) dvoryanlar
D) savdo-sanoat burjuaziyasi

19. Fransiyada XVIII asrda hokimiyat tepasiga kelgan burjuaziya nima tarafdori edi?
A) mutloq monarxiya
B) parlamentar davlat
C) cheklangan monarxiya
D) demokratik respublika

20. Fransiyada Ta'sis majlisining qaysi hujjatiga ko'ra feodal tartiblar bekor qilindi?
A) «Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi»
B) «Imtiyozlarni tugatish haqida dekret»
C)mamlakat Konstitutsiyasi
D) «Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi» va mamlakat Konstitutsiyasi

21. Fransiya Ta'sis majlisi qachon muhim hujjat — «Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi»ni qabul qilgan?
A)1789-yil 9-iyul B)1789-yil 14-iyul
C)1789-yil 26-avgust D)1789-yil 22-sentabr

22. «Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi»
1) feodal va tabaqa imtiyozlarini bekor qildi;
2) so'z, matbuot erkinligini e'lon qildi;
3) fuqarolarning qonun qabul qilishda ishtirok etish erkinligi belgilab qo'ydi; 4) xususiy mulkning daxlsiz va muqaddasligini belgilab qo'ydi; 5) qirol huquqlari cheklandi.
A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 5
C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 3, 4, 5

23. Buyuk Fransuz burjua inqilobi davrini eslang va qaysi voqeadan so'ng saylovda saylovda qatnashish uchun talab etiladigan mulk senzi bekor qilinganligini aniqlang.

A) 1791-yilda birinchi Konstitutsiya qabul qilingach
B) 1792-yil 22-sentabrda Fransiya Respublika deb e'lon qilingach
C) 1789-yil 26-avgustda "Inson va fuqoro huquqlari Deklaratsiyasi" qabul qilingach
D) 1794-yil Fransiyada Yakobinchilar diktaturasi ag'darilgach

24. ...Shu tariqa Fransiyada cheklangan monarxiya qaror topdi.Nuqtalar o'rniga to'g'ri gapni qo'ying
A)Poytaxtda hokimiyat inqilobchilar vakillaridan tuzilgan Parij *Kommunasi* (Parij Kengashi)qo'liga o'tdi.
B)1791-yilda Fransiya tarixida birinchi marta mamlakat Konstitutsiyasi qabul qilindi.
C)Parlament qirolni hokimiyatdan mahrum etish va yangi parlament — Milliy. Konventga saylov o'tkazish haqida qaror qabul qilishga majbur bo'ldi
D)14-iyul kuni esa Fransiya mutlaq monarxiyasining tayanchi Bastiliya (davlat qamoqxonasi) egallandi.

25.Fransiyada qabul qilingan qaysi hujjatda feodal to'lovlar butunlay bekor qilingan?
A) 1791-yilgi Konstitutsiya
B) 1793-yilgi Konstitutsiya
C) 1795-yilgi Konstitutsiya
D) "Imtiyozlarni tugatish haqida Dekret"

26. Buyuk fransuz burjua inqilobi davrida qabul qilingan "Inson va Fuqaro huquqlari Deklaratsryasi"da nimalar belgilab qo'yilgan edi?
1) soliqlar va todovlar bekor qilindi; 2) xalqni "hokimiyat manbayi" deb e'lon qilindi;
3) feodal va toifa imtiyozlari bekor qilindi;
4) partiyalar tuzishga ruxsat berildi; 5) so'z, matbuot erkinligi e'lon qilindi: 6) xususiy mulk davlat mulki e'lon qilindi; 7) qirolning huquqlari cheklandi
A) 1, 3, 5, 6 B) 2, 4, 5, 6 C) 2, 3, 5, 7
D) 1, 2, 6, 7

27. 1789-yilda Fransiyada "Inson va Fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi" qabul qilindi. Unda quyidagilardan qaysilari belgilab qo'yilgan edi?
1) soliqlar va to'lovlar bekor qilindi; 2) xalqni hokimiyat manbai deb e'lon qilindi; 3) feodal-toifaviy imtiyozlari bekor qilindi; 4) partiyalar tuzishga ruxsat berildi, 5) so'z, matbuot erkinligi edon qilindi; 6) xususiy mulk daxlsizligi edon qilindi: 7) qirolning daxlsizligi e'lon qilindi
A) 1, 2, 6, 7 B) 2. 4. 5. 7
C) 1, 3, 5, 7 D) 2. 3. 5. 6

28. "Barcha odamlar ozod va teng huquqli bo'lib tug'iladilar" degan so'zlar bilan boshlanadigan Inson va fuqarolar huquqlari Deklaratsiyasi 1789-yilda qaysi mamlakatda qabul qilingan?
A) AQShda B) Italiyada C) Fransiyada
D) Gollandiyada

29.Parlamentga o'tkazilgan saylovda g'olib chiqqan jirondachilar kimlarning manfaatlarini himoya qilar edi
A) mayda va o'rta mulkdorlar
B) qirol va uning tarafdorlari
C) inqilobdan oldin boyib ketgan savdo va sanoat burjuaziyasi
D) inqilob vaqtida boyib ketgan savdo va sanopat burjuaziyasi

30.Quyidagi qaysi partiya a'zolari Fransiyani respublika deb e'lon qilish bilan cheklanish tarafdori bo'lganlar?
A) torilar B) yakobinchilar C) vigilar
D) jirondachilar

31.Qaysi partiya o'z yig'ilishlarini monastir kutubxonasida o'tkazib turgan?
A) torilar B) yakobinchilar C) vigilar
D) jirondachilar

32.Kimlar inqilobning eng keskin tarafdorlari edilar?
A) Dehqonlar B)Shahar kambag'allari
C) Jirondachilar D)Yakobinchilar

33.Yakobinachilar partiyasiga xos bo'lmagan xususiyatni aniqlang.
A) monarxiyaning harqanday shalini tugatish
B) feodal tartiblarni butunlay bekor qilish
C) o'rta va mayda mulkdorlar manfaatini himoya qilish

D) mamlakatni respublika deb e'lon qilish bilan cheklanish

34. Fransiya inqilobiga dushman bo'lgan davlatlarga qarshi g'olibona urush orqali o'zlarining mavqelarini mustahkamlab olmoqchi bo'lgan partiyaning xohishi bilan qirol hamda Qonun chiqaruvchi Majlis qaysi davlatga urush e'lon qildi?
A) Prussiyaga B) Ispaniyaga
C) Avstriyaga D) Buyuk Britaniyaga

35.Kimlarning aybi bilan mamlakatda keskin norozilik kelib chiqdi?
A) yakobinchilarning B) jirondachilarning
C) qirol tarafdorlarining
D) Robespyer tarafdorlarining

36.1792-yil Fransiyada ...
A) Qonun chiqaruvchi Majlis "Vatan xavf ostida" chaqirig'i bilan xalqqa murojaat qildi
B) Milliy Kengash "Ta'sis majlisi"ga aylandi
C) Birinchi konstitutsiya qabul qihndi
D) "Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi" qabul qihndi

37. 1792-yil 10-avgustda ...
A) Fransiya tarixida birinchi marta mamlakat Konstitutsiyasi qabul qilindi.
B) Parijda qurolli qo'zg'olon boshlandi va Fransiyada monarxiya ag'darib tashlandi.
C) Fransiyada «Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi»ni qabul qilindi.
D) qo'shni monarx davlatlar Fransiyaga hujum uyushtirdilar.

38. 1792-yilda yuz bergan voqealardan xatosini aniqlang.
A) 1792-yil 22-sentabrda Fransiya Respublika deb e'lon qilindi.
B) Respublika feodal-toifaviy tengsizlikni bekor qildi.
C)20 yoshga to'lgan erkak fuqarolarga saylov huquqi berildi.
D) Saylovda qatnashish uchun talab etiladigan mulk senzi bekor qilindi.

39. Quyidagi qaysi talablar Fransiyada monarxiya ag'darilib tashlangan davrda (1792-yil) yakobinchilar tomonidan ilgari surilgan?
1) mamlakatdagi boshqaruvni izga solish uchun harbiy huntalar tashkil etish; 2)qirolni darhol sud qilish va qatl etish; 3)Respublika e'lon qilish; 4) feodal qaramlikni butunlay tugatish; 5) inqilobiy diktaturani to'xtatish; 6) chet ellik bosqinchilarga qarshi inqilobiy urush olib borish.
A) 2, 3, 4, 6 B) 2, 3, 5, 6
C) 1, 3, 4, 6 D) 1, 4, 5, 6

40. Buyuk Fransuz burjua inqilobi davrini eslang va qaysi voqeadan so'ng saylovda saylovda qatnashish uchun talab etiladigan mulk senzi bekor qilinganligini aniqlang.
A) 1791-yilda birinchi Konstitutsiya qabul qilingach
B) 1792-yil 22-sentabrda Fransiya Respublika deb e'lon qilingach
C) 1789-yil 26-avgustda "Inson va fuqoro huquqlari Deklaratsiyasi" qabul qilingach
D) 1794-yil Fransiyada Yakobinchilar diktaturasi ag'darilgach

41.AQSh ning birinchi prezidenti saylangan yilda ...
A) Fransiyada qonun chiqaruvchi majlis "Vatan havf ostida" chaqirig'I bilan xalqqa murojaat qildi
B) Fransiya tarixida birinchi marta mamlakat Konstitutsiyasi e'lon qilindi
C) Fransiyada monarxiya ag'darib tashlandi
D) Fransiyada ta'sis majlisi "Inson va fuqoro huquqlari Deklaratsiyasi"ni qabul qildi

42. Oliy hokimiyat chiqargan qonun kuchiga teng qarorni ifodalaydigan so'zni aniqlang.
A) Kommuna B) Dekret C) Konvent
D) Deklaratsiya

43. Lotincha - farmon, qaror ma'nosini ifodalaydigan so'zni qayd eting.
A) Kommuna B) Dekret C) Konvent
D) Deklaratsiya

44. XVIII asrda shaharning o'zini-o'zi boshqarish organi Fransiyada qanday nom bilan atalgan?
A) kommuna B) dekret
C) konvent D) meriya

45. Fransiyada mamlakat hayotiga oid biror-bir muhim masalani hal etish uchun oliy vakolat berilgan va shu tufayli parlament vazifasini bajaruvchi majlis nomini qayd eting.
A) Oliy kengash B) Milliy majlis
C) Ta'sis majlisi D) Oliy majlis

46. Qaysi ibora fransuzchadan «umumiy» degan ma'noni beradi?
A) meriya B) konvent C)dekret
D) kommuna

### 16- §. Buyuk Fransuz burjua inqilobining yakunlari va tarixiy ahamiyati.

1.Lyudovik XVI vafotidan so'ng qaysi davlat monarxlarining bosqinchilik hujumi kuchayadi?
1) Avstriya; 2) Prussiya; 3) Rossiya;
4) Ispaniya; 5) Italiya; 6) Angliya.
A) 1,2,4,6 B) 1,2,3,5 C) 2,3,5,6
D) 3,4,5,6

2. Nima uchun jirondistlarga qarshi dehqonlarning isyoni boshlandi?
A) jamoa mulkchiligini bekor qilinishi
B) mamlakat janubida yerlarning shahar burjuaziyasiga sotilayotganligidan va qirolning qatl etilishi
C) dehqonlar uchun qo`shimcha soliqlarni joriy qilinishi
D) respublika tuzumini o`rnatilishi

3. Qachon jirondistlar hokimiyati ag`darildi?
A) 1793-yil 2-iyun B) 1789-yil 17-iyun
C) 1789-yil 9-iyul D) 1792-yil 10-avgust

4.1793-yil sentabrida Fransiyada ...
A) "Shubhali kishilar to'g'risida" qonun qabul qilindi
B) jirondistlar hokimiyati ag'darildi
C) Danton tarafdorlari qamoqqa olindi
D) "Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi" qabul qilindi

5. «Shubhali kishilar to`g`risida» qonun, yakobinchilar fikricha, «shubhali» deb hisoblangan barcha kishilarni to tinchlik o`rnatilgunicha qamoqqa olish va saqlashni ko`zda tutardi. Aslida ...
A) barcha siyosiy partiyalar ta'qiqlab qo`yildi.
B) yakobinchilar o`z raqiblaridan terror yo`li bilan qutilmoqchi edi.
C) chet el fuqarolari mamlakatdan chiqarib yuborildi.
D) barcha mamlakat fuqarolari hukumat siyosatini so`zsiz qo`llab-quvvatlashi kerak edi.

6. Yakobinchilar ichida qaysi masalada yagona birlik yo`q edi?
A) iqtisodiy siyosat B) ijtimoiy siyosat
C)tashqi siyosat D) ichki siyosat

7. Yakobinchilarni qaysi omil birlashtirib turgan?
A) chet el bosqinchilariga qarshi kurash va mamlakat ichkarisidagi isyonlarni bostirish zaruryati
B) mamlakat Konstitutsiyasini qabul qilish zaruriyati
C) qo`shinni mustahkamlash zaruriyati
D) feodal to`lovlarni kamaytirish zaruriyati

8. Quyidagi qaysi shaxs Buyuk fransuz burjua inqilobi davrida «shafqatlilar» guruhiga rahbarlik qilgan?
A) Eber B) Robespyer C) Danton D) Shomett

9. Yakobinchilardan Danton nimalarni talab qila boshladi?
A) «Shubhali kishilar to`g`risida» qonunni qabul qilishni
B) monarxiyaga qaytishni
C) inqilobiy diktaturani to`xtatishni, konstitutsiyaviy tartibga qaytishni, terrordan voz kechishni
D) respublika tuzumini o`rnatishni

10.Quyidagi qaysi shaxs siyosiy kurash-larda qonli usul orqali raqiblarini yo'qotish bilan o'z shaxsiy halokatini ham tayyorlab borgan?
A) Yelizaveta I B) Avrangzeb C) Nurxachi
D) M.Robespyer

11. 1794-yili Fransiya Konventi M.Robespyerni qonundan tashqari deb e`lon qiladi, bu sudsiz qatl etish degani edi. Yakobinchilar diktaturasining ag'darilishi

jarayonida qancha odam qatl etilganligini aniqlang
A) 50 ga yaqin kishi qatl etildi
B) 100 ga yaqin kishi qatl etildi
C) 100 dan ortiq kishi qatl etildi
D) 15 kishi qatl etildi

12. Qachon Konvent M. Robespyerga qarshi ayblov e'lon qildi va uni qamoqqa oldi?
A) 1799-yilning 19-noyabrida
B) 1793-yilning 5-sentabrida
C) 1793-yilning 2-iyunida
D) 1794-yilning 27-iyulida

13. 1795-yilda Fransiya Konventi qabul qilgan Konstitutsiya qanday o'zgarishlarni amalga oshirdi?
1) Respublika tuzumini mustahkamlandi;
2) Ma'lum miqdordagi feodal tartiblar saqlab qolindi; 3) Feodal tartiblarni tugatish haqidagi barcha qarorlar tasdiqlandi; 4) Ikki palatali parlament joriy etildi; 5) Burjuaziya va monarxiyachilar ittifoqi mustahkamlandi;
6) Mamlakatda yagona konsullik lavozimi joriy etildi.
A) 2, 4, 6 B) 3, 5, 6 C) 1, 5, 6 D) 1, 3, 4

14. Ma'lumki, Fransiyada 1795-yilda Konvent yangi Konstitutsiya qabul qildi. U mamlakatda ..
A) monarxiyani qayta tikladı.
B) cheklangan monarxiya o`rnatdi.
C) feodal tartiblarni qisman bekor qildi.
D) respublika tuzumini mustahkamladi.

15. Fransiyada kimlar o'z imtiyozlaridan to'la mahrum bo'lgan holda 1799-yilda isyon ko'tardilar?
A) respublika tarfdorları
B) monarxiya tarfdorlari
C) Robespyer tarafdorları
D) burjuaziya tarafdorları

16.Qaysi javobda Buyuk fransuz inqilobi davrida Fransiya siyosiy tizimidagi o'zgarishlarning to'g'ri ketma-ketligi berilgan?
1) Direktoriya boshqaruvining o'rnatılishi;
2) hokimiyatning yakobinchilar qo'liga o'tishi;
3) monarxiyaning qulashi va Fransiyaning respublika deb e'lon qilinishi; 4) yakobinchilar diktaturasining qulashi; 5) hokimiyatning uch kishidan iborat konsullik qo'liga o'tishi.
A) 2, 5, 1, 4, 3 B) 2, 4, 5, 3, 1
C) 3, 2, 4, 1, 5 D) 1, 2, 3, 4, 5

17. Qaysi mamlakatdagi burjua inqilobi haqida gap borganda " Buyuk" so'zi qo'shib ishlatiladi?
A) Rossiya B) Niderlandiya
C) Fransiya D) Angliya

18. Qaysi yillarda Buyuk fransuz inqilobi davrida konstitutsiya qabul qilingan?
A) 1791-y, 1793-y, 1795-y.
B) 1789-y, 1792-y, 1794-y.
C) 1791-y, 1792-y., 1795-y.
D) 1792-y, 1794-y, 1795-y.

19. 1799-yil 9-noyabrda ...
A) M. Robespyer va uning tarafdorlari qamoqqa olindi va qatl etildi.
B) Napoleon Bonapart Avstriyani tinchlik shartnomasi tuzishga va Fransiyaning g`alabasini tan olishga majbur qildi.
C) monarxiya tarafdorlari isyonini Napoleon Bonapart bostirdi.
D) Fransiyada davlat to`ntarishi amalga oshirildi.

20. 1799-yil 9-noyabrdan keyin Fransiyada tuzilgan Konsullik hukumati necha kishidan iborat bo`ldi?
A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

21. Buyuk fransuz burjua inqilobining tarixiy ahamiyatini qayd eting
1) o`rta asr feodal tartiblarini to`la bekor qilgan; 2) kishining kishiga shaxsan qaramligini tugatdi; 3) monarxiyaning hech qanday ko`rinishi bilan murosa qilmadi,
4) Fransiyada respublika tuzumi qaror topdi;
5) burjuaziya dvoryanlarni yengdi;
6) eski jamiyat va davlat tuzumini to`la buzib tashlandi.
A) 1, 2, 3, 4, 5, 6 B) 1, 3, 5, 6 C) 2, 4, 6
D) 1, 2, 6

22. Angliya burjua [illegible] burjuaziya va dvoryanlar kelishuvi [illegible] yakunlangan bo'lsa, Fransiyada
[illegible] qirol bilan burjuaz[illegible] kelishuvga erishdi.

B) monarxiya bilan murosa qilindi.
C) burjuaziya dvoryanlarni yengdi.
D) eski jamiyat va davlat tuzumi to`la saqlab qlindi.

23. Konsul lotınchadan qanday ma'noni bildıradi?
A) farmon, qaror
B) umumiy
C) maslahatchi
D) ma'lum qilaman

24. 1799-yilda Fransiyada tashkil etilgan oily ijroiya, sud va qisman qonun chiqaruvchi hokimiyatni o`z qo`lida to`plagan mansabdor shaxs qanday nom bilan atalgan?
A) Konsul B) Diktator C)Regent
D) Protektorat

25. Bir davlatning boshqa davlat hududida o`z mamalakati fuqarolari manfaatlarini himoya qilish, ikki davlat o`rtasida siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishga yordam berish uchun tayinlanadigan mansabdor shaxsni qayd qiling.
A) Diktator B) Regent C)Konsul
D) Protektorat

### 17- §. XVI—XVIII asrlarda Germaniya imperiyasi.

1. XVI asrga kelib Germaniyaning Gollandiya va Fransiya kabi davlatlardan orqada qolib ketganligining asosiy sababi nima?
A) siyosiy tarqoqlik
B) Rossiyaga qaram bo'lib qolganligi
C) fransuz va inglizlar tomonidan bosib olinishi
D) quldorlik tuzumining saqlanib qolganligi

2. Nima uchun Germaniya XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab iqtisodiy taraqqiyotda Angliya, Gollandiya va Fransiya kabi davlatlardan orqada qolib, iqtisodiy tushkunlik boshlandi?
A) mustamlakalarga ega emasligi
B) burjuaziyaning taraqqiy etganligi
C) krepostnoylıkning taraqqiy etganligi
D) Germaniyaning 300 dan ortiq mayda-mayda knyazliklarga bo`linib ketganligi

3. Ma'lumki, Shimoliy Italiya va uning vositachiligidagi Sharqning G'arbiy Yevropa bozorlari bilan aloqalari Germaniya yerlaridan o'tardi. Bu jarayon nechanchi asrgacha davom etgan?
A) XV asr oxirigacha
B) XVI asr o'rtalarigacha
C) XVI asr boshlarigacha
D) XVI asr oxirlarigacha

4. XVI asr o'rtalarigacha Shimoliy Italiya va uning vositachiligida butun Sharqning G'arbiy Yevropa bilan aloqalari qayerdan o'tgan?
A) Konstantinopol B) Oltin O'rda
C) Germaniya D) Venetsiya

5. Yangi tarixning birinchi davrida Germaniya imperiyasida iqtisodiy tushkunlik boshlangan davrni aniqlang.
A) XVI asrning ikkinchi yarmidan
B) XVI asrning birinchi yarmidan
C) XV asrning ikkinchi yarmidan
D) XVI asrning boshlaridan

6. XVI asrning ikkinchi yarmiga kelib Germaniya orqali o'tadigan savdo yo'llari o'z ahamiyatini yo'qota boshlagan edi. Buning asosiy sababini ko'rsating.
A) dengiz savdo yo'llarining O'rta Yer dengiziga ko'chirilganhgi
B) dengiz savdo yo'llarining Atlantika okeaniga ko'chirilganligi
C) quruqlikdagi yo'llarning Turkiya orqali o'tganligi
D) dengiz savdo yo'llarining Hind orqali ko'chirilganhgi

7. XVI-XVII asrlarda Germaniyaning xalqaro miqyosdagi iqtisodiy rolini nima belgilab berardi?
A) uning oltin ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallab kelganligi
B) uning mis ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallab kelganligi
C) uning po'lat ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallab kelganligi
D) uning qalay ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallab kelganligi

8. XVI-XVII asrlarda Germaniya misining ahamiyatiga jiddiy putur yetkazgan voqeani aniqlang.
A) Amerikadan Yevropaga katta miqdorda mis keltirilishi
B) Amerikadan Yevropaga katta miqdorda oltin va kumushning keltirilishi
C) Rossiyadan metal va rangli metallarning Germaniyaga ko'proq keltirilishi
D) Hindistondan Yevropaga oltinning katta miqdorda keltirilishi

9.Quyidagi qaysi davlat ichki siyosiy tarqoqlik natijasida XVII asrning ikkinchi yarmida Yevropaning kuchli davlatlari qo`lida qo'g'irchoqqa aylanib qoldi?
A) Fransiya B) Turkiya C) Shvetsiya
D) Germaniya

10. Germaniyada o'rta asrlarda manufaktura ishlab chiqarishining holati to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.
A) manufaktura, ishlab chiqarishi faqat qishloq bilan cheklanib qolgan edi
B) manufaktura ishlab chiqarishi ahamiyatsiz edi
C) manufaktura ishlab chiqarishi faqat shahar bilan cheklanib qolgan edi
D) manufaktura ishlab chiqarishi Germaniyada mavjud bo'lmagan

11. Nima uchun XVI asrda Germaniyada manufaktura ishlab chiqarishi qishloqqa yoyilmadi?
A) dehqonlarning feodalga bo`g`lab qo`yilganligi
B) siyosiy tarqoqlik
C)Qishloqda natural xo jalik munosabatlari hukm surganligi
D) dengiz savdo yo`llarining Atlantika okeaniga ko`chganligi

12. Qaysi hol Germaniyada o`rta asr feodal munosabatlarining uzoq va mustahkam saqlanib qolishiga olib keldi?
A) bo`lib o`tgan Buyuk dehqonlar urushi va bu urushda dehqonlarning yengilishi
B) Qishloqda natural xo`jalik munosabatlari hukm surganligi
C) Germaniyada manufaktura ishlab chiqarishi faqat shahar bilan cheklanib qolganligi
D) dengiz savdo yo`llarining Atlantika okeaniga ko`chganligi

13. Germaniyada qachon Buyuk dehqonlar urushi bo`lib o`tgan?
A) 1572-1576-yillarda
B) 1526-1528-yillarda
C) 1618-1648-yillarda
D) 1524-1526-yillarda

14. Germaniya o`ttiz yillik urushda qaysi yillarda ishtirok etdi?
A) 1524-1554-yillar B) 1616-1646-yillar
C) 1524-1526-yillar D) 1618-1648-yillar

15. Yangi tarixning birinchi davrida Yevropa davlatlari o'rtasidagi o'ttiz yillik urushdan so'ng qaysi davlat siyosiy gegemonlikni qo'lga kiritgan?
A) Fransiya B) Angliya C) Ispaniya
D) Shvetsiya

16.Yevropada XVII asrda yuz bergan 30 yillik urush oqibatida Germaniya ...
A) Yevropada siyosiy gegemoidikni qo'lga kiritdi.
B) Boltiq bo'yida hukmronlik o'rnatish borasida katta imkoniyatni qo'lga kiritdi.
C) Iqtisodiy va siyosiy tanazzulga yuz tutdi, siyosiy parokandalik yanada kuchaydi
D) Yevropaning buyuk davlatlaridan biriga aylandi.

17.XVII asr ikkinchi yarmida Germaniyaga dushmanlik kayfiyati bilan qaragan davlatlarni aniqlang.
A) Shvetsiya, Turkiya, Fransiya
B) Avstriya, Daniya, Gollandiya
C) Angliya, Fransiya, Ispaniya
D) Italiya. Avstriya, Rossiya

18. Germaniya 1806-yilgacha nima deb atalgan?
A) "Germaniya millatinmg muqaddas davlati"
B) "Germaniya millatining buyuk davlati"
C) "Germaniya millatining Muqaddas Rim imperiyasi"

D)"Germaniya imperiyasi"

19. XVI-XVIII asrlarda Germaniyada aholi kimning fuqarolari edilar?
A) imperatorning B) knyazliklarning
C) Rim Papasining
D) mahalliy feodallarning

20. XVI-XVIII asrlarda Germaniyada Gabsburglar sulolasidan bo`lgan imperator o'zining qayerdagi yerlaridan tashqarida hech qanday real hokimiyatga ega emasdi?
A) Vengriyadagi B) Polshadagi
C) Avstriyadagi D) Daniyadagi

21. Qaysi sabab XVII asrning ikkinchi yarmida Germaniyani Yevropaning buyuk davlatlari qo`lida qo`g`irchoqqa aylantirib qo`ydi?
A) ichki siyosiy tarqoqlik
B) natural xo`jalik
C) Rim Papasiga tobelik
D) o`ttiz yillik urushdagi mag`lubiyat

22. Qaysi davlat XVII asrning ikkinchi yarmida Strasburg va Reyn daryosining chap qirg`oq yerlariga ega bo`lib oldi?
A) Polsha B) Fransiya C) Shvetsiya
D) Daniya

23. Qachon Germaniya knyazliklari Turkiya bosqiniga qarshi kurashish uchun tarixda birinchi marta yakdil qaror qabul qildilar va milliy ozodlik qo`shinini tuzdilar?
A) 1618-yilda B) 1683-yilda
C) 1648-yilda D) 1685-yilda

24. Qaysi yili Germaniya knyazliklari tomonidan Vena ostonalarida turklarning qo`shini tor-mor keltirildi?
A) 1685-yilda B) 1683-yilda
C)1648-yilda D) 1618-yilda

25. Germaniya knyazlarining milliy ozodlik qo'shini tuzilgan yili bo'lgan voqeani aniqlang.
A) Charxpalak bilan harakatga keltiriladigan yigiruv mashinasi yaratildi
B) Fransiyada birinchi konstitutsiya qabul qilindi
C) Germaniya Vena ostonalarida turklar qo'shinini tor-mor qildi
D) Ubaydullaxon II pul islohoti o'tkazdi

26. Germaniyaning qaysi g`alabasi Markaziy Yevropani turklar bosqinidan saqlab qolish imkonini berdi?
A) Regensburg ostonalarida turklarning qo`shini tor-mor keltirilishi
B) Vena ostonalarida turklarning qo`shini tor-mor keltirilishi
C) Vets ostonalarida turklarning qo`shini tor-mor keltirilishi
D) Berlin ostonalarida turklarning qo`shini tormor keltirilishi

27. XVII-XVIII asrlarda Germaniya knyazliklari ichida eng kuchli davlatlar edi?
A) Avstriya va Brandenburg
B) Bovariya va Reyn-Vestfaliya
C) Prussiya va Tyurengiya
D) Saksoniya va Shlezvig-Golshteyn

28. XVII-XVIII asrlarda Avstriya va Branden-burgni qaysi sulola boshqarardi?
A) Gabsburglar va Lyuksemburglar
B) Shtaufenlar va Lyuksemburglar
C) Saksoniya va Frankoniya
D) Gabsburglar va Gogensollernlar

29. XVII-XVIII asrlarda Avstriyani poytaxti qaysi shahar edi?
A) Berlin B) Gamburg C) Vena
D) Yudenburg

30. XVII-XVIII asrlarda Brandenburgni poytaxti qaysi shahar edi?
A) Berlin B) Vena C) Gamburg
D) Myunxen

31. XVII asrda Brandenburg knyazligida qaysi gersogligi yetakchi mavqega ega bo`lib oldi?
A) Bovariya B) Shlezvig-Golshteyn
C)Saksoniya D) Prussiya

32. Qachon va qaysi knyazlik o`rnida Prussiya qirolligi tashkil topdi?
A) 1701-yilda Bovariya
B) 1701-yilda Branderburg
C) 1701-yilda Saksoniya

D) 1701-yilda Shlezvig-Golshteyn

33. Ma'lumki XVIII asr boshida Fridrix III Fridrix I nomi bilan Prussiya qiroli deb e'lon qilindi Fridrix III qayerning knyazi edi?
A) Brandenburg B) Shlezvig-Golshteyn
C) Saksoniya D) Bovariya

34. Qaysi davrdan boshlab qulay xalqaro sharoit va boshqa nemis knyazliklarining kuchsizligidan foydalangan Prussiya qudratli davlatga aylana bordi?
A) XVIII asr birichi yarmida
B) XVIII asr o'rtasida
C) XVIII asr boshida
D) XVIII asr oxirida

35. XVIII asr oxirida Prussiya maydoni va qo'shini soni jihatidan Yevropada nechanchi o'rinni egalladi?
A) birinchi va ikkinchi
B) ikkinchi va uchunchi
C) to'rtinchi va beshinchi
D) uchinchi va to'rtinchi

36. Fridrix II qaysi yillarda Prussiyada hukmronlik qilgan?
A) 1640-1688-yillar B) 1740-1786-yillar
C) 1713-1740-yillar D) 1701-1713-yillar

37. Prussiya kimning davrida mutlaq monarxiyaga aylandi?
A) Fridrix Avgust I B) Fridrix III
C) Fridrix I D) Fridrix II

38. Qaysi qirollik XVIII asr boshida Germaniya hududida tashkil topgan bo'lib, XIX asr oxirida mamlakatning yagona davlat bo'lib birlashishida katta rol o'ynagan?
A) Brandenburg qirolligi
B) Prussiya qirolligi
C) Vestfaliya qirolligi
D) Avstriya qirolligi

39. 18-asr oxirida Yevropada maydoni jihatidan uchinchi, qo'shin soni jihatidan to'rtinchi o'rinni egallagan davlatni belgilang.
A) Prussiya B) Germaniya
C) Angliya D) Fransiya

40. Qaysi ibora haqiqatan ham mavjud bo'lgan; amalga oshadigan; bajarilishi mumkin bo'lgan so'zlarni ifodalaydi?
A) real B) absolyut C) veto D) edikt

## 18- §. Rossiya imperiyasining tashkil topishi.

1. XVII asr Rossiya iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatini qayd eting.
1) shahar hunarmandchiligi mayda tovar ishlab chiqarishga aylana boshlashi;
2) manufakturalar vujudga keldi; 3) g'alla hamma yerda tovarga aylandi; 4) pomeshchiklar qishloq xo'jalik mahsulotlari savdosi bilan shug'ullana boshla-dilar; 5) obrok pul bilan olina boshlandi; 6) kapitalistik munosabatlar shakllana bordi; 7) Rossiyada yagona bozor tarkib topdi; 8) tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi.
A) 1, 3, 4, 5, 7 B) 2, 4, 6, 8 C) 1, 3, 5, 7
D) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8

2.Rossiyada natural xo'jalik negizlariga zarba bergan omillar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
1) hunarmandlarning bozor uchun mahsulot ishlab chiqarishga o'tishi; 2) mamlakatning yagona markazga birlashishi; 3) g'allaning hamma yerda tovarga aylanishi; 4) ayrim pomeshchiklarning qishloq xo'jalik mahsulotlari savdosi bilan shug'ullana boshlashi; 5) fabrika ishlab chiqarishga o'tishi; 6) obrok mahsulot bilan emas, balki pul bilan olina boshlanishi; 7) krepostnoylikning bekor qilinishi
A) 2, 3, 6. B) 1, 3, 5, 7
C) 1, 3, 4, 6 D) 2, 3, 4, 7

3. Quyidagi qaysi omil Butunrossiya yagona ichki bozorning tarkib topishiga olib kelgan ?
A) bozorda sotish uchun tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi
B) hunarmandchilikning rivojlanishi
C) shaharlarning gullab-yashnashi
D) ichki savdoning rivojlanishi

4. Rossiya tarixida qachon shaharlarning rivojlanishi boshlangan?
A) XV asrda B) XVI asrda C) XVII asrda
D) XVIII asrda

5. XVII asrda Rossiyada qaysi shaharlar savdo-sanoat markazlariga aylana bordi?
A) Olonets, Ladoga, Novgorod, Uglich, Galich
B) Xlinov, Arxangelsk, Toropes, Nijniy Novgorod, Saratov
C) Yelets, Chernigov, Kursk, Samara, Kaluga
D) Novgorod, Yaroslavl, Pskov, Qozon, Nijniy Novgorod

6. Qachon Rossiyada manufakturalar paydo bo`ldi?
A) XVI asrda B) XVII asrda
C) XVIII asrda D) XV asrda

7. Nima sababdan Rossiya iqtisodiy taraqqiyotda G`arbiy Yevropa mamlakatlaridan orqada edi?
A) chet el savdogarlarining rus bozorlarida chakana savdo qilishlari taqiqlanishi sababli
B) chet el savdogarlarining rus bozorlarida chakana savdo qilishlari imtiyozlari yaratilishi sababli
C) krepostnoylik tartiblarining tobora mustahkamlanganligi sababli
D) savdogarlardan haddan tashqari ko`p miqdorda soliq undirilishi sababli

8.Dvoryanlar o'zlari egalik qilayotgan yer-mulklarni otameros mulkka (votchina) aylantirish huquqiga ega bo'lishi qaysi qonunda belgilab qo'yilgan?
A) krepostnoy huquqni bekor qilish to'g'risidagi qonunda
B) Sobor nizomida
C) Sudebnik to'g'risidagi qonunda
D) To'g'ri javob yo'q

9. Rossiyada Zemstvo sobori qabul qilgan (1649-yil) yangi nizomga ko'ra...
A) krepostnoylik huquqi bekor qilindi
B) dvoryanlar o'zlari egalik qilayotgan yer-mulklarini votchinaga aylantirish huquqiga ega bo'ldilar
C) Rossiyada konstitutsion monarxiya qaror topdi
D) chet el savdogarlarining rus bozorlarida chakana savdo qilishlari taqiqlandi

10.1649-yilgi Zemstvo soborining yangi Nizomi mohiyati qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) dehqonlar dvoryanlardan uzil-kesil ozod etildi
B) dvoryanlar o'zlari egalik qilayotgan yer-mulklarni votchinaga aylantirish va meros qoldirish huquqiga ega bo'ldilar
C) dehqonlarning xo'jayindan xo'jayinga o'tishi bekor qilindi
D) dvoryanlarning o'zlari egallab turgan yerlarini votchinaga aylantirislilari ta'qiqlandi

11. Rossiyada mutlaq monarxiyaning to`la qaror topishi kimning nomi bilan bog`liq?
A) Ivan IV ning
B) Yekaterina II ning
C) M.F.Romanovning D) Pyotr I ning

12. Pyotr I kimning o`g`li edi?
A) Fyodor Nikitichning
B) Aleksey Mixaylovichning
C) Fyodor Ivanovichning
D) Mstislav Vladimirovichning

13. Qachon Pyotr I Rossiya taxtiga o`tirdi?
A) 1689-yilda B) 1700-yilda
C) 1684-yilda D) 1721-yilda

14. Pyotr I tashqi siyosatining asosiy maqsadlaridan biri ...
A) G`arbiy Yevropa davlatlari bilan savdo-sotiq ishlarini bevosita davlat ixtiyoriga o`tkazish edi.
B) Rossiyani harbiy-dengiz flotiga ega davlatga aylantirish edi.
C) Angliya bilan munosabatlarni tartibga keltirish edi.
D) Yevropa va Sharq bilan olib boriladigan savdo-sotiqda imtiyozga ega bo`lish edi.

15. Qaysi javobda Rossiya podshosi Pyotr I Shvetsiyaga qarshi kurashish uchun ittifoq tuzishga muvaffaq bo'lgan davlatlar nomi keltirilgan?
A) Belgiya va Gollandiya
B) Daniya va Polsha
C) Angliya va Gollandiya
D) Fransiya va Avstriya

16. XVIII asrning 1-yarmida Rossiya Boltiq dengiziga chiqish imkoniyatiga qaysi davlat ustidan qozonilgan g'alaba evaziga erishdi?
A) Daniya B) Polsha C) Turkiya D) Shvetsiya

17. Qaysi javobda Rossiya imperatori Pyotr I amalga oshirgan islohotlar ko'rsatilgan?
1) krepostnoylik huquqi bekor qilindi;
2) Rossiya guberniyalarga bo'lindi; 3) "Xalq Vechesi" parlamenti tuzildi; 4) Senat tuzildi;
5) tabaqalanish tugatildi; 6) zamonaviy qo'shin tuzdi.
A) 1. 3. 5 B) 4, 5, 6 C) 1, 2, 3 D) 2, 4, 6

18. Qaysi javobda keltirilgan voqea Rossiya podshosi Petr I faoliyati natijalari bilan bog'liq emas?
A) Shimoliy urushdagi g'alaba
B) Rossiyaga Ukraina va Sharqiy Belorussiyaning qocshib olinishi
C) Boltiq dengizi qirg'oqlarining egallanishi
D) Rossiya imperiyasining tashkil topishi

19.Pyotr I davrida quyidagi qaysi organga qonunlar loyihasini tayyorlash va davlat muassasalari faoliyatini nazorat qilish vakolatlari yuklatildi?
A) Zemstvo soboriga B)Boyarlar dumasiga
C) Senatga D) Kollegiyaga

20. Rossiya XVIII asrning birinchi yarmida qaysi davlat ustidan qozonilgan g'alaba evaziga Boltiq dengiziga chiqish imkoniyatini qo'lga kiritdi?
A) Turkiya B) Shvetsiya C) Polsha
D) Daniya

21. Poltava jangi qaysi urush taqdirini hal etdi?
A) «Yuz yillik urush»
B) «O'ttiz yillik urush»
C) «Shimoliy urush»
D) «Muz ustidagi urush»

22. Paltava shahri hozirgi qaysi hududga to'g'ri keladi?
A) Finlandiya B) Shvetsiya C) Ukraina
D) Rossiya

23. 1721-yilda Rossiya-Shvetsiya o'rtasidagi shartnoma qaysi mamlakatning qaysi shahrida imzolangan?
A) Niderlandiyaning Amsterdam shahrida
B) Vengriyaning Budapesht shahrida
C) Finlandiyaning Nishtadt shahrida
D) Germaniyaning Nyurnberg shahrida

24. 1721-yilda Rossiya tarixida qanday muhim voqea yuz berdi?
A) Nishtadt shartnomasi imzolandi. Pyotr I imperator deb e'lon qilindi.
B) Pyotr I taxtga o'tirdi, Nishtadt shartnomasi imzolandi.
C) Yekaterina II taxtga o'tirdi, Pugachyov qo'zg'oloni boshlandi.
D) Rossiya-Turkiya urushi boshlandi, Pyotr I vafot etdi.

25. Pyotr I davrida Senatga ...
A) qonun chiqarish va hukumatni boshqarish vakolati yuklatildi.
B) guberniyalarni boshqarish vakolati yuklatildi.
C) faqat armiyani boshqarish vazifasi yuklatildi.
D) ta'lim va maorifni boshqarish ishlari yuklatildi.

26. Pyotr I quyidagi islohotlardan qay birini amalga oshirmadi?
1) krepostnoylikni bekor qildi; 2) dehqonlarni to'lov evaziga ozod qildi; 3) boyarlar mavqeini tikladi; 4) Rossiya ma'muriy boshqaruv jihatidan gubernyalarga bo'lindi; 5) Senat tuzildi; 6) Qo'shinda harbiy xizmat umrbod muddatda o'taladigan bo'ldi.
A) 4, 5, 6 B) 1, 2, 3 C) 1, 2, 3, 4, 5, 6
D) 2, 4, 6

27. Pyotr I vafotidan so'ng XVIII asr oxiriga qadar qaysi yillar orasida va necha nafar Roraanovlar sulolasi vakillari imperatorlik qilishdi?
A) 1725-1799-yilgacha, 7 nafar
B) 1726-1800-yilgacha, 6 nafar
C) 1725-1800-yillar orasida. 8 nafar
D) 1725-1798-yillar orasida, 9 nafar

28. Yekaterina II Imperatorligi davrida Rossiyada qanday tuzum hukmron edi?

A) burjua B) krepostnoy
C) sotsialistik D) kapitalistik

29.Rossiyaning qaysi hukmdori davrida Ye.Pugachyov boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tarilgan?
A) Yekaterina II B) Pyotr I
C) Yekaterina I D) Fyodor Ivanovich

30.Yekaterina II ning hukrnronlik davri qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) 1725-1800-yy. B) 1726-1780-yy.
C) 1762-1796-yy. D) 1773-1775-yy.

31. Quyidagi tarixiy voqealardan qaysi biri Rossiyada Yekaterina II hukmronlik etgan davrdan oldin sodir bo'lgan?
A) Rossiya Yevropaning qudratli davlatlaridan biriga aylandi va Boltiq dengiziga chiqish imkoniga ega bo'ldi.
B) Qirim xonligi qo'shini tor-mor etildi.
C) Polsha va Buyuk Litva knyazligi ittifoqi asosida tashkil topgan Rech-Pospolitaning bir qismi Rossiyaga o'tdi.
D) Rossiya Turkiyani "Kuchukqaynarji shartnomasi"ni imzolashga majbur etdi.

32. Pugachyov qo'zg'oloni qaysi yillari bo'lib o'tgaii?
A) 1762-1796-yy. B) 1773-1775-yy.
C) 1627-1698-yy. D) 1768-1774-yy.

33. Pugachyov boshchiligidagi qo'zg'olon kim tomonidan shafqatsiz ravishda bostirilgan?
A) Pyotr I tomonidan
B) Ivan Grozniy tomonidan
C) Nikolay I tomonidan
D) Yekaterina II tomonidan

34. Yemelyan Pugachyovning qismati nima bilan tugadi?
A) u hukumat tornonidan surgun etildi
B) u umrbod qamoq jazosiga malikum etildi
C) uni hukumat qatl etdi
D) uni gunohi yo'qligi uchun ozod etishdi

35.Rossiya Qora dengiz bo'yida harbiy flot qurish huquqini qo'lga kiritgan shartnomani aniqlang.
A) Buxarest B) Guliston C) Nishtatd
D) Kuchukqaynarji

36. Rossiya-Turkiya o'rtasidagi Kuchukqaynarji sulh shartnomasiga ko'ra...
1) Rossiya Qora dengiz bo'yida harbiy flot qurish huquqini qo'lga kiritdi. 2) Turkiya Qora dengiz bo'ylarida harbiy flot saqlash huquqini qo'lga kiritdi. 3) Rossiya Qrim xonligini Turkiyaga topshirdi. 4) Rossiyaning savdo kemalari O'rta yer dengiziga olib chiquvchi Qora dengiz bo'g'ozlari-dan hech qanday to'siqsiz o'ta olish huquqiga ega bo'ldi.
5) Rossiya Turkiyaga katta hajmda kontributsiya to'lovi ni yukladi.
A) 1,3 B) 3,4 C) 1,5 D) 1, 4

37.Quyidagi qaysi hukmdor davrida Rossiya tashqi siyosatda qator yirik muvaffaqiyatlarga erishdi?
A) Pyotr I B) Nikolay I C) Yekaterina II
D) Aleksandr II

38. 1783-yilda ...
A) Qrim xonligi qo'shinlari tor-mor etildi va Rossiya tarkibiga qo'shib olindi.
B) Rossiya-Turkiya uruslii kelib cliiqa boshladi.
C) Rossiyani kuch U dengiz davlatiga aylantirish uchun kurash boshlandi.
D) Rossiya Xiva xonligiga harbiy ekspeditsiya uyushtirdi.

39. 1791-1795-yillar davomida Rossiyaga bo'ysundirilgan Rech Pospolita qaysi davlatlar ittifoqi asosida paydo bo'lgan edi?
A) Chexiya knyazligi va Buyuk Moraviya qirolligi
B) Polsha qirolligi va Buyuk Latviya knyazligi
C) Bulg'or xonligi va Polsha qirolligi
D) to'g'ri javob berilmagan

40. 1791-1795-yillarda Rossiya tarkibiga o'tgan hududni ko'rsating.
A) Qrim xonligi B) G'arbiy Sibir
C) Rech Pospolitaning bir qismi
D) Azov dengizi bo'ylari

41. 13 shtat vakillari Filadelfiya shahrida I Kontinental Kongressida Buyuk Britaniyaning majbur etuvchi qonunlariga itoat etish majburiy emasligi haqida qaror

qabul qilingan yilda Rossiya tarixida quyidagi voqealarning qaysi biri yuz bergan?
A) Polsha qirolligi va Buyuk Litva knyazligi ittifoqi asosida tashkil topgan Rech-Pospolitaning bir qismi Rossiya tarkibiga o'tdi
B) Pugachyov boshchiligida qo'zgolon boshlandi
C) Rossiya Turkiyani "Kuchukqaynarji" shartnomasini imzolashga majbur etdi
D) Qrim xonligi tor-mor qilinib Rossiya tarkibiga kiritildi

42. AQSh va Buyuk Britaniya o'rtasida tinchlik shartnomasi imzolangan yilda Rossiya tarixida quyudagi voqealarning qaysi biri sodir bo'lgan?
A) Qrim xonligi tor-mor qilinib Rossiya tarkibiga kiritildi
B) Turkiya bilan Rossiya manfaatlari yo'lida "Kuchukqaynarji" shartnomasi imzolandi
C) Rech-Pospolitaning bir qismi Rossiya tarkibiga kiritildi
D) Pugachyov boshchiligida qo'zgolon boshlandi

43. Qaysi javobda "rekrut" tarixiy atamasining mohiyati to'g'ri ko'rsatilgan?
A) harbiy hizmat evaziga in'om etilgan yer
B) tovarlarni donalab yoki maydalab tortib sotish va sotib olish
C) mansabdor shaxslarni shaxsiy boyish maqsadida sotilishi
D) soni oldindan belgilab qo'yilgan dehqonlar va posad xonadonlaridan bittadan kishini soldatlikka olish

44. Quyidagi qaysi ibora tovarlarni donalab yoki maydalab tortib sotish va sotib olishni ifodaydi?
A) dividend B) chakana savdo
C) aksiyadorlik D) negosiant

## II-bob.XVI-XVIII asrlarda Osiyo mamlakatlari.

### 19- §. XVI—XVIII asrlarda Hindiston.

1. XVI asr boshida Hindistonda qanday ahvol hukm surardi?
A) farovon hayot
B) iqtisodiy jihatdan ravnaq topgan edi
C) kuchli markazlashgan davlat
D) siyosiy tarqoqlik

2. Kobul hukmdori Zahiriddin Muhammad Bobur Dehli sultonligiga harbiy yurish qilgan paytda u yerda qaysi sulola hukmronlik qilardi?
A) temuriylar sulolasi B) lo'diylar sulolasi
C) sayidlar sulolasi D) safaviylar sulolasi

3. XVI asrda Dehli sultonligida Hindistondagi afg'on qabilalaridan chiqqan qaysi sulolasi hukmronlik qilgan?
A) lo'diylar B) safaviylar C) sayidlar
D) sosoniylar

4. Bobur Mirzo Panipat jangida Ibrohim Lo'diy qo'shinini qachon tormor keltirdi?
A) 1526-yilning 21-martida
B) 1526-yilning 17-mayida
C) 1526-yilning 21-aprelida
D) 1526-yilning 27-aprelida

5. 1526-yilning 27-aprelida Hindistonda ..
A) Bobur MirzoPanipat jangida Ibrohim Lo'diy qo'shinini tor-mor keltirdi.
B) Dehli shahrida Bobur podshoh nomiga xutba o'qildi.
C) Sherxon Sur Hindiston taxtini egalladi va shoh deb e'lon qilindi.
D) Humoyun taxt da'vogarlarini tor-mor etib, yana hokimiyatni o'z qo'liga qaytarib oldi.

6. Buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur o'zi bilan Hindistonda qolgan jangchilarga ajratgan yer bo'lagi qanday atalgan?
A) xolisa B) tumori C) tiyul D) jogir

7. Bobur davrida Hindistonda xo'jalik yuritish ishlariga rahbarlik qilishni kimlarga topshirildi?
A) o'zi bilan kelgan yaqin kishilariga
B) musulmon bo'lgan mahalliy yer egalariga
C) mahalliy urf-odatlarni yaxshi biladigan hindlarga
D) Boburni qo'llab quvvatlab uni davlatini tan olgan mahalliy yer eagallariga

8. Bobur vafot etgan yili Hindistonda qanday voqea bo'lib o'tdi?

A) Panipat jangida Ibrohim Lo'diy qo'shinini tor-mor keltirildi.
B) yangi imperiya - Boburiylar imperiyasiga asos solindi.
C) taxtga Humoyun o'tirdi.
D) Sherxon Sur Hindiston taxtini egalladi va shoh deb e'lon qilindi.

9. Sherxon Sur Hindiston taxtini egallagan yilni toping.
A) 1658-yil B) 1858yil C) 1555-yil
D) 1540-yil

10. 1555-yilda Humoyun qaysi davlat yordamida Hindiston taxtiga da'vogarlarni tor-mor etib, yana hokimiyatni o'z qo'liga qaytarib oldi?
A) Buxoro xonligi B) Afg'oniston C) Eron
D) Xiva xonligi

11.Humoyun qay tariqa halok bo'lgan?
A) Eronda sulolaviy kurashda
B) Lo'diylar bilan bo'lgan jangda
C) Surlar bilan bo'lgan jangda
D) tasodifiy

12. Qaysi javobda boburiylarga qarshi taxt uchun kurashning yetakchi kuchlari hisoblangan afg'onlar sulolasining nomi keltirilgan bo'lib, ular 1559-yilga kelib butunlay yanchib tashlangan?
A) gilza B) sur C) duroniy D) lodiy

13. Hindiston hukmdori Akbarshoh qaysi yillarda hukmronlik qilgan?
A) 1627-1658-yillarda
B) 1556-1605-yillarda
C) 1658-1707-yillarda
D) 1530-1555-yillarda

14. Hindistonda yuritgan dono siyosati tufayli "Milliy podshoh" va "Xalq hukmdori" degan nomlarga sazovor bo'lgan Boburiylar sulolasining vakilini aniqlang.
A) Avrangzeb B) Humoyun C) Shohjahon
D) Akbarshoh

15. Qaysi shohning hukmronlik davri boburiylar imperiyasining oltin davri hisoblanadi?
A) Bobur B) Humoyun C) Akbarshoh
D) Shohjahon

16. Tom ma'nodagi imperiyaning asoschisi, buyuk islohotchi sifatida nom qoldirgan Boburiy hukmdor...?
A) Bobur B) Humoyun C) Akbarshoh
D) Shoh Jahon

17. Akbarshoh qaysi fanlarni yaxshi egallagan?
A) astronomiya, tibbiyot va handasa
B) matematika, geografiya va tarix
C) fiqh, astronomiya, matematika, geografiya
D) falsafa, din, adabiyot va tarix

18. Akbarshoh boshqa din vakillariga nisbatan qanday siyosat yuritgan?
A) adolatli B) kamsituvchi C) tahqirlovchi
D) qo'llab-quvvatlovchi

19. Akbarshoh Hindistonda qanday soliqni joriy etgan?
A) hind savdogarlariga tovarning 5 foizi miqdoridagi soliqni
B) yagona savdo solig'i
C) xolisa va jogir solig'i
D) tashqi savdodan olinadigan soliqni

20. Akbarshoh davrida davlat idoralaridagi lavozimlar qanday taqsimlangan?
A) ijtimoiy kelib chiqishiga qarab
B) yer-mulkining miqdoriga qarab
C) dini va mazhabiga qarab
D) dini va mazhabidan qat'i nazar, shaxsning salohiyatiga qarab

21. Akbarshoh davrida xolisa va jogirdorlardan qay tartibda soliq undirilgan?
A) [illegible] miqdorda
B) xolisa yerlardan 4/1 qism, jogirdorlardan esa 2/1 qism miqdorda
C) xolisa yerlardan 2/1 qism, jogirdorlardan esa 4/1 qism miqdorda
D) xolisa yerlardan 1/3 qism, jogirdorlardan 5/1 qism miqdorda

22. Hindiston hukmdori Akbarshoh din sohasida qanday siyosat yuritgan?
A) budda dini ruhoniylarini quvg'in qilish
B) musulmon bo'lmagan fuqarolarni kamsitish

C) barcha fuqarolarga e'tiqod erkinligi bergan
D) islom dinini himoya qilish va uning yoyish

23.Hindistonda 1605-1628-yillarda hukmronlik qilgan Boburiylar vakilini aniqlang.
A) Akbarshoh B) Murodbaxsh
C) Jahongirshoh D) Shohjahon

24. Qachondan boshlab Hindiston imperiyasida toju taxt uchun kurash avj oldi?
A) XVII asrning birinchi yarmidan
B) XVIII asrning boshidan
C) XVI asrning oxiridan
D) XVII asr ikkinchi yarmidan

25. 1627-1658-yillarda Hindistonda kim hukmronlik qilgan?
A) Avrangzeb B) Shoh Jahon
C) Akbarshoh D) Sherxon Sur

26. Qachon Avrangzeb Dehli shahrini egalladi va o'zini shoh deb e'lon qildi?
A) 1658-yilda B) 1627-yilda
C) 1679-yilda D) 1605-yilda

27. Avrangzeb qaysi yillarda Hindistonda hukmronlik qilgan?
A) 1658-1707-yillarda B) 1627-1658-yillarda
C) 1542-1605-yillarda D) 1540-1555-yillarda

28. Kimning hukmronligi davrida Hindiston imperiyasi hududi yanada kengaydi?
A) Shoh Jahon B) Avrangzeb
C) Akbarshoh D) Humoyun

29. Hindiston hukmdori Avragzeb davlatda qanday siyosat olib bordi?
1) hindlar qaytadan «jizya» solig`ini to`lashga majbur etildi; 2) hindlarning muqaddas ziyoratgohlarga boruvchilaridan soliq olinadigan bo`ldi; 3) musulmon savdogarlari soliqdan ozod qilingani holda, hind savdogarlariga tovarning 5 foizi miqdorida soliq joriy etildi; 4) soliq yig`uvchi idoralardagi mansabdor hindlar asta-sekinlik bilan lavozimlaridan bo`shatila boshlandi; 5) yagona savdo solig`i joriy etilgan; 6) xolisa va jogirdorlar yerlaridan teng miqdorda soliq undirilgan; 7) davlat idoralaridagi lavozimlar, dini va mazhabidan qat'i nazar, shaxsning salohiyatiga qarab taqsimlangan; 8) hindlar bilan musulmonlarning yonma-yon, tinch-totuv yashashlariga erishgan.
A) 5, 6, 7, 8 B) 1, 3, 5, 7 C) 1, 2, 3, 4
D) 2, 4, 6, 8

30.Qaysi boburiy hukmdor davrida Hindistonda imperiyaning inqirozi uchun zamin yetila bordi?
A) Akbarshoh B) Bahodirshoh II
C) Avrangzeb D) Bahodirshoh I

31. Hindistonda musulmon bo'lmaganlardan undiriladigan "jizya" solig'ini bekor qilgan hukmdorni aniqlang.
A) Bobur B) Humoyun C) Akbar
D) Avrangzeb

32. Quyidagilar orasidan taxtni nisbatan uzoqroq boshqargan hukmdorni aniqlang.
A) Shohjahon B) Amir Temur
C) Norbo'tabiy D) Avrangzeb

33.Boburiylardan bir xil muddatda hukmronlik qilganlarini aniqlang.
A) Shohjahon va Avrangzeb
B) Akbarshoh va Avrangzeb
C) Shohjahon va Akbarshoh
D) Akbarshoh va Humoyun

34. Boburiylar imperiyasiga nisbatan Yevropa imperiya davlatlari hukmron doiralarining maqsadi nimadan iborat edi?
A) Hindistonning bitmas-tuganmas boyliklariga, unumdor yerlariga ega bo`lish
B) savdo-sotiqda imtiyozga ega bo`lish
C) ichki urushlarga barham berish
D) hukmdorning mavqeyini oshirish orqali Hindiston portlariga kirish

35. Quyidagi qaysi hudud Buyuk Britaniyaning Hindistonni mustamlakaga aylantirishdagi keyingi bosqinchilik rejalarini amalga oshirishda tayanch vazifasini o'tagan?
A) Panjob B) Bengaliya
C) Kalikut D) Kashmir

36. 1757-yilda ingliz qo`shini qayerni bosib oldi?
A) Nepalni B) Panjobni
C) Bengaliyani D) Bixorni

37. Qay tariqa Angliyaning Hindistonni asta-sekin o`z mustamlakasiga aylantirish davri boshlandi?
A) Bengaliyani ingliz qo`shini bosib olgach
B) «Ost-Indiya» kompaniyasi tashkil etilgach
C) Bombey portiga inglizlarning kirishiga ruxsat beilgach
D) «Ost-Indiya» kompaniyasi hind portlarida imtiyozli savdo-sotiqni olib borishi

38. Astraxanda Rossiya bosqini natijasida Yormuhammadxon hukmronligi tugagan yilda Hindistonda qaysi voqea sodir bo'lgan?
A) Humoyun Eron yordamida taxt da'vogarlarini tor-mor etib, qaytadan hukmronlik kirishiga o'tirdi
B) Boburiylar saltanati taxtiga Akbarshoh o'tirdi
C) Boburiylar taxtini afg'on qabilalarining yetakchisi Sherxon Sur egalladi
D) Avrangzeb Olamgir Dehli shahrini egallab, o'zini shoh deb e'lon qildi

39. Bobur vorislari ichida eng mashhuri, buyuk islohotchi sifatida nom qoldirgan hukmdor Akbarshoh taxtga o'tirgan yilda Buyuk Britaniya hukmdori kim edi?
A) Yakov II B) Yelizaveta I
C) Genrix VIII D) Mariya

40. Hindistonda Boburiy Akbarshoh hukmronlik qilgan yillarda Angliya taxtini boshqargan hukmdorni aniqlang.
A) Karl I B) Yelizaveta II
C) Yelizaveta I D) Genrix VIII Tyudor

41. Oliver Kromvel vafot etgan yili Dehli shahri kim tomonidan egallanganligini toping.
A) Shoh Jahon B) Avrangzeb Olamgir
C) inglizlar D) Jahongirshoh

42. XVII asrda Angliyada fuqarolar urushi yuz bergan davrda Hindistonda hukmronlik qilgan shaxsni aniqlang.
A) Akbarshoh B) Shohjahon
C) Avrangzeb D) Xumoyun

43. Jogirning mohiyati qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Soni oldindan belgilab qo'yilgan dehqonlar va posad xonadonlaridan bittadan kishini soldatlikka olish
B) tovarlarni donalab yoki maydalab tortib sotish va sotib olish
C) harbiy hizmat evaziga in'om etilgan yer
D) mansabdor shaxslarni shaxsiy boyish maqsadida sotilishi

44. Xolisa nima?
A) harbiy xizmat evaziga in'om etilgan yer
B) dehqonlarga ijaraga beriladigan yer
C) davlat yerlari
D) hukmdor yorlig'i asosida davlat xizmatchilariga beriladigan yer-mulk

## 20- §. XVI-XVIII asrlarda Xitoy.

1. XVI asrda Xitoyda qaysi sulola hukmronlik qilardi?
A) Suy sulolasi B) Min sulolasi
C) Tan sulolasi D) Sun sulolasi

2. XVI asrda Xitoyda siyosiy ahvol keskinlashishiga sabablari nimalardan bo`ldi?
1) jamiyat hayotini o'rta asr ishlab chiqarish munosabatlari chuqur qamrab olganligi;
2) dehqonlarni holdan toydiruvchi ijaraga yer olib ishlash tartibi hamon chuqur ildiz otganligicha qolaverganligi; 3) despotik davlat hokimiyati barcha eski tartiblarning bosh tayanchiga aylanib qolganligi; 4) davlat hamda dehqonlar yerlarining katta yer egalari qo`liga o'tish jarayoni kuchayganligi; 5) bosqinchilik tashqi siyosati; 6) dehqonlar qo'lidagi yer-mulklarni tortib olinishi.
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 3, 5
C) 2, 4, 6 D) 2, 5, 6

3. XVI asrda Xitoyda o'rta asr ishlab chiqarish munosabatlari chuqur qamrab olganligi nimalarda yaqqol namoyon bo`lmoqda edi?
A) qishloqlarda manufaktura
B) davlat tomonidan dehqonlarga ajratilgan yerlarda majburiy ishlab berishning joriy etilishi
C) dehqonlar qo'lidagi yer-mulklarni tortib olinishi
D) jamiyat hayotida natural xo`jalikning ustunligida

4. XVI asrda Xitoyda dehqonlardan olinadıgan ijara haqi hosilnıng necha foiz qismini tashkil etardi?
A) 30 foiz B) 50 foiz
C) 25 foiz D) 15 foiz

5. Qachonga kelib Xitoyda davlat hamda dehqonlar yerlarining katta yer egalari qo`liga o`tish jarayoni kuchaydi?
A) XV asrga B) XVII asrga C) XVI asrga
D) XVIII asrga

6. XVI asrda qaysi jarayon Xitoyda dehqonlar qo`zg`oloni boshlanishiga olib keldi va bu qo`zg`olon butun mamlakatni qamrab oldi?
A) ijara shartining og`irligi
B) soliq miqdorining ko`pligi
C) ish haqining kamligi
D) dehqonlar qo`l ostidagi yer-mulklarni tortib olinishi

7. XVI asrda qaysi holat Xitoyda Min imperiyasining siyosiy parchalanish jarayonini kuchaytirdi?
A) imperator xonadoni turli xil кo`ngilochar tadbirlar va zebu ziynat buyumlari uchun davlat xazinasini sovurishi
B) davlat idoralari amaldorlari o`rtasida o`zboshimchalik, korrupsiyahamda davlat mansablarini sotish avj olishi
C) qo`shni davlatlarning bosqinchiligi
D) dehqonlar qo`zg`olonining keng quloch yoyishi

8. XVI asrda qaysi omillar Xitoy aholisining turli qatlamlarida keskin norozilik uyg`otdi? 1) davlat idoralari amaldorlari o`rtasida o`zboshimchalik; 2)korrupsiyahamda davlat mansablarini sotish avj olishi; 3) imperator xonadoni turli xil кo`ngilochar tadbirlar va zebu ziynat buyumlari uchun davlat xazinasini sovurishi; 4) ijara shartining og`irligi; 5) dehqonlar qo`l ostidagi yer-mulklarni tortib olinishi; 6) qo`shni davlatlarning bosqinchiligi.
A) 1,2,3 B) 1,3,5 C) 2,4,6 D) 2,3,6

9. XVI asrda Xitoyda muxolifatning asosiy kuchini aholining qaysi qismi tashkil etdi?
A) dehqonlar va hunarmandlar
B) savdogarlar va hunarmandlar
C) shahar aholisining o`ziga to`q qismi, mamlakat ziyolilari, savdogarlar va hunarmandlar
D) o`rta va mayda yer egalari, shahar aholisining o`ziga to`q qismi, mamlakat ziyolilari

10. XVI asrda Xitoyda mavjud bo`lgan muxolifat imperatordan nimalarni talab qildi?
A) konstitutsaviy monarxiyani o`rnatish
B) davlat mansablariga amaldorlarning qobiliyatiga qarab tanlanishini, eskirib qolgan qonunlarni o`zgartirishni
C) parlamentni tashkil etish
D) imperator xonadoni turli xil кo`ngilochar tadbirlar va zebu ziynat buyumlari uchun davlat xazinasidan olmaslik

11. XVI asr oxiri - XVII asr boshlarida Xitoy uchun paydo bo`lgan o`ta xavfli tashqi raqibni aniqlang.
A) Koreya davlati B) Yaponiya davlati
C) Mo`g`uliston davlati
D) Manjuriya davlati

12. Manjuriya hozirgi Xitoy Xalq Respublikasining qaysi qismi hisoblanadi?
A) shimoli-sharqiy qismi.
B) janubiy-sharqiy qismi.
C) janubiy-g`arbiy qismi.
D) shimoliy-g`arbiy qismi.

13. O'rta asrlardagi Manjuriya davlati hozirgi kunda qanday nomlanadi?
A) Vey-Bey B) Uyg'uriston
C) Guanchjou D) Dunbey

14. Abaxay qaysi yillarda Manjuriyada hukmronlik qildi?
A) 1723-1735-yillarda
B) 1663-1722-yillarda
C) 1644-1661-yillarda
D) 1626-1643-yillarda

15. Qachon Abaxay o`zini imperator deb e'lon qildi?
A) 1618-yilda B) 1636-yilda
C) 1626-yilda D) 1643-yilda

16. Abaxay qaysi sulolaga asos soldi?
A) Sin B) Sun C) Tan D) Suy

6. Qachon va kim Asikagani syogunlikdan mahrum etdi?
A) 1582-yilda, Toyotomi Xidayosi
B) 1598-yilda, Tokugava Iayasu
C) 1716-yilda, Yosimune Tokugava
D) 1573-yilda, Oda Nobunaga

7. Oda Nobunaga Yaponiya viloyatlarining deyarli yarmini bo'ysundirgan vaqtni toping.
A) XVII asr boshlarida
B) XVI asr oxirlarida
C) XV asr 40-yillarida D) XII asrda

8. Oda Nobunaga o`tkazgan islohotlar Yaponiyaning ...
A) tashqi dunyodan ajratib qo`ydi.
B) siyosiy beqarorligiga va iqtisodiy inqiroziga olib keldi.
C) siyosiy birlashuvi va iqtisodiy taraqqiyotiga yordam berdi.
D) yevropaliklar mustamlakasiga aylanishiga olib keldi

9. Qachon va kimlar Yevropadan Yaponiyaga birinchi bo`lib kirib keldilar?
A) XVI asrning 50-yillaridan boshlab golland sayohatchilari
B) XVI asrning 60-yillaridan boshlab ingliz savdogarlari
C) XVI asrning 70-yillaridan boshlab Ispaniya savdogarlari
D) XVI asrning 40-yillaridan boshlab Portugaliya savdogarlari

10. Yaponiyaga birinchi bo'lib Yevropaning qaysi davlati savdogarlari qachon kirib kelganligini aniqlang.
A) XV asrda inglizlar
B) XVI asrda portugallar
C) XVI asrda fransuzlar
D) XV asrda ispanlar

11. 1543-yilda Bungo viloyati hukmdori bilan Yaponiyaga turli tovarlar qatori qurol-aslaha, porox olib kelish va ularni oltin hamda kumushga ayirboshlash to'g'risida shartnoma imzolagan portugaliyalik shaxs kim edi?
A) Plano Kapraniy B) Alonso Mendiyar
C) Kristiyan Kuper D) Mendish Pintu

12. XVI asrda yaponlarga o'qotar qurollar yasash san'atini o'rgatgan yevropalikni aniqlang.
A) Mendish Pintu B) Plano Kapraniy
C) Anketil Dyuperon D) Kristiyan Kuper

13. Yevropaliklarning Yaponiyaga kirib kelishining eng ahamiyatli jihati nima bo`ldi?
A) sanoat ishlab chiqarishning olib kirishi
B) og`ir sanoatga asos solishi
C) qishloq xo`jaligida natural xo`jalikka barham berishi
D) o`qotar qurolning Yaponiyaga keltirilishi hamda shuyerda ishlab chiqarishning yo`lga qo`yilishi bo`ldi.

14. Yaponiyada Oda Nabunaga tomonidan o'tkazilgan islohotlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
1) iqtisodiy taraqqiyotga to'sqinlik qilayotgan mahalliy soliq va bojxona to'lovlari bekor qilindi; 2) mis tangalarni muomalaga kiritildi; 3) savdo yo'llari va ko'priklar ta'mirlandi; 4) savdo yo'llariga sardobalar qurildi; 5) shaharlarga bozorlar ochish huquqi berildi; 6) shaharlarning tashqi savdo faoliyati rag'batlantirildi
A) 1, 2, 5, 6 B) 1, 3, 5, 6
C) 2, 4, 5, 6 D) 1, 3, 4, 5

15. Oda Nobunaga nima sababdan Yaponiyada xristiyan dinining tarqalishiga homiylik qilgan?
1) Budda peshvolari Oda Nobunagaga dushman bo'lgan kuchlarni qo'llab-quvvatlamoqda edi; 2) Oda Nobunaganing fikricha yaponlar xristiyan dinini qabul qilsa, yevropaliklar Yaponiyaga hech qachon harbiy hujum qilmas edi; 3) Oda Nobunaga tezlik bilan qo'shinini Yevropa qurol-aslahasi bilan to'la qurollantirish maqsadida yevropaliklar ishonchini qozonish uchun ham xristianlikni qo'llab quvvatlagan edi; 4) Oda Nobunaga xristian dini vositasida yaponlarni yagona bayroq ostida birlashtirmoqchi edi; 5) Oda Nobunaga shu yo'l bilan Yaponiyaga, yevropaliklarni ko'plab kirgizib, shu orqali yapon xalqining naslini ham o'zgartirmoqchi edi.
A) 2, 3 B) 1, 3 C) 2, 5 D) 1, 4

16. Qachon Oda Nobunaga fitna qurboni bo'ldi?
A) 1582-yilda B) 1573-yilda C) 1587-yilda
D) 1592-yilda

17. Yaponiyani birlashtirish yo'lidagi ishni Oda Nobunagadan so'ng kim davom ettirdi?
A) Tokugava Iayasu B) Toyotomi Xidayosi
C) Yosimune D) Asikaga

18. Xidayosi nima sababdan Yaponiyada faqat Portugaliya savdogarlarining qolishiga ruxsat etildi?
A) Yaponiyada Portugaliyaning harbiy qismlari mavjudligi sababli
B) Portugaliyadan Yaponiyaning katta qarzdorligi sababli
C) har ikki tomon o'rtasida o'zaro yordam ko'rsatilishi haqida shartnoma mavjudligi sababli
D) har ikki tomonning o'zaro manfaatdorlikka asoslangan savdo munosabatlarining o'rnatganligi sababli

19. Xidayosi 1587 yilda ...
A) Asikagani syogunlikdan mahrum etdi
B) barcha xristian ruhoniylarining Yaponiyani tark etishi haqida qonun chiqardi
C) Oda Sabunaga o'rtiiga taxtga o'tirdi
D) "100 moddali Farmon" chiqardi

20.1614-yilda xristian dinini ta'qiqlovchi qonun chiqargan syogunni toping.
A) Oda Nobunaga B) Toyotomi Xidayosi
C) Yosimune D) Tokugava Iayasu

21.Qachon Xidayosi vafot etdi?
A) 1587-yilda B) 1592-yilda
C) 1598-yilda D) 1582-yilda

22. Qay tarıqa syogun Tokugava sulolasi davrida Yevropa mustamlakachilari Yaponiyadan quvib yuborildi?
A) Xidayosi barcha xristian ruhoniylarining Yaponiyani tark etishi haqida qonun chiqarishi natijasida
B) xristian dinini taqiqlovchi qonun qabul qilinishi natijasida
C) Yosimune Tokugava o'tkazgan islohatlar natijasida
D) Yaponiyaning Yevropadan barcha elchilarini chaqirib olinishi natijasida

23. 1603-yil Yaponiyada Tokugava syogunligi to'la o'rnatilsada, imperator hokimiyati daxlsizligi saqlab qolinadi. Bunga sabab nima edi?
A) hali imperatorning siyosiy jihatdan kuchliligi
B) yapon xalqi uchun imperator xudoning avlodi hisoblanardi
C) syogunlar davlat boshqaruvidagi tajribasizligidan imperator asosiy maslahatchi bo'lgan
D) syogunlar yapon milliy urf-odatlarini qattiq hurmat qilganligi

24. 1603-yilda Yaponiyada Tokugavalar sulolasi hukmronligi boshlandi. Ushbu sulola 1867-yilgacha hukmronlik qildi va ...
A) Yaponiyani birlashtirish ishini tugalladi
B) katta miqdordagi yevropa kapitalini mamlakatga jalb jalb qildi.
C) shimoli-sharqiy Xitoyni bosib oldi.
D) "ochiq eshiklar" siyosatini olib bordi.

25. Yaponiyada uchinchi Syogun hukmronligi davrini aniqlang.
A) 1607-1863-yillar B) 1605-1867-yillar
C) 1603-1787-yillar D) 1603-1867-yillar

26. Syogun o'zini-o'zi ajratib qo'yish siyosati yo'li bilan qanday maqsadni ko'zlagan edi?
A) Xitoy tazyiqini oldini olish
B) budda ruhoniylarining qarshiligini sindirish
C) o'z hokimiyatini mustahkamlash
D) Yaponiyaning yevropaliklar mustamlakasiga aylanib qolish xavfining oldini olish

27. Syogun Yosimune Tokugava davrida Yaponiyada amalga oshirilgan islohotlarni belgilang.
1) qo'riq yerlarni o'zlashtirish hisobiga dehqonchilik qiluvchilarni rag'batlantirish siyosati yuritildi; 2) shaharlarga bozor ochish huquqi berildi; 3) sug'orish inshootlari tizimi takomillashtirildi; 4) pul islohoti amalga oshirildi; 5) yerni sotish, sotib olish yoki

garovga qo'yishni taqiqlovchi qonun chiqarildi
A) 1, 3, 4 B) 1, 3, 5 C) 1, 2, 3, 4 D) 2, 3, 5

28. Yaponiya syoguni Yosimune tomonidan qabul qilingan qonunlar to'plamini aniqlang.
A) «Huquqsiz quyi tabaqa to'g'risida qonun»
B) «100 moddali Farmon»
C) «To'rt tabaqa to'g'risida farmon»
D) «Oltin Qonun»

29. Tokugava sulolasidan chiqqan 8-syogun Yosimune necha yil hukmronlik qilgan?
A) 25-yil B)39-yil C) 29-yil D) 19-yil

30. Yosimune Yaponiyada qaysi yillarda hukmronlik qildi?
A) 1573-1582-yillarda B) 1582-1598-yillarda
C) 1716-1745-yillarda D) 1603-1614-yillarda

31. Qaysi javobda XVIII asrda mamlakat va jamiyat hayotini tartibga solishda katta ahamiyatga ega bo'lgan "100 moddali Farmon" joriy etilgan mamlakat nomi keltirilgan?
A) Xitoy B) Turkiya C) Yaponiya D) Eron

32. Tokugava sulolasining eng mashhur davlat arbobi sifatida tanilgan Yosimune ushbu sulolaning nechanchi syoguni edi?
A) sakkizinchi B) to'qqizinchi C) yettinchi
D) beshinchi

## 22- §. XVI-XVIII asrlarda Usmoniylar imperiyasi (Turkiya)

1. XVI asr boshlarida Usmonli turklar imperiyasi nimalarga bo`lingan edi?
A) o`lkalar va viloyatlarga
B) viloyatlar va sanjoq (tuman)larga
C) tumanlar va bekliklarga
D) shaharlar va tumanlarga

2. XVI asr boshlarida Usmonli turklar imperiyasi viloyat va sanjoqlarni kimlar boshqargan?
A) xon va beklar
B) bosh vazir va xonlar
C) vali va sanjoqbey
D) tumanboshi va qozilar

3. XVI asrda Usmonli turklarda viloyatlarni kim boshqargan?
A) Sanjoqbey B) Vali C) Hokim D) Zoim

4. XVI asr boshlarida Usmonli turklar imperiyasining asosiy tayanchini aniqlang
A) qo`shin B) saroy ayonlari
C) mahalliy zamindorlar
D) dehqonlar va hunarmandlar

5. XVI asr boshlarida Usmonli turklar imperiyasi bosib olgan hududlardagi yerlar kimning mulki deb e`lon qilingan?
A) yanicharlarning B) sanjoqbeylarning
C) valilarning D) davlatning

6. Usmonli turklar imperiyasining sultoni XVI asr boshlarida bosib olgan hududlardagi yerlarni kimlarga taqsimlab bergan?
A) dehqonlarga B) sanjoqbeylarga
C) o`z sipohlariga D) valilariga

7. XVI asr boshlarida Usmonli turklar imperiyasining sultoni bosib olgan hududlardagi yerlarni o`z sipohlariga nimaning evaziga taqsimlab bergan?
A) ko`p yillik harbiy xizmati
B) ko`rsatgan jasorati
C) talonchilik yurishlar
D) harbiy majburiyat

8. Sipohiylar – bu ...
A) Usmonli turklar imperiyasidagi harbiylar.
B) Usmonli turklar imperiyasidagi otliq askar.
C) turklardagi qo`shin turi.
D) katta yer egalari.

9. XVI asrda Usmonli turklar imperiyasida qanday qo`shinlardan tashkil etgan edi?
A) piyoda va suvoriylardan
B) sipohilar, yanicharlar, harbiy-dengiz floti
C) to`pchilar, otliq qo`shin va harbiy-dengiz floti
D) dehqon va hunarmandlardan tashkil topgan qo`shin

10. Qaysi omillar Usmonli turklar sultonlariga keng ko`lamda bosqinchilik urushlari olib borish imkonini bergan?
A) kuchli markazlashgan davlatga egaligi

B) aholining jipsligi
C) kuchli qo`shinga egaligi
D) qo`shni davlatlardagi siyosiy beqarorlik

11. Qaysi javobda Usmonli turklar davlatida sipohi xo'jaligining asosiy daromadi ko'rsatilgan?
A) ijarachi dehqon to'laydigan soliq
B) urushlardan tushgan o'ljalar
C) qul savdosidan tushadigan daromad
D ) yer savdosidan keladigan foyda

12. XVI asrda Usmoniylar davlatinirig Osiyodagi eng yirik raqibini aniqlang.
A) Hindiston B) Misr
C) Suriya D) Eron

13.Turk sultoni Salim I Eron shohi ittifoqchisi bo'lgan Misr sultonligiga qarshi yurish boshlashiga yo'l ochgan g'alabaga qachon erishgan?
A) 1514-yilda B) 1513-yilda C) 1510-yilda
D) 1511-yilda

14. Usmoniy hukmdor Sulton Salim I dastlab bosib olgan hududlarni belgilang.
A) Suriva va Falastin B) Suriya va Misr
C) Qrim va Falastin
D) Kavkazorti va Kaspiy bo'ylari

15.Turk sultoni Salim I nechanchi yilda Misr poytaxti Qohira shahrini egalladi?
A) 1516-yilda B) 1517-yilda C) 1515-yilda
D) 1514-yilda

16. 1517-yilda Qohira shahrini egallagan hukmdorni aniqlang.
A) Ismoil Safaviy
B) Muhammad Shayboniyxon
C) Sulton Salim I D) shoh Taxmasp

17. XVI asrda Usmonli turklar imperiyasi qaysi hududlarda mustamlakalarga ega bo`ldi?
A) Osiyo, Yevropa va Afrikada
B) Osiyo va Afrika C) Yevropa va Osiyo
D) Osiyo

18. Qaysi omillar Usmonli turklar imperiyasi markaziy hokimiyatining hamda harbiy qudratining yanada kuchayishini ta'minladi?
A) siyosiy va iqtisodiy farovonlik
B) aholining jipsligi
C) kuchli qo`shinga egaligi
D) imperiya hududining kengayishi va yirik savdo yo`llarning Turkiya qo`liga o`tishi

19. Usmoniylar davlatida yer egalarining zulmidan tinkamadori qurigan dehqonlarning xonavayron bo'lishi va ko'plab qochib ketishi XVI asr o'rtalaridan boshlab,...
A) dehqonchilikda katta o'zgarishlarga olib keldi
B) qishloq xo'jaligining inqirozga yuz tutishiga sabab bo'ldi
C) sanjoqlıklar, qishloqlarining bo'shab qolishiga olib keldi
D) dehqonlarni boshqa mamlakatlardan katta mablag' hisobiga jalb qilishga sabab bo'ldi

20.Usmonli turklar davlati kuch-qudratga nimalar hisobiga erishganligini ko'rsating.
1) sultonlarning oqilona siyosati;
2) mehnatkash-larni ekspluatatsiya qilish;
3) XVI asr o'rtalaridan boshlab ayniqsa qishloq xo'jaligining gurkirab rivojlanishi;
4) mustamlaka o'lkalardan tashib kelingan ulkan miqdordagi boyliklar; 5) musulmonlarning muqaddas ziyoratlaridan keladigan tushumlar
A) 2, 3, 5 B) 1, 2, 4 C) 1, 3, 5 D) 1, 3, 4

21.1684-yilda tuzilgan «Muqaddas liga» qaysi davlatga qarshi qaratilgan edi?
A) Angliya B) Turkiya C) Eron D) Rossiya

22.XVI asr oxiri-XVII asr boshlarida Turkiya...
A) barcha mustamlakalaridan birin-ketin mahrum bo'ldi
B) avvalgidek hujumkor qudratga ega bo'lmay qoldi
C) Yevropa davlatlariga xavf solib turardi
D) har doimgidek mustamlakachilik siyosatini davom ettirdi

23. XVII asrningo`rtalarida Turkiya qaysi davlat savdogarlari uchun 3 foiz miqdorida bojxona to`lovi joriy etildi?
A) Fransiya B) Angliya C) Gollandiya
D) Italiya

24. XVII asrningo`rtalarida Turkiya tashqi siyosatda qaysi davlatlar bilan yaqinlasha boshladi?
A) Italiya va Ispaniya
B) Portugaliya va Gollandiya
C) Rossiya va Angliya
D) Angliya va Fransiya

25. XVII asrningo`rtalarida qaysi davlatlar sultonlar nazdida Turkiyaning Rossiyaga qarshi kurashida ittifoqchilari bo`lishlari kerak edi?
A) Ispaniya va Portugaliya
B) Italiya va Gollandiya
C) Shvetsiya va Belgiya
D) Angliya va Fransiya

26. Qaysi davlatlarning madadidan umidvor bo`lgan Turkiya XVIII asrda Rossiya bilan bir necha bor urushga kirdi?
A) Shvetsiya va Gollandiya
B) Ispaniya va Portugaliya
C) Italiya va Gollandiya
D) Angliya va Fransiya

27. Liga nima?
A) itiifoq, birlashma
B) zabt etish, bosib olish.
C) Konstitutsiyaga tenglashtirish hujjatlarning nomi.
D) norozilik hujjati.

## 23- §. XVI-XVIII asrlarda Eron.

1. XV asr oxirida Eron ...
A) Osiyo mintaqasidagi kuchli davlat edi.
B) zamonaviy qo`shin tashkil etib, qo`shni davlatlarga bosqinchilik urushlari olib bormoqda edi.
C) markaziy hokimiyatga bo`ysunmaydigan bir qancha mustaqil hududlarga bo`linib ketgan edi.
D) manufaktura ishlab chiqarishga o`ta boshladi.

2. XV asr oxirida omillar Eronni yagona davlatga birlashtirishni hayotiy zararatga aylantirib qo`ydi?
A) Eronning zaiflashuvi va Turkiya bosqini xavfi
B) natural xo`jalikning yemirilishi
C) feodal majburiyatlarning bekor qilinishi
D) hokimiyat uchun boshlanib ketgan o`zaro urushlar

3. Ismoil Safaviy Eron taxtini egallaguniga qadar (XVI asr boshi) qayerda hokimlik qilgan?
A) Isfahon shahrida B) Tabriz shahrida
C) Ardebil shahrida D) Xurosonda

4.Eronni yagona davlatga birlashtirishdek tarixiy vazifa sarkarda, Eronda katta siyosiy nufuzga ega bo'lgan Ismoil I Safaviy tomonidan amalga oshirildi. U qaysi shahar hukmdori hisoblangan?
A) Isfahon B) Sheroz C) Ardebil
D) Tabriz

5.QuyidagilardanArdebil shahri hokimibo'lgan shaxsni aniqlang.
A)Ismoil I Safaviy B)Mir Vaysxon
C)Ahmadxon D)Nodir quli

6. Ismoil I Safaviy qaysi yillarda hukmronlik qilgan?
A) 1587-1629-yillarda
B) 1524-1576-yillarda
C) 1502-1524-yillarda
D) 1629-1650-yillarda

7. Safaviylar davlati qaysi yillarda hukmronlik qilgan?
A) 1502-1736-yillar B) 1760-1794-yillar
C) 1796-1925-yillar D) 1722-1757-yillar

8. Safaviylar davlati tarkibiga qaysi hududlar kirgan?
A) Eron, Ozarbayjon, Armanistonning bir qismi, Afg`oniston, janubi-sharqiy Iroq
B) Eron, Xuroson, Afg`oniston, Shimoliy Hindiston
C) Eron, Falastin, Suriya, Misr, shimoli-g`arbiy Iroq
D) Eron, Misr, Ozarbayjon, janubi-g`arbiy Iroq

9.Quyidagi qaysi tadbir Ismoil I Safaviy tomonidan markaziy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida amalga oshirilgan?
A) Turk sultonligidan harbiy yordam so'ragan va ularni poytaxtda saqlagan

B) bo'z urug'idan bo'lgan zodagonlarni qo'llab quvvatlashini to'xtatdi
C) oltin va kumush puliar chiqardi
D) yer egaligining suyurg'oi shaklini bekor qilib, uning o'rniga tiyulni joriy etdi

10. Quyidagi qaysi shahar 1502-yilda Safaviylar davlatining poytaxtiga aylandi?
A) Qandahor B) Isfahon
C) Tabriz D) Ormuz

11.Safaviylar sulolasi vakillaridan qaysi birining hukmronligi davrida yirik yer-mulk egalarining mustaqilligi tugatilib, davlat o‘z qudratining cho'qqisiga erishdi?
A) Sulton Husayn B) Ismoil I
C) Abbos I D) Taxmasp

12.Safaviylar sulolasi vakili Abbos I hukmronligi qachon boshlangan?
A) 1589-yil B) 1587-yil
C) 1584-yil D) 1586-yil

13. Abbos I qaysi yillarda hukmronlik qilgan?
A) 1587-1629-yillarda
B) 1502-1524-yillarda
C) 1524-1576-yillarda
D) 1629-1650-yillarda

14. Nima uchun safaviylar davrida yer-mulk egalari shohlarning oliy hokimiyati ostida amalda mustaqil bo`lgan juda katta hududlarga egalik qilib kelishardi?
A) bu yer-mulk egalari safaviylarning yaqin qarindoshlari bo`lgani uchun
B) bu yer-mulk egalari o`z qo`shiniga ega bo`lganligi uchun
C) bu yer-mulk egalari bir vaqtlar safaviylarga katta yordam berganligi uchun
D) bu yer-mulk egalari katta mavqeiga ega bo`lganligi uchun

15. Ma’lumki. Safaviylar davlati Abbos I davrida o‘z qudratining cho'qqisiga erishgan. U bunga qanday erishganligi qaysi javobda ko'rsatilgan?
A) Eronga qaram bo'lgan chekka o’lkalardagi eng yirik yer-mulk egalari bilan o‘zaro diplomatik kelishuv yo’lini tutishi orqali
B) Eronga qaram bo'lgan chekka o'lkalardagi eng yirik mulkdorlarga eng unuindor yerlarni hadya qilish hisobiga
C) Turk suhoni Sulton Salimning yordamida
D) Eronga qaram bo'lgan chekka o'lkalardagi eng yirik yer-mulk egalarining mustaqlligini tugatlsh hisobiga

16.Eronda Shoh Abbos I davrida amalga oshirilgan tadbirlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.
1) soliq tizimida tartib o'rnatilib, soliqlar kamaytirildi; 2) viloyat hokimlariga erkinliklar berildi; 3) savdo-sotiq va hunarmandchilik rivojlanishiga alohida e'tibor berijdi; 4) qo'shni mamlakatlar hududlariga vurishlar olib borildi; 5) yangi-yangi karvonsaroylar va savdo yo'llari qurildi;
6) hunarmandlar va savdogarlarga katta miqdorda soliqlar belgilandi; 7) savdo karvonlari qaroqchilarga qarshi shafqatsiz kurashildi,
A) 1, 3, 5, 7 B) 1, 2, 5, 6
C) 4, 5, 6, 7 D) 2, 4, 6, 7

17.Safaviylar hukmronligi davrida Eron qo’shinida qaysi davlat harbiy mutaxassislari yordamida o’qotar qurollar va zamonaviy to’plar joriy etildi?
A) Fransiya B) Angliya
C) Rossiya D) Germaniya

18. Safaviylar davlatida XVIII asrdan boshlab ...
A) iqtisodiy tushkunlik boshlandi
B) jon solig'i joriy etila boshlandi
C) konstitutsion monarxiya o'rnatildi
D) Rossiyaning ta’siri kuchaya boshladi

19.Safaviylar xazinaga tushadigan daromadlar kamayishining oldini olish maqsadida XVIII asrdan boshlab qanday yo‘l tutganliklarini aniqlang.
A) dehqonlar to‘laydigan soliqlarni oshirish
B) davlat yerlarini sotish va dehqonlar sharoitini yaxshilash
C) savdo-sotiqdan keladigan tushumni ko‘paytirish
D) katta ko‘lamdagi urushlar olib borish va mustamlakachilik

20. Dehqonlarning yerlarini tashlab ketishni taqiqlovchi farmon chiqargan Eron shohini aniqlang.
A) Taxmasp II B) Sulton Husayn
C) Abbos I D) Nodirshoh

21.Eronda dehqonlarning boshqa joylarga ketishlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida 1710-yilda qaysi hukmdor tomonidan dehqonlarni yerni tashlab ketishlarini taqiqlovchi farmon chiqarildi?
A) Mir Mahmud B) Sulton Husayn
C) Taxmasp II D) Abbos I

22. Eronning qaysi shohi dehqonlarning yerlarini tashlab ketishini taqiqlovchi farmon chiqargan?
A) Nodirshoh B) Taxmasp II
C) Sulton Husayn D) Abbos I

23. XVIII asrda Safaviylar davlatida dehqon xo`jaligining xonavayron bo`lishi nimaga olib keldi?
A) tashqi savdoning to`xtab qolishiga
B) davlatning bir qancha qismlarga bo`linib ketishiga
C) yevropalik savdogarlarni Safaviylar davlatiga kirib kelishiga imkon yaratdi.
D) ichki savdoning keskin kamayishiga

24. 1722-yilda qanday voqea yuz berdi?
A) afg'onlar Xiva xonligi hududiga bostirib kirdi
B) Eron tomonidan Qandahor viloyati bosib olindi
C) Mir Vaysxonning o'g'li Mir Mahmud o'zini Eron shohi deb e'lon qildi
D) Buxoro xonligi askarlari Hindistonga yurish qildi

25. Qay tariqa Eron tarixida afg`on istilosi davri boshlandi?
A) afg`onlarning qo`zg`olon ko`tarishi natijasida
B) afg`onlar Mir Mahmud boshchiligida Eronga hujum qilishi natijasida
C) afg`onlarning Erondan ajralib chiqishi natijasida
D) Eron shohi Sulton Husayn hokimiyatni Mir Mahmudga topshirishi natijasida

26. Qaysi yillar Eron tarixida afg`on istilosi davri hisoblanadi?
A) 1709-1730-yillar B) 1722-1730-yillar
C) 1723-1736-yillar D) 1736-1747-yillar

27. Safaviylar sulolasi hukmdorlardan qay biri amalda hech qanday hokimiyatga ega emas edi?
A) Abbos I B) Taxmasp II
C) Sulton Husayn D) Mir Mahmud

28. Quyidagi qaysi shaxs davrida Eronda Safaviylar sulolasining hukmronligi butunlay barham topdi?
A) Sulton Husayn davrida
B) Mir Mahmud davrida
C) Og'a Muhammadxon davrida
D) Nodirshoh davrida

29. Quyidagi qaysi shaxs Eronda hukmron-lik qilgan Safaviylar sulolasining oxirgi vakili edi?
A)Abbos III B) Nodirquli C)Taxmasp II
D)Sulton Husayn

30. Turkman urug'idan chiqqan va Eronda Shahanshoh bo'lgan shaxsni aniqlang.
A) Mir Mahmud B) Nodirquli
C) Og'a Muhammad D) Taxmasp II

31. 1736-yilda Nodir ...
A) barcha qabilalar aslzodalarining qurultoyida o`zini Eron shohi deb e'lon qilishga erishdi.
B) afg`on qo`shinini butunlay tor-mor etib, Eronni afg`on bosqinidan ozod etdi.
C) Eronga hujum qildi.
D) dehqonlarning yerni tashlab ketishlarini taqiqlovchi farmon chiqargan.

32. Qay tariqa Safaviylar sulolasi hukmronligi butunlay barham topdi?
A) afg`on qo`shinini butunlay tor-mor etib, Eronni afg`on bosqinidan ozod etishi natijasida
B) Mir Mahmud boshchiligida afg`onlarning Eronga hujum qilishi natijasida
C) Eron shohi Sulton Husayn hokimiyatni Mir Mahmudga topshirishi natijasida
D) Nodir o`zini Eron shohi deb e'lon qilishi natijasida

33. Nodirshoh qaysi yillarda Eronda hukmronlik qildi?
A) 1758-1779-yillarda
B) 1736-1747-yillarda
C) 1758-1779-yillarda
D) 1502-1524-yillarda

34. 1758-1796-yillarda Eronda qaysi qabila hukmdorlik qildi?
A) qojar B) afshor C) zend D) afg'on

35. Quyidagi qaysi shahar Eronda Qojarlar sulolasi hukmronligi davrida mamlakat poytaxtiga aylantirildi?
A) Isfaxon B) Bog'dod
C) Tabriz D) Tehron

36. Eron poytaxtini Tehronga ko'chirgan hukmdorni toping
A) Ismoil Safaviy B) Og'a Muhammad
C) Abbos I D) Sulton Husayn

37. Qojarlar sulolasi Eronda nechanchi yilgacha hukmronlik qilgan?
A) 1796-yilgacha B) 1925-yilgacha
C) 1802-yilgacha D) 1758-yilgacha

38. Eronda Qojarlar sulolasi hukmronligi davrida mamlakat poytaxtiga aylantirilgan shaharni aniqlang.
A) Tehron B) Tabriz
C) Isfaxon D) Bog'dod

39. Qojarlar sulolasi Eronda qaysi yillarda hukmronlik qildi?
A) 1758-1932-yillar B) 1730-1918-yillar
C) 1709-1728-yillar D) 1796-1925-yillarda

40. Qojarlar sulolasi Eronda necha yil hukmronlik qildi?
A) 130 yil B) 147 yil C) 152 yil
D) 129 yil

41. Quyidagi qaysi sulola vakillari XVI asrdan XX asrning 20-yillarigacha Eronda hukmronlik qilgan?
A)Sosoniylar va Qojarlar
B) Safaviylar va Qojarlar
C)Ahamoniylar va Sosoniylar
D)Sosoniylar va Safaviylar

42. Eronda XVIII asr 2-yarmida qaysi qabilalar o'rtasida toj-taxt uchun kurash avj oldi?
A) Durroniylar va barakzaylar
B) Qojarlar va zendlar
C) Afshorlar va durroniylar
D) Barakzaylar va zendlar

43. Quyidagi sulolalarning qaysi biri Eronda nisbatan uzoqroq hukmronlik qilgan?
A) Qojarlar B) Safaviylar C) Pahlaviylar
D) Zendlar

44. Eronda XVI-XVIII-asrlarda hukmron sulolalar necha marotaba almashdi?
A) 2 marotaba B) 3 marotaba C) 4 marotaba
D) 5 marotaba

45 XVI asrdan XX asr boshlariga qadar Buxoroda nechta sulola hukmronlik qilganligini aniqlang.
A) 2 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 5 ta

46. Qaysi javobda quyidagi huquqiy hujjatlarning qaysi davlatlarda chiqarilganligi to'g'ri ko'rsatilgan?
1) "100 moddali Farmon"; 2) "Adolat farmoni";
a) Rossiya; b) Eron; c) Usmonli Turk imperiyasi; d) Xitoy; e) Yaponiya;
f) Afg'oniston.
A) 1-f, 2-e B) 1-b, 2-d C) 1-e, 2-c D) 1-e, 2-a

47. Quyidagi hukmdorlarning davlatni boshqargan yillarini aniqlang.
1) Oda Nabunaga; 2) Akbarshoh; 3) Karl I;
4) Fridrix II; 5) Abbos I;
a) 1550-1605-yy.; b) 1587-1629-yy.;
c) 1773-1782-yy.; d) 1625-1649-yy.;
e) 1740-1786- yy.
A) 1-a,2-b,3-c,4-d,5-e B) 1-b,2-c,3-a,4-d,5-e
C) 1-b,2-a,3-d,4-e,5-d D) 1-b,2-a,3-c,4-e,5-d

## III-bob. XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Yevropa davlatlari.

### 24- §. XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Buyuk Britaniya.

1. XIX asrning 60-yillari oxirigacha bo'lgan davrda Buyuk Britaniyada qaysi sanoat sohalari yetakchi o'rinni egalladi?

A) oziq-ovqat, kiyim-kechak, gazlama mahsulotlari
B) to`qimachilik, metallurgiya, mashinasozlik, kon sanoati
C)mashinasozlik, metallurgiya, energetika, kimyo, neft tarmoqlari
D) mashinasozlik, kon sanoati, kiyim-kechak, gazlama mahsulotlari

2. 1816-yilda Buyuk Britaniyada mashinalashgan ishlab chiqarish oqibatida mashinalar qancha odamning qo`l mehnatiga teng ishni bajardi?
A) 150 mln B) 15 mln
C) 25 mln D) 50 mln

3.Qachon mashinasozlikda turli xil dastgoh (stanok) larning yaratilishi ishlab chiqarishda inqilobga teng ixtiro bo'ldi?
A) XIX asr o`rtalarida
B) XIX asr 40-yillarida
C) XIX asrning oxirlarida
D) XIX asr birinchi yarmida

4.Qaysi sohaning rivojlanishi metallni qayta ishlash imkonini berdi?
A) mashinasozlik B) metallurgiya
C) neftni qayta ishlash D) stanoksozlik

5.1816-yilga kelib Buyuk Britaniya aholisi qanchani tashkil etgan?
A) 17 mln B) 12 mln
C) 22 mln D) 30 mln

6.Dunyodagi birinchi temiryo'l qaysi davlatda qurilgan?
A) Rossiya B) Fransiya C) AQSh
D) Buyuk Britaniya

7. Birinchi temir yo`l qurilgan mamlakatni aniqlang.
A) AQSh B) Buyuk Britaniya C) Fransiya
D) Germaniya

8.Dunyoda birinchi temir yo`l qurilgan davrda Buxoro taxtida kim hukmronlik qilgan?
A) Amir Shohmurod B) Amir Muzaffar
C) Amir Haydar D) Amir Nasrullo

9. Qaysi hodisa Buyuk Britaniyaning turli mintaqalarini bir-biri bilan tutashtirilishini hamda yuk tashishning arzonlashuvini ta'minladi?
A) bug` mashinasi asosiy kuch bo`lib qolishi
B) sanoat inqilobining tugallanishi
C)sanoat ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi
D) temir yo`l qurilishi

10. Quyidagi ko`rsatilgan sabablardan qaysi biri cho`yan, temir va po`latga bo`lgan ehtiyojni oshirib yubordi?
A) sanoat ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi
B) sanoat inqilobining tugallanishi
C) temiryo`l qurilishining boshlanishi
D) bug` mashinasi asosiy kuch bo`lib qolishi

11. XIX asrda Buyuk Britaniyada parovozsozlik paydo bo`lishi ...
A) qudratli savdo va harbiy dengiz floti yaratishga imkon berdi.
B) sanoat inqilobining tugallanishiga imkon berdi.
C)mamlakatda sanoat ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuviro`y berdi.
D) mamlakat iqtisodiyotida yetakchilik qishloq xo`jaligidan sanoatga o`tdi.

12. Qaysi asr insoniyat tarixiga bug` asri bo`lib kirgan?
A) XVIII asr B) XVII asr C) XVI asr
D) XIX asr

13.Angliya qishloq xo'jaligida mashinalar va kimyoviy o'g'itlar ishlatish boshlangan vaqtni aniqlang.
A) XIX asr 70-yillari
B) XIX asr 40-yillari
C) XIX asr 60-yillari
D) XIX asr 50-yillari

14. XIX asrning 60-yillari oxirigacha bo`lgan davrda Buyuk Britaniya hayotidagi qaysi o`zgarishlar Buyuk Britaniyaning «dengizlar hukmroni» mavqeini yanada mustahkamladi?
1) mashinalashgan ishlab chiqarish; 2) temir-yo`l qurilishi; 3) parovozsozlik paydo bo`lishi, 4) qudratli savdo va harbiy dengiz floti yaratilishi; 5) sanoat ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi; 6) sanoat inqilobining tugallanishi.

A) 1, 2, 3, 4, 5, 6 B) 1, 2, 3, 4 C) 1, 3, 5
D) 2, 4, 6

15.Qachon Buyuk Bitaniyada sanoat to'ntarishi tugallandi?
A) XIX asrning o'rtalarida
B) XIX asrning boshlarida
C) XIX asrning 40-yillarida
D) XIX asrning 60-yillarida

16. XIX asrning 40-yillariga kelib Buyuk Britaniyada qaysi holatlar sanoat inqilobi tugallanishi-ning ro`y berishiga olib keldi?
A) sanoat ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuviningro`y berishi
B) mashinalashgan ishlab chiqarish
C)sanoatning gurkirab rivojlanishi va ilm-fan taraqqiyoti
D) temiryo`l qurilishining boshlanishi

17. Sanoat inqilobining tugallanishi – bu ...
A) mamlakatda sanoat ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi deganidir.
B) mashinalarning o`zini mashinalar yordamida ishlab chiqarish deganidir.
C)mamlakat iqtisodiyotida yetakchilik qishloq xo`jaligidan sanoatga o`tishi deganidir.
D) mamlakatda yagona bozorning vujudga kelishi deganidir.

18. XIX asrning 40-yillariga kelib qaysi yoqilg`i yoqilg`ining eng muhim turiga aylandi?
A) neft B) benzin C) kerosin
D) toshko`mir

19. Buyuk Britaniya parlamenti qachon ish tashlashda qatnashishni taqiqlovchi qonun qabul qildi?
A) 1832-yilda B) 1816-yilda C)1825-yilda
D) 1867-yilda

20. Nimaning natijasida Buyuk Britaniyada parlament islohoti o`tkazish masalasi zaruratga aylandi?
A) sanoat inqilobi natijasida
B) parlamenti tomonidan ish tashlashda qatnashishni taqiqlovchi qonunning qabul qilinishi natijasida
C)qishloq xo`jaligida agrar to`ntarish natijasida
D) mamlakatda yagona bozorning vujudga kelishi

21 1832-yilgi Buyuk Britaniyadagi parlament islohotlari natijasida yirik sanoat markazlariga parlamentdan 144 o'rin ajratilishi...
A) qo`zg`olonlarning avj olishiga olib keldi
B) sanoat burjuaziyasining keskin noroziligiga sabab bo`ldi
C) sanoat burjuaziyasining siyosiy jihatdan hukmronligini mustahkamladi
D) yirik yer egalari - lendlordlar noroziligiga sabab bo'ldi

22. Buyuk Britaniyada 1 parlament islohoti nimani o`zgartirdi?
A) mamlakat byudjetini nazorat qilish huquqini o`zgartirdi
B) yuqori palata mavqeini
C) parlamentga saylov tartibini
D) monarxiya tizimini

23. Jahon tarixida birinchi marta qaysi davlat-da mamlakat iqtisodiyotidagi yetakchilik qishloq xo'jaligidan sanoatga o'tdi?
A) Fransiya B) Gollandiya C) Italiya
D) Buyuk Britaniya

24 XIX asrda Buyuk Britaniya tarixida bir yilda yuz bergan voqealarni toping.
1)Shaharlarda o'z uyiga ega bo'lgan hamda alohida xonadonda turadigan barcha erkaklarga saylov huquqi berilishi;
2)Londonda ishchilarning "Umumiy saylov huquqi uchun kurash ishchi asotsiyasiyasi" tuzilishi; 3)Buyuk Britaniya parlamenti tomonidan ish tashlashlarni taqiqlovchi qonun qabul qilinishi; 4)Kanadaga dominion maqomi berilishi.
A) 2,4 B) 1,3 C) 1,4 D) 2,3

25. Buyuk Britaniya parlamenti 9 yoshgacha bo'lgan bolalarning mehnatini taqiqlovchi qonunni qachon qabul qilgan?
A) 1832-yilda B) 1833-yilda C) 1867-yilda
D) 1836-yilda

**25- §. Fransiyada Birinchiimperiya va uning halokati.**

1.1799-yilgi davlat to`nltarishidan so`ng Fransiyaning I konsuliga aylangan Napoleon Bonapart nimaga intila boshladi?
A) yakka hokimlikka
B) Yevropani zabt etishga
C) Fransiyani Yevropada mavqei oshirish
D) Rossiya bilan do`stlik bitimini tuzish

2. Qachon Napoleon Bonapart Senatdan o`zini «Fransuzlar imperatori Napoleon I» deb e'lon qilinishini talab etdi?
A) 1799-yilda B) 1805-yilda C)1804-yilda
D) 1806-yilda

3.Fransiyada Napoleon I davrida qayta tiklangan monarxiya qaysi kuchlarga tayanar edi?
1) zodagonlarga; 2) yirik burjuaziyaga;
3) mayda mulkdorlarga; 4) hunarmandlarga;
5) qo'shinga; 6) davlat amaldorlariga
A) 2, 5, 6 B) 2, 3, 4 C) 1, 4, 6 D) 1, 2, 3

4. Napoleon I qaysi davlatga nisbatan qit'a qamali e'lon qilinganligi haqidagi dekretni imzoladi?
A) Buyuk Britaniyaga
B) Rossiyaga
C) Germaniyaga
D) Gollandiyaga

5. Napoleon I ning qaysi siyosati Fransiyani Yevropa va jahon hukmronligi uchun o`z tinkasini quritadigan urushga duchor etdi?
A) Direktoriya siyosati
B) davlat to`ntarishi
C) Tilzit shartnomasi
D) qit'a qamali

6."Tilzit sulhi" 1807 yilda qaysi davlatlar o'rtasida imzolangan?
A) Fransiya va Rossiya
B) Fransiya va Germaniya
C) Rossiya va Germaniya
D) Angliya va Fransiya

7. Deyarli butun Yevropani bo`ysundirgan Napoleon qaysi davlatlarni bo`ysundira olmadi?
A) Gollandiya va Ispaniyani
B) Buyuk Britaniya va Rossiyani
C)Italiya va Portugaliyani
D) Buyuk Britaniya va Gollandiya

8. Quyidagi qaysi holat Napoleonga qit'a qamali siyosatidan ko`zlangan maqsadiga erishish imkonini bermadi?
A) Buyuk Britaniya harbiy flotining g`oyatda qudratliligi
B) Rossiyaning qat'iy qarshiligi
C)Yevropada boshlanib ketgan milliy-ozodlik harakatlari
D) Fransiyada sulolaviy kurash

9. Rossiya Napolen I ning qit'a qamali siyosatiga qo`shilgan bo`lsada qaysi davlat kemalarida o`z tovarlarini Buyuk Britaniyaga yuborishni davom ettirdi?
A) AQSh
B) Gollandiya
C) Ispaniya
D) Portugaliya

10. Qaysi holatlar Fransiya aholisi Napoleon I siyosatidan norozilikni kuchaytirib bordi?
A) feodal tartiblarning kuchayib ketishi
B) harbiylarning zo`rovonligi
C) ming-minglab navqiron yigitlarning halok bo`lishi, soliqlarning ortishi, qit'a qamalidan ko`rilayotgan iqtisodiy zarar
D) dehqonlarning yer-mulklarini tortib olinishi

11. Qachon Napoleon armiyasi Rossiyaga hujum boshladi?
A) 1812-yilning 24-iyunida
B) 1812-yilning 7-sentabrda
C)1815-yilning 7-martida
D) 1814-yilning 24-iyunida

12. Fransiya-Rossiya qo`shini o`rtasidagi jang qachon bo`lib o`tdi?
A) 1812-yilning 24-iyunida
B) 1815-yilning 7-martida
C) 1813-yilning 24-oktabrda
D) 1812-yilning 7-sentabrida

13. Fransiya va Rossiya qo`shini o`rtasidagi hal qiluvchi jang qayerda bo`lib o`tdi?
A) Leypsig ostonasida
B) Moskva yaqinidagi Borodino qishlog`ida

C) Vaterloo yaqinida
D) Bobruuysk yaqinida

14.Rus va fransuz qo'shinlari o'rtasidagi Moskva yaqinidagi Borodino qishlog'ida bo'lib o'tgan jangda rus qo'shinlariga qo'mondonlik qilgan sarkardani aniqlang.
A) Kutuzov B) Aleksandr I C) Suvorov
D) Brusilov

15. Napoleon I armiyasining qaysi jangdan so'ng o'zini qayta tiklab ololmadi?
A) Leypsig jangidan so'ng
B) Vaterloo jangidan so'ng
C)Bobruuysk jangidan so'ng
D) Borodino jangidan so'ng

16. Leypsig ostonasidagi jang tarixga qanday nom bilan kirgan?
A) «Austerlis jangi» B) «Nivel qirg'ini»
C) «Xalqlar jangi» D) «Buyuk chekinish»

17.Qaysi javobda Fransiyada Birinchi imperiya davrida yuz bergan voqealar to'g'ri xronologik ketma-ketlikda joylashtirilgan?
1) Rossiya bilan urush; 2) Napoleon tomonidan Avstriyaning oiinishi; 3) Parijda Napoleonning 100 kunlik boshqaruvi; 4) Tilzit sulhining imzolanishi;5) Leypsig ostonasidagi jang; 6) Napoleon I ning Fransiya imperatori deb e'lon qilinishi; 7) Prussiya-ning egallanishi.
A) 3, 5, 6, 7, 4, 1, 2 B) 4, 5, 6, 1, 2, 3, 7
C) 2, 4, 6, 1, 3, 5, 7 D) 6, 2, 7, 4, 1, 5, 3

18. «Xalqlar janggi» qachon bo'lib o'tdi?
A) 1815-yil martida
B) 1812-yil sentabrida
C)1813-yil oktabrda
D) 1812-yil iyunida

19. Qachon Yevropaning ittifoqchi davlatlari Napoleon I yengib Parij shahriga kirib keldi?
A) 1812-yilda B) 1815-yilda C) 1807-yilda
D) 1814-yilda

20."Vaterloo jangi" qayerda bo'lib o'tgan?
A) Germaniyada B) Avstriyada
C) Gollandiya D) Belgiyada

21. Napoleon I taxtdan voz kechgach uni qayerga surgun qildilar?
A) Muqaddas Yelena oroli
B) Elba oroliga
C) Malta oroliga
D) Sardiniya oroliga

22. Napoleon I taxtdan voz kechgach Yevropaning ittifoqchi davlatlari Fransiyada qaysi sulola hokimiyatini tiklashga qaror qildilar?
A) Burbonlar sulolasi
B) Gabsburglar sulolasi
C) Karolinglar sulolasi
D) Merovinglar sulolasi

23. XIX asr boshlarida Fransiyada Burbonlar sulolasi hokimiyati qayta tiklanganidan so'ng Senat qarori bilan kim taxtga o'tkazildi?
A) Lyudovik XVIII B) Lyudovik XVI
C) Lyudovik XVII D) Lyudovik XIV

24. Lyudovik XVIII bilan Yevropaning ittifoqchi davlatlari bilan tuzilgan sulh shartnomasiga ko'ra …
A) Napoleon davrida xizmat qilgan 120 mingdan ko'proq zobitning, 10 mingdan ortiq davlat xizmatchisining ishdan bo'shatildi.
B) eski feodal tartiblar tiklandi, bu tartiblarning tarafdorlari qo'llaridan ketgan mol-mulklarini qaytarib berildi.
C) Fransiya Napoleon davrida bosib olgan barcha hududlardan mahrum etildi.
D) Fransiyaga 700 mln frank oltin hisobida kontributsiyato'lash majburiyati yuklandi.

25.XIX asr boshlarida Fransiyada Burbonlar sulolasi hukmronligi tiklansa ham nega mamlakatda ichki vaziyat murakkablashib bordi?
A) eski feodal tartiblar tarafdorlarining Konstitutsiyaviy monarxiya tiklashga urinishi
B) eski feodal tartiblar tarafdorlarining mutlaq monarxiya tiklashga urinishi
C) Ikkinchi yuz yillik urushning boshlanishi
D) burjuaziya va dehqonlar qo'zg'olon kotarishi

26. Nima sababdan Napoleon I hokimiyatdan voz kechgach mamlakatda ichki vaziyat murakkablashib bordi?

A) Lyudovik XVIII faoliyat yuritayotgan parlamentni tarqatib yuborishi
B) soliq miqdorining oshirilishi
C)eski feodal tartiblar tarafdorlarining mutlaq monarxiyani tiklashni va qo`llaridan ketgan mol-mulklarini qaytarib berishni talab qilishlari
D) Fransiyaning Napoleon davrida bosib olgan barcha hududlardan mahrum etilishi

27. Qachon Napoleon Elbadan Fransiyaning janubiga yetib keldi?
A) 1815-yilning mart oyida
B) 1812-yilning iyun oyida
C)1813-yilning oktabr oyida
D) 1815-yilning iyun oyida

28. Qachon Napoleon Parij shahrini egallab, yana imperatorlik taxtiga o`tirdi?
A) 1812-yilning 24-iyunida
B) 1815-yilning 18-iyunida
C) 1815-yilning 20-martida
D) 1813-yilning 16-oktabrida

29. Napoleon ikkinchi bor hokimiyatni necha kun egallab turishga muvaffaq bo`ladi?
A) 30 kun B) 100 kun C)90 kun
D) 150 kun

30. «Vaterloo jangi» qachon va kimlar o`rtasida bo`lib o`tadi?
A) 1812-yilning 24-iyunida Napoleon va Rossiya
B) 1815-yilning 20-martida Napoleon va Lyudovik XVIII qo`shini o`rtasida
C)1813-yilning 16-oktabrida Napoleon va Rossiya, Buyuk Britaniya, Prussiya va Avstriyadan iborat Yevropaning ittifoqchi davlatlari
D) 1815-yilning 18- iyunida Napoleon va Yevropaning ittifoqchi davlatlari o`rtasida

31. Ikkinchi bor asir olingan Napoleon qayerga surgun qilindi?
A) Elba oroliga
B) Korsika oroliga
C) Muqaddas Yelena oroliga
D) Normand orollariga

32. Napoleon Bonapart qachon va qayerda vafot etadi?
A) 1821-yilda Muqaddas Yelena orolida
B) 1815-yilda Elba orolida
C) 1825-yilda Korsika orolida
D) 1818-yilda Normand orollarida

33. Qaysi javobda "Vena kongressi"ning (1815-yil) ishtirokchi davlatlari ko'rsatilgan?
1) Buyuk Britaniya; 2) Italiya; 3) Avstriya;
4) Prussiya; 5) Rossiya; 6) Daniya;
7) Ispaniya; 8) Gollandiya;9) Portugaliya.
10) Fransiya; 11) Shvetsiya.
A) 1, 3, 4, 5, 7, 8, 9, 10
B) 1, 3, 4, 5, 7, 9, 10, 11
C) 1, 3, 4, 5, 6, 8, 9, 10
D) 1, 2, 3, 4, 5, 8, 10, 11

34. Vena Kongressida qatnashgan davlatlarni aniqlang.
1) Buyuk Britaniya; 2) Italiya; 3) Daniya;
4) Ispaniya; 5) Avstriya; 6) Polsha;
7) Belgiya; 8) Rossiya; 9) Prussiya;
10) Shvetsiya; 11) Portugaliya; 12) Fransiya
A) 2, 3, 6, 7, 8, 10, 11, 12
B) 3, 4, 5, 6, 7, 9, 10, 11
C) 1, 2, 3, 8, 10, 11, 12
D) 1, 4, 5, 8, 9, 10, 11, 12

35. Jahon tarixida birinchi bor qabul qilingan qaysi hujjatda qora tanli qullar savdosini taqiqlovchi deklaratsiya qabul qilingan?
A) Jeneva Konferensiyasida
B) Vena kongressida
C) Riga shartnomasida
D) Vestfallya sulhi shartnomasida

36.... negr-qullar savdosini taqiqlovchi deklaratsiya qabul qilindi.
A) Versal tinchlik shartnomasida
B) Parij tinchlik shartnomasiga ko'ra
C) Vena kongressida
D) Vetfaliya sulh shartnomasiga ko'ra

37. Polshaning g'arbiy qismi, Vena kongressi qarorlariga binoan, qaysi davlat qo'liga o'tdi?
A) Avstriya B) Prussiya
C) Rossiya D) Gollandiya

38. Vena kongressining asosiy maqsadi nimalardan iborat bo`lgan?

A) Napoleon I ning imperiyasiga butunlay barham berish. Napoleonning keving hayotini hal qilish
B) Yevropani g`oliblar manfaati yo`lida qayta tuzish
C) Yevropada kelgusida ro`y berish mumkin bo`lgan inqiloblarga qarshi birgalikda kurashish
D) Fransiyada Burbonlar sulolasi hukmronligiga va bu sulola hukmdorlari Yevropaning g'oyaviy manfaatlariga rioya qilib ish olib borishga

39.Vena kongressi qarorlariga binoan, Avstriya ...
A) Fransiyaga qarashli Vestfaliyaga ega bo`ldi
B) Belgiyani o`ziga qo'shib oldi
C) Shimoliy Italiyada mustahkamlanib oldi
D) Polshaning g`arbiy qismiga ega bo'ldi

40.1814-yildagi Vena kongressiga ko`ra shimoliy Italiya hududlarida mustahkamlanib olgan davlatni ko'rsating.
A) Avstriya B) Prussiya
C) Ispaniya D) Polsha

41. 1815-yilda Vena Kongressining yakunlovchi hujjatini imzolagan Buyuk Britaniyaning asosiy maqsadi nimadan iborat edi?
A) Fransiyaning zaiflashuviga erishish, o`zining dengizdagi va mustamlakalar bosib olishdagi ustunligini saqlab qolish
B) Fransiyada Burbonlar sulolasi hokimiyatini tiklash
C) Fransiyada eski o`rta asr feodal tuzumini tiklash
D) Yevropada kelgusida ro`y berishi mumkin bo`lgan inqiloblarga qarshi birgalikda kurash olib borish

42. Quyidagi qaysi davlat Vena kongressi qaroriga ko'ra, Malta, Seylon orollari va Afrika janubidagi Kapa yerlariga ega bo'ldi?
A) Portugaliya B) Gollandiya C) Ispaniya
D) Buyuk Britaniya

43.Qaysi javobda Shveytsariyaga abadiy betaraf davlat maqomi berilgan hujjat keltirilgan?
A) 1919 yildagi "Tinchlik shartnomasi"
B) Berlin kongressi qarori
C) 1807 yildagi "Tilzit shartnomasi"
D) 1815 yilgi Vena kongressi qarori

44.Vena Kongressiga ko'ra Belgiya
A) mustaqil deb e'lon qilindi.
B) Ispaniyaga qo'shib berildi.
C) Gollandiyaga qo'shib berildi.
D) abadiy betaraf maqomiga ega bo'ldi.

45. Quyidagi javoblarning qaysi biri 1814-yildagi Vena kongressi bilan umuman aloqador emas?
A) Buyuk Britaniyaning Seylon oroliga egaligi tan olinishi
B) Rossiya Qora dengiz bo'yida harbiy flot qurish huquqini qo'lga kiritishi
C) Shveysariyaning mustaqilligi tiklanishi va abadiy betaraf maqomga ega bo'lishi
D) Qora tanli qullar savdosini taqiqlovchi deklaratsiyaning qabul qilinishi

46.Vena Kongressiga ko'ra 39 ta davlatdan iborat Germaniya ittifoqi tuzilganidan oldin Germaniya nechta mayda davlatga bo'linib ketgan edi?
A) 300 dan ortiq B) 200 dan ortiq
C) 100 dan ortiq D) 250 dan ortiq

47. Vena Kongressining yakunlovchi hujjatiga ko`ra tashkil etilgan Germaniya ittifoqiga qaysi davlatning yetakchi roli e'tirof etildi?
A) Prussiyaning
B) Bavariyaning
C)Avstriyaning
D) Saksoniya

48. 1814-yilda Vena Kongressining yakunlovchi hujjatiga ko`ra Rossiyaga qaysi hudud berildi?
A) Malta, Seylon orollariga, Afrikaning janubidagi Kapa yeri
B) Reyn viloyati, Vestfaliya, Polshaning g`arbiy yerlari
C) Shimoliy Italiya
D) Polshaning katta qismi

49. Vena Kongressining yakunlovchi hujjatiga ko`ra Fransiya hududi ...

A) sakkiz qismga bo`lib tashlandi.
B) bosib olingan hudud doirasida qoldirildi.
C)o`zining avvalgi chegarasigacha qisqartirildi.
D) 1/3 qismgacha qisqartirildi

50. Vena Kongressining yakunlovchi hujjatiga ko`ra Fransiyaga qancha miqdorda kontributsiyato`lash majburiyati yuklandi?
A) 800 mln frank oltin hisobida
B) 450 mln frank oltin hisobida
C) 675 mln frank oltin hisobida
D) 700 mln frank oltin hisobida

51. Vena Kongressining qaroriga ko`ra Fransiya kontributsiyani to`lagunga qadar uning qaysi qismi ittifoqchilar qo`shini tomonidan ishg`ol qilinadigan bo`ldi?
A) shimoliy B) sharqiy
C)janubiy D) g`arbiy

52. Vena Kongressining qaroriga ko`ra qaysi davlat ikkinchi darajali davlat maqomiga tushib qoldi?
A) Ispaniya B) Fransiya C)Portugaliya
D) Avstriya

53. «Muqaddas Ittifoq» nima maqsadda tuzildi?
A) Fransiyaning zaiflashuviga erishish
B) Yevropada kelgusida ro`y berishi mumkin bo`lgan inqiloblarga qarshi birgalikda kurash
C)o`zining dengizdagi va mustamlakalar bosib olishdagi ustunligini saqlab qolish
D) negr-qullar savdosini taqiqini ro`yobga chiqarish

54.Yevropada ro'y berishi mumkin bo'lgan inqilobiy harakatlarga qarshi birgalikda kurashish maqsadida 1814-yilda "Muqaddas ittifoq" tuzgan davlatlarni aniqlang.
A) Fransiya, Italiya, Gretsiya
B) Rossiya, AQSh, Avstriya
C) Avstriya, Germaniya, Angliya
D) Rossiya, Avstriya, Prussiya

55. Urushda yetkazilgan zarar o`rnini qoplash uchun to`lanadigan to`lov nima ded ataladi?
A) dividend
B)remonstratsiya
C)konkista
D) kontributsiya

## 26- §. Fransiyada Ikkinchi imperiyaning o'rnatilishi.

1. Fransiyada Lyudovik XVIII davrida aholining qancha foizi saylov huquqiga ega bo`ldi?
A) 40 foizi
B) 1 foizga yaqini
C) 57 foizi
D) 39 foizi

2. Lyudovik XVIII davrida Fransiyada kimlar saylov huquqiga ega emasdi?
A) ayollar va xizmatchilar
B) dvorayanlar, davlat amaldorlari va ishchilar
C)burjuaziya, hunarmandlar, ishchi va dehqonlar
D) harbiylar, ishchi va dehqonlar

3. 1830-yilda Fransiya qiroli mamlakat parlamentini tarqatib yuborishi va yangi parlamentga saylov huquqi yanada ko`proq cheklanishni ma`lum qilinishi ...
A) Parij shahrida inqilob boshlanishiga olib keldi
B) mutloq monarxiyaning shakllanishiga olib keldi
C)Napoleon tarafdorlaridan o`ch ola boshlanishiga olib keldi.
D) monarxiya va respublika tarafdorlarining bir-biriga o`zaro yon berib, o`zaro murosada yashashlariga erishishiga olib keldi.

4.Fransiyada Karl X hukmronligi davrida yuz bergan inqilobning maqsadi to'g'ri ko`rsatilgan javobni toping.
A) Burbonlar hokimiyatini mustahkamlash
B) monarxiyani tiklash
C) Fransiyada Respublika tuzumini o'rnatish
D) Napoleon tarafdorlari hokimiyatini qayta tiklash

5.Qaysi javobda Fransiya parlamentiga o'tkaziladigan saylovda Karl X tomonidan saylov huquqining cheklanishi sababli Parijda boshlangan inqilobning harakatlantiruvchi kuchlari to'g'ri ko'rsatilgan?
1) mayda feodallar; 2) o'rta feodallar;
3) burjuaziya; 4) ishchilar; 5) hunarmandlar;

6) dehqonlar; 7) talabalar
A) 1, 2, 3, 7 B) 3, 4, 5, 7 C) 4, 5, 6, 7
D) 1, 4, 6, 7

6. 1830-yil Parijda boshlangan inqilobning harakatlantiruvchi kuchlari kimlar edi?
A) savdogarlar, ziyolilar, dehqonlar
B) ishchilar, hunarmandlar, talabalar
C) dehqonlar, chorvadorlar, may da burjuaziya
D) hunarmandlar, harbiylar, mayda yer egalari

7. Fransiyada 1830-yilda ro`y bergan inqilob natijasida hokimiyat kimlar qo`liga o`tdi?
A) harbiylar, ishchi va dehqonlar qo`liga o`tdi.
B) ishchilar, hunarmandlar va studentlar qo`liga o`tdi.
C)yirik burjuaziya - bank, yirik sanoat korxonalari, birjalar, yollanma mehnatdan foydalanuvchilar qo`liga o`tdi.
D) ishchi va xizmatchilar qo`liga o`tdi.

8. Fransiyada iyul monarxiyasi o'rnatilgan davrda qabul qilingan Konstitutsiyada qanday erkinliklar e'lon qilingan edi?
1) siyosiy partiyalarga birlashish; 2) so'z erkinligi; 3) erkin saylovlar; 4) matbuot erkinligi; 5) vijdon erkinligi; 6) yig'inlar o'tkazish erkinligi
A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 6 C) 2, 4, 5 D) 1, 4, 5

9."Iyul monarxiyasi" davrida (Fransiya) Lion ishchilarining qo'zg'olonlari qaysi yillari bo'lib o'tgan?
A) 1847-1848 yy B) 1831 va 1834 yy
C) 1844 va 1847 yy D) 1815-1820 yy

10. Nima sababdan Lion shahri to`quvchilari 1831-yilda qo`zg`olon ko`tardilar?
A) respublika tuzumi o`rnatilishini talabini rad etilishi
B) korxona egalari to`quvchilarning ish haqini oshirish haqidagi talabini rad etishi
C)mamlakat parlamentini tarqatib yuborishi va yangi parlamentga saylov huquqi yanada ko`proq cheklanishni ma'lum qilinishi
D) ishsizlik va iqtisodiy inqiroz

11."Ishlab yashaylik yoki jang qilib o'laylik" shiori qaysi qo'zg'olonchilarga tegishli?
A) bolgardagi qo'zgolouchilarga
B) Lion to'qimachilariga
C) Bobek boshchiligidagi D) dekabristlarga

12. Lion shahri to`quvchi ishchilari ikkinchi bor qo`zg`olon ko`targanda qanday talab bilan chiqdilar?
A) respublika tuzumini o`rnatish
B) faqat ish haqini oshirish
C)cheklangan monarxiyani o`rnatish
D) so`z, matbuot, yig`inlar o`tkazish erkinliklari e'lon qilish

13. 1848 yilgacha davom etgan (Fransiya) Lui Filipp Orleanskiyning hukmronligi davri tarixda qanday nom olgan?
A) Respublika davri B) "Yuz kun"
C) Yakobinchilar diktaturasi
D) Iyul monarxiyasi

14.1848 yilgacha davom etgan va Iyul monarxiyasi deb nom olgan hukmronlik kimning davriga to'g'ri keladi?
A) Ludovik XVIII ning
B) Ludovik XVII ning
C) Luyi Filipp Orleanskiyning D) Karl X ning

15. Qaysi yillarda Fransiyada qurg`oqchilik ro`y berdi?
A) 1848 va 1851-yillarda
B) 1832 va 1836-yillarda
C)1831 va 1834-yillarda
D) 1845 va 1847-yillarda

16. Qachon Yevropa davlatlari iqtisodiyotini inqiroz qoplab oldi?
A) 1845-yilda B) 1847-yilda C)1848-yilda
D) 1851-yilda

17.Fransiyada Iyul monarxiyasi davrida ishchilar tomonidan ilgari surilgan qanday talablar yirik mulkdorlar tabaqasini cho'chitib qo'ygan edi?
1) Konstitutsiya moddalarini yangilash;
2) bo'lajak respublika mamlakatda ishsizlikni tugatishga qaratilgan qonunlarni qabul qilish;
3) barcha fuqarolar uchun mehnat qilish huquqini kafolatlovchi qonunlar qabul qiladigan respublika barpo etish; 4) qishloq

aholisiga saylov huquqi berish; 5) ish kunini qisqartiradigan va mehnat sharoitini yaxshilaydigan respublika o'rnatish;
6) xotin-qizlarga saylov huquqini beradigan respublika barpo etish
A) 1, 2, 4 B) 3, 4, 5 C) 1, 4, 6 D) 2, 3, 5

18. Tarixdan ma'lumki, 1848-yil Fransiyada inqilobning yuzaga kelishiga sharoit yetilgan vaziyatda burjuaziya uning oldini olish uchun hukumat oldiga islohotlar o'tkazish talabini qo'ydi. Uning asosini qanday masala tashkil etardi?
A) cheklangan monarxiya tuzumini o'rnatish
B) saylov huquqini kengaytirish
C) mamlakatda respublika tartibini o'rnatish
D) mutlaq monarxiyani o'rnatish

19. Fransiyada aholining qaysi qismi respublika tuzumining eng qat'iyatli tarafdori bo'ldilar?
A) yirik burjuaziya
B) ishchilar
C) hunarmandlar va studentlar
D) dehqonlar va ishchilar

20. 1848-yilning 23-fevralida Fransiyada ...
A) iqtisodiy inqiroz yuz berdi.
B) inqilob yuz berdi.
C)Lion to'quvchilari qo'zg'olon ko'tardilar.
D) ishsizlar uchun «Milliy ustaxona» deb ataluvchi jamoatchilik ishlari tashkil etildi.

21. Iyul monarxiyasi nimaning natijasida quladi?
A) 1848-yil fevral inqilobi
B) 1830-yil iyul inqilobi
C)1815-yil iyunda Burbonlarning qayta hokimiyatga kelishi
D) 1848-yilning dekabr oyida Lui Napoleon Bonapartning Fransiya Prezidenti etib saylanishi

22. 1848-yil fevral inqilobi natijasida Fransiya qachon Respublika deb e'lon qilindi?
A) 1851-yil 2-dekabrda
B) 1852-yil 2-dekabrida
C)1848-yil 25-fevralda
D) 1848-yil 23-fevralda

23. 1848-yil fevral inqilobi natijasida tashkil etilgan yangi hukumat qanday tadbirlarni amalga oshirdi?
1) matbuot, namoyishlar o'tkazish erkinligini e'lon qildi; 2) 21 yoshga to'lgan barcha erkaklarga saylov huquqi berildi; 3) barcha fuqarolarni ish bilan ta'minlash to'g'risida dekret qabul qilindi; 4) ishchilar uchun «Milliy ustaxona» deb ataluvchi jamoatchilik ishlari tashkil etildi; 5) ish vaqti 12-13 soat bilan cheklab qo'yildi.
A) 1, 3, 5 B)2, 4, 5 C) 1, 2, 3 D) 1, 3, 4

24. Qachon Fransiyaning hukmron tabaqalari Napoleon I Bonapartning jiyani Lui Napoleon Bonapartning Fransiya Prezidenti etib saylanishiga erishdilar?
A) 1848-yilning fevral oyida
B) 1848-yilning iyun oyida
C) 1848-yilning dekabr oyida
D) 1851-yilning dekabr oyida

25. Lui Napoleon Bonapartning asl maqsadi nima edi?
A) Fransiya imperiyasini tiklash edi.
B) Fransiya respublikasini e'lon qilish edi.
C)Fransiyada kuchli prezidentlik hokimiyatini o'rnatish edi.
D) Fransiyada parlamentli boshqaruvni joriy etish edi.

26. Lui Napoleon Bonapart qachon davlat to'ntarishi o'tkazdi va o'zi uchun xavfli bo'lgan kishilarning barchasini qamoqqa tashladi?
A) 1848-yil 23-fevralda
B) 1848-yil 2-dekabrda
C) 1852-yil 2-dekabrda
D) 1851-yil 2-dekabrda

27. 1852-yilning 2-dekabrida ...
A) Lui Napoleon Bonapart o'zini Napoleon III nomi bilan Fransiya imperatori deb e'lon qildi, Fransiyada Ikkinchi imperiya o'rnatildi.
B) Lui Napoleon Bonapart davlat to'ntarishi o'tkazdi va o'zi uchun xavfli bo'lgan kishilarning barchasini qamoqqa tashladi.
C)hukmron tabaqalar Napoleon I Bonapartning jiyani Lui Napoleon Bonapartning Fransiya Prezidenti etib saylanishiga erishdilar.

D) Fransiya tarixida inqilob boshlandi

28. Yangi tarix davrini eslang va quyidagi hukmdorlardan qaysilari turli sabablar tufayli o'z davlatini tashlab chet ellatrga ketishga majbur bo'lishgan edi.
1) Karl II; 2) Yakov II; 3) Karl X;
4) Genrix IX; 5) N.Bonapart; 6) Lyudovik XVI; 7) Lui Filipp; 8) Shohjahon; 9) Li Song
A) 4, 6, 7 B) 1, 3, 9 C) 2, 3, 7 D) 2, 5, 8

29. "Ikkinchi respublika"ning Fransiyada hukm surgan davrini aniqlang.
A) 1848 yildan 1852 yilgacha
B) 1876 yildan 1890 yilgacha
C) 1797 yildan 1804 yilgacha
D) 1900 yildan 1915 yilgacha

30. 1848-1852-yillarda Fransiyada nechanchi respublika hukm surdi?
A) birinchi respubiika
B) uchinchi respubiika
C) to'rtinchi respubiika
D) ikkinchi respubiika

31. 1852-yilda Fransiyada nechanchi imperiya e'lon qilindi?
A) 2 B) 1 C) 4 D) 3

32. Student bu ...
A) oliy o`quv yurti talabasi.
B) saylov huquqiga ega bo`lgan fuqaro.
C) bahsda yoki biror ta`limotni bayon qilishda aytiladigan asosiy fikr.
D) davlat boshlig`ining biror qonunni yoki qarorni kuchga kirishdan to`xtatib qo`yish huquqi.

33. Lotinchadan qunt bilan shug'ullanuvchi ma'nosini anglatuvchi so`zni qayd eting.
A) senzura B) edikt C) tezis
D) student

34. Fuqarolarning saylov huquqidan foydalanishlarini cheklaydigan shartlarni ifodalaydigan so`zni aniqlang.
A) senz B) petitsiya C) remonstratsiya
D) senzura

## 27- §. XIX asrning 70-yillarigacha bo`lgan davrida Germaniya va Italiya.

1. Germaniya inqilobining asosiy sababi nimadan iborat edi?
A) imperator tomonidan mamlakat parlamentini tarqatib yuborishi va yangi parlamentga saylov huquqini yanada cheklanishini e'lon qilinihi
B) imperator bilan mamlakat parlamenti va «isloh qilingan din» cherkovi o`rtasida vujudga kelgan qarama-qarshilik
C) o`rta asr feodal tartiblarning kapitalizm taraqqiyotiga to`siq bo`lib kelayotganligi
D) iqtisodiy inqiroz va ishsizlikning ortishi

2. Nimaning natijasida XIX asrning 60-yillari oxirigacha bo`lgan davrda Germaniyada siyosiy tarqoqlik hukm surdi?
A) o`rta asr feodal tartiblarning kapitalizm taraqqiyotiga to`siq bo`lib kelayotganligi
B) imperator bilan mamlakat parlamenti va «isloh qilingan din» cherkovi o`rtasida vujudga kelgan qarama-qarshilik
C) imperator mavqeining pastligi
D) yagona umumiy bozor vujudga kelmaganligi

3. Nimaning oqibatida XIX asrning 60-yillari oxirigacha bo`lgan davrda Germaniyada yagona umumiy bozor vujudga kelmadi?
A) tashqi savdoning rivoj topmaganligi
B) siyosiy tarqoqlik
C) mayda ishlab chiqarishning rivojlanganligi
D) yagona pulning yo`qligi

4. Qaysi omillar Germaniyada inqilobning yetilishiga olib keldi?
1) o`rta asr feodal tartiblarning kapitalizm taraq-qiyotiga to`siq bo`lib kelayotganligi; 2) siyosiy tarqoqlik; 3) yagona umumiy bozor vujudga kelmaganligi; 4) sanoat va qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi boshqa ilg`or davlatlardan orqada qolishi; 5) zo`ravonlikka asoslangan davlat apparati har qanday hur fikrni qatag`on qilishi; 6) imperator bilan mamlakat parla-menti va «isloh qilingan din» cherkovi o`rtasida vujudga kelgan qarama-qarshilik; 7) imperator tomonidan mamlakat parlamentini tarqatib yuborishi va yangi parlamentga saylov huquqini yanada cheklanishini e'lon qilinihi

A) 1, 2, 3, 4, 5
B) 1, 3, 5, 7
C) 2, 4, 6
D) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7

5. Germaniyada inqilobning asosiy maqsadi nimadan iborat edi?
A) respublika tuzumini o'rnatish
B) parlamentning mavqeini oshirish
C)Germaniyaning siyosiy tarqoqligiga barham berish va feodal tartiblarni tugatish
D) Germaniyada Rim papasining hukmronligiga chek qo'yish

6. Qaysi javobda 1848-yılda Germaniyada yuz bergan inqilobga rahbarlık qilgan kuchlar ko'rsatilgan?
A) burjuaziyaning respublika tarafdori bo'lgan qismi
B) respublika tarafdori bo'lgan ishchi, dehqon va harbiylar
C) monarxiya tarafdori bo'lgan kambag'allar
D) burjuaziyaning konstitutsiyaviy monarxiya tarafdori bo'lgan qismi

7. Qaysi javobda 1848-yildagi Germaniya inqilobining harakatlantiruvchi kuchlari to'g'ri ko'rsatilgan?
1) mayda va o'rta burjuaziya 2) dvoryanlar; 3) ziyolilar 4) ishchilar; 5) hunarmandlar
A) 3, 4, 5 B) 1, 4, 5 C) 1, 2, 3 D) 1, 3, 4

8. 1847-yilda Yevropada yuz bergan iqtisodiy inqiroz Germaniyada qanday oqibatlarga olib keldi?
A) ichki savdoni to'xtab qolishga olib keldi.
B) to'quvchilik korxonalarini to'xtab qolishga olib keldi
C)tashqi savdoni uzilib qolishga olib keldi
D) ishsizlikning ko'payishiga, ish haqining pasayishiga olib keldi, barcha tovarlar, jumladan oziq-ovqat mahsulotlari narx-navosi ko'tarilib ketdi

9. Nima sababdan 1848-yildagi Germaniya inqilobi davrida joriy etilgan Konstitutsiya amalda hukmron tabaqalar manfaatiga xizmat qildi?
A) Germaniya burjuaziyasi yetarli kuchga ega emasligi
B) Saylov huquqlari cheklanganligi
C) Konstitutsiya bevosita qirol xohishiga ko'ra tayyorlanganligi
D) burjuaziya qirol hokimiyati va katta yer egalari bilan kelishish yo'lini tutganligi

10. 1848-yilgi Germaniya inqilobining asosiy maqsadini ko'rsating.
1) Germaniyaning siyosiy tarqoqligiga barham berish. 2) Germaniyani Yevropaning qudratli davlatiga aylantirish.3) Feodal tartiblarni tugatish. 4) Feodal tartiblarni biroz yumshatish. 5) Germaniyada respublika tuzumini o'rnatish.
A) 1, 3 B) 4, 5 C) 2, 4 D) 1, 5

11. Germaniyada qachon inqilob boshlandi?
A) 1848-yil 23-fevralda
B) 1848-yil 25-martda
C)1848-yil 18-martda
D) 1848-yil 28-mayda

12.Prussiya qirolligida konstitutsiya joriy qilingan yilni toping.
A) 1846-yil B) 1849-yil
C) 1848-yil D) 1847-yil

13. Qachon Italiya qirolligi tuzilganligi e'lon qilindi?
A) 1861-yilda B) 1860-yilda C) 1862-yilda
D) 1865-yilda

14. Qaysi jihat Italiyani yagona davlatga birlashtirishga yordam berdi?
A) qirolning mavqeining mavjudligi
B) siyosiy jihatdan hamjihatlik
C)barcha aholining xohish istagi
D) til va madaniyat birligi

15.Italiyaning yagona davlat bo'lib birlashishida katta rol o'ynagan davlatni aniqlang.
A) Sitsiliya qirolligi
B) Venetsiya respublikasi
C) Sardiniya qirolligi D) Neapol qirolligi

16. XIX asrda Sardiniya qirolligi tomonidan Italiyani birlashtirish jarayonini eslang. Quyidagi qaysi shahar nisbatan keyinroq qo'shilgan?
A) Venetsiya B) Sitsiliya C) Milan D) Rim

17.Palermo shahri Juzeppe Garibaldi tomonidan egallanishidan oldin qaysi qirollik tarkibida bo'lgan?
A) Neapol B) Vatikan
C) Sitsiliya D) Sardiniya

18.Italiyani birlashtirish jarayoni kechayotgan davrda Italiya siyosiy tarqoqligining tayanchi bo'lib qolayotgan hududlarni aniqlang.
A) Sitsiliya va. Neapol
B) Sitsiliya va Sardiniya
C) Sardiniya va Neapol
D) Vatikan va Sitsiliya

19."Mehnat xartiyasi" nomli hujjat qabul qilingan mamlakat tarixida 1861-yilda sodir bo'lgan voqeani toping.
A) Fuqorolar urushi boshlandi
B) Poytaxtida Xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi
C) Birlashgan qirollik tashkil topdi
D) Krepostnoylik huquqi bekor qilindi

20.Sardiniya qirolligi bosh vaziri K.Kovur qanday davlat tuzumi tarafdori edi?
A) anarxiya B) konstitutsiyaviy monarxiya
C) mutlaq monarxiya D) respublika

21. Quyidagi qaysi shaxs Italiyani birlashtirish tarafdori bo'lgan milliy qahramon hisoblanadi?
A) D. Jolitti B) F. Krispi C) J. Garibaldi
D) L. Skalfaro

22. Italiya qirolligi tuzilgach mamlakatda ...
A) konstitutsiyaviy monarxiya qaror topdi hamda ikki palatali (Senat va Deputatlar palatasi) parlament joriy etildi.
B) mutloq monarxiya qaror topdi hamda ikki palatali (Senat va Deputatlar palatasi) parlament joriy etildi.
C) fransuzlarga qarshi milliy-ozodlik urushi boshlandi.
D) Avstriya zulmiga qarshi kurash boshlandi.

23. Rim shahri qachon Italiya qirolligiga qo`shib olindi?
A) 1861-yilda B) 1862-yilda C)1871-yilda
D) 1870-yilda

24. Qachon Italiyani yagona davlatga birlashtirish yakunlandi?
A) 1860-yilda B) 1861-yilda C) 1870-yilda
D) 1871-yilda

25.Ma'lumki, Italiyani birlashtirish jarayonida Avstriya zulmiga qarshi kurash olib borilib, mag'lubiyatga uchratilgan va sulh tuzilisluga erishilgan davrda Avstriya qo'lida qaysi viloyat qolgan edi?
A) Sardiniya B) Venetsiya
C) Milan D) Palermo

26. XIX asrda Germaniya birlashuvida qaysi davlat muhim rol o ynadi?
A) Bovariya B) Prussiya C) Saksoniya
D) Shlezvig-Golshteyn

27. XIX asrning 60-yillarida Germaniyadagi eng qudratli davlat edi?
A) Shlezvig-Golshteyn B) Saksoniya
C) Bovariya D) Prussiya

28. XIX asrning 60-yillarida Otto fon Bismark qaysi davlatda bosh vazirlik qilardi?
A) Saksoniya B) Bovariya C)Prussiya
D) Shlezvig-Golshteyn

29. Qachon bosh vazir Otto fon Bismark rahbarligi ostida 22 nemis davlatidan iborat «Shimoliy Germaniya Ittifoqi» tuzildi?
A) 1864-yilda B) 1865-yilda
C)1866-yilda D) 1870-yilda

30. Germaniyani birlashtirish yo`lidagi asosiy tashqi to`siq qaysi davlat edi?
A) Fransiya B) Rossiya
C)Buyuk Britaniya D) Ispaniya

31. Burjuaziyaning murosaga intiluvchi, muammolarni tinch yo'l bilan hal etish tarafdori, hukmron tabaqalar bilan kelishishga intiluvchi qismi nima deb ataladi?
A) samoderjaviye B) mo`tadil burjuaziya
C)kontrreformatsiya D)diktatura

## 28- §. XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Rossiya imperiyasi.

1. XIX asrning 70-yillarigacha bo lgan davrda Rossiyada jamiyat taraqqiyotiga nima katta g`ov bo`lib qoldi?

A) kapitalistik munosabatlarning rivoj topishi
B) bosqinchilik urushlarni amalga oshirilishi
C) krepostnoylık tartibları
D) siyosiy tarqoqlikning hukm surganligi

2.1812-yilgi Fransıya - Rossıya urushida erishilgan g'alabadan keyin podsho Rossiyasida mavjud boshqaruv tartibi va krepostnoylik huquqi ...
A) isloh qilindi. B) bekor qilindi.
C) saqlanib qolaverdı.
D) qisman o'zgartirildi.

3.Rossiyada samoderjavie va krepostnoylikka qarshi aniq dastur bilan kurash boshlagan Dekabristlar nechta maxfiy jamiyat tuzgan edi?
A) ikkita B) uchta C) beshta D) to'rtta

4.Rossiyada samoderjavıye va krepostnoylikka qarshi aniq dastur bilan kurash boshlagan Dekabristlar kimlarning farzandlari edi?
A) dehqonlarning B) konchilarning
C) hunarmandlarning D) zodagonlarning

5. Dekabristlar Rossiyadagi mavjud tuzumni qay tartibda o'zgartirishga harakat qilganlar?
A) parlament yo'li bilan
B) qurolli qo'zg'olon yordamida
C) evolyutsion yo'li bilan
D) ma'rifatli hukmdor yordamida

6. Qaysi javobda Rossiya dekabristlari yetakchilaridan biri - R.I.Pestel yaratgan kostitutsiya loyihasining nomi to'g'ri berilgan?
A) «Adolat ko'zgusı»
B) «Milliy konstitutsiya»
C) «Rus haqiqati» D) «Adolat qonuni»

7."Rus haqiqati" deb atalgan konstitutsiya loyihasini kim yaratgan edi?
A) A.Alekseyev B) N.Muravyov
C) Nikolay I D) P.Pestel

8. «Rus haqiqati» loyihasida nimalar nazarda tutilgan?
A) Rossiyani konstitutsiyaviy monarxiya deb e'lon qilishni, hamma fuqarolar uchun teng saylov huquqi asosida saylanadigan «Xalq Vechesi»ning Rossiya parlamenti bo'lishni
B) mulk senzi asosida saylanadigan 2 palatali Xalq Vechesi oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat organi (parlament) bo'lishni va Rossiyada Respublika idora usuli joriy etish
C) samoderjaviyeni, krepostnoy huquqini yo'q qilish va Rossiyada Respublika idora usuli joriy etish, hamma fuqarolar uchun teng saylov huquqi asosida saylanadigan «Xalq Vechesi»ning Rossiya parlamenti bo'lishni
D) so'z, matbuot, yig'inlar o'tkazish erkinliklari e'lon qilishni, saylovchilar uchun yosh va mulk senzlari kamaytirishni

9. Rossiya konstitutsiyasining loyihasini tayyorlagan, "Shimoliy jamiyat" rahbari bo'lgan dekabristni aniqlang.
A) P.Pestel B) N.Muravyov
C) N.Krashennikov D) S.Polotskiy

10.Rossiyada samoderjaviye va krepostnoylikka qarshi kurash davrida vujudga kelgan "Shimoliy jamiyat"da konstitutsiya loyihasini kim tayyorlagan edi?
A) P.Pestel B) A.Alekseyev
C) N.Muravyov C) S.Morozov

11. «Shimoliy jamiyat» tomonidan tayyorlagan konstitutsiya loyihasida nimalar nazarda tutilgan?
A) so'z, matbuot, yig'inlar o'tkazish erkinliklari e'lon qilishni, saylovchilar uchun yosh va mulk senzlari kamaytirishni
B) samoderjaviyeni, krepostnoy huquqini yo'q qilish va Rossiyada Respublika idora usuli joriy etish, hamma fuqarolar uchun teng saylov huquqi asosida saylanadigan «Xalq Vechesi»ning Rossiya parlamenti bo'lishni
C) Rossiyani konstitutsiyaviy monarxiya deb e'lon qilishni, hamma fuqarolar uchun teng saylov huquqi asosida saylanadigan «Xalq Vechesi»ning Rossiya parlamenti bo'lishni
D) Rossiyanı konstitutsiyaviy monarxiya deb e'lon qilish, mulk senzi asosida saylanadigan 2 palatali Xalq Vechesi oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat organi (parlament) bo'lishni.

12. Dekabristlar qo`zg`oloni qachon boshlandi?
A) 1825-yilning 14-dekabrida
B) 1815-yilning 15-sentabrida
C) 1851-yilning 2-dekabrida
D) 1861-yilning 19-fevralida

13.Qaysi javobda Rossiya imperatori Nikolay I mamlakatda inqilobni oldini olish maqsadida olib borgan siyosatlari ko'rsatilgan?
1) mamlakatda reaksiya kuchaydi; 2) harbiy islohot o'tkazildi; 3) norozilik bildirishning, erkin fikr yuritishning zarracha ko`rinishlari taqib qilindi; 4) ma'muriy islohot o'tkazildi; 5) krepostnoylik huquqi bekor qilindi; 6) ilg'or ruhdagi rus adabiyoti ta'qib va quvg'in ostiga olindi.
A) 2,4,6 B) 2,3,6 C) 1,4,5 D) 1,3,6

14. Rossiyaning qaysi urushdagi mag`lubiyat krepostnoy Rossiyaning iqtisodiy qoloqligini yorqin namoyish etdi?
A) 1828-1829-yillardagi Rossiya-Turkiya urushida
B) 1853-1856-yillardagi Rossiya - Turkiya urushida
C) 1826-1829-yillardagi Rossiya-Eron urushida
D) dekabristlar qo`zg`oloni

15. Qachon Rossiya podshosi Aleksandr II krepostnoy huquqning bekor qilinishi to`g`risidagi qonunni imzoladi?
A) 1848-yilning 23-fevralida
B) 1851-yilning 2-dekabrida
C) 1861-yilning 19-fevralida
D) 1825-yilning 14-dekabrida

16. Nima maqsadda Rossiya podshosi Aleksandr II krepostnoy huquqning bekor qilinishi to`g`risidagi qonunni imzoladi?
A) mamlakatda kapitalistik munosabatlarni shakllantirish maqsadida
B) aholining turmush darajasini ko`tarish maqsadida
C) mamlakatda vujudga kelgan kuchli norozilik to lqinini bostirish maqsadida
D) Rossiyani dunyoning yetakchi davlatlaridan birga aylantirish maqsadida

17. Rossiyada krepostnoy huquqning bekor qilinishi to`g`risidagi qonuniga ko`ra ...
A) dehqonlar siyosiy huquqga ega bo`lib qoldilar.
B) krepostnoy dehqonlar o`rta tabaqaga mansub bo`lib qoldilar.
C) krepostnoy dehqonlar shaxsan ozod bo`ldilar.
D) pomeshchik xo`jaligi bekor qilindi.

18. Rossiyada krepostnoy huquqning bekor qilinishi natijasida dehqonlar qanday huquqlarga ega bo`ldi?
A) mamlakat siyosiy hayotida qatnashish, qo`shimcha yer-mulk olish
B) pomeshchik xo`jaligiga egalik qilish
C) davlatdan imtiyozli foizsiz qarz olish, avvalgi xo`jaligiga egalik qilish
D) oila qurish, mustaqil sur'atda shartnoma, savdo bitimlari tuzish, ko`chmas mulk sotib olish va uni meros qoldirish

19. Rossiyada krepostnoy huquqning bekor qilinishi natijasida pomeshchiklar qanday huquqlardan mahrum etildi?
A) dehqonlarni sotib olishga, sotishga yoki boshqa birovga hadya qilishga
B) xo`jalik yuritish
C) davlat boshqaruvida ishtirok etish
D) mustaqil sur'atda shartnoma, savdo bitimlari tuzish, ko`chmas mulk sotib olish va uni meros qoldirish

20. Rossiyada krepostnoy huquqning bekor qilinishi natijasida pomeshchik o`z ixtiyorida bo`lib kelgan yerning ..., cho`l hududlarda esa ... qismini saqlab qolish huquqiga ega bo`ldi.
A) 1/2, 1/3 B) 1/3, 1/2
C) 1/4, 1/3 D) 1/5, ½

21. Rossiyada krepostnoy huquqining bekor qilingungacha dehqon hukumat qarorida belgilanganidan ko`proq miqdordagi yerdan foydalanib kelgan bo`lsa, uning ortiqchasi qayerga o`tkazilar edi?
A) davlatga
B) qishloq jamoasiga
C) guberniyalar ixtiyoriga
D) pomeshchikka

22. Otrezkalar nima?
A) ishlab chiqarish vositalari egasining boshqalar mehnati mahsulini o`ziniki qilib olishi.
B) dehqon krepostnoy huquqining bekor qilingungacha hukumat qarorida belgilanganidan ko`proq miqdordagi yerining ortiqchasini pomeshchikka o`tkazishi
C) krepostnoy dehqonlar kuchi bilan emas, yollanma mehnatdanfoydalanib xo`jalik yurituvchi yer-mulk egalari.
D) amaldagi hukumat, uning siyosati bilan kelishmay boshqacha faoliyat yuritish tarafdorlari.

23. Rossiyada krepostnoy huquqning bekor qilinishi to`g`risidagi qonuniga ko`ra davlat bergan qarzni necha yil davomida davlatga foizi bilan to`lab borishi lozim edi?
A) 25 yil davomida B) 30 yil davomida
C) 51 yil davomida D) 49 yil davomida

24. Rossiyada krepostnoy huquqining bekor qilinishining tarixiy ahamiyati nimadan iborat edi?
A) iqtisodiyotda kapitalistik munosabatlarning shakllanishga asos solindi.
B) dehqonlar shaxsiy erkinlik va fuqarolik huquqiga ega bo`ldilar va iqtisodiyotda kapitalistik munosabatlarning mustahkamlanishi uchun keng yo`l ochildi.
C) dehqonlar davlat ishlarida ishtiroki uchun keng yo`l ochildi.
D) Rossiyad mutloq monarxiyaning shakllanishiga olib keldi

25. Nechanchi yilda podsho Rossiyasi butun Kavkaz hudutlarini o`z tarkibiga kiritdi?
A) 1864-yil B) 1869-yil
C) 1868-yil D) 1860-yil

26. Butun Kavkaz podsho Rossiyasi tarkibiga kiritilgan yili ...
A) podsho qo`shinlari Markaziy Osiyoni bosib olish uchun harbiy harakatlar boshlab yubordi.
B) Qo`qon xonligi va Buxoro amirligining bosib olingan hududlarida Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi
C) Rossiya tabiiy boyliklarga boy bo`lgan Alyaskani AQShga arzimagan pulga sotib yubordi.
D) Qo`qon xonligi va Buxoro amirligi podsho Rossiyasiga qaramligini tan oldilar.

27. Qachon Turkiston general-gubernatorligini tashkil etdi?
A) 1861-yili B) 1866-yili C) 1864-yili
D) 1867-yili

28. Qaysi hududlarda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi?
A) Qo`qon xonligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligining bosib olingan hududlarida
B) Qo`qon xonligi va Xiva xonligining bosib olingan hududlarida
C) Qo`qon xonligi va Buxoro amirligining bosib olingan hududlarida
D) Xiva xonligi va Buxoro amirligining bosib olingan hududlarida

29. Nechanchi yilda Rossiya tabiiy boyliklarga boy bo'lgan Alyaskani AQShga arzimagan pulga sotib yubordi?
A) 1864-yilda B) 1866-yilda C) 1865-yilda
D) 1867-yilda

30. Rossiya Alyaskani AQShga sotib yuborishi natijasida nimani rejalashtirgan edi?
A) AQShning Qo`qon xonligi va Buxoro amirligini podsho Rossiyasiga qaramligini tan olishini
B) Turkiston general-gubernatorligini tashkil etilganliginiAQSh tomonidan qo`llab-quvvatlanishiga
C) Rossiya tashqi siyosatda AQShga tayanishni
D) O`rta Osiyoni zabt etilishida AQShning betarafligini

31. Quyidagi sulh shartnomalari qaysi davlatlar o'rtasida imzolanganligi to'g'ri moslab ko'rsatilgan javobni toping.
1) Simonoseki; 2) Tilzit; 3) Kuchukqaynarja; 4)Parij.
a) Buyuk Britaniya-Eron; b) Xitoy- Yaponiya; c) Rossiya-Fransiya; d) Rossiya- Turkiya.
A) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c B) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a
C) 1-b, 2-d, 3-c, 4-a D) 1-d, 2-a, 3-c, 4-b

32.Rossiya podshosi Aleksandr II ning krepastnoylik huquqini bekor qilgan yili dunyo tarixida qanday voqea bo'lib o'tgan edi.
A) Yagona Italiya qirolligining tuzulganligi e'lon qilingan.
B) Prussiya qirolligida Konstitutsiya joriy etilgan.
C) Fransiyada Iyul monarxiyasi qulagan.
D) Meksika mustaqillikka erishgan.

33.Rossiyada dekabristlar qo'zg'oloni ko'tarilgan vaqtda Qo'qon xonligida hukmronlik qilib turgan shaxsni aniqlang.
A) Olimxon B) Sheralixon C) Umarxon
D) Muhammad Alixon

34.Rossiyda hukmdorning cheklanmagan hokimiyati qanday atalgan ?
A) diktatura B) monarxiya
C) teokratik monarxiya D) samoderjaviye

35. Krepostnoy dehqonning o`ziga berilgan yerni haq to`lash evazlga sotib olishi nima deb ataladi?
A) vitse B) veto C) vikup D) kazarma

36.Reaksiya kuchlari bu …
A) aksiyadorlar jamiyati foydasining aksiya egasiga har yili beriladigan va uning daromadiga aylanadigan qismi.
B)krepostnoylikdan ozod bo'lgan dehqonning o'ziga berilgan yerni haq to'lash evaziga sotib olishi.
C) juda og`ir sharoitda ishlatish va qamashdan iborat jazo chorasi hamda shunday jazoni o`tash joyi.
D) ilg`or g`oyalarni ta'qib etuvchi, eski tartiblarni saqlab qolishga yoki ularni qayta tiklashga intiluvchi kuchlar.

37. Surgun – bu …
A) juda og`ir sharoitda ishlatish va qamashdan iborat jazo chorasi hamda shunday jazoni o`tash joyi.
B) jazo tariqasida boshqa yerlarga jo`natish.
C) mavjud tuzumga yoki hukmdorga qarshiligi uchun qamoqqa tashlangan shaxs.
D) krepostnoy dehqonning o`ziga berilgan yerni haq to`lash evazlgci sotib olishi.

## IV-bob.XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Amerika mamlakatlari.

### 29- §. XIX asming 70-yillarigacha bo'lgan davrda Amerika Qo'shma Shtatlari.

1.AQShda sanoat to'ntarishi boshlangan davr to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
A) XIX asming 50-yillari
B) XIX asming 40-yillari
C) XIX asming 30-yillari
D) XIX asming 20-yillari

2. XIX asr o`rtalarigacha AQSh, asosan, …
A) qishloq xo`jalik mamlakati edi.
B) sanoatlashgan mamlakati edi.
C) rivojlangan industrial mamlakati edi.
D) og`ir sanoatga asoslangan mamlakat edi.

3. XIX asrning 70-yillarigacha bo`lgan davrda AQShning qaysi qismidagi qishloq xo`jaligida kapitalistik munosabatlar tez rivojlandi?
A) mamlakat g`arbidagi
B) mamlakat sharqidagi
C) mamlakat janubidagi
D) mamlakat shimolidagi

4. XIX asrning 70-yillarigacha bo`lgan davrda AQShning qaysi qismidagi qishloq xo`jaligining asosini fermer xo`jaligi tashkil etdi?
A) sharqiy B) shimoliy C) g`arbiy
D) janubiy

5. AQShda fermerlar pomeshchiklarning qaram dehqonlariga nisbatan qanday imkoniyatiga ega edilar?
A) qullar mehnatidan unumli foydalanish
B) plantansiya xo`jaligini rivojlantirish
C) feodal ekspluatatsiyaga
D) ko`proq tovar sotish va sotib olish

6. Qachon AQShning shimoliy shtatlarida qulchilik bekor qilindi?
A) XIX asrning o`rtalarida
B) XIX asrning boshlarida
C) XIX asrning oxirlarida
D) XIXasrning ikkinchi yarmida

7. XIX asrning 70-yillarigacha bo`lgan davrda AQShning qaysi shtatlarda plantatsiya xo`jaligi hukmronlik qilardi?

A) Shimoliy shtatlarda
B) G`arbiy shtatlarda
C) Sharqiy shtatlarda D)Janubiy shtatlarda

8. XIX asrning 70-yillarigacha bo`lgan davrda AQShda mavjud bo`lgan plantatsiya xo`jaligi nimaga asoslanardi?
A) fermerlikka B) shirkatchilikka
C) qulchilikka D) jamoa xo`jaligiga

9. XIX asrning 70-yillarigacha bo`lgan davrda AQShning qaysi shtatlarning tabiiy sharoitlari paxta yetishtirish uchun qulay edi?
A) Sharqning B) G`arbning C) Janubning
D) Shimolning

10. Quyidagi qaysi atama XIX asr o'rtalarida Amerika mamlakatlaridagi qullikni bekor qilish harakatlarini anglatadi?
A) segregatsiya B) abstraksionizm
C) sionalizm D) abolitsionizm

11. Qaysi javobda keltirilga xo'jalik AQShda XIX asrning o'rtalarigacha shimolning qishloq xo'jaligida kapitalistik munosabatlarning asosini tashkil qilgan?
A) Fermer xo'jaligi B) Dvoryan xo'jaligi
C) Latifundiya xo'jaligi
D) Plantatsiya xo'jaligi

12. XIX asrning 70-yillarigacha bo`lgan davrda AQShda kimlar qulchilikning bekor qilinishi uchun kurash olib bordilar?
A) ishchilar, fermerlar, ziyolilarning ilg`or qatlamlari
B) burjuaziya vakillari, ziyolilarning ilg`or qatlamlari
C) ilg`or pomeshchiklar, fermerlar
D) dehqonlar, ishchilar, ilg`or burjuziya vakillari

13. AQShda qay tariqa abolitsionistlar harakati vujudga keldi?
A) Oq tanli ko`pgina kishilarning qulchilikning bekor qilinishi uchun kurash olib borishlari natijasida
B) fuqarolar urushi natijasida
C) siyosiy partiyalar kurashi natijasida
D) bo`lib o`tgan burjua inqilob natijasida

14. Qo'zg'olon rahbarlaridan kim Allegan tog'ida joylashib olib, o'z harakatlari plantatsiyalarga ham yoyilishini umid qilgan?
A) Migel Idalgo B) Xose San-Marten
C) Xose Morelos D) Jon Braun

15.Jon Braun qayerda qullar qo'zg'olonini ko'tarishga urinib ko'rgan edi?
A) Filadelfiyada B) Virginiyada
C) Vashingtonda D) Kaliforniyada

16. Qachon Jon Braun Virginiyada qullar qo`zg`olonini ko`tarishga urinib ko`rdi?
A) XIX asrning 30-yillarning oxirlarida
B) XIX asrning 40-yillarning oxirlarida
C) XIX asrning 50-yillarning oxirlarida
D) XIX asrning 60-yillarning oxirlarida

17. Jon Braun qurolli guruhi necha kishidan iborat bo`lgan?
A) 25 B) 22 C) 30 D) 35

18. Jon Braun qurolli guruhida necha nafar qora tanli kishi bor edi?
A) 6 B) 5 C) 4 D) 7

19. Avraam Linkoln qaysi yillarda yashab o`tgan?
A) 1809-1865-yillarda
B) 1809-1874 yillarda
C) 1815-1894 yillarda
D) 1811-1896-yillarda

20. Avraam Linkoln qaysi partiyaning vakili edi?
A) Torilar partiyasining
B) Leyboristlar partiyasining
C)Demokratlar partiyasining
D) Respublikachilarpartiyasining

21. Qachon A.Linkoln president saylovida g`alaba qozondi?
A) 1861-yilgi B) 1862-yilgi
C) 1863-yilgi D) 1860-yilgi

22. Kimning AQSh prezidenti qilib saylanishi bilan hukumatda quldorlar hukmronligiga barham berildi?
A) Jorj Vashington B) Benjamin Franklin
C) Jon Braun D) A.Linkoln

23. AQShda qachon fuqarolar urushi bo`lib o`tdi?
A) 1860-1864-yillarda
B) 1861-1865-yillarda
C) 1862-1866-yillarda
D) 1863-1867-yillarda

24. Qachon AQShda Shimol bilan Janub o`rtasida fuqarolar urushi boshlandi?
A) 1865-yilning aprel oyida
B) 1861-yilning aprel oyida
C) 1866-yilning fevral oyida
D) 1867-yilning may oyida

25. AQShda boshlangan fuqarolar urushi qachon tugadi?
A) 1865-yilning aprelida
B) 1867-yilning may oyida
C) 1866-yilning fevral oyida
D) 1861-yilning aprel oyida

26. Qachon AQSH Kongressi tomonidan Konstitutsiyaga tuzatish kiritildi? Unga ko'ra qora tanlilarning fuqarolik va siyosiy huquqlari oq tanlilarniki bilan tenglashtirildi
A) 1864-yilda B) 1865-yilda
C) 1866-yilda D) 1867-yilda

27. Qaysi javobda AQShdagi Shimol bilan Janub o`rtasidagi urushning natijasi noto'g'ri berilgan.
A) Shimolning g'alabasi g`arbiy yerlarning qulchilik tarafdorlari tomonidan bosib olinish xavfiga barham berdi
B) AQShda g`arbiy yerlardagi qishloq xo`jaligida kapitalizm rivojlanishi uchun noqulay sharoit yuzaga keldi
C) Sanoat to`ntarishining tezroq tugallanishi va Amerika sanoatining o`sishi uchun sharoit yaratildi
D) Qulchilik bekor qilindi va gomstedlar to'g'risida qonun qabul qilindi

28. "Buyuk jamiyat" qurish dasturi ilgari surilgan mamlakat tarixida 1863 yilda sodir bo'lgan voqeani to'g'ri belgilang
A) Shimoliy Germaniya ittifoqi tuzildi
B) Parlament islohoti o'tkazildi
C) Qullik bekor qilindi
D) Muqaddas ittifoq barham topdi

29. 1863-yil qaysi davlatda qulchilikning bekor qilinishiga erishildi?
A) Braziliyada B) AQShda C) Chilida
D) Kubada

30. Niderlandiyada Ispaniya zulmiga qarshi kurash qo'zg'olonga aylangan yildan 300 yil o'tib ....
A) Rossiya o`ziga qarashli bo`lgan Alyaskani AQSHga juda arzon narxda sotib yubordi
B) AQSH Kongressi tomonidan Konstitutsiyaga tuzatish kiritildi
C) Butun Kavkaz Rossiya tarkibiga kiritildi
D) Janubdagi sobiq isyonchilarga umumiy afv berish to`g`risidagi qonun qabul qildi

31. AQShning janubida qullar mehnatiga asoslangan yirik dehqonchilik xo'jaligi qanday atalgan?
A) Fermerlik xo'jaligi
B) Plantatsiya xo'jaligi
C) quldorlik xo'jaligi D) to`g`ri javob yo`q

32. AQShda bo`lib o`tgan fuqarolar urushi tarixiy ahamiyatining qayd eting.
1) mamlakat yaxlitligini saqlab qoldi;
2) qulchilik bekor qilindi va gomstedlar to`g`risida qonun qabul qilindi; 3) AQShda g`arbiy yerlardagi qishloq xo`jaligida kapitalizm rivojlanishining amerikacha yo`lini kengaytirish uchun imkoniyat ochildi;
4) g`arbiy yerlarning quldorlar tomonidan bosib olinishi xavfiga barham berdi;
5) Janubda fermerlar soni ko`payib, bu yerda burjuaziya sobiq quldorlarning yerlarini sotib oldi va bu yerlarni qisman mayda uchastkalarga bo`lib sota boshladi; 6) sanoat o`zgarishini tezroq tugallash va Amerika sanoatining o`sishi uchun sharoit yaratdi.
A) 1, 3, 5 B) 1, 2, 3, 4, 5, 6 C) 2, 4, 6
D) 2, 3, 5, 6

33. Inglizchadan bekor qilish ma'nosini beradigan iborani qayd eting.
A) negosiantlar B) asketizm
C) remonstratsiya D) abolitsionistlar

34. Gomstedlar haqidagi qonun - bu ...
A) hokimiyatning bir shaxs yoki shaxslar guruhi qo`lida to`planishi to`g`risidagi qonun.

B) Amerikada qullikni bekor qilish tarafdorları to`g`risidagi qonun.
C) xususiy yoki uzoq muddat ijaraga olingan yerda qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan shug`ullanuvchi qishloq xo`jaligi tadbirkori to`g`risidagi qonun.
D) G`arbdagi bo`sh yotgan katta yer jamg`armasini fermer xo`jaligi yuritishni istagan shaxslarga bepul bo`lib berish to`g`risidagi qonun.

35. Xususiy yoki uzoq muddat ijaraga olingan yerda qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan shug`ullanuvchi qishloq xo`jaligi tadbirkori, fermer xo`jaligi egasi nima deb atalgan?
A) dividend B) fermer C) negosiant
D) petitsiya

36.O'z mustaqilligini saqlab qolgan holda biror-bir maqsadni amalga oshirish uchun birlashgan davlatlar ittifoqi nima deb ataladi?
A) Federatsiya B) Konfederatsiya C) Uniya
D) Kaolitsiya

### 30- §. LotinAmerikasi xalqlariningmilliy-ozodlikkurashi.

1.Nima sababdan Lotin Amerikasi mamlakatlari-dagi mustaqillik kurashiga kreol dvoryanlardan chiqqan inqilobchilar rahbarlik qilgan?
A) kreol dvoryanlari ixtiyorida qurollangan askarlar bor edi
B) mustamlakalarda burjuaziya hali zaif edi
C) Ispaniyadan yuborilgan generallar kreollardan qo'rqar edi
D) qo'zg'olonchilar va kreollar o'rtasida ishonch yo'q edi

2.Lotin Amerikasida kreollar orasida qaysi tabaqalari mavjud edi?
A) pomeshchiklar, savdogarlar, ruhoniylar
B) dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlar
C) moliyachilar, burjuaziya, dehqonlar, ishchilar
D) pomeshchiklar, ishchilar, hunarmandlar va savdogarlar

3. XIX asrda Lotin Amerikasida qaysi holat qishloq xo`jaligi va savdo-sotiqni yanada rivojlantirish uchun asosiy to`siq bo`lib qoldi?
A) mustamlakachilik zu...
B) krepostnoylikning a...
C) feodal majburiyatlar
D) natural majburiayatdan

4. Kreollar ichidan chiqqan kimlar orasida ozodlik g`oyalari keng tarqaldi?
A) dehqonlar va ishchilar
B) o`qimishli pomeshchiklar va zobitlar
C) burjuaziya vakillari
D) hunarmandlar va dehqonlar

5. XIX asrda Lotin Amerikasida kimlar ozodlik harakatiga boshchilik qildilar?
A) burjuaziya vakillari B) ishchilar
C) kreollardan chiqqan inqilobchilar
D) hunarmandlar

6.Lotin Amerikasida ispan mustamlakachilariga qarshi mustaqillik uchun kurashda kreollar kimlarning madadiga tayanishgan edi?
1) harbiylarning; 2) hindularning;
3) metislardan chiqqan dehqon va hunarmandlarning; 4) ajnabiylar-ning;
5) mulatlardan chiqqan dehqon va hunarmand-larning; 6) qora tanli qullarning
A) 1, 2, 4, 6 B) 1. 3, 4, 5
C) 2, 3, 5, 6 D) 2, 3, 4, 5

7. Qachon Lotin Amerikasi mustamlakalarda ommaviy qo`zg`olon boshlandi?
A) 1811-yilda B) 1810-yilda C) 1812-yilda
D) 1815-yilda

8. XIX asrda Meksika xalqi ozodlik kurashining shonli qahramonlari qayd eting.
A) L. V. Torres va Jon Uilkinson
B) Migel Idalgo va Xose Morelos
C) Simon Bolivar va Xose San-Martin
D) T. Modsli va Edmund Kartrayt

9. Qachon Idalgo dehqonlarning eng kambag`al tabaqalariga mansub bo`lgan hindular bilan mulat-larni mustaqillik uchun kurashga va o`zlaridan tortib olingan yerlarni qaytarib olishga chaqirdi?
A) 1825-yilda B) 1812-yilda
C) 1815-yilda D)1810-yilda

10. Meksikada xalq ozodligi qahramoni Migel Idalgo asli kim bo`lgan?
A) pomeshchik B) dvorayan
C) qishloq ruhoniysi D) hunarmand

11.Meksikadagi ozodlik kurashining mashhur qahramonlaridan biri - Migel Idalgo tuzgan qo'shin kimlardan iborat edi?
A) hindu va ajnabiylardan
B) hindu va mulatlardan
C) metis va mulatlardan
D) hindu va qora tanli qullardan

12.Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi ispan zulmiga qarshi ozodlik harakati yetakchilaridan qaysi biri quidorlarga o'zlarining hamma qullarini o'n kunlik muddat ichida ozod qilib yuborishni buyurgan va hindu jamoalari ma'murlarga to'lab kelgan o'lponni bekor qilgan?
A) Migel Idalgo B) Xose San-Martin
C) Xose Morelos D) Simon Bolivar

13.Meksikada mustaqillik kurashining yetakchisi Xose Morelos otib tashlangandan keyin ozodlik harakatiga rahbarlik kimlarning qo'liga o'tdi?
A) kambag'al dehqonlarning
B) mayda va o'rta burjuaziyaning
C) badavlat pomeshiklarning
D) hindu va mulatlarning

14. Qachon Meksika mustaqillikka erishdi?
A) 1819-yil boshlarida B) 1822-yilda
C) 1826-yilda D) 1821-yilda

15. Simon Bolivar qanday oilada tug`ildi?
A) braziliyalik badavlat kreol - pomeshchik va savdogar
B) meksikalik badavlat kreol - pomeshchik va savdogar
C) kubalik badavlat kreol - pomeshchik va savdogar
D) venesuelalik badavlat kreol - pomeshchik va savdogar

16. Quyidagi fikrlar kimga tegishli edi: «Ispaniya mening mamlakatimni bandi qilgan zanjirlarni parchalab tashlamagunimcha xotirjam bo`lmayman»?
A) Xose San-Martin B) Xose Morelos
C) Migel Idalgo D) Simon Bolivar

17. Simon Bolivar qaysi xizmatlari uchun general unvoni va «Xaloskor» degan faxriy nom oldi?
A) partugal qo`shinlariga qarshi olib borgan muvaffaqiyatli janglari uchun
B) Yangi Granada davlatini ozod qilishdagi xizmatlari uchun
C) ispan qo`shinlariga qarshi olib borgan muvaffaqiyatli janglari uchun
D) Buyuk Kolumbiya davlatiga asos solgani uchun

18. Simon Bolivar qay tariqa qora tanli qullarning bir qismini o`z qo`shiniga jalb etdi?
A) mustaqillik e'lon qilishi orqali
B) qullik bekor etilganini e'lon qilishi orqali
C) dehqonlarga urush tamom bo`lishi bilanoq ular o`z yerlariga ega bo`lishiga va'da qilishi orqali
D) ispan zamindorlari uchun to`lab kelingan barcha soliqlarni bekor qilishi orqli

19. Simon Bolivar hindu dehqonlarga urush tamom bo`lishi bilanoq nima va'da qildi?
A) o`z yerlariga ega bo`lishiga
B) ozodlik va tenglikni
C) ispan zamindorlari uchun to`lab kelingan barcha soliqlarni bekor qilishni
D) feodal majburiyatlarni bekor qilishni

20. Bolivar Yevropaning ilg`or jamoatchiligiga murojaat etib yordam so`raganida Yevropadan qaysi xalq vakillari Venesuelaga keldilar?
A) gollandlar, fransuzlar, shvedlar, chexlar
B) ispanlar, inglizlar, slovaklar, bolgarlar
C) irlandiyaliklar, inglizlar, nemislar, italyanlar, polyaklar, ruslar
D) portugallar, italyanlar, polyaklar, ruslar, shvedlar, chexlar

21. 1811-yilda ...
A) Meksika mustaqillikka erishdi.
B) Argentinada mustaqillik uchun qurolli kurash boshlandi.
C) Braziliya Portugaliyadan ajralib chiqdi.
D) Venesuela mustaqil deb e'lon qilindi.

22. Qachon Bolivar Venesueladan And tog`ining qorli cho`qqilari orqali o`tib, Yangi Granadaning Ispanlardan ozod bo`lishiga yordam berishga qaror qildi?
A) 1822-yilda B) 1824-yilda
C) 1819-yilda D) 1821-yilda

23. Yangi Granada Venesuela bilan birlashishi natijasida qaysi davlat vujudga keldi?
A) Braziliya B) Buyuk Kolumbiya
C) Urugvay D) Argentina

24. Simon Bolivar qaysi davlatning prezidenti lavozimini egalladi?
A) Argentina B) Urugvay C) Braziliya
D) Buyuk Kolumbiya

25. Simon Bolivar prezident lavozimini egalagach qanday tadbirlarni amalga oshirdi?
A) davlat boshqaruvi islohatini amalga oshirdi.
B) qullikni bekor qildi.
C) dehqonlarni ispan zamindorlariga to`lab kelgan barcha soliqlardan ozod qildi.
D) hindularga solinadigan o`lponni bekor qildi va yirik pomeshchiklarning yerlarini musodara qilish to`g`risidagi qonun loyihasini ishlab chiqdi.

26. Simon Bolivar president bo`lgach qaysi tadbiri pomeshchiklarning qarshiligiga duch kelib, amalga oshmay qoldi?
A) feodal majburiyatni bekor qilish
B) qullikni bekor qilish
C) dehqonlarni ispan zamindorlariga to`lab kelgan barcha soliqlardan ozod qilish
D) yirik pomeshchiklarning yerlarini musodara qilish to`g`risidagi qonun loyihasi

27. Simon Bolivar nimani orzu qilar edi?
A) Lotin Amerikasini feodal majburiyatlardan ozod qilishni
B) Lotin Amerikasi respublikasini tuzishni
C) Ispaniyadan ozod qilingan barcha Amerika respublikalari konfederatsiyasini tuzishni
D) Yevropa bilan yaqin iqtisodiy va madaniy hamkorlikni o`rnatish

28.1830-yilda iste'foga chiqishga majbur bo'lgan va "Inqilobga xizmat qilish, bu dengizni shudgor qilish bilan barobardir",- deb afsus qilgan xaloskorni aniqlang.
A) Kamillo Kavur B) Simon Bolivar
C) Pavel Pastel D) Sha dor Peter

29. Argentinada mustaqillik uchun qurolli kurash qachon boshlandi?
A) 1819-yil boshlarida
B) 1811-yilning 10-mart`da
C) 1810-yilning 25-mayida
D) 1812-yilning 5-fevralida

30. Argentinani kim qo`mondonligidagi inqilobiy qo`shin ozod qildi?
A) Simon Bolivar B) Xose Morelos
C) Migel Idalgo D) Xose San-Martin

31. Qachon Braziliya Portugaliyadan mustaqil deb e'lon qilindi?
A) 1821-yilda B) 1819-yilda
C) 1822-yilda D) 1825-yilda

32.Ispaniya mustamlakachiligiga qarshi o`z mustaqilligi uchun kurashayotgan Yuqori Peru vatanparvarlari qo`shini qachon ispan qo`shini tor-mor etdi?
A) 1822-yilning sentabrda
B) 1823-yilning martida
C) 1824-yilning dekabrida
D) 1825-yilning yanvarida

33. Yuqori Peruni Ispaniya zulmidan ozod qilishda qaysi harbiy sarkarda muhim rol o`ynadi?
A) Migel Idalgo B) Xose Morelos
C) Simon Bolivar D) general Sukre

34. Qachon Yuqori Peru Ispaniya zulmidan uzil-kesil ozod bo`ldi?
A) 1821-yil B) 1824-yil C) 1819-yil
D) 1825-yil

35. Qachon Boliviya barpo etildi?
A) 1819-yilda B) 1821-yilda C) 1825-yilda
D) 1830-yilda

36.Lotin Amerikasining quyida keltirlgan mamlakatlari yevropaliklar zulmidan mustaqillikka erishgan yillari bo'yicha to'g'ri xronologik tartibda ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) Venesuela; 2) Yuqori Peru; 3) Chili;
4) Paragvay
A) 3,1,4,2 B) 2,3,1,4 C) 4,2,1,3
D) 1,4,3,2

37. Quyidagi Lotin Amerikasi davlatlari mustaqillikga erishgan davriga qarab to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirilgan javobni aniqlang.
1) Braziliya; 2) Argentina;
3) Paragvay; 4) Chili
A) 3, 2, 4, 1 B) 3, 1, 4, 2 C) 4, 2, 3, 1
D) 2, 3, 4, 1

38.Quyidagi Lotin Amerikasi davlatlaridan qaysi biri 1816-yilda mustaqillikga erishgan?
A) Paragvay B) Braziliya
C) Argentina D) Chili

39.Quyidagi voqealarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtiring:
1)Paragvay mustaqillikka erishdi; 2)Chili mustaqillikka erishdi; 3)Argentina mustaqillikka erishdi; 4)Venesuela mustaqil deb e'lon qilindi; 5)Braziliya Portugaliyadan mustaqil deb e'lon qilindi; 6)Urugvay to'lamustaqillikka erishdi; 7)Yuqori Peru Ispaniya zulmidan uzil-kesil ozod bo'ldi.
A)1,2,3,4,5,6,7 B)2,1,3,4,5,7,6
C)3,1,4,2,5,6,7 D)4,1,3,2,5,7,6

40. Ma'lumki, XIX asr boshlarida Lotin Amerikasida boshlangan ozodlik kurashlari-dan keyin Ispaniya mustamlakachiligi qo'l ostida qaysi hududlar qoldi?
A) Puerto-Riko va Chili
B) Gonduras va yuqori Peru
C) Kuba va Gonduras
D) Kuba va Puerto-Riko

41. Ma'lumki, Lotin Amerikasidagi mustaqillik uchun urushlar yakunida Ispaniya zulmi ag`darib tashlandi va bir qancha yangi mustaqil milliy davlatlar barpo etildi. Qaysi davlatdan tashqari ularning hammasida respublika tuzumi o`rnatildi?
A)Meksika B) Venesuela
C) Braziliyadan D)Argentina

42. Lotin Amerikasidagi mustaqillik uchun urushlar ...
A) feodallarga qarshi urush va burjua-demokratik inqiloblari ham edi.
B) mustamlakachilikka qarshi fuqarolar urushi va milliy burjua inqiloblari ham edi.
C) qulchilikka qarshi urushlari va demokratik inqiloblari ham edi.
D) mustamlakachilikka qarshi milliy ozodlik urushi hamda burjua inqiloblari ham edi.

43. Lotin Amerikasidagi mustaqillik uchun urushlar natijasida yerli aholi qaysi davlatlarning mustamlakachilik zulmidan ozod bo`ldi?
A) Fransiya va Gollandiyaning
B) Ispaniya bilan Portugaliyaning
C) Buyuk Britaniya va Belgiyaning
D) Italiya va Ispaniyaning

44.Lotin Amerikasida Paragvay davlati mustaqillikka erishgan yilda sodir bo'lgan voqeani belgilang.
A) Napoleon Elba oroliga surgun qilindi.
B) Napoleon armiyasi Rossiyaga bostirib kirdi.
C) Qozoqlarning o'rta juz xonligi tugatildi
D) Tarixga "Xalqlar jangi" nomi bilan kirgan jang bo'lib o'tdi.

45. Lotin Amerikasi xalqlarining ozodlik harakatlari namoyandalaridan bo'lgan Simon Bolivar o'z lavozimidan iste'foga chiqqan vaqtda Buxoro hukmdori bo'lgan shaxsni aniqlang.
A) Amir Nasrullo B) Amir Muzaffar
C) Amir Shohmurod D) Amir Haydar

46.Yuqori Peru vatanparvarlari general Sukre boshchiligida ispan qo'shinlarini tor-mor etgan vaqtda Qo'qon xonligi kim tomonidan boshqarilgan?
A) Muhammad Alixon B) Umarxon
C) Sheralixon D) Olimxon

47.Argentinada mustaqillik uchun qurolli kurash boshlangan vaqtda Xiva xoni bo`lgan shaxsni aniqlang.
A) Eltuzar B) Olloqulixon
C) Muhammad Rahimxon I
D) Muhammad Amin

48. "Mehnat umumiy konfederatsiyasi" nomli kuchli kasaba uyushmasi tashkil topgan mamlakat, tarixida 1810-yil qanday voqea bilan izohlanadi?
A) milliy-ozodlik kurashi bostiritdi
B) Respublika tuzumi e'lon qilindi
C) hindular va mulatlarni o'z yerlarini qaytarib olishga da'vat qilindi
D) Mustaqillik uchun qurolli kurash olib borildi

49. Lotin Amerikasi - bu ...
A) Shimoliy va Sharqiy Amerika
B) G`arbiy va Sharqiy Amerika
C) Janubiy va Markaziy Amerika
D) Shimoliy va Markaziy Amerika

50. Kreollar - bu ...
A) Lotin Amerikasidagi pomeshchiklar.
B) soni oldindan belgilab qo`yilgan dehqonlar va posad xonadonlaridan bittadan kishini soldatlikka olish.
C) o`zini-o`zi boshqaradigan qaram yer.
D) Lotin Amerikasiga dastlab кo`chib kelgan ispan va portugallarning avlodlari.

51. Metis kimlar?
A) Amerikada oq tanli aholiga mansub kishi bilan hindular o`rtasidagi nikohdan tug'ilgan avlod.
B) oq tanli va qora tanli kishilar o`rtasidagi nikohdan tug`ilgan avlod
C) Lotin Amerikasiga dastlab ko'chib kelgan ispan va portugallarning avlodlari.
D) hindular bilan qora tanli kishilar o`rtasidagi nikohdan tug`ilgan avlod.

52. Oq tanli va qora tanli kishilar o`rtasidagi nikohdan tug`ilgan avlod qanday nom bilan atalgan?
A) lotin B) kreol C) mulat D) metis

## V-bob. XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Osiyo va Afrika mamlakatlari

## 31- §. XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Hindiston.

1. Buyuk Britaniyaning Hindistondagi mustamlakachilik siyosati yo'nalishini belgilab borgan tashkilotni toping.
A) Angliya parlamenti
B) Kalkutta gubernatori
C) "Hindiston ishlari bo'yicha nazorat kengashi"
D) "Ost-Indiya" kompaniyasi

2. Buyuk Britaniya parlamentining Hindistonni boshqarish to`g`risida qonuniga ko`ra ...
A)hindlar Yevropa davlatlari universitetlarida ham ilm olish imkoniga ega bo`ldilar.
B) «Hindiston ishlari bo`yicha nazorat kengashi»ning raisi Buyuk Britaniyaning Hindistondagi barcha mustamlakalari general-gubernatori etib tayinlandi.
C) Hindiston Buyuk Britaniya mulki deb e'lon qilindi.
D) «Ost-Indiya» kompaniyasining Kalkutta shahridagi gubernatori Buyuk Britaniyaning Hindistondagi barcha mustamlakalari general-gubernatori etib tayinlandi.

3. Hindistonning mustamlakaga aylantirilgan hududlari ma'muriy jihatdan general-gubernatorga itoat etuvchi kimlar tomonidan boshqarildi?
A) rojalar B) sipohilar C) gubernatorlar
D) hokimlar

4. Quyidagi ko`rsatilgan qaysi holat Hindistonda mahalliy to`qimachilik hunarmandlarini xonavayron qilgan?
A) Buyuk Britaniya to`qimachilik sanoati mahsulotlarining Hindistonda sotilishi
B) Hindiston portlarini chet el savdogarlari uchun ochib qo`yilishi
C) ingliz qo`shini Bengaliyani bosib olishi
D) «Ost-Indiya» kompaniyasining tashkil etilishi

5. Buyuk Britaniya zobitlari rahbarlik qilgan hindlardan tuzilgan yollanma qo'shin qanday nom bilan atalgan?
A) rajputlar B) mamluklar
C) kshatriy D) sipohi

6. Qaysi javobda XIX asr o'rtalarida Hindistondagi hindlarning birdan-bir uyushgan tashkiloti keltirilgan?
A) sipohilar qo'shini B) Milliy Kongress
C) Inqilobiy guruh
D) Hindiston ishlari bo'yicha nazorat Kengashi

7. Hindistonda sipohilar qo`zg`olonining boshlanishiga nima bevosita turtki bo`ldi?
A) chet el savdogarlariga imtiyozli savdo-sotiqning joriy qilinishi
B) Buyuk Britaniya to`qimachilik sanoati mahsulotlarining Hindistonda sotilishi
C) Hindistonning Buyuk Britaniya mulki deb e'lon qilinishi
D) qo`shinda patron bilan o`qlanadigan miltiqning joriy etilishi

8. Hindistonda sipohilar qo`zg`oloni qachon boshlandi?
A) 1859-yilda B) 1862-yilda C) 1857-yilda D) 1858-yilda

9.Hindistonda sipohiy qo'zg'olonchilar qaysi Boburiy hukmdorni hind xalqini mustamlakachi-larga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga chorlovchi chaqiriqni imzolashga majbur etdi?
A) Bahodirshoh II B) Rameshvaran
C) Muzaffarshoh D) Bahodirshoh I

10. Sipohilar qo`zg`oloni davrida inglizlar qo`llagan qaysi tadbir Dehlidagi jang taqdirini hal qildi?
A) to`plarni fillarga ortib Dehliga olib kirishi
B) ingliz qo`shinlari Dehlini qamal qilishi
C) Buyuk Britaniya Hindistonga qo`shimcha harbiy kuchlarni yuborishi
D) inglizlarni hind zadoganlarini o`zlariga og`dirib olishlari

11. 1857-1859-yillarda Hindistondagi Sipohilar qo'zg'oloni bostirilgandan so'ng mustamlakachilar tomonidan o'tkazilgan islohotlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
1) Yer egalarining soliqlarni oshirishi taqiqlab qo'yildi; 2) Yer egalari tomonidan dehqon-larga solinadigan soliqlari oshirildi;
3) Mahalliy knyazlarning o'z yerlariga egaligi daxlsiz deb e'lon qilindi; 4) Ost- Indiya kompaniyasi tugatildi; 5) Hindistonni boshqarish mahalliy amaldorlar qo'liga o'tdi; 6) Hindlarning harbiy xizmat otashi taqiqlandi.
A) 1,3,4 B) 2,4,5 C) 1,4,6 D) 3,4,6

12. Qaysi javobda Hindistondagi "sipohiy qo'zg'oloni"dan ( 1857-1859-yillar) keyin amalga oshirilgan islohotlar to`g`ri ko'rsatilgan?
1) dehqonlarga qo'shimcha soliqlar joriy etildi; 2) yer egalarining soliqlarni oshirishi taqiqlab qo'yildi; 3) mahalliy knyazlarning o'z yerlariga egaligi dahlsiz deb e'lon qilindi; 4) general-gubernator kengashi tuzildi; 5) "Ost-Indiya" kompaniyasi tugatildi; 6) hindlarning harbiy xizmatni o'tashlari taqiqlandi.
A) 2, 3, 5 B) 2, 4, 6 C) 1, 4, 6 D) 1, 3, 5

13. Buyuk Britaniya hukumati Sipohilar qo`zg`olonidan chiqargan xulosalarini qayd eting.
1) mahalliy aholiga qator imtiyozlar joriy etish yo`liga o`tdi; 2) maktablar, kollejlar va boshqa o`quv yurtlari ochila boshlandi; 3) hindlarning ilm olishlariga yo`l ochdi; 4) hindlar Yevropa davlat-lari universitetlarida ilm olish imkoniga ega bo`ldilar; 5) Yevropacha ma'lumotga ega bo`lgan hindlar davlat xizmatiga qabul qilina boshlandi; 6) «Hindiston ishlari bo`yicha nazorat kengashi» tashkil etildi; 7) «Ost-Indiya» kompaniyasining Kalkutta shahridagi gubernatori Buyuk Britaniya-ning Hindistondagi barcha mustamlakalari general-gubernatori etib tayinlandi.
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7
C) 1, 3, 5, 7 D) 2, 4, 6, 7

14. Kimlar XIX asrning 70- yillarigacha bo`lgan davrda hind jamiyatiga ilg`or g`oyalar kirib kela boshlashiga asos solgan?
A) mahalliy zadoganlar
B) ma'rifatparvar inglizlar
C) ingliz tilini biluvchi hindlar
D) savdogarlar va sipohilar

## 32- §. XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Xitoy.

1. Qachon Sin imperiyasining istilochilik qudrati zaiflashdi?
A) XVIII asr birinchi yarmida
B) XVIII asr o`rtalarida
C) XVIII asr boshlarida D) XVIII asr oxirlari

2. XVIII asr oxirlarida Xitoyda qaysi omillar dehqonlar qo`zg`olonini keltirib chiqardi?

A) imperiya qudratini zaiflashuvi
B) qo`shimcha soliqlarni joriy etilishi
C) iqtisodiy turg`unlik va dehqonlarning qashshoqlashuvi
D) natural xo`jalikning taraqqiy etishi

3.Xitoyni XVIII asrda tashqi dunyodan ajratib qo'yish siyosati boshlangan yilni toping.
A) 1753-y B) 1757-y C) 1754-y D) 1776-y

4. XVIII asr o`rtalaridan Xitoy tashqi savdosida qanday tartib joriy qilindi?
A) chetdan keladigan tovarlarga yuqori boj solig`i solinadigan
B) G`arbiy Yevropadan keladigan savdogarlarga maxsus ruxsatnona beriladigan
C) faqat imperator amaldorlari nazorati ostida olib boriladigan
D) chetdan kelgan mahsulotlar faqat Xitoy puliga hisob-kitob qilinadigan

5. Xitoyning o`zini-o`zi yakkalab qo`yish siyosati davrida tashqi savdo faqat qaysi port orqaligina olib boriladigan bo`ldi?
A) Xanchjou B) Shanxay C) Fuchjou
D) Guanjou

6.Xitoy va Buyuk Britaniya o'rtasida I afyun urushi qaysi yillarda bo'lib o`tgan?
A) 1840-1842-yy. B) 1856-1857-yy.
C) 1843-1846-yy. D) 1838-1840-yy.

7. Ingliz savdogarlari qayerdan g`ayriqonuniy ravishda Xitoyga afyun kirita boshladilar?
A) Afg`onistondan B) Turkiyadan
C) Hindistondan D) Yaponiyadan

8. Mahalliy Xitoy ma'murlari afyun ortilgan karvon-larni musodara qilganiga javoban ingliz hukumati afyunni va ingliz tovarlarini olib kirishni qonunlash-tirish uchun qachon Xitoyga qarshi urush boshladi?
A) 1842-yilda B) 1840-yilda C) 1838-yilda
D) 1844-yilda

9. Birinchi «afyun urushi»da Xitoyning mag`lubiyati sabablarini qayd eting.
A) Xitoyda boshlanib ketgan dehqonlar g`alayonlari
B) taypinlar davlatining tuzilishi
C) iqtisodiy va harbiy texnika jihatdan qoloqligi
D) natural xo`jalikning mavjudligi va siyosiy jihatdan tarqoqligi

10. Buyuk Britaniya Birinchi «afyun urushi»da Xitoyning qaysi orolini bosib oldi?
A) Gonkong orolini B) Tayvan orolini
C) Xaynan orolini D) Sakasima orolini

11. 1997-yilda Xitoyga qaytarib berilgan Gonkong oroli qachon Buyuk Britaniya tomonidan bosib olingan edi?
A) Taypinlar qo'zg'olonini bostirish chog'ida
B) 1900-yilgi qo'zg'olonni bostirish chog'ida
C) birinchi Afyun urushida
D) ikkinchi Afyun urushida

12.Xitoyda Birinchi afyun urushlari boshlanishi bilan Ikkinchi afyun urushlari boshlanishi orasida necha yil farq bor?
A) 16 yil B) 13 yil C) 11 yil D) 17 yil

13. Ikkinchi afyun urushi qachon ro`y berdi?
A) 1842-yilda B) 1856-yilda C) 1840-yilda
D) 1850-yilda

14. Ikkinchi afyun urushida Xitoy kimlarning qo`shinlaridan qaqshatqich zarbaga uchradi?
A) ingliz va ispanlarning birlashgan qo`shinidan
B) rus va inglizlarning birlashgan qo`shinidan
C) ingliz va nemislarning birlashgan qo`shinidan
D) ingliz va fransuzlarning birlashgan qo`shinidan

15. Ikkinchi afyun urushida Xitoyga majburan qabul qildirilgan shartnomalarning notengligi nimalarda yaqqol namoyon bo`ldi?
1) ingliz va fransuz fuqarolari Xitoy hududida Xitoy qonunlari va sudiga bo`ysunishdan ozod qilindilar; 2) ingliz va fransuz fuqarolari agar jinoyat qilsalar ularni tegishli mamlakat ning elchisi o`sha mamlakatning qonunlariga binoan sud qilardi; 3) Dengiz sohilidagi katta shaharlarda maxsus vujudga keltirilgan kvar-tallarda faqat ajnabiylar yashashar. Xitoy ma'murlari esa bu yerlarga kira olmas edilar; 4) Buyuk Britaniya Gonkong orolida imtiyozli savdo-sotiq olib borishga imkon

berildi; 5) Xitoyni chet el savdogarlari uchun bir qator portlarni ochib qo'yildi; 6) Xitoy afyun olib kirilishining qonuniy ekanligini tan oldi.
A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 3, 4, 5, 6 C) 1, 4, 5, 6
D) 2, 3, 6

16. «Samoviy mo'l-ko'lchilik davlati» (XIX asr) barpo etilgan mamlakatni aniqlang.
A) Inklar mamlakati B) Yaponiya
C) Efiopiya D) Xitoy

17. Taypinlar qo'zg'oloni 1850-yilda Xitoyning qaysi tomonida boshlangan edi?
A) janubida B) sharqida
C) shimolida D) g'arbida

18. "Taypin tyango" davlatining markazi qaysi shahar bo'lgan?
A) Incheon B) Shanxay C) Nankin D) Pekin

19. Taypinlar qo'zg'oloni necha yil davom etgan?
A) 10 yil B) 14 yil C) [illegible] yil D) [illegible]

20. Yanszi viloyatida "Samoviy mo'l-ko'lchilik davlati" barpo etgan tarixiy shaxsning kasbi nima edi?
A) o'qituvchi B) baliqchi
C) sopolga ishlov beradigan hunarmand
D) bank xodimi

21. Qaysi javobda taypinlar qo'zg'oloni rahbarining nomi to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Xun Syu Syuan B) Li Syuchen
C) Sin Shi-Xuandi D) Sun Yatsen

22. Qaysi viloyatda Xun Syu Syan boshchiligidagi qo'zg'alonchilar Taypin Tyango davlatini tuzishgan?
A) Guandun B) Yanszi C) Dunbey
D) Shaudun

23. Xitoydagi "Samoviy mo'l-ko'lchilik davlati" qaysi viloyatda tashkil topgan?
A) Gaochan viloyatida B) Xuanxe [illegible]
C) Yanszi viloyatida D) Guanjou [illegible]

24. "Taypin-tyango" davlatida harbiy qismlar hududlarga joylashtirilgan bo'lib, ushbu hududlarda davlat hokimiyati kim tomonidan amalga oshirilgan?
A) viloyat noibi B) mahalliy oqsoqollar
C) harbiy qism boshlig'i D) imperator noibi

25. Taypinlar davlatida hech bir narsada tengsizlik bo'lmasligi uchun, hamma to'q va kiyim but bo'lishi uchun ...
A) har bir oila qo'shinga bitta askar yetkazib berishi kerak [illegible]
B) yerga ega bo'lgan holda uni birgalikda ishlash, ovqat bo'lganida birgalikda tanovul qilish, kiyim-kechak bo'lganida ularni baravar taqsimlash, pul bo'lganida uni birgalikda sarflash lozim edi
C) barcha erkaklar [illegible] mehnat lageriga, xotin-qizlar va bolalar [illegible] lagerlarga joylashtirilishi lozim edi.
D) barcha tinimsiz ishlashlari lozim edi.

26. Taypinlar davlatida har bir oilaning qo'shinga necha nafar askar yetkazib berishi belgilab qo[illegible]
A) ikkita B) [illegible] C) to'rtta D) bitta

27. Xitoyda ko[illegible]gan Taypinlar qo'zg[illegible]k etayotgan mulkdor tabaqalarning [illegible]olon dan uzoqlashishiga nima sabab [illegible]ldi?
A) qo'zg[illegible]larning yerni har bir oilaga [illegible]ga [illegible]ib teng bo'lib berish [illegible] rejasi
B) [illegible]g zodagon ta[illegible]ini o'z [illegible]niga og'di[illegible]ishlari
C) dehqonlar tomoni[illegible] Taypinlar davlati boshq[illegible]vining to'liq qo'lga olinishi
D) barcha erkaklar bitta mehnat lageriga, xotin-qizlar va bolalar boshqa lagerga joylashtirilishi

28. Qaysi javobda taypinlar qo'zg'oloni davrida Sin hukumatiga yordam bergan davlatlar to'g'ri ko'rsatilgan?
1) Rossiya; 2) Buyuk Britaniya; 3) Yaponiya; 4) Fransiya; 5) AQSh; 6) Germaniya
A) 2,4,5 B) 1,2,4 C) 1,3,4 D) 3,5,6

29. Qachon Xitoy hukumati qo'shinlari [illegible] qo'zg'oloni rahbarlari joylashgan [illegible] shahrini ishg'ol qildilar?
A) 1864-yilda B) 1861-yilda
C) 1850-yilda D) 1856-yilda

30. Afyun nima?
A) qullikni bekor qiluvchilar.
B) harbiy xizmatchilarga beriladigan yer-mulk
C) harbiy qo'shin joylashtiriladigan maxsus bino
D) kuchli giyohvand moddalarning bir turi

31. [illegible] uxlatuvchi so'zidan kelib chiqqan [illegible] kuchli giyohvand moddalarga nisbatan ishlatiladigan so'z qaysi tildan olingan?
A) italyan B) rus C) ingliz D) grek

### 33-§. XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda [illegible].

1. [illegible] "Shu davrdan [illegible] mamlakatga [illegible] chet ellardan xatto elchilar ham kiritilmaydi. Xatto o'lim xavfi ham bu farmonni bekor qila olmasligi lozim", deb qayd qilingan farmon chiqargan (XVII asr boshi) davlatni aniqlang
A) Afg'oniston B) Yaponiya
C) Eron D) Xitoy

2. Qaysi asrda Yaponiyada xristian dinining tarqalishi taqiqlangan edi?
A) XVI asrda B) XVII asrda
C) XVIII asrda D) XIX asrda

3. Yapon hukmdorlari xristian dini yapon xalqi milliy an'analarini ..., xristian missionerlarini ... deb hisoblaganlar.
A) hurmat qiladigan, do'st
B) ulug'lovchi, bosqinchilarga qarshi turuvchi
C) jipslashtiruvchi, vatanparvarlar
D) buzuvchi, bosqinchilarning dastlabki guruhi

4. Qaysi asrda Yaponiya hukmdorlari mamlakatni chet elliklar uchun yopib qo'ydilar va mamlakatdagi barcha yevropaliklarni quvib yubordilar?
A) XVI asrda B) XVIII asrda C) XVII asrda
D) XIX asrda

5. Nechanchi yilda AQSh harbiy-dengiz floti Yaponiyani ochilishga majbur etdi?
A) 1855-yilda B) 1858-yilda C) 1867-yilda
D) 1854-yilda

6. 1854-yilda "Tinchlik va do'stlik to'g'risida"gi shartnoma qaysi davlatlar o'rtasida imzolangan?
A) Afg'oniston va Eron
B) Xitoy va Buyuk Britaniya
C) Buyuk Britaniya va Hindiston
D) AQSH va Yaponiya

7. AQSh bilan Yaponiya o'rtasida imzolangan «Tinchlik va do'stlik to'g'risida» [illegible] shartnomaga ko'ra ...
A) AQSh fuqarolariga Yaponiyada eksteritoriallik huquqi berildi.
B) Kuril orollari Rossiya hududi deb tan olindi.
C) Yaponiya AQShga ikkita portini ochdi va AQSh konsulini qabul qildi.
D) AQSh tovarlariga juda past boj to'lovlari belgilandi.

8. Qaysi yillarda AQSh bilan Yaponiya o'rtasida imzolangan shartnomalarga ko'ra yapon portlari ochib qo'yildi?
A) 1854 va 1858-yillardagi
B) 1867 va 1869-yillaridagi
C) 1854 va 1869-yillardagi
D) 1858 va 1867-yillardagi

9. 1858-yilda kimlarga Yaponiyaning bir nechta port ochib qo'yildi?
A) rossiyaliklarga B) angliyaliklarga
C) fransuzlarga D) amerikaliklarga

10. 1858-yilda qaysi davlat fuqarolariga Yaponiyada eksteritoriallik huquqi berildi va tovarlariga juda past boj to'lovlari belgilandi?
A) Rossiya B) Buyuk Britaniya C) AQSh
D) Fransiya

11. XIX asrda qaysi omillar Yaponiyada fuqarolar urushi boshlanishiga turtki bo'ldi?
A) o'rta asrlarga xos turmush tarzi
B) mamlakatning kuch bilan ochilishi va syogun hukumatining chet davlatlar bilan imzolagan noteng shartnomalari
C) chet el fuqarolariga Yaponiyada eksteritoriallik huquqi berilishi
D) chet el tovarining Yaponiya bozorlarini to'ldirib tashlashi

12. Imperator tarafdorlari Yaponiyani modernizatsiya qilish uchun kurashuvchilar harakatidan nima maqsadda foydalandilar?
A) Yaponiyaning siyosiy va iqtisodiy yopiqligini tugatish
B) Yaponiya bozorlarining chet el tovarlari bilan to`ldirib tashlash
C) syogun hokimiyatini tugatish va imperator hokimiyatini qayta tiklash
D) yapon portlarini chet elliklar uchun yopib qo`yish

13. Syogun hokimiyatini ag`darish uchun ommaviy harakatning asosiy kuchini kimlar tashkil etdi?
A) qishloq va shaharlarning boy hamda o`rta tabaqalari
B) samuraylar
C) dehqonlar va hunarmandlar
D) harbiylar va zadoganlar

14. Yaponiyada samuraylar imperator hokimiyatini tiklash maqsadida syogun hokimiyatiga qarshi kurashda ularga qaysi toifalar qo'shilganligini aniqlang.
A) qishloq aholisining kambag'al va o'rta tabaqalari
B) qishloq va shaharlarning kambag`al va o'rta tabaqalari
C) shaharning barcha aholisi
D) qishloq va shaharlarning boy va o'rta tabaqalari

15. Osiyoning quyidagi qaysi mamlakatida XIX asrning ikkinchi yarmida modernizatsiya, ya'ni zamonaviy talablar asosida jamiyatni yangilash jarayoni boshlandi?
A) Hindistonda B) Turkiyada
C) Yaponiyada D) Eronda

16. Sharqda birinchi bo'lib Yevropa tajribalaridan foydalangan davlatni aniqlang.
A) Koreya B) Yaponiya
C) Hindiston D) Xitoy

17. Qaysi yili M[illegible]xitoga [illegible] nomi bilan toj kiy[illegible]ldi?
A) 1855-yilda B) 1854-yilda
C) 1867-yilda D) 1858-yilda

18. Meydzi hukumati o`z oldiga qanday vazifasini qo`ydi?
A) Yaponiyani modernizatsiya qilish uchun kurashuvchilar harakatidan syogun hokimiyatini tugatish
B) chet elliklarni quvib chiqarish
C) milliy an'analardan voz kechmagan, mustaqillikni to`la saqlab qolgan holatda g`arb namunasida Yaponiyani zamonaviylashtirish
D) G`arb davlatlari siquviga qarshi turmoq uchun barcha Osiyo davlatlari Yaponiya imperatori hokimiyati ostiga birlashtirish

19. Imperator Meydzi qanday islohatlarni o`tkazdi?
A) boshqaruv va moliya B) agrar va pul
C) moliya, ma'muriy va harbiy
D) agrar, ma'muriy, harbiy

20. Imperator Meydzi davrida dastlab qaysi islohot o`tkazildi?
A) ma'muriy B) harbiy C) agrar
D) moliya

Imperator Meydzi davrida o`tkazilgan agrar islohatga ko`ra ...
A) yerni sotish va sotib olishga, uni xususiy mulkka aylantirishga ruxsat berdi.
B) har bir dehqon yerga ega bo`ldi.
C) knyazlar qudratini sindirish uchun dastlab yerlarining bir qismi musodara qilindi.
D) dehqonlar knyazlar qaramligidan ozod etildi.

22. Imperator Meydzi davrida o`tkazilgan agrar islohotga ko`ra dehqonlar chek yerga ega bo`ldilar. Yer uchun solinadigan soliq hosildan olinadigan daromad hajmining necha foizgacha teng edi?
A) 20 foizgacha B) 30 foizgacha
C) 40 foizgacha D) 50 foizgacha

23. Yaponiyada Meydzi agrar islohotidan 10 yil o`tgach yer olgan dehqonlarning necha qismi o`zlariga berilgan yerni saqlab qola oldilar?
A) 1/3 qismi B) 1/2 qismi C) 1/4 qismi
D) 1/5 qismi

24. Meydzi agrar islohoti qishloq xo`jaligida nimani rivojlanishini ta`minladi?
A) monopoliyani B) natural xo`jalikni
C) kapitalizm D) manufakturani

25. Imperator Meydzi davrida ma'muriy sohada o`tkazilgan islohot natijasida ...
A) yerni sotish va sotib ohshga, uni xususiy mulkka aylantirishga ruxsat berdi.
B) mahalliy knyazlar hokimiyati tugatilib, joylarda hokimiyat imperator tayinlaydigan gubernatorlar qo`liga o`tdi.
C) mamlakat viloyatlarga bo`lindi.
D) yirik iqtisodiy tumanlarga bo`lindi.

26. Imperator Meydzi davrida knyazlar qudratini sindirish uchun dastlab ...
A) yerlarining bir qismi musodara qilindi, so`ng ular boshqaruv huquqidan mahrum etildi.
B) joylarda hokimiyat imperator tayinlaydigan gubernatorlar qo`liga o`tdi.
C) ular boshqaruv huquqidan mahrum etildi, so`ng yerlarining bir qismi musodara qilindi.
D) dehqonlarga yerni sotish va sotib ohshga, uni xususiy mulkka aylantirishga ruxsat berdi.

27. Imperator Meydzi davrida o`tkazilgan harbiy islohotga ko`ra ...
A) knyazlarning harbiy bo`linmalari tarqatib yuborildi.
B) har bir viloyatning harbiy bo`linmasi tashkil qilindi.
C) oliy o`quv yurtlarda harbiy mashg`ulotlar olib boriladigan bo`ldi.
D) Yaponiyada umumiy harbiy majburiyat joriy etildi.

28. Meydzi davrida o`tkazilgan qaysi islohotga ko`ra samuraylar avvalgi qiyofasini yo`qotdi?
A) ma'muriy B) harbiy C) moliya
D) agrar

29. Meydzi davrida o`tkazilgan islohotga ko`ra samuraylar qanday imtiyozidan mahrum bo`ldilar?
A) doimiy harbiy xizmatda bo`lish
B) yer-mulkka ega bo`lish
C) dehqonlarga ega bo`lish
D) knyazlar qo`l ostida xizmat qilish

30. Meydzi islohotlari davrida Yaponiyada tuzilgan Yevropacha nusxadagi qo'shinga ta'lim berish uchun mutaxassislar qayerdan taklif etilgan edi?
A) Fransiyadan B) AQShdan
C) Portugaliyadan D) Buyuk Britaniyadan

31. Yaponiyada Meydzi inqilobidan so'ng yevropacha tipdagi armiya tuzilishiga qaramasdan, yaponlarga "yapon milliy ruhi"ning qanday qirralari singdirilgan?
1) davlat manfaatlariga sodiqlik; 2) poroxli qurol ishlatish mahorati; 3) imperatorga muhabbat; 4) buyruqlarni so'zsiz bajarish; 5) zamonaviylash-tirishga intilish; 6) o'limni nazarpisand qilmaslik.
A) 1, 3, 6 B) 3, 4, 5 C) 1, 4, 5 D) 2, 4, 5

32. Yaponlar ongiga singdirilgan Amiterasu qanday iloh ekanligini aniqlang.
A) Yer B) Osmon C) Quyosh D) Suv

33. Meydzi davrida G`arb davlatlari siquviga qarshi turmoq uchun barcha Osiyo davlatlari qaysi davlat hokimiyati ostiga birlashmoqligining lozimligi o`qtirildi?
A) Yaponiya imperatori
B) Xitoy imperatori
C) Hindiston imperatori
D) Buyuk Britaniya imperatori

34. Meydzi davrida yaponlar ongiga qanday g`oyalar singdirib borildi?
1) Yaponiyaning Osmon va Yer kabi abadiy mavjud ekanligi; 2) imperatorga xudo Ameterasudek mehribonlik xos ekanligi, uning hech qachon nohaq bo`lishi mumkin emasligi, 3) imperatorga sodiqlik vatanparvarlikning oliy namunasi ekanligi, 4) yaponarning boshqalardan ustunligi, millatning ulug` vazifasi; 5) «Imperator yorug` dunyoning xudosi va boshqa barcha davlatlar uning soliq to`lovchilaridir»; 6) «Samoviy mo`l-ko`lchilik davlati»ni barpo qilish.
A) 1, 2, 3, 4, 5, 6 B) 1, 3, 5, 6 C) 1, 2, 3, 4
D) 2, 4, 6

35. Meydzi islohotlari qanday oqibatlarga olib keldi?
1) mamlakatda feodal tarqoqlikka chek qo`ydi; 2) yagona yapon ichki bozori vujudga

keldi; 3) yagona pul birligi - iyen joriy etildi; 4) asosiy zavodlar davlat mablag`i hisobiga qurildi; 5) davlat tadbirkorlikni har tomonlama rag`bat-lantirdi va qo`llab-quvvatladi; 6) «Samoviy mo`l-ko`lchilik davlati» barpo etildi; 7) zamonaviy harbiy sanoat korxonalari qurildi.
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 3, 5, 7 C) 2, 4, 6
D) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7

36. Yaponiyada Meydzi davrida nima uchun hukumat davlat korxonalari qurilishlariga homiylik qildi?
A) knyazlar qudratini sindirish uchun
B) chet davlatlarning Yaponiya ichki ishlariga aralashuvi xavfidan himoya qilish
C) tadbirkorlikni har tomonlama rag`batlantirish va qo`llab-quvvatlash maqsadida
D) harbiy qudratini oshirish uchun

37. Meydzi hukumati qaysi masalaga chet davlatlarning Yaponiya ichki ishlariga aralashuvi xavfidan himoya qiluvchi asosiy omil deb qaradi?
A) ishlab chiqarishni industrlashtirish
B) xristian missionerlarini Yaponiyaga kirib kelishini
C) AQSh bilan Yaponiya o`rtasida «Tinchlik va do`stlik to`g`risida» shartnomani imzolanishini
D) chet fuqarolariga Yaponiyada eksteritoriallik huquqi berilishini

38. Meydzi davrida asosiy zavodlar nimaning hisobiga qurildi?
A) tadbirkorlar hisobiga
B) chet el davlatlari bergan qarz evaziga
C) davlat mablag`i
D) ichki va tashqi savdodan keladigan daromad hisobiga

39. Meydzi islohotlari tarixga qanday nomlar bilan kirgan?
A) «Inqilobiy modernizatsiyalashuv» va «Meydzi boshqaruvi»
B) «Ma'rifatli boshqaruv» va «Meydzi inqilobi»
C) «Ma'rifatli industrlashtirish» va «Ma`rifatli Meydzi»
D) «Meydzi inqilobi» va «Buyukmodernizatsiyalashuv»

40. Modernizatsiya nima?
A) isloh qilish.
B) zabt etish, bosib olish.
C) ishlab chiqarishni industrlashtirish
D) zamonaviylashtirish

41. Eksterritorial huquq - bu ...
A) chet el fuqarolari shaxsining va uy-jovi, mol-mulki daxlsizligi hamda mahalliy davlat sudi ularni sud qila olmasligi.
B) rivojlangan davlatlar tomonidan bosib olinib, ekspluatatsiya qilish.
C) ishlab chiqarish vositalari egasining boshqalar mehnati mahsulini o`zinikı qilib olishi.
D) iqtisodiyotning bir sohasidagi tanho hukmronlik

42. Eksterritorial huquq nima?
A) bepul yer ola bilish huquqi
B) davlat lavozimlarini egallay olish huquqi
C) chet el fuqarolari shaxsi va uy-joyi daxlsizligi, mahalliy davlat sudining ularni sud qila olmaslik huquqi
D) mahalliy ma'muriyat ishlariga aralasha olish huquqi

43. Quyida keltirilgan davlatlarni ularni boshqargan sulolalar bilan moslab ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) Yaponiya (1603-1867-yy.); 2) Hindiston (1526-1858-yy.); 3) Xitoy (1644-1911-yy.); 4) Eron (1796-1925-yy.);
a) Qojarlar; b) Sin; c) Boburiylar;
d) Tokugava
A) 1-d; 2-c; 3-b; 4-a B) 1-c; 2-a; 3-d; 4-b
C) 1-b; 2-d; 3-a; 4-c D) 1-a; 2-b; 3-c; 4-d

### 34- §. XVI – XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Koreya.

1. Quyidagilar ichidan Koreya tarixiga oid ma`lumotlar to`g`ri berilgan javobni aniqlang.
A) Koreyada 1392-yili hokimiyatga kelgan Li [illegible] asoschisi Li Song (1392 – 1398) Koreyani [illegible] davrlardan atalgan «Koreya» o`rniga «Choson» deb atadi

B) Qirol Yonchjon davrida Koreyaning davlat tuzumi Minlar sulolası davridagi Xitoy namunasida qaytadan tashkil qilindi
C) XIV-XV asrlarda Koreya qo'shni davlatlardan ustun edi
D) XVI asrda mamlakatda xristianlik dini taqiqlab qo'yildi

2.Qirol Li Song hukmronligi davrida Koreyaning davlat tuzumi Xitoyda faoliyat ko'rsatgan qaysi sulolaning namunasida qaytadan tashkil qilindi?
A) Yuan B) Xan C) Min D) Sin

3.Koreyaning boshqa qo'shni davlatlardan ortda qolishining ichki sababini aniqlang.
A) mamlakatda sodir bo'layotgan ichki nizolar
B) mamlakatning yaponlar bosqinidan doimiy aziyat chekkanligi
C) yerga egalik qilishning feodal shakli saqlanib qolinganligı
D) hukmron toifalarning yangilikni qabul qılısh istagining yo'qligi

4. Koreyada yerga egalik qilishning feodal shakli o'rnatilgan davrni aniqlang.
A) XVI-XVII asrlar B) XIV-XV asrlar
C) XI-XII asrlar D) XIII-XIV asrlar

5.Koreya qishloq xo'jaligidagi qaysi holatlarga shahar iqtisodi, sanoat va savdoning past darajasi mos kelardi?
1) feodallar (yer-mulk egalari) va amaldorlar tomonidan davlat yerlarini egallab olish hollari ko'paydi; 2) dehqonlarning qashshoqlashdi; 3) Erkin dehqonlar soni kamayib ketdi; 4) poytaxtga ko'p minglab dehqonlarning quvib yuborildi; 5) qishloq xo'jaligida sudxo'rlik avj oldi; 6) dehqonlar qo'zg'olonlari avj oldi.
A) 1,3,5,6 B) 1,2,4,5 C) 2,3,4,5
D) 3,4,5,6

6.Quyidagi qaysi davlatda hunarmandlar ham, xuddi dehqonlar singari, qaram qilingan edi?
A) Xitoyda B) Yaponiyada C) Koreyada
D) Eronda

7.Yaponiyaning Koreyaga amalga oshirgan shavqatsizliklarining dalili bo'lgan "quloqlar qabristoni" joylashgan shaharni aniqlang.
A) Tokyo B) Kioto C) Seul D) Pxenyan

8.Tarixdan ma'lumki, 1592-yilda Yaponiya qo'shini Koreya hududiga bostirib kirib, dastlab Seul, keyinroq Pxenyanni egallagan edi. Oradan qancha vaqt o'tib Xitoy va Koreyaning birlashgan qo'shinlari ularni ozod qildi?
A) olti yil B) to'rt yil C) bir yil D) uch yil

9. XVI asrda Koreyada markazlashgan mamlakat asta-sekin zaiflashib borayotganda, ayniqsa, janubdan qaysi davlatning xavfi kuchaydi?
A) Xitoyning B) Manchjurlarning
C) Yaponiyaning D) Mo'g'ullarning

10.XVI asrda vujudga kelgan "quloqlar qabristoni" (o'ldirilgan koreyslardan kesib olingan 30 mingta quloq va burun ko'milgan) qaysi xalqning bosqinchilikdagi vahshiylikning isboti hisoblanadi?
A) manchjur B) mo'g'ul C) xitoy D) yapon

11.XVI asrda "Haq ish uchun" xalq partizan guruhlari tuzilgan mamlakatni toping.
A) Vyetnam B) Belorussiya C) Yugoslaviya
D) Koreya

12.Yaponlar koreys qo'shinlari qarshiligini yengib dastlab qaysi shaharni egallashadi?
A) Pxenyan B) Seul C) Mokpxo
D) Kanxva orolidagi shahar

13.30000 ta quloq va burun ko'milgan qabriston Yaponiyaning qaysi shahrida joylashgan?
A) Xirosima B) Nagasaki
C) Tokio D) Kioto

14.Kimlarga koreys flotining g'alabalari dalda bo'ldi?
A) qirol qo'shinlariga
B) Li Sun Sin qo'mondonligidagi qo'shinga
C) «Haq ish uchun» xalq partizan guruhlariga
D) to'g'ri javob yo'q

15.Qachon Li Sun Sin floti yapon flotini tormor qildi?
A) 1592-yilning bahorida
B) 1592-yilning yozida
C) 1593-yilda
D) 1597-yil boshlarida

16.Qachon va necha minglik Xitoy qo'shinining yordamga kelganligi koreyslarning yaponlarga qarshi kurashini yengillashtirdi?
A) 1592-yilning oxirida va 50 minglik
B) 1593-yilda va 40 minglik
C) 1597-yilning boshlarida; 30minglik
D) 1593-yilning oxirlarida va 20 minglik

17.Nechanchi yilda Xitoy va Koreyaning birlashgan qo'shini Pxenyan va Seulni ozod qildi?
A) 1592-yil yozida B) 1592-yilda
C) 1593-yilda D) 1597-yilning boshlarida

18.Yaponlar bosqini Koreyaga qanday talafotlar olib keldi?
1) mamlakatda ulkan ma'naviy va moddiy yo'qotishlarga olib keldi; 2) Ko'pgina hududlarda faqat vayron qilingan shahar va qishloqlarning qoldiqlarigina qol-gandi, xolos ; 3)mamlakatda ichki boshboshdoqlik avj oldi; 4) urush yillarida Koreya poytaxtining aholisi ikki barobar kamaydi; 5) urush yillarida Koreya aholisi 2 barobar kamaydi;
6) Vayron qilingan saroylarni qayta qurish uchun poytaxtga ko'p minglab dehqonlar quvib kelindi; 7) Haydaladigan yer maydonlari keskin qisqarib ketdi; 8) Amaldorlar orasida poraxo'rlik va jinoyatchilik; 9) xalq orasida esa ocharchilik va vabo avjiga chiqdi.
A) 1,2,3,4,6,7,8,9 B) 1,2,4,6,7,8,9
C) 2,3,4,5,6,7 D) 3,4,5,6,7,8,9

19.XVII asrda manchjurlarning Koreyaga hujum qilgan yillari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
A) 1626- va 1636-yillar
B) 1627- va 1636-yillar
C) 1627- va 1638-yillar
D) 1626- va 1638-yillar

20.Xitoyda o'z hukmronligini o'rnatishga intilayotgan manchjurlar qachon Koreyaga bostirib keldilar?
A) 1625-yilda B) 1627-yilda
C) 1635-yilda D) 1637-yilda

21.Koreys hukumatining Kanxva oroliga ko'chib o'tishiga kimlarning hujumi sabab bo'lgan?
A) yaponlarning B) Min suloasining
C) Rossiyaning D) manchjurlarning

22.Koreya va manchjurlar o'rtasida imzolangan tinchlik shartnomasiga ko'ra ,Koreya ...
1) manchjurlarni qurol-aslaha va oziq-ovqat bilan ta'minlash vazifasini oldi; 2) Xitoy yordamidan voz kechdi; 3) qirol manchjurlarning vassal deb tan olindi; 4) Xitoy bilan hech qanday ittifoq tuzmaslik majburi-yatini oldi; 5) Xitoy va manchjurlar o'rtasidagi urushda manchjurlar tomonida qatnshish vazifasini oldi.
A) 2,4 B) 1,5 C) 3,5 D) 1,4

23.Manchjurlar ilk bor Koreyaga bostirib kirganidan necha yil o'tib yana yangi hujum boshlashdi?
A) 8 yil B) 9 yil C) 10 yil D) 15 yil

24.Nima sababdan Koreya manchjurlarga taslim bo'ldi?
A) Kanxva orolini egallanishi tufayli
B) Pxenyanni egalllanishi tufayli
C) urushga yetarli tayyorgarlik ko'rmagani sababli D) to'g'ri javob yo'q

25.1637-yildagi Manchjurlar bilan tuzilgan yangi shartnomaga ko'ra ....
1) Koreya qiroli o'zini manchjurlarning vasali deb tan oldi.
2) Koreya fuqarolaro manchjurlarga sodiqlik haqida qasamyod qildilar.
3)Koreys hukumati Minlar sulolasi bilan har qanday munosabatlarni to'xtatish majburiyatini oldi.
4) Manchjurlarga qo'shin qurol-aslaha, kemalar bilan Xitoyga qarshi bo'lajak urushda yordam berish majburiyatini oldi.

5) Koreya Xitoylik-larga qarshi urushda 30 ming kishilik qo'shin yuborish majburiyatini oldi.
6) Har yili oltin, kumush, guruch, ipak, matolari va qog'oz bilan o'lpon to'lab turish majburiyatini oldi.
A)1,2,4.5 B)1,3,5,6 C)2,3,4,6 D)1,3,4,6

26.Chet elliklar bilan har qanday aloqa uchun qanday jazo belgilandi?
A) umrbod qamoq jazosi B) o'lim jazosi
C) umrbod surgun D) umrbod qullik

27.Quyidagi qaysi omillar ishlab chiqaruvchi kuchlarning vayron bo'lishiga olib keldi va Koreyaning busiz ham og'ir iqtisodiy holatini yanada chuqurlashtirdi?
1) Ko'pgina shahar va qishloqlar talangan hamda vayron qilingan, ularning aholisi esa qullikka haydab ketilgan edi;
2) Vayron qilingan saroylarni qayta qurish uchun poytaxtga ko'p minglab dehqonlar quvib kelindi;
3) Qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikka katta zarar yetkazildi;
4) Haydaladigan yer maydonlari keskin qisqarib ketishi natijasida qishloq xo'jaligi zavolga yuz tutdi;
5) Manchjurlarga to'lanadigan ulkan o'lpon xonavayron aholiga og'ir yuk bo'ldi
A) 1,2,3 B) 1,3,4 C) 2,3,5 D) 1,3,5

28.Koreya hukmdorlarini mamlakatda islohotlar o'tkazishga majbur qilgan omillarni aniqlang.
1) og'ir iqtisodiy inqiroz; 2) og'ir ijtimoiy inqiroz; 3) og'ir siyosiy inqiroz; 4) og'ir harbiy inqiroz;
A) 1,3 B) 2,4 C) 1,2 D) 2,3

29.Koreyaning qaysi davlatlar bilan savdo aloqalari kengaydi?
A) Xitoy va Rossiya
B) Xitoy va Yaponiya
C) Yaponiya va Rossiya
D) faqat Xitoy bilan

30.Rim papasi tomonidan Koreya yepiskopligi e'lon qilingan yilni belgilang.
A) 1815-yil B) 1833-yil
C) 1843-yil D) 1831-yil

31.Fransuz harbiy kemalarining Koreyaga yuborilishi uchun bahona bo'lgan omilni aniqlang.
A) Fransiya elchisining hibsga olinishi
B) fransuz savdogarlarining Koreyadan haydab yuborilishi
C) fransuz missionerlarining qatl etilishi
D) koreyslarning fransuz kemasiga hujumi

32.Qirol Yonchjon davrida so'roq qilish paytidagi qiynoqlarning qaysi biri ta'qiqlandi?
A) barmoqlarni chopish
B) qizigan temir bosish
C) quloqlarni kesish D) oyoqlarni sindirish

33.Quyidagilardan qaysi biri qirol Yonchjon davrida e'lon qilingan?
1) Dehqonlarning katta yer egalariga shaxsiy qaramligining bekor qilinishi;
2) Qul ayolning farzandi ozod inson bo'lishi haqidagi deklaratsiya.;
3) Mamlakatda ayollarning og'ir jismoniy mehnat bilan shug'ullanishining qat'iy man etilishi;
4) Qul ayolning nevarasi ozod inson bo'lishi haqidagi deklaratsiya;
5) Mamlakatda katta yer egaligining tugatilishi va barcha yerlarning davlat tasarrufiga olinishi.
A) 1, 3 B) 2, 5 C) 1, 4 D) 2, 3

34.Koreya tarixiga oid xato javobni aniqlang
A)Li Song davrida Koreyaning davlat tuzumi Minlar sulolasi davridagi Xitoy namunasida qaytadan tashkil qilindi.
B)Yangi davr boshlarida Koreya taraqqiyotda qo'shni davlatlardan tobora ortda qolib bordi.
C)XVII asrda markazlashgan mamlakatning asta-sekin zaiflashib borayotganligi shimoliy va janubiy chegaralardagi qo'shnilarning tajovuzlariga sabab bo'ldi.
D) „Quloqlar qabristoni"Kioto shahrida joylashgan

35.Qirol Yonchjon necha yil hukmronlik qilgan?
A)42 B)47 C)51 D)55

36.Qirol Yonchjon davrida mamlakatni rivojlantirish maqsadida qanday islohot o'tkazilmagan?

A)Ocharchilik holati uchun maxsus don omborlari tashkil qilindi.
B)Guruchdan spirtli ichimliklar tayyorlash
C)Ba'zi bir davlat soliqlari joriy qilindi yoki oshirildi.
D)So'roq qilish paytida qiynoqning eng og'ir turlari ta'qiqlandi.

37.Qirol Yonchjon davrida qanday mazmundagi deklaratsiya e'lon qilingan?
1) dehqonlarning katta yer egalariga shaxsiy qaramligini bekor qilish; 2) davlat soliqlarini bekor qilish yoki kamaytirish; 3) qul ayolning nevarasi ozod inson bo'lishi; 4) qullarning nevarasi ozod kishi bo'lishi;
A) 1,3 B) 1,4 C) 2,3 D) 1,2

38.Zaiflashayotgan feodal tuzumni mustahkamlashga bo'lgan urinishlar nechanchi yilda tuzilgan hujjatda o'z ifodasini topdi?
A) 1775-yilda B) 1765-yilda C) 1785-yilda
D) 1832-yilda

39.Koreya XVIII asr oxirlarida qaysi davlatlar-ning mustamlakachilik obyektiga aylanib qoldi?
1) Xitoy; 2) Yaponiya; 3) Rossiya; 4) AQSH; 5) Yevropa davlatlari
A) 1,2,3,4,5 B) 1,2,3
C) 1,2,3,5 D) 3,4,5

40.Koreys jamiyatining barcha tizimlaridagi inqiroz yanada keskinlashishi qaysi davrga to'g'ri keladi?
A) XVIII asr oxirlari B) XIX asr 30-yillari
C) XIX asr o'rtalari
D) XIX asr 60-yillari boshlari

41.Li sulolasining tanazzulga yuz tutish sababini aniqlang.
A) ichki siyosiy ziddiyatlar
B) chet el davlatlarining doimiy hujumi
C) feodal tuzumning saqlanib qolganligi
D) tashqi dunyodan to'liq ajratib qo'yilishi

42.Rim papasi qachon Koreya episkopligi tuzilganligini e'lon qildi?
A) 1830-yilda B) 1832-yilda
C) 1831-yilda D) 1860-yilda

43.1832-yilda Koreya qirg'oqlari yaqinida paydo bo'lgan kema qaysi davlat nomidan savdo munosabatlarini o'rnatishni taklif qildi?
A) Fransiya B) Buyuk Britaniya
C) Rossiya D) Yaponiya

44.Koreyaga fransuz harbiy kemalari yuborilishi uchun bahona bo'lgan sabab ....
A) fransuz missionerlarining haydab yuborilishi
B) qirol fransuz elchilari bilan uchrashishdan bosh tortganligi
C) fransuzlarlarning ular bilan aloqa qilgan koreyslar bilan o'ldirib yuborilishi
D) fransuz missionerlarning xristian dinini qabul qilgan koreyslar bilan birgalikda qatl ettirilishi

45.Harbiy kuchlarga tayangan fransuzlar Koreya hukumatidan nimani talab qildi?
A) portlarning ochilishini
B) asoratli shartnoma imzolashni
C) koreyslarning xristian dinini qabul qilishini
D) Koreyaga tegishli bo'lgan hududlarni bir qismini berishni

46.Quyidagi omillar orasidanKoreyaning hukmron doiralariga juda katta ta'sir ko'rsatganini aniqlang.
1) Xitoyning chet elliklar uchun zo'ravonlik bilan ochilishi;
2) xristian missionerlarining mamlakatga yopirilib kelishi;
3) Xitoyning G'arbning qudratli davlatlariga taslim bo'lishi;
4) Xitoydagi og'ir siyosiy vaziyat;
5) kapitalistik davlatlarning Koreyaga o'tkazgan bosimining yildan-yilga kuchayishi
A) 1,3 B) 2,5 C) 3,4 D) 3,5

47.Quyidagilardan to'g'ri javobni aniqlang.
A)1831- yili Koreya qirg'oqlari yaqinida paydo bo'lgan kema Buyuk Britaniya nomidan savdo munosabatlari o'rnatishni taklif qildi.
B)Qirol Yonchjon 1775-yilgacha hukmronlik qilgan.
C)Fransiyadan yuborilgan uchta kema Koreya qirg'oqlari yaqinida sayozlikka o'tirib qolgan

D)XIX asrning o'rtalarida Koreyadagi ichki vaziyat xalq g'azabining oshib borishi bilan xarakterlanadi.

48.XIX asrning o'rtalarida qaysı davlatning ichki vaziyatidan kelib chiqib, missionerlardan biri o'z yashirin xabarida "Kichik bir uchqun shunday yong'in keltirib chiqarishi mumkinki, uning oqibatlarini hatto hisobga olib ham bo'lmaydi" deb yozgan?
A) Usmoniy turklar B) Koreya C) Yaponiya
D) Xitoy

49.Qaysi davrda bo'lib o'tgan ocharchilik ahvolni yanada og'irlashtirib yubordi?
A) XIX asr 30-yillaridagi
B) XIX asr 40-yillaridagi
C) XIX asr 50-yillaridagi
D) XIX asr 60-yillaridagi

50.XIX asr 60-yillarida qaysi kapitalistik davlatning Koreyaga bosimi yanada kuchaydi?
A) Yaponiyaning B) Buyuk Britaniyaning
C) Fransiyaning D) Amerikaning

51.Quyidagilardan Koreya iqtisodiyotining nochor ahvolda qolaverishiga sabab bo'lgan omilni aniqlang.
1) mamlakatni tashqi dunyodan ajratib qo'yilganligi;
2) feodal tuzumning saqlanib qolaverganligi;
3) og'ir iqtisodiy va siyosiy inqiroz;
4) zamon ruhiga mos islohotlar o'tkazilmaganligi; 5) ishlab chiqaruvchi kuchlarning vayron bo'lishi;
A) 1,2 B) 2,4 C) 1,4 D) 3,5

52.Koreya iqtisodiyotining nochor ahvolda qolishi oxir oqibat nimaga olib keldi?
A) tashqi dunyodan butunlay ajralishiga
B) Buyuk davlatlarning mustamlakasi bo'lishga
C) G'arbning buyuk davlatlari tomonidan mamlakatning talanishiga
D) Yaponiya mustamlakasiga aylanib qolishiga

**35- §. XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Usmoniylar imperiyasi.**

1. XIX asrning 70-yillarigacha bo`lgan davrda Usmonli turklar imperiyasi davlat tuzumini qayd eting.
A) demokratik B) avtoritar
C) cheklangan monarxiya
D) mutlaq monarxiya

2. XIX asrning 70-yillarigacha bo`lgan davrda Usmonli turklar imperiyasining davlat boshlig`i quyidagi ko`rsatilgan so`zlardan qay biri bilan atalgan?
A) shoh B) sulton C) podshoh D) amir

3. Quyidagi ko`rsatilgan sabablardan qay biri XIX asrning 70-yillarigacha bo`lgan davrda Usmonli turklar imperiyasi jamiyat taraqqiyoti yo`lidagi asosiy g`ovga aylandi?
A) o`rta asr jamiyatining taraqqiy etishi
B) davlat idoralari amaldorlari o`rtasida o`zboshimchalik, korrupsiyahamda davlat mansablarini sotish avj olishi
C) Sultonning zulmga asoslangan hokimiyati va yangilikni qabul qilishga mutlaqo tayyor emasligi
D) qo`shni davlatlarning bosqinchiligi

4.XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Usmoniylar imperiyasida aholining .. . boshqa barcha davlat xizmatchilari sultonning quli hisoblan-gan.
A) ruhoniylardan B) vazirlardan
C) savdogarlardan D) o'qituvchilardan

5. Usmoniy turklar davlatidagi islohatlar o`tkazishga urinishlar kimlarning qarshiligi tufayli amalga oshmay qolavergan?
A) mutassib din arboblari va mustamlakachi chet el davlatlarining
B) sipohilarning
C) yirik davlat arboblarining
D) ruhoniylarning

6. Qaysi asrga kelib Yevropaning buyuk davlatlari Turkiya imperiyasining mustamlaka hududlariga ko`z olaytirishni kuchaytirdilar?
A) XVIII asr birinchi yarmi
B) XVIII asr o`rtalari
C) XVIII asr boshlari
D) XVIII asr oxiri

7. Tarixga "Sharq masalasi" nomi bilan kirgan hodisa qachon yuz berdi?
A) XVIII asr boshi B) XVIII asr oxiri
C) XVII asr oxiri D) XIX asr boshi

8. XVIII asr oxirida paydo bo'lgan "Sharq masalasi"da ishtirok etgan davlatlarni aniqlang
A) AQSh. Fransiya. Angliya. Rossiya
B) Turkiya. Rossiya. Avstriya. Eron
C) Fransiya, Rossiya. Angliya, Avstriya
D) Turkiya, Angliya, AQSh, Avstriya

9. «Sharq masalasi»da qaysi davlat Usmonli turklar imperiyasiga qaram bo`lgan Bolqon yarim orolida mustahkam o`rnashib olishga va Qora dengiz bo`g`ozlarini qo`lga kiritishga intilgan?
A) Buyuk Britaniya B) Fransiya
C) Rossiya D) Avstriya

10. «Sharq masalasi»da Avstriya qanday siyosatni yuritishga harakat qilgan?
A) Bolqonda mustahkam mavqega ega bo`lib olish
B) Usmonli turklarimperiyasini saqlab qolishga harakat qilgan
C) Usmonli turklarimperiyasi xalqlarining milliy ozodlik harakatini bostirishda sulton hukumatiga yordam ko`rsatgan
D) Qora dengiz bo`g`ozlarini qo`lga kiritishga intilgan

11. XIX asrning 70-yillarigacha bo`lgan davrda Usmonli turklar imperiyasi xalqlarining milliy-ozodlik kurashidan Yevropaning buyuk davlatlar nima maqsadda foydalanganlar?
A) Turkiya ichki ishlariga aralashish quroli sifatida foydalandilar
B) Bolqon yarim orolida mustahkam o`rnashib olish
C) Turkiyaning portlariga kirish
D) Yaqin Sharqni o`z ta`siriga olish

12. 1827-yilda Turkiyaga qaram Gretsiyaga muxtoriyat huquqi berilishini ko'zda tutuvchi bitim qayerda imzolangan?
A) Afinada B) Istanbulda
C) Parijda D) Londonda

13. Fransiya nechanci yilda Jazoirni bosib oldi?
A) 1839-yilda B) 1840-yilda C) 1832-yilda
D) 1830-yilda

14. Misr hukmdori Muhammad Alining bosh ko`tarishiga nima sabab bo`ldi?
A) Rossiya bilan Turkiya o`rtasida Adrionopol tinchlik shartnomasini imzolanishi
B) Fransiyaning Jazoirni bosib olishi
C) Turkiyaning Rossiya va Fransiya bilan urushdagi ketma-ket muvaffaqiyatsizligi
D) Gretsiyaning mustaqil podsholik deb e'lon qilinishi

15. Misr hukmdori Muhammad Ali qachon sulton qo`shinini tor-mor etdi?
A) 1832-yilda B) 1830-yilda C) 1839-yilda
D) 1840-yilda

16.1832-yilda Misr sultoni Muhammad Ali turk sultoni qo'shinlarini tor-mor keltirgan vaqtda turk imperiyasini halokatdan saqlab qolgan davlatni aniqlang.
A) Rossiya B) Buyuk Britaniya C) Avstriya
D) Fransiya

17.Muhammad Ali 1840-yilda quyidagi qaysi hududlarni boshqarishni meros qilib qoldirish huquqini qo'lga kiritdi?
1)Misr; 2)Tunis; 3)Jazoir; 4)Suriya; 5)Sudan; 6)Efiopiya.
A) 1,2 B) 1,5 C) 3,6 D) 2,4

18. Quyidagi ko`rsatilgan sabablardan qay biri "Qrim urushi"ni keltirib chiqardi?
A) rus floti Bosfor bo`g`oziga kirishi
B) Turkiyaning Rossiya va Fransiya bilan urushdagi ketma-ket muvaffaqiyatsizligi
C) Adrionopol tinchlik shartnomasini imzolanishi
D) Rossiyaning Turkiyaga qaram o`lkalarda mustahkamlanib olishga urinishlari

19. "Qrim urushi" qachon kelib chiqdi?
A) 1853-yilda B) 1830-yilda C) 1832-yilda
D) 1840-yilda

20.Quyidagi qaysi Rossiya podshosi sultondan Rossiyani Turkiyaga qaram

o'lkalarda yashovchi barcha pravoslav xalqlari, shuningdek, xristianlikning Falastindagi muqaddas joylari homiysi deb tan olishini talab qildi?
A) Pyotr I B) Aleksandr I C) Nikolay I
D) Aleksandr II

21. Buyuk Britaniya va Fransiya Turkiya sultonidan Rossiyaning qaysi talabini rad etishga undadilar?
A) Rossiyaga Bolqon yarim orolidagi barcha portlarni ochib qo`yishni
B) Rossiyani Turkiya imperiyasiga qaram o`lkalarda yashovchi barcha pravoslav xalqlarining homiysi ekanligini tan olinishini
C) rus savdogarlariga bojsiz savdo-sotiq qilishni
D)Bolqondagislavyanxalqlariga ozodlik berish

22. Qrim urushining natijasini qayd eting.
A) Buyuk Britaniya, Fransiya va Turkiya uchlik ittifoqi g`alaba qozondi.
B) Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya Usmonli turklar imperiyasi ustidan g`alaba qozondi.
C) Buyuk Britaniya, Fransiya, Avstriya mag`lubiyatga uchradi.
D) Germaniya, Rossiya va Fransiya Turkiyadan mag`lubiyatga uchradi.

23.1856-yilda imzolangan qaysi shartnoma Turkiya ustidan amalda G'arb davlatlarining "homiyligini" o`rnatdi?
A) Parij tinchlik shartnomasi
B) Andrianopol shartnomasi
C) Sevr shartnomasi
D) London shartnomasi

24. Qay tariqa Turkiyaning yarim mustamlakaga aylanishiga yo`l ochildi?
A) Muhammad Aliga Misr va Sudanni boshqarishni meros qoldirish huquqini berilishi
B) Rossiyaga Bolqon yarim orolidagi barcha portlarni ochib qo`yishi
C) chet elliklarga Turkiyada yer va boshqa ko'chmas mulk sotib olishga ruxsat etilishi va chet davlatlarga berilgan konsessiya darkatolatlanishi natijasida
D) Adrionopol tinchlik shartnomasini imzolanishi

25.Qaysi davrga kelib mustamlakachi davlatlar Turkiyada uning siyosatini belgilashga imkon beruvchi iqtisodiy va siyosiy mavqeyiga ega bo'lib oldi?
A) XIX asrning 30-yillariga kelib
B) XIX asrning 70-yillariga kelib
C) XIX asrning 40-yillariga kelib
D) XIX asrning 60-yillariga kelib

26. XIX asrning 70-yillarda Turkiyaning chet davlatlardan qarzi qancha frankni tashkil etdi?
A) 1. 4 mlrd frankni B) 3. 4 mlrd frankni
C) 4,4 mlrd frankni D) 2,4 mlrd frankni

27. Konsessiya nima?
A) ishlab chiqarish yoki savdoning bir sohasida yakka hukmronligi egallab olingan ulkan korxona yoki shunday korxonalar birlashmasi.
B) davlat korxonalarini, mulkini muayyan muddatga chet el kapitaliga berish haqidagi kelishuv shartnoma.
C) iqtisodiy va siyosiy hukmronlikning bir hovuch ulkan sarmoya egalari qo`lida to`planishi.
D) birtarmoqdagimustaqilkompaniyalar, firmalarnmgishlabchiqarishvasotishningumu miyhajmlari, narxlari, sotishbozorlari, harbirishtirokchilikulushivaboshqalarto`g`risi dagibitimiasosidatuzilma.

28. Konsessiya lotinchadan qanday ma'noni bildiradi?
A) ruxsat, yon berish B) ozchilik hokimiyati
C) ishtirok, manfaat D) birgalikda ishlash

### 36- §. XVI—XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Afg'oniston.

1.Afg`onlarning Eron safaviylariga qarshi uzoq yillar davom etgan kurashi qachondan boshlangan?
A) XVII asrdan B) XV asrdan
C) XVI asrdan D) XVIII asrdan

2. Eron safaviylariga qarshi afg'onlarning uzoq yillar davom etgan kurashi qachondan boshlangan?
A) XV asrdan B) XVII asrdan

C) XVIII asrdan D) XVI asrlar

3.Afg'onistondagi asosiy savdo yo'llari nechanchi yillarda Eron safaviylari qo'li ostida edi?
A) 1649-1709-yillar B) 1708-1711-yillar
C) 1701-1711-yillar D) 1645-1701-yillar

4.Eron safaviylari tomonidan Afg'oniston hududi bosib olinganidan so'ng, bu yerda ular qanday siyosat yurgizdilar?
A) afg'on qabilaiarini bir-biriga gij-gijlatish
B) afg'on qabilaiarini bir-biriga yaqinlashtirish
C) afg'on qabila boshliqlarining boshqaruv ishlariga jalb qilish
D) afg'onlarni Buxoro xonligi va Hindistonga qarshi gijgijlatish

5. Qaysi javobda Eron safaviylari Afg'oniston hududini bosib olganlaridan so'ng, bu yerda yuritgan siyosatlari keltirilgan?
A) afg'on qabilalari hukmdorlarini aldash yo'li bilan yo'q qilish
B) afg'onlarni Buxoro xonligi va Hindistonga qarshi gijgijlash
C) afg'on qabila boshliqlarini Eron va Hindiston yerlarini boshqaruv ishlariga jalb qilish
D) afg'on qabilalarining hukmdorlariga turli xil unvonlar va yer mulklar berish evaziga ular bilan kelishish

6.1709-yilda qanday voqea yuz bergan?
A) Nodirshoh tomonidan afg'on yerlarining bosib olinishi
B) Mir Vaysxon boshchiligidagi afg'onlarning Eron bosqinchilariga qarshi kurashi
C) afg'onlarning Xiva xonligi hududiga bostirib kirishi
D) Buxoro xonligi askarlarining Xivaga yurishi

7.Eronliklarga qarshi Qandahorga ko'tarilgan (1709-yil) qo'zg'olonga boshchilik qilgan Mir Vaysxon qaysi qabila xoni edi?
A) gilza B) sur
C) abdali D) barakzay

8.Mir Vaysxon rahbarlik qilgan harbiy qism qaysi shaharni bosib oldi?
A) Kobul B) Isfahon C) Qandahor
D) Hirot

9.1722-yilda qanday voqea yuz berdi?
A) Eron tomonidan Qandahor viloyatining bosib olinishi
B) Mir Vaysxonning o'g'li Mir Mahmud o'zini Eron shohi deb e'lon qildi
C) afg'onlarning Xiva xonligi hududiga bostirib kirishi
D) Buxoro xonligi askarlari Hindistonga yurish qildi

10. Nodir Quli Eron shohi deb e'lon qilingach necha yil o'tgach Afg'oniston bo'ysundirildi?
A) besh B) to'rt C) ikki D) uch

11. 1730-yilda Eron …
A) Afg'onistonni egallab oldi.
B) afg'on bosqinchilaridan ozod etildi.
C)mustaqillik uchun kurash boshladi.
D) Qandahor viloyatini bosib oldi.

12. Qachon Nodir Quli Eron shohi deb e'lon qilindi?
A) 1722-yilda B) 1738-yilda
C) 1736-yilda D) 1747-yilda

13. Nechanchi yilda Nodirshoh Afg'onistonni bo'ysundirdi?
A) 1738-yilda B) 1736-yilda C) 1722-yilda
D) 1747-yilda

14.Afg'onistonni itoatda tutish uchun Nodirquli qanday siyosat yuritdi?
A) afg'on qabila boshliqlarini asirga oldi
B) Erondan katta miqdordagi jangchilarni oilalari bilan Kobul va boshqa shaharlarga ko'chirib keltirdi
C) Hindistondan yollangan askarlarni Kobulga keltirib joylashtirdi
D) Buxoro xoni Abulfayzxondan yordam so'radi

15.Eron shohi Nodir Quli o'ldirilgan yilda…
A) Qandahor xonligi hukmdori Mir Mahmud o'zini Eron shohi deb e'lon qildi
B) afg'on qabila xonlarining jirg'asi afg'onlarning abdali qabilasi sardori

Ahmadshohni Afg'oniston shohi deb e'lon qildi
C) Buyuk Britaniya va Afg'oniston o'rtasida ingliz-afg'on do'stlik shartnomasi imzolandi
D) taxt uchun uzoq davom etgan kurashdan so'ng Do'st Muhammadxon Afg'oniston taxtini egallandi

16. Nodirshoh qachon vafot etgan?
A) 1741-yilda B) 1736-yilda
C) 1747-yilda D) 1738-yilda

17. Qay tariqa Afg'oniston davlatining tashkil topishi uchun barcha zarur tashqi sharoit yetildi?
A) Eron hukmdori Nodirshoh vafot etishi, Boburiylar imperiyasi amalda hech qanday kuch-qudratga ega bo'lmay qolishi
B) Buyuk Britaniyaning Hindistonnin bosib olishi
C) Eronda sulolaviy janjalni boshlanib ketishi, Hindistonda sipohiylar qo'zg'olon ko'tarishlari
D) Turkiya harbiy qudratini zaiflashuvi

18. Quyidagi qaysi hukmdorga g'alabalari evaziga "Darri-Duron" unvoni berilgan?
A) Afg'oniston shohi Ahmadshoh
B) Afg'on amiri Do'stmuhammadxon
C) Eron shohi Nodirshoh
D) Boburiy hukmdor Avrangzeb Olamgir

19. Quyidagi qaysi qabiladan chiqqan Ahmadxon 1747-yilda Afg'oniston shohi bo'lgan?
A) barakzay B) zand C) qojar D) abdali

20. Afg'onistonda qaysi qabilaning nomi o'zgartirilib durraniy deb atalgan?
A) abdali B) gilza
C) xazora D) yovrnut

21. Afg'onistonda kengash qanday nomlangan?
A) Majlis B) Qurultoy
C) Jirg'a D) Yig'in

22. Rossiyada Pugachyov qo'zg'oloni yuz bergan davrda Afg'oniston hukmdori bo'lgan shaxsni aniqlang.
A) Mir Mahmud B) Zamonshoh
C) Ahmadshoh D) Temurshoh

23. Afg'oniston hukmdori Temurshox necha yil hukmronlik qilgan?
A) 20 yil B) 30 yil C) 15 yil D) 25 yil

24. Afg'onistonda Durroniylar sulolasi hukmronligi zaiflashuviga olib kelgan omillarni aniqlang.
1) markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslik harakati;
2) shahzodalar o'rtasidagi kurash.
3) Angliya tazyiqining kuchayishi;
4) bosib olingan o'lkalardagi xalq qo'zg'olonlari; 5) Eron bilan o'zaro nizolar
A) 1, 5 B) 2, 3 C) 2, 4 D) 3, 4

25. Durroniylar sulolasi hukmronligi (Afg'onistonda) zaiflashish sabablaridan birini aniqlang
A) Barakzaylar sulolasining xalq tomonidan qo'llab-quvvatlanishi
B) Bosib olingan o'lkalarning doimiy qo'zg'alonlari
C) Boburiylar tomonidan olib borilgan bosqinchilik yurishlari
D) Angliya tomonidan Kobul shahrida yirik qo'shinining joylashtirilishi

26. Qay tariqa Durroniylar sulolasi hukmronligi barham topdi?
A) Do'st Muhammadxon Afg'oniston taxtini egallab, o'zini amir deb e'lon qilishi natijasida
B) Qandahor viloyatida Eron bosqinchilariga qarshi qo'zg'olon ko'tarilishi natijasida
C) Mir Vaysxonning o'g'li Mir Mahmud o'zini Eron shohi deb e'lon qilishi natijasida
D) afg'onlarning abdali qabilasi boshlig'i Ahmadxonn qabila xonlarining jirg'asi (kengashi) Afg'oniston shohi deb e'lon qilishi natijasida

27. Afg'onistonda qaysi yillarda Durroniylar sulolasi hukmronlik qildi?
A) 1649-1709-yillarda
B) 1688-1747-yillarda
C) 1747-1826-yillarda
D) 1722-1736-yillarda

28.1826-yilda taxtni egallagan va Afg'onistonni yagona davlatga birlashtirib, kuchli davlatga aylantirishga uringan hukmdorni toping.
A) Shuju B) Mir Vaysxon
C) Do'st Muhammadxon D) Zamonshoh

29. Barakzaylar sulolasining Afg`onistondagi hukmronligini boshlab bergan hukmdorni toping.
A) Do'st Muhammadxon B) Mir Vaysxon
C) Ahmadshoh D) Mir Mahmud

30.XIX asr boshida Afg'onistonda davlatning bosh vaziri lavozimini egallagan shaxs kim va qaysi qabilaga mansub edi?
A) Zamonshoh, durraniy qabilasi
B) Mir Vaysxon, gilza qabilasi
C) Do'st Muhammadxon, barakzaylar qabilasi
D) Fathxon, barakzaylar qabilasi

31. Amir Do`st Muhammadxon nimaga harakat qildi?
A) Afg`oniston davlatining tashkil topishiga
B) butun Afg`onistonni yagona davlatga birlashtirishga va uni kuchli davlatga aylantirishga
C) mamlakat hududini bosib olingan o`lkalar hisobiga kengaytirishga
D) Afg`onistonni Eron zulmidan ozod qilishga

32. XIX asrda Afg`oniston hududida qaysi davlatlar manfaatlari to`qnashdi?
A) Fransiya va Germaniya
B) Italiya va Portugaliya
C) Buyuk Britaniya va Rossiya
D) Eron va Hindiston

33. Birinchi afg`on - ingliz urushi qaysi yillarda bo`lib o`tdi?
A) 1838-1842-yillar B) 1836-1843-yillar
C) 1857-1863-yillar D) 1842-1857-yillar

34. Qachon Buyuk Britaniya Afgonistonga hujum qildi?
A) 1843-yilda B) 1855-yilda C) 1838-yilda
D) 1863-yilda

35. Ingliz armiyasi Kobul shahrini egallaganda taxtga kim o`tqazildi?
A) gilza qabilasi xoni Mir Vaysxon
B) abdali qabilasi boshlig`i Ahmadxon
C) durroniylar vakili Shuju
D) barakzaylar yetakchisi Fathxon

36. 1841-yilda Kobul aholisi qo`zg`olonida kim katta rol o`ynadi?
A) Mir Vaysxonning o`g`li Mir Mahmud
B) Do`st Muhammadning o`g`li Akbarshoh
C) Ahmadshohning nabirasi Zamonshoh
D) durroniylar vakiliShuju

37. 1841-yilda Qobul shahri aholisi qaysi hukmdorga qarshi qo'zg'olon ko'tardi?
A) Do'st Muhammad B) Ahmadxon
C) Nodirshoh D) Shuju

38.Birinchi afg'on-ingliz urushi nechanchi yilda tugagan?
A) 1841-yil B) 1843-yil
C) 1839-yil D) 1842-yil

39. "Ost-Indiya" kompaniyasi Sind viloyatini bo'ysundirgan yilni aniqlang.
A) 1738-yil B) 1757-yil C) 1826-yil
D) 1843-yil

40. Do`st Muhammadxon nechanchi yilda ingliz - afg`on do`stlik shartnomasini imzoladi?
A) 1855-yilda B) 1857-yilda
C) 1863-yilda D) 1842-yilda

41. XIX asrning o'rtalarida Buyuk Britaniya va Afg'oniston o'rtasida ingliz-afg'on do'stlik shartnomasi va bundan ikki yil o'tib mazkur davlatlar o'rtasida harbiy shartnoma imzolangan edi. Shu vaqtda Afg'oniston hukmdori kim edi?
A) Mir Mahmudxon B) Do'st Muhammadxon
C) Shuju D) Fathxon

42.Buyuk Britaniya uchun Afg'onistonni vassal davlatga aylantirish yo'lidagi birinchi qadam bo'lgan omilni aniqlang.
A) Buyuk Britaniya va Afg'oniston o'rtasida 1857-yilda tuzilgan harbiy shartnoma
B) Hindistonni mustamlakaga aylantirilishi va inglizlarning Afg`oniston chegaralarida chiqishi

C) 1855-yilda imzolangan ingliz-afg'on do'stlik shartnomasi
D) Afg'on iston masalasida Buyuk Britaniya-Rossiya bitimining imzolanishi

43. Do`st Muhammadxon qachon vafot etdi?
A) 1855-yilda B) 1863-yilda
C) 1857-yilda D) 1843-yilda

44. Quyidagi qaysi voqea sabab Buyuk Britaniya Afg`oniston ichki ishlariga aralashmasligini bildirdi?
A) inglizlarning Kobul shahrini egallashi
B) Kobul aholisining qo`zg`olon ko`tarishi
C) Buyuk Britaniya qo`shini qo`mondonligi barcha ingliz harbiy qismlarini Afg`onistondan olib chiqib ketish to`g`risidagi shartnomani imzolashi
D) Hindistonda bo`lib o`tgan sipohilar qo`zg`oloni

45. Quyidagi tarixiy shaxslar orasidan Barakzaylar sulolasi vakillarini belgilang.
1)Sulton Husayn; 2)Do'st Muhammadxon; 3)Shuju; 4)Fathxon; 5)Mir Vaysxon
A) 1,2 B) 3,5 C) 2,4 D) 1,3

46. Durri-Duron degani nima?
A) zamon zo'rniki B) javohirlar javohiri
C) samoviy mol-ko'lchilik
D) ma'naviy durdona

**37- §. XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Eron.**

1. Eron XIX asrda qanday davlat edi?
A) mutlaq monarxiya B) demokratik
C) avtoritar D) cheklangan monarxiya

2. XIX asrda Eronda davlat boshlig`i ...
A) sulton bo`lib, u cheklangan huquqga ega bo`lgan.
B) podshoh bo`lib, uning cheklanmagan huquqqa ega bo`lgan.
C) shoh bo`lib, u cheklanmagan huquqqa ega bo`lgan.
D) xon bo`lib, uning huquqlari vazirlar mahkamasi bilan cheklangan.

3. XIX asrda Eronda Shoh huzurida maxfiy kengash tuzilgan bo`lib, uning tarkibiga kimlar kirgan?
A) naqib, parvonachi, dodxoh va ko`kaldosh
B) sadr-a'zam amin ad-davla, vazir, hakimboshi va shayx ul-islom
C)xon yasovuli, eshikog`aboshi, shayxulislom va qozikalon
D) muhtasib, miroxur, shig`ovul va bakovulboshi

4. XIX asrda Eron ma'muriy jihatdan nimalarga bo`lingan va ulani kimlar boshqargan?
A) o`lkalar va viloyatlarga, ularni vali boshqargan.
B) tumanlar va bekliklarga, ularni tumanbegi boshqargan.
C)viloyatlar va sanjoqlarga, ularni sanjoqbey boshqargan.
D) viloyatlarga bo`lingan, ularni beklarbegi boshqargan

5. XIX asrda Eron taxt vorisiga qayer berilgan va uning qarorgohi qaysi shaharda joylashgan edi?
A) Ozarbayjon berilgan bo`lib, uning qarorgohi Tabriz shahrida edi
B) Xuroson berilgan bo`lib, uning qarorgohi Marv shahrida edi.
C) Afg`oniston berilgan bo`lib, uning qarorgohi Hirot shahrida edi.
D) Seyiston berilganbo`lib, uning qarorgohi Nishopur shahrida edi.

6.XIX asrda Eron davlatida beklarbegi lavozimidagi amaldor qanday vazifani bajarganligini aniqlang
A) bosh vazir hisoblangan
B) viloyatni boshqargan
C) qo'shin sarkardasi hisoblangan
D) beklardan tashkil topgan guruh rahbari bo'lgan

7.XIX asrning boshlariga kelib, Eron xalqaro siyosatda muhim o`rin tuta boshladi, bunga sabab nima edi?
A) Buyuk Britaniyaning Hindistonni egallashga urinayotgani va Fransiyaning sharq masalasida Buyuk Britaniya bilan o`zaro kelishuvlari, Rossiyaning Afg`onistondagi harakatlari
B) Germaniyaning Osiyoda o`z yerlari bo'lishi uchun da'vo qilayotgani, Buyuk

Britaniyaning Afg'onistonga da'vosi, Rossiyaning Eron bilan qiziqa boshlashi
C) Buyuk Britaniya, Fransiya. va, Germaniyaning Sharq masalasida kelishmovchiliklari, Rossiyaning Afg'oniston masalasida Eronga murojaat etishi va, xalqaro qulay vaziyat
D) Buyuk Britaniya va Fransiyaning sharqda hukmronlikni o'z qo'llariga olish uchun boshlagan kurashlari hamda Rossiyaning Kavkazni qo'lga kiritishga urinayotgani

8. Nima uchun XIX asr boshlarida Buyuk Britaniya va Fransiya Eronni qo`llab-quvvatlay boshladilar?
A) Rossiyaning Kavkazda mustahkamlanib olishiga yo`l qo`ymaslik maqsadida
B) Rossiyaning Qora dengiz bo`g`ozlarini qo`lga kiritishga yo`l qo`ymaslik maqsadida
C) Eron bilan Rossiyaga qarshi harbiy ittifoq tuzish maqsadida
D) Rossiyani Eron orqali Af`gonistonga chiqish imkoniyaiga yo`l qo`ymaslik maqsadida

9. 1813-yilda Rossiya va Eron o`rtasida imzolangan shartnoma Rossiyaga nimaga imkon berdi?
A) Kaspiy dengizida o`z flotiga ega bo`lishga
B) Qora dengizda mavqeini mustahkamlashga
C) Kavkazda yanada mustahkamlanib olishga
D) Eron bilan savdo-sotiq ishlarida katta imtiyozlarga ega bo`lib olishga

10. 1826-1828-yillarda Eron - Rossiya urushi natijasida quyidagi ko`rsatilgan qaysi shartnoma tuzildi?
A) Turkmanchoy shartnomasi
B)Guliston shartnomasi
C) Tehron shartnomasi
D)Parij shartnomasi

11. Eron bilan tuzilgan qaysi shartnomaga ko`ra Rossiyaning Kavkazdagi mavqei yanada mustahkamlandi, Eron esa Kavkazorti hududlarida bo`lgan da'vosidan voz kechdi?
A) Guliston shartnomasiga ko`ra
B) Turkmanchoy shartnomasiga ko`ra
C) Tehron shartnomasiga ko`ra
D) Parij shartnomasiga ko`ra

12. 1841-yilda Buyuk Britaniya bilan Eron o`rtasida imzolangan shartnoma ko`ra ...
A) Eron Hirotga va Afg`onistonning boshqa hududlariga bo`lgan da'vosidan butunlay voz kechdi.
B) Eron Kavkazorti hududlarida bo`lgan da'vosidan voz kechdi.
C) Buyuk Britaniya Eron bilan savdo-sotiq ishlarida katta imtiyozlarga ega bo`lib oldi.
D)Buyuk Britaniya Kavkazda yanada mustahkamlanib oldi.

13. Qay tariqa Eron Buyuk Britaniyaning sanoat mahsulotlari sotiladigan bozoriga aylanib qoldi?
A) 1857-yilda Buyuk Britaniya va Eron o`rtasida imzolangan Parij Tinchlik shartnomasi natijasida
B) 1841-yilda Buyuk Britaniya bilan Eron o`rtasida imzolangan shartnoma natijasida
C) 1826-yilda Buyuk Britaniya bilan Eron o`rtasida imzolangan shartnoma natijasida
D) 1813-yilda Buyuk Britaniya bilan Eron o`rtasida imzolangan shartnoma natijasida

14. Qaysi omillar Eronda bobiylar qo`zg`olonini keltirib chiqardi?
1) Eronning Buyuk Britaniyaning sanoat mahsulotlari sotiladigan bozoriga aylanib qolishi, 2) davlat apparatidagi mansablarni sotish va sotib olish nihoyatda kuchayishi, 3) viloyat hukmdorlari, katta-katta yer-mulk egalari davlat xazinasiga soliq to`lamay qo`yishi; 4) Rossiya bilan Eron o`rtasida imzolangan Turkmanchoy shartnomasi oqibatlari; 5) hukmdorning cheklanmagan mavqeiga egaligi 6) Eronning Kavkazorti hududlarida bo`lgan da'vosidan voz kechishi.
A) 1, 2, 3, 4, 5, 6 B) 1, 3, 5
C) 1, 2, 3 D) 2, 4, 5, 6

15. Bobiylar qo`zg`oloni ishtirokchilari asosan kimlardan iborat edi?
A) dehqonlar va hunarmandlar
B) talabalar, mayda zamindorlar va shahar boylari
C) ruhoniylar, yirik va mayda zamindorlar
D) hunarmandlar, mayda savdogarlar, shahar kambag`allari va shahar atrofida yashovchi dehqonlar

16. Bobiylar qo`zg`oloni qaysi yillarda bo`lib o`tdi?
A) 1843-yilda boshlanib 1848-yilning o`rtalarigacha
B) 1850-yılda boshlanib 1856-yilning o`rtalarigacha
C) 1848-yilda boshlanib 1850-yilning o`rtalarigacha
D) 1847-yilda boshlanib 1853-yilning o`rtalarigacha

17. Bobiylik ta'limoti asoschisi kim bo`lgan?
A) shayx Jalol
B) Karimxon Zend
C) Og`a Muhammadxon
D) Sayid AliMuhammad

18. Bobiylar nimani talab qilganlar?
A) shoh tuzumini bekor qilish
B) shaxsni himoya qilish, kambag`allardan olinadigan soliqlarni bekor qilish, yirik yer egaligini tugatish, barcha mol-mulklarni odamlarga teng taqsimlash
C) G`arb bilan munosabatlarni to`xtatishni
D) chet elliklar bilan savdo-sotiq ishlarida katta imtiyozlarni bekor qilishni

19. Bobiylar nimaning tarafdorlari bo`lganlar?
A) mavjud dinni bekor qilish va davlat tuzumini ag`darib tashlash
B) shaxsni himoya qilish
C) shoh tuzumini bekor qilish
D) G`arb bilan munosabatlarni to`xtatishni

20. Bob arabchadan qanday tarjima qilinadi?
A) sahifa B) eshik, darvoza
C) boshlanish D) qoida, isbot

21. Bobiylik ta'limoti asosida qanday g`oya yotadi?
A)G`arb bilan munosabatlarni to`xtatish
B)mavjud dinni bekor qilish va davlat tuzumini ag`darib tashlash
C) shaxsni himoya qilish
D) ilohiy xaloskor (mahdiy)ning kelishi yaqinlashganligi

22.Nima sababdan Bobiylar shoh qo'shinidan mag`lub bo'lgan?
A) qurol-yarog' yetishmaganligi uchun
B) oziq-ovqat tanqisligi bo'lgani uchun
C) qo'zg'olon rahbarlarining uyushmay harakat qilgani sababli
D) harbiy jihatdan ustun bo`lmagani sababli

23. Buyuk Britaniya nechanchi yilda Eronni rasman Hirotga da'vosidan voz kechishga majbur etdi?
A) 1853-yilda B) 1856-yilda C) 1857-yilda
D) 1850-yilda

24. Nima sababdan Buyuk Britaniya Eronga urush e'lon qildi?
A) Buyuk Britaniya Eron bilan savdo-sotiq ishlaridagi imtiyozdan mahrum bo`lganligi uchun
B) Eronning Rossiya bilan Turkmanchoy shartnomasini imzolishi
C) Eron Hirot shahrini bosib olganligi uchun
D) Eron hukumatining bobiylar qo`zg`olonini qo`llab-quvvatlashi

25. 1856-yilda Eron ...
A) Rossiya bilan Turkmanchoy shartnomasini imzoladi.
B) rasman Hirotga da'vosidan voz kechdi.
C) Buyuk Britaniya bilan Parij Tinchlik shartnomasi imzoladi.
D) Hirot shahrini bosib oldi.

26. Qachon Buyuk Britaniya va Eron o`rtasida Parij Tinchlik shartnomasi imzolandi?
A) 1856-yilda B) 1857-yilda
C) 1858-yilda D) 1850-yilda

27. Buyuk Britaniya va Eron o`rtasida imzolangan Parij Tinchlik shartnomasiga ko`ra ...
A) Buyuk Britaniya Eron bilan savdo-sotiq ishlarida katta imtiyozlarga ega bo`lib oldi.
B) Buyuk Britaniya Eron bozorlarini o`z yengil sanoat mahsulotlari bilan to`ldirib tashladi.
C) Rossiyaning Kavkazdagi mavqei yanada mustahkamlandi.
D) Eron Hirotga va Afg`onistonning boshqa hududlariga bo`lgan da'vosidan butunlay voz kechdi.

28.1857-yilda imzolangan Parij Tinchlik shartnomasidan keyin Eron va Afg`oniston

o'rtasida nizo chiqqudek bo'lsa, bu nizo qaysi davlat vositachiligida hal etiladigan bo'ldi?
A) Germaniya B) Fransiya
C) Buyuk Britaniya D) AQSh

29. Sadr a'zam kim bo`lgan?
A) moliya va ichki ishlar vaziri
B) bosh vazir
C) saroy bosh tabibi
D) vaqf mulklari boshlig`i

30. Quyidagi iboralardan qay biri Eronda moliya va ichki ishlar vaziri vazifasini bajargan?
A) Amin ad-davla B) Sadr a'zam
C) Hakimboshi D) Devonbegi

31. Hakimboshi Eronda qanday vazifani bajargan?
A) mamlakatning bosh qozisi
B) hukmdor siyosatiga fuqarolarning munosabatini o`rgangan va bu siyosatning daxlsizligi
C) saroy bosh tabibi
D) dargoh xavfsizligi, undagi tartib hamda kelgan-ketganlardan xabardor bo`lib turish

## 38- §. XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Afrika xalqlari.

1. Nima uchun Afrika qit'asini qora qit'a deb ham atashadi?
A) aholisining katta qismi qul qilinganligi uchun
B) aholisining katta qismi huquqsiz bo`lganligi uchun
C) qit'aning katta qismida neft va ko`mirga boy bo`lganligi uchun
D) aholisining katta qismi negr irqiga mansub bo`lganligi uchun

2. XIX asrda Afrikaning qaysi davlatlarida feodal monarxiyalar qaror topgan?
A) Aljir, Liviya, Misr, Marokko, Mavritaniya va Mali
B) Efiopiya, Misr, Tunis, Marokash, Sudan va Madagaskar
C) Niger, Chad, Sudan, Tunis, Zimbabve va Uganda
D) Gabon, Kongo, Kamerun, Gana va Tanzaniya

3. G'arbiy Afrikadagi qaysi davlatlar eng qadimgi davlatlar hisoblangan?
A) Zimbabve va Uganda
B) Tunis va Tanzaniya
C) Gana va Mali
D) Mavritaniya va Mali

4. XIX asr o'rtalarigacha Afrikaning qaysi hududlari qul savdosining eng muhim bazalari edi?
A) Nigeriya va Sudan B) Gana va Mali
C) Liberiya va Efiopiya
D) Angola va Mozambik

5.Ma'lumki, Yevropa davlatlari XVII-XIX asrlar davomida Afrikani mustamlakalashtirgan edi. Quyidagilardan Portugaliya mustamlakalarini aniqlang.
1) Mozambik, 2) Gambiya; 3) Angola; 4) Somali; 5) Niger.
A) 1, 3 B) 3, 4 C) 2, 5 D)1,5

6.XIX asrlarda Afrikada qishloq xo'jaligi taraqqiy etgan xalqlar ham bo'lib ular, asosan, qanday mahsulot yetishtirganlar?
1) paxta; 2) qahva; 3) yeryong'oq; 4) zig'ir; 5) kakao; 6) kauchuk
A) 1, 5, 6 B) 1, 2, 3 C) 2, 3, 5 D) 3, 4, 5

7.Yevropaning kuchli mustamlakachi davlatlari tomonidan afrikaliklarni qullikka sotish qachongacha davom etgan?
A) XX asr boshlarigacha
B) XIX asr boshlarigacha
C) XIX asr o'rtalarigacha
D) XVIII asr o'rtalarigacha

8.Qaysi davrga kelib Afrika qit'asi hududining 90 foizi mustamlakachilar qo'liga o'tdi?
A) XIX asr oxiriga kelib
B) XVIII asr oxiriga kelib
C) XX asr boshlariga kelib
D) XX asr o'rtalariga kelib

9. XIX asr oxirida butun Afrika, faqat ikki mamlakatdan tashqari, yevropaliklar tomonidan mustamlaka qilingan edi. Qaysi ikki mamlakat o'z mustaqilligini saqlab qoldi?
A)Tunis, Marokash B) Sudan, Madagaskar
C) Angola, Mozambik D) Liberiya, Efiopiya

10. Afrikada mustaqil Liberiya davlati qay tariqa tashkil topgan edi?
A) AQShda qulchilikka qarshi kurash natijasida
B) Afrikada milliy-ozodlik kurashi natijasida
C) Buyuk Britaniya Janubiy Afrikadagi Kap koloniyasini bosib olishi natijasida
D) Burlarning ko'chishi natijasida

11. Qachon AQShda erkinlikka erishgan qul negrlarni Afrikaga joylashtirish harakati boshlandi?
A) 1852-yilda B) 1854-yilda
C) 1867-yilda D) 1816-yilda

12. AQShda erkinlikka erishgan qul negrlar uchun Afrikaning qayeridan va qancha yer maydoni sotib olindi?
A) Kap koloniyasidan 13 ming $km^2$
B) Gvineya qirg'oqlarida 13 ming $km^2$
C) Keniya qirg'oqlarida 13 ming $km^2$
D) Senegal qirg'oqlarida 13 ming $km^2$

13. Monroviya manzilgohiga kimlar joylashtirildi?
A) Amerikaning sobiq qul negrlari
B) Afrikaning burlari
C) Angolada yashovchi bushmenlar
D) Nigeriyadagi sobiq qullar

14.1821-yilda Gvineya qirg'oqlarida tashkil etilgan manzilgoh qanday atalgan?
A) Kalaxari B) Bushmeniya
C) Monroviya D) Zambeziya

15. Afrika davlatlaridan qaysi birining nomi "erkin" ma'nosini bildiradi?
A) Angola B) Liberiya
C) Oranj D) Transvaal

16.Liberiya XIX asrda qaysi davlatlar o'rtasidagi raqobat munosabatlaridan ustalik bilan foydalanib, o'z mustaqilligini saqlab qola olgan?
A) Buyuk Britaniya va Fransiya
B) Italiya va Germaniya
C) Ispaniya va Portugaliya
D) Belgiya va Germaniya

17. Afrikada XIX asrning I yarmida tashkil etilgan qaysi davlatda G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikadagi ilg'or tartib-qoidalar joriy etilgan hamda Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasidagi raqobatdan ustalik bilan foydalanib o'z mustaqilligini saqlab qola olgan?
A) Transvaal B) Liberiya
C) Sudan D) Angola

18. XIX asrda Efiopiyada qanday munosabatlari hukm surardi?
A) o'rta asr B) quldorlik C) kapitalistik
D) urug'-jamoa

19. XIX asrda Efiopiya ...
A) mutloq monarxiya davlati edi.
B) G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikaning ilg'or andozalaridagi tartib-qoidalarni joriy etgan davlat edi.
C) eng qadimgi davlat hisoblangan.
D) bir necha knyazliklar birikmasidan iborat davlat edi.

20. Qachon Kassa Efiopiyani yagona davlatga birlashtirdi va o'zini imperator deb e'lon qildi?
A) 1847-yilda B) 1855-yilda
C) 1816-yilda D) 1867-yilda

21. Efiopiya imperatori Kassa kimning o'g'li edi?
A) dehqonning
B) maktab o'qituvchisining
C) kichik yer egasining
D) hunarmandning

22. Efiopiya imperatori Kassa davlatni mustahkamlash uchun qanday tadbirlarni amalga oshirdi?
1) yaxshi harbiy tayyorgarlik ko'rgan qo'shin tuzdi;
2) yirik feodallarni o'z qurolli kuchlariga ega bo'lish huquqidan mahrum etdi;
3) mamlakatda iqtisodiyotni ko'tarishga qaratilgan qator islohotlar o'tkazdi;
4) Amerikaning sobiq qul negrlaridan bir qismi bu yerga joylashtirildi;
5) G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikaning ilg'or andozalaridagi tartib-qoidalarni joriy etdi.

A) 1, 2, 3B) 1, 2, 3, 4, 5 C) 1, 3, 5 D)2, 4

23. Efiopiya imperatori Kassa har bir fuqaroni nimaga chaqirdi?
A) milliy-ozodlikka
B) respublika tuzumini o`rnatishga
C) o`zlari oldin shug`ullangan mehnat faoliyatini davom ettirishga
D) teng huquqlikka

24. Efiopiya imperatori Kassaning amalga oshirgan islohotlari kimlarning qarshiligiga uchradi?
A) chet el davlatlarining
B) yirik feodallar va cherkovning
C) yirik savdogarlarning
D) keng xalq ommasining

25. Efiopiyadagi qaysi jarayon XIX asrda Buyuk Britaniyaning bu mamlakatning bosib olishdagi harakatlarini yo'qqa chiqardi?
A) Markaziy hokimiyatning kuchli ekanligi
B) Efiopiya xalqining o'zgalarga qaram bo'lmaslik yo'lidagi irodali kurashi
C) Kasaning kuchli davlat tuza olishi
D) Angliya va Fransiya o'rtasidagi ziddiyat

26.Qaysi davlatning aralashuvi bilan Efiopiyada Kasa hokimiyati ag'darildi?
A) Germaniya B) Buyuk Britaniya
C) Fransiya D) Italiya

27. Qaysi asrda Buyuk Britaniya Janubiy Afrikadagi gollandlarga qarashli Kap koloniyasini bosib oldi?
A) XIX asrning birinchi yarmida
B) XIX asrning oxirlarida
C) XIX asrning o`rtalarida
D) XIX asr boshlarida

28. Kap koloniyasining aholisi qanday nom deb atalardi?
A) bushmenlar B) burlar
C) pigmeylar D) masailar

29.Quyidagilar orasidan Afrikada mahalliy aholiga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lgan golland, fransuz va nemis mustamlakachilarining avlodlari tomonidan tuzilgan davlatlarni aniqlang.
1)Monroviya; 2)Liberiya; 3)Kap; 4)Erkin Oranj; 5)Gvineya; 6)Transvaal; 7)Angola; 8)Mozambik.
A) 4,6 B) 3,5 C) 1,2 D) 7,8

30.Misrda XVIII-XIX asrlar chegarasida mamlakatga bostirib kirgan Napoleon Bonapart boshchiligidagi fransuz qo'shiniga qarshi mahalliy aholi bilan birgalikda kurashda qatnashgan mamluk jangchilari haqidagi ma'lumotlardan to'g'risini toping.
A) Afrikadagi nemis, fransuz va portugallarning avlodlari
B) Afrikaga Yevropa va Amerika davlatlaridan kelgan ko'ngilli jangchilar
C) qullikka olingan Gruziya va Shimoliy Kavkaz aholisi
D) Sahroyi Kabir ko'chmanchilaridan tuzilgan jangchilar

31. Misrda fransuz qo`shinlarining taslim bo`lgan-laridan keyin misrliklar kimlarni haydab chiqarish uchun kurashdilar?
A) italyanlarni B) nemislarni C) turklarni
D) inglizlarni

32. Rasman Misr XIX asrda qaysi davlatning oliy hokimiyati ostida edi?
A) Usmonli turklar imperiyasining
B) Buyuk Britaniyaning C) Fransiyaning
D) Eronning

33. Afrikaning quyidagi qaysi hududi 1830-yilda Fransiya mustamlakasiga aylandi?
A) Marokash B) Senegal
C) Jazoir D) Madagaskar

34.Jazoirliklarning XIX asrda fransuz mustamlakachilariga shiddatli qarshilik ko'rsatishiga kim rahbarlik qilgan edi?
A) Beybars B) Abdulqodir
C) Ahmad Arabiy D) Lakshmi Bay

35.Afrika tarixiga doir quyidagi tarixiy ma'lumotlarning qaysilari bir yilda sodir bo'lgan?
1) Jazoirliklar yo'lboshchisi Abdulqodir qo'shinining fransuzlar tomonidan qurshab olinishi va Abdulqodir-ning jangda halok bo'lishi;

2) Qora tanli ozodlikka erishgan sobiq qullarning Liberiya ozod davlati tuzilganligini e'lon qilinishi;
3) Kasa Efiopiyani yagona davlatga birlashtirib, o'zini imperator deb e'lon qilishi;
4) Buyuk Britaniyaning aralashuvi bilan Kasa hokimiyati ag'darilishi;
5) AQSh da mustaqillikka erishgan qora tanli qullarni Afrikaga joylashtirish harakatining boshlanishi.
A) 2, 4 B) 1, 3 C) 1, 2 D) 3, 5

36. XIX asrda Marokash aholisi qaysi davlat mustamlakachilariga muvaffaqiyatli ravishda qarshilik ko'rsatdi?
A) Buyuk Britaniya, Germaniya va Gollandiya
B) Rossiya, Avstriya va Italiya
C) AQSh, Buyuk Britaniya va Italiya
D) Ispaniya, Portugaliya va Fransiya

37. Hind okeanida Fransiya qaysi orolni bosib olishda muvaffaqiyatsizlikka uchradi?
A) Sokotra B) Mavrikiy
C) Madagaskar D) Reyunon

38. Qachondan boshlab Afrikaning ichkari qismini mustamlakaga aylantirish boshlandi?
A) XIX asrning 70-yillaridan
B) XIX asrning 60-yillaridan
C) XIX asrning 50-yillaridan
D) XIX asrning 40-yillaridan

39. Afrika qit'asining markaziy hududlarini mustamlaka sifatida taqsimlanishi buyuk davlatlar tomonidan qachon tugallanganligini aniqlang.
A) XIX asrning oxiri - XX asr boshlari
B) XIX asrning o'rtalari
C) XIX asr birinchi yarmi
D) XVIII asrning oxiri - XIX asrning boshlari

## VI-bob.Ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar.

### 39- §. Yevropada XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar.

1.XVIII- XIX asrlarda G'arbiy Yevropa va Amerikada yuz bergan inqilobiy o'zgarishlar bir qator mamlakatlarida feodal tartiblarni bekor qilgan bu inqiloblarning mehnatkashlar uchun natijasi qanday bo'ldi?
A) haqiqiy erkinlikni olib keldi
B) haqiqiy erkinlikni olib kelmadi
C) hech qanday natija bermadi
D) ishchilarning ahvoli yanada og'irlashdi

2.XIX asrning 70-yillarigacha ish kunining uzunligini davlatlar bilan to'g'ri joylashtiring.
1) Germaniya; 2) Fransiya; 3) AQSh;
4) Yaponiya; 5) Rossiya; 6) Angliya;
a) 10 soat; b) 10-12 soat; c) 12-16 soat;
A) 1,2-a; 3,6-b; 4,5-c
B) 1,2-b; 3,4-a; 5,6-c
C) 1,3-c, 2,6-b; 4,5-a
D) 1,2-b; 3,6-a; 4,5-c

3. XIX asrning 70-yillarigacha "fabrika ayollari"ni asosan necha yoshli qizlar tashkil qilar edi?
A) 13-14 yoshli B) 8-10 yoshli
C) 15-16 yoshli D) 10-12 yoshli

4. XIX asrning 70-yillarigacha "Fabrika bolalarini" necha yoshli bolalar tashkil etgan?
A) 9-11 B) 10-12 C) 11-13 D) 12-14

5.XIX asrda paydo bo'lgan ta'limotlarning asosiylari qaysi qatorda keltirilgan
1) kapitalizm; 2) konservatizm; 3) liberalizm; 4) kommunizm ; 5) sotsializm
A) 2,3,5 B) 1,2,3 C) 3,4,5 D) 2,3,4

6.Quyidagi shaxslar ichidan XVIII asrda paydo bo'l-gan ta'limotning ko'zga ko'ringan ingliz arbobini aniqlang.
A) Jozef de Mester B) Jon Lokk
C) F.Engels D) Edmund Berk

7.Quyidagi qaysi ta'limot mavjud siyosiy tartib-monarxiya boshqaruvini saqlab qolish zarurligini asoslashga urinardi?
A) konservatizm B) liberalizm
C) sotsializm D) kommunizm

8.Konservatizmning ko'zga ko'ringan arboblari xato berilgan javobni aniqlang.
A)Edmund Berk B)Jozef de Mester
C)Shari Monteskyo D)Lui de Bonald

9.Burjua jamiyatidagi aslzodalar mafkurasi bo'lgan ta'limot..
A) konservatizm B) liberalizm

C) sotsializm D) kommunizm

10.Feodal aristokratiya hukmronligiga qarshi kurash jarayonida yuz bergan burjua o'zgarishlarini ham ma'qullashga tayyor bo'lganlar qaysi ta'limot vakillari hisoblangan
A) konservatizm B) neokonservatizm
C) neoliberalizm D) kommunizm

11.Konservatizmning xarakterli belgisi, eng avvalo, …
A) shaxsning davlatga bo'ysunishi lozimligi
B) shaxs erkinligi muqaddasligi
C) barcha insonlarning to'liq ijtimoiy tengligi
D) an'analarning muqaddasligi

12.Konservatorlarning fikricha, jamiyatda tinchlik va tartibni saqlashning zarur shartlaridan biri nima edi
A) jamiyatidagi mavjud sinflar va qatlamlar orasidagi qat'iy chegaralarning saqlanishi
B) o'zgarishlarning jamiyatning asosi bo'lgan an'analarga putur yetkazmasligi
C) jamiyatda mavjud bo'lgan xususiy mulk
D) barcha insonlarning to'liq ijtimoiy tengligi

13.Konservatizm ta'limotining ko'zga ko'ringan arbobini aniqlang.
A) Sen Simon B) Sharl Fyure
C) Lui de Bonald D) Sharl Monteskye

14.Edmund Brek va Jozef de Mester haqida quyidagi mallumotlarning qaysi biri to'g'ri berilgan?
A) Utopik sotsializmning eng yirik namoyandalari
B) XVIII asrda paydo bo'lgan konservatizm ta'limotining ko'zga ko'ringan arboblari
C) Liberalizm ta'limotining eng yirik namoyandalari
D) XIX asrning o'rtalarida vujudga kelgan kommunizm ta'limotining ko'zga ko'ringan arboblari

15.XVIII asrdayoq paydo bo'lgan Konservatizm qaysi toifa mafkurasi sanalar edi?
A) burjua jamiyatidagi aslzodalar
B) burjua jamiyatidagi o'rta toifa
C) yirik yer egalari bo'lgan pomeshchiklar
D) intelligensiya

16.Shaxs erkinligini va bu erkinlikni kamroq cheklaydigan davlat tuzilishini ilmiy asoslaydigan g'oyaviy-siyosiy oqim?
A)Kapitalizm B)Neokonservatizm
C)Liberalizm D)Sotsializm

17.Liberalizm vakillari jamiyatda … shaxs erkinligining zaruriy sharti ekanligini uqtiradilar?
A) erkin raqobat B) xususiy mulk
C) huquqiy davlat g'oyasi
D) fuqarolarning qonun oldida tengligi

18.Bundan tashqari liberalizm vakillari quyidagi-lardan qaysilarini o'z g'oyalarining zaruriy sharti deb biladilar?
1) jamiyatidagi mavjud sinflar va qatlamlar orasidagi qat'iy chegaralarning saqlanishi;
2) erkin bozor, erkin raqobat va erkin tadbirkorlik, teng imkoniyatlar qaror topishi lozimligi; 3) xususiy mulkni himoya qilish;
4) teng imkoniyatlar qaror topishi lozimligi;
5) hukumatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga qisman aralashishi mumkinligi; 6) huquqiy davlat g'oyasi, fuqarolarning qonun oldida tengligi, bag'rikenglik va ozchilik huquqlarining himoyalanishi zarurligi;
7) umumiy saylov huquqi joriy etilishi
A) 2,4,6,7 B) 1,2,5,6 C) 3,4,5,7
D) 2,3,6,7

19.Liberalizm kimlarning g'oyasi sifatida paydo bo'ldi?
A) monarxiya tarafdorlarining
B) savdo burjuaziyasining
C) respublika tarafdorlarining
D) sanoat burjuaziyasining

20. Liberalizm ta'limotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan mutafakkirlarni aniqlang
A) Jon Lokk va Sharl Monteskyo
B) Sharl Monteskyo va Lui de Bonald
C) Edmund Berk va Lui de Bonald
D) Jon Lokk va Edmund Berk

21.Qaysi davrga kelib G'arbning ilg'or mamlakatlarida hukmron dunyoqarash bo'lib olgan liberalizm mutlaq monarxiyaga qarshi faol kurash olib bordi?

A) XVIII asr oxirlariga kelib
B) XIX asr boshlariga kelib
C) XIX asr o'rtalariga kelib
D) XIX asr oxirlariga kelib

22.Sotsialistik va kommunistik nazariyalarning paydo bo'lishiga olib kelgan omil ...
A) mutlaq monarxiyaga qarshi ayovsiz kurash
B) kapitalizmdan sinfsiz jamiyatga o'tish imkoniyatiga ishonch
C) monarxiya boshqaruvini saqlab qolish zarurligi
D) mehnatkashlar erkinligi uchun kurash

23.Sotsializm faqatgina eski tartiblarni yo'q qilish zarurligi haqida emas, balki ... haqidagi ta'limot ham edi?
A) jamiyatdagi barcha a'zolarni mehnatkashlarga aylantirish
B) insonlarning to'liq ijtimoiy tengligi bo'lgan yangi jamiyat qurish
C) jamiyat boyliklarini teng taqsimlaydigan jamiyat marpo etish
D) mavjud sinflar va qatlamlar orasidagi qat'iy chegarani saqlovchi yangi jamiyat qurish

24.Utopik sotsializm vakillari qachon yangi jamiyatni ishlab chiqaruvchilar jamoalarining ittifoqi sifatida tasvirlaydi?
A) XIX asrning o'rtalarida
B) XIX asrning birinchi yarmida
C) XIX asrning ikkinchi yarmida
D) XX asrning boshlarida

25.Utopik sotsializmning Buyuk Britaniyalik yirik namoyandasini aniqlang.
A) Robert Ouen B) F.Engels
C) Jon Lokk D) Edmund Berk

26.Quyidagilar orasidan pul hukmronligi, ikkiyuzlamachilik hamda aldovga asoslangan jamiyat o'rniga kishilar mehnatkash va ekspluatatorlarga ajratilmay-digan yangi jamiyat qurish loyihasini taklif qilgan insonlarni aniqlang.
1) Sen-Simon; 2) Sharl Fure; 3) Robert Ouen; 4) K.Marks; 5) Sharl Monteskyo; 6) F.Engels; 7) Lui de Bonald; 8) Edmund Berk; 9) Jozef de Mester.
A) 4,6 B) 1,2,3 C) 3,5,7 D) 7,8,9

27. Qaysi javobda XIX asrda utopik sotsializm rivojlanishiga hissa qo'shgan shaxslar ko'rsatilgan?
1) Anri Sen-Simon; 2) Adam Smit; 3) Robert Ouen; 4) Tomas Mor; 5) Sharl Furye; 6) David Rikardo
A) 3, 4, 5 B) 1, 2, 6 C) 1, 3, 5 D) 2, 4, 6

28.Marksizm nomini olgan yangi g'oyaviy ta'limot qachon paydo bo'lgan?
A) XVIII asrda B) XIX asr boshlarida
C) XIX asr birinchi yarmida
D) XIX asr o'rtalarida

29.Quyidagi qaysi shaxs kapitalizm taraqqiyoti sinfiy ziddiyatning o'sishiga olib kelishini ham aytib o'tgandi?
A) F.Engels B) Robert Ouen
C) Lui de Bonald D) K.Marks

30.Marksizmning paydo bo'lishi qaysi davlatdagi inqilobiy voqealar bilan bog'liq edi?
A) Germaniya B) Fransiya
C) Buyuk Britaniya D) Rossiya

31.Hech qanday xususiy mulkka ega bolmagan ko'p sonli ishchilarga nisbatan ishlatiladigan atmani aniqlang.
A) kommunistlar B) kapitalistlar
C) proletariat D) utopik sotsialistlar

32.... bu ishlab chiqarish vositalari jamoaning umumiy mulki bojgan, xususiy mulk bo'lmay-digan, jamiyat a'zolarining ijtimoiy tengligi asosida quriladigan ijtimoiy va iqtisodiy tuzum?
A) liberalistik jamiyat
B) sotsialistik jamiyat
C) kommunistik jamiyat
D) kapitalistik jamiyat

## VII-bob. XVII-XIX asrlarning 60-yillarida ilm-fan, adabiyot va san'at.

### 40- §. Ilm-fan taraqqiyoti.

1. XVII-XVIII asrlarning boshlarida aniq fanlar sohasida katta muvaffaqiyatlar birinchi navbatda kimlarning nomlari bilan bog'liq?
A) M. Lomonosov va A. Levenguk

B) I. Nyuton va G. V. Leybnis
C) E. Jenner va A. Levenguk
D) D. Joul va Yu. Mayer

2. I. Nyuton yashab o`tgan yillarni qayd eting.
A) 1642-1727-yillar B) 1646-1716-yillar
C) 1660-1731-yillar D) 1664-1729-yillar

3. Qaysi yillarda G. V. Leybnis yashab o`tgan?
A) 1642-1727-yillar B) 1660-1731-yillar
C) 1664-1729-yillar D) 1646-1716-yillarda

4. I. Nyutonning fizika fani taraqqiyotiga qo`shgan hissasi nima bilan belgilanadi?
A) «yetarli asos qonuni»ni birinchi bo`lib izohlab berberganligi
B) differensial va integral hisoblashni kashf etganligi
C) butun olam tortishish, mexanik harakat va nurning tarqalish qonunlarini kashf etganligi
D) nisbiylik nazariyasi, kvant mexanikasi va neytronlarning mavjudligini bashorat qildi va tarixda birinchi bo'lib sun'iy yadroviy reaksiyani amalga oshirganligi

5. I. Nyuton nechanchi yilda osmon jismlanni yaxshiroq ko`rsatadigan kichkina oynali teleskop ixtiro qildi?
A) 1700-yilda B) 1672-yilda
C) 1710-yilda D) 1671-yilda

6. Qay tariqa I. Nyuton yulduzlar olamini odamlarga yanada «yaqinlashtirdi»?
A) kichkina oynali teleskop ixtiro qilishi natijasida
B) durbin ixtiro qilishi natijasida
C) mikroskop ixtiro qilishi natijasida
D) astrolyabiya ixtiro qilishi natijasida

7. Quyidagi ko`rsatilgan olimlardan qay biri 30 yoshga to`lmasdan fan sohasida erishgan katta muvaffaqiyatlari uchun Qirollik jamiyat a'zosi (akademik) etib saylandi?
A) G. V. Leybnis B) M. Lomonosov
C) I. Nyuton D) A. Levenguk

8. G. V. Leybnis necha yoshida universitet talabasi bo`ldi?
A) 19 yoshida B) 15 yoshida
C) 30 yoshida D) 21 yoshida

9. G. V. Leybnis kim bo`lib yetishdi?
A) faylasuf, matematik va tarixchi olim
B) fizik va matematik olim
C) geolog va tibbiyot olim
D) tarixchi, notiq, mexanik, kimyochi, minerolog, rassom va shoir

10. Kim tomonidan va qachon Berlin Fanlar akademiyasiga asos soldi va uning birinchi prezidenti etib saylandi?
A) I. Nyuton tomonidan 1672-yilda
B) M. Lomonosov tomonidan 1725-yilda
C) G. V. Leybnis tomonidan 1700-yilda
D) A. Levenguk tomonidan 1675-yilda

11. XVII - XVIII asrlarda yashagan quyidagi olimlardan qay biri katta sonlarni hisoblash mashinasini, mayatnikli soatni ixtiro qilgan edi?
A) G.Leybnis B) I.Nyuton
C) M.Lomonosov D) Gers

12.Nemis olimi G.Leybnis ixtirolarni aniqlang?
A) Matematikada Differensial va integral hisoblash usulini kashf etgan.
B) Nurning tarqalish qonunini kashf etgan.
C) Modda massasining saqla,nish qonunini kashf etgan.
D) Fizikaviy-kimyo faniga.

13. "... Umumiy, zaruriy bilimning asosi faqat aql bo'lishi mumkin", deb yozgan olimni aniqlang.
A) Arximed B) Karl Maor C) G. Leybnis
D) Suqrot

14. Olimlardan qay biri katta sonlarni hisoblash mashinasini, mayatnikli soatni yaratdi?
A) E. Jenner B) I. Nyuton C) G.V.Leybnis
D) A. Levenguk

15."Tarixchi, notiq, mexanik, kimyochi, minerolog, rassom va shoir", "hamma narsani sinab ko'rgan va hamma narsani o'rgangan" degan ta'rif quyidagi olimlarning qaysi biriga qarata aytilgan?
A) I.Nyuton B) M.V.Lomonosov
C) A.Nobel D) G. V.Leybnis

16 M.V.Lomonosov haqida "Tarixchi, notiq, kimyogar, minerolog, rassom va shoir. U hamma narsani sinab ko'rgan, hamma narsani o'rgangan" degan fikrni kim bildirgan edi?
A) V.Putin B) D.I.Mendeleyev
C) A.S.Pushkin D) E.Jenner

17. Quyidagi qaysi shaharda Slavyan-yunon-lotin akademiyasi mavjud bo'lgan?
A) Berlinda B) Moskvada
C) Parijda D) Afinada

18. Kim tomonidan fizikaviy kimyo faniga asos solindi?
A) G. V. Leybnis B) M. Lomonosov
C) I. Nyuton D) A. Levenguk

19. Qaysi olim Rossiyada birinchi kimyo laboratoriyasini tashkil etdi?
A) A. Levenguk B) G. V. Leybnis
C) D.Mendeleyev D) M. Lomonosov

20. Rus olimlardan kim Germaniya universitetlarida kimyo va metallurgiya fanlaridan ta'lim oldi?
A) V.Belinskiy B) A.Gersen
C) D.Mendeleyev D) M. Lomonosov

21.Ilm-fan taraqqiyotiga oid kashfiyotlarni xronologiyalar bilan to'g'ri berilgan javobni toping.
1) Osmonni teleskop orqali kuzatish yordamida Neptun sayyorasi kashf etildi;
2) Ingliz fizigi D. Joul va nemis fizigi Y. Mayer tajribalar yo'li bilan energiyaning saqlanish qonunini asoslab berdi;
3) I. Nyuton shisha linzani, eng katta teleskoplardan ko'ra osmon jismlarini yaxshiroq ko'rsatadigan kichkina oynali teleskopni ham ixtiro qildi; 4) Mendeleyev tomonidan elementlarning davriy tizimi yaratildi;
a) 1671-yil; b) 1842-yil; c) 1846-yil;
d) 1869-yil.
A) 1-c; 2-d; 3-b; 4-a B) 1-c; 2-b; 3-a; 4-d
C) 1 -a; 2-c; 3-d; 4-b D) 1 -b; 2-a; 3-d; 4-b

22. Nimaga talabning tobora ortib borishi yer qobig'i xossalarini o'rganish zaruratini vujudga keltirdi?
A) Yer usti foydali qazilmalariga
B) Okean osti foydali qazilmalariga
C) Yer osti foydali qazilmalariga
D) xom ashyoga

23. Yer haqidagi fanning nomini aniqlang.
A) Geologiya B) Geografiya
C) Geodeziya D) Geometriya

24.XVII asrda 300 marta katta qilib ko'rsatadigan mikroskop yaratgan olimni aniqlang;
A) E.Jenner B) A.Levenguk C) D.Joul
D) D.Mendeleyev

25. Nimaning natijasida inson tanasi, o'simliklar, hayvon dunyosi tuzilishini batafsil o'rganish va bakteriyalarni aniqlash imkonini berdi?
A) mikroskopning yaratilishi natijasida
B) matematikaning yutuqlari natijasida
C) fizikaning erishgan yutuqlari natijasida
D) biologiya fanining kashfiyotlari natijasida

26. Nimaning yordamida ko'pgina bakteriyalarning ko'p kasalliklarga sababchi ekanligi isbotlandi?
A) astrolyabiya B) teleskop C) mikroskop
D) linza

27.XVIII asrda odamga chechak kasali sigirdan yuqsa kasallik yengil o'tishini, so'ngra bu kishi chechakka qarshi immunitetga (kasallikni qabul qilmaslik qobiliyatiga) ega bo'lishini, ya'ni unga chechak kasali mutlaqo yuqmasligini aniqlagan olimni ko'rsating.
A) E.Jenner B) A.Levenguk C) D.Joul
D) R.Mayer

28. Quyidagi ko'rsatilgan qaysi holatlar XIX asrda astronomiyani rivojlantirishga qudratli turtki berdi?
A) teleskopning kashf etilishi, G. V. Leybnis kashfiyotlari
B) fizikaning muvaffaqiyatlari, M. Lomonosov kashfiyotlari va mikroskopning yaratilishi
C) matematikaning muvaffaqiyatlari, Nyuton kashfiyotlari va teleskopning takomillashtirilishi

D) Yer osti foydali qazilmalariga talabning tobora ortib borishi, E. Jenner kashfiyotlari

29. Astronomiya ma'lumotlaridan nima maqsadda foydalanildi?
A) ob-havoni o`rganishda, inson faoliyatiga yulduzlarni ta'sirini
B) tabiiy boyliklarni o`zlashtirishda
C) harbiy maqsadlarda
D) kalendar (taqvim), geografik xaritalar tuzishda, dengiz kema qatnovida

30. Qaysi qonunga asoslanib buyuk rus olimi D. I. Mendeleyev elementlarning davriy tizimini yaratdi?
A) mexanik harakat qonuniga asoslanib
B) nurning tarqalish qonuniga asoslanib
C) energiyaning saqlanish qonuniga asoslanib
D) butun olam tortishish qonuniga asoslanib

31. XIX asr transport sohasida qanday asr bo`lib qoldi?
A) temir va bug` asri B) elektr va ko`mir asri
C) neft va bug` asri D) texnika va elektr asri

32. 1840-yilda jahonda qancha km temir yo`l bo`lgan?
A) 450 km B) 7700 km
C) 672 km D) 280 km

33. XIX asrda temir yo`llarning katta qismi qaysi davlatlarning hissasiga to`g`ri kelardi?
A) Fransiya va Italiya
B) Buyuk Britaniya va AQSh
C) Rossiya va Germaniya
D) Buyk Britaniya va Fransiya

34.Germaniya va Fransiyada temir yo'l qurilishi qachon boshlandi?
A) XIX asr 40-yillarida
B) XIX asr 30-yillarida
C) XIX asr 20-yillarida D) XIX asr boshida

35. 1870-yilga kelib jami necha km temir yo`l qurilgan edi?
A) 560 ming B) 430 ming C) 350 ming
D) 200 ming

36. Qachondan bug` mashinalari bilan harakatga keltiriladigan g`ildirakli daryo paroxodlaridan keng foydalanila boshlandi?
A) XIX asrning 30-yillaridan
B) XIX asrning 40-yillaridan
C) XIX asrning 20-yillaridan
D) XIX asrning 50-yillaridan

37. Qachon g`ildirakli paroxodlar okean orqali Hindiston va Amerikaga qatnay boshladi?
A) XIX asrning 30-yillarning oxirlaridan
B) XIX asrning 40-yillarning oxirlaridan
C) XIX asrning 50-yillarning oxirlaridan
D) XIX asrning 60-yillarning oxirlaridan

38. G'arb mamlakatlarida yelkanli dengiz floti o'z o'rnini paroxodlarga bo'shatib bera boshlagan davrni aniqlang.
A) XIX asr 20-yillarida
B) XIX asr 70-yillarida
C) XIX asr 30-40-yillarida
D) XIX asr 50-60-yillarida

39. Qachon quruqlikdagi telegraf liniyalardan tashqari suv osti kabellari yotqizila boshlandi?
A) XIX asrning birinchi yarmida
B) XIX asrning o`rtalarida
C) XIX asrning boshlarida
D) XIX asrning oxirlarida

40. Buyuk Britaniyadan Amerikaga Atlantika okeani tubi orqali dastlabki telegraf kabeli o`tqazildi?
A) XIX asrning 40-yillarning oxirida
B) XIX asrning 50-yillarning oxirida
C) XIX asrning 60-yillarning oxirida
D) XIX asrning 30-yillarning oxirida

41. Telegrafning vujudga kelishi ...
A) elektrdan amalda foydalanishning asosiy sohasi bo`ldi.
B) fizikadan amalda foydalanishning asosiy sohasi bo`ldi.
C) butun olam tortishish, mexanik harakat va nurning tarqalish qonunlaridan foydalanishning asosiy sohasi bo`ldi.
D) bug` mashinalaridan amalda foydalanishning asosiy sohasi bo`ldi.

42. Akademik nima?
A) harbiy-dengiz floti qo`mondonlariga beriladigan unvon.

B) jamiyat rivojlanishida ro`y beradigan tub sifat o`zgarish.
C) yuksak ilmiy unvon.
D) chet ellar bilan savdo qiladigan savdogar.

43. Sayyora - bu ...
A) biror-bir ixtironing davlat tomonidan e'tirof etilgani va ixtirochining o`z ixtirosiga olgan huquqini tasdiqlovchi hujjat.
B) rivojlangan davlatlar tomonidan bosib olinib, ekspluatatsiya qilinuvchi mamlakat.
C) rivojlanmagan qit'a.
D) quyosh atrofida aylanuvchi va undan tushgan yorug`likni aks ettiruvchi osmon jismi, sayyora.

### 41- §. Adabiyot va san'at.

1. Daniel Defo qaysi yillarda yashab o`tgan?
A) 1660-1731-yillarda
B) 1667-1745-yillarda
C) 1732-1799-yillarda
D) 1759-1805-yillarda

2. Daniel Defo qalamiga tegishli asarni qayd eting.
A) «Gulliverning sayohati»
B) «Figaroning uylanishi»
C) «Robinzon Kruzoning hayoti va g`aroyib sarguzashtlari»
D) «Faust»

3. Shotlandiyalik dengizchi A. Selkrikning kimsasiz oroldagi 4 oyga yaqin sarguzashtlari Daniel Defoning qalamida necha yillik g`aroyib sarguzasht bayoniga aylangan?
A) 25 yillik B) 28 yillik
C) 32 yillik D) 18 yillik

4. J. Svift yashagan yillarni toping.
A) 1667-1745- yillar B) 1732-1799-yillar
C) 1759-1805-yillar D) 1799-1837-yillar

5. Qachon J. Sviftning «Gulliverning sayohati» nomli romani bosmadan chiqdi?
A) 1724-yilda B) 1725-yilda
C) 1726-yilda D) 1727-yilda

6. J. Sviftning «Gulliverning sayohati» nomli romanida nimaning karikaturasi tasvirlangan?
A) ingliz cheklangan monarxiya va ingliz qiroli
B) chaqqon, yoqimtoy va hazilkash xizmatkor
C) mansabparast va shuhratparast kishilar
D) bankirlar va savdogarlar, berahm va shafqatsiz sudxo`rlar

7. Fransuz yozuvchisi P. Bomarshe qachon yashab o`tgan?
A) 1759-1805-yillarda
B) 1799-1850-yillarda
C) 1799-1837-yillarda
D) 1732-1799-yillarda

8. Quyidagi qaysi sahria asari haqida Fransiya qiroli Lyudovik XVI g'azab bilan "buni sahnada qo'yish uchun Bastiliyani vayron qilish kerak ", degan edi?
A) "Gulliverning sayohati"
B) "Figaroning uylanishi"
C) "Sevihya sartaroshi"
D) "Insoniy komediya"

9. F. Shiller qachon yashab o`tgan?
A) 1759-1805-yillarda
B) 1799-1850-yillarda
C) 1799-1837-yillarda
D) 1732-1799-yillarda

10. Kimning asar qahramonlaridan o`zi yashayotgan dunyoning bezagi va pastkashligiga qarshi urush e'lon qilib bunday devdi: «Menga xuddi o`zimdek bir necha shoir kishilarni beringlar va Germaniya Respublika bo`ladi»?
A) I. Gyote qahramonlaridan Faust
B) P. Bomarshe qahramonlaridan Figaro
C) F. Shillerning qahramonlaridan Karl Maor
D) Daniel Defo qahramonlaridan Robinzon

11.«Makr va muhabbat» dramasi muallifi ....
A)Gyote B)J.Svift C)Daniel Defo D)Shiller

12. Qaysi nemis shoirlardan biri 1749-1832-yillarda yashab o`tgan?
A) Daniel Defo B) P. Bomarshe
C) F. Shiller D) I. Gyote

13. Quyidagi as[illegible]lardan qa[illegible] 60 yil davomida yaratı[illegible]?
A) «Insoniy komediya»
B) «Gulliverning sayohati»
C) «Faust» D) «Figaroning uylanishi»

14. Onore de Balzak nechanchi yillarda yashab o`tgan?
A) 1660-1731-yillarda
B) 1667-1745-yillarda
C) 1799-1850-yillarda
D) 1759-1805-yillarda

15. «Insoniy komediya» kimning qalamiga mansub?
A) J. Svift B) Onore de Balzak
C) Daniel Defo D) P. Bomarshe

16.Quyidagi javoblardan XIX asrning I yarmida ijod qilgan, burjuaziya jamiyatini haqqoniy tasvirlashda beqiyos bo'lgan fransiyalik yozuvchini toping.
A) O.Balzak B) F.Shiller C) J.Svift
D) P.Bomarshe

17.Qaysi yozuvchining asarlari burjaziya jamiyatiga qarshi o'ziga xos aybnoma edi?
A) Daniel Defo B) Pyor Bomarshe
C) Jonatan Svift D) Onore de Balzak

18. Quyida mualliflarning asarlari bilan mos ravishda keltirilgan javobni aniqlang.
1) D.Defo; 2) A.Bomarshe; 3) J.Svift; 4) O.Balzak.
a) "Insoniy komediya"; b) "Gulliverning sayohati"; c) "Robinzon Kruzoning hayoti va g`aroyib sarguzashtlari"; d) "Figaroning uylanishi"
A) 1-d; 2-c; 3-b; 4-a B) 1-c; 2-b; 3-a; 4-d
C) 1 -c; 2-d; 3-b; 4-a D) 1-a; 2-b; 3-c; 4-d

19.Quyidagi qaysi ijodkor dunyoga mashhur "Faust" asarini yaratgan?
A) F.Shiller B) D.Svift
C) I.V.Gyote D) D.Defo

20.Quyidagi qaysi asar inson kurashining buyukligini tasdiqlaydi va ma'rifat asrini yakunlaydi?
A) "Insoniy Komediya"
B) "Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari"
C) "Faust"
D) "Makr va muhabbat"

21. Kimning romanlarining qahramonlari jinoyatlar evaziga o`z boyliklarini ko`paytirayotgan bankirlar va savdogarlar, berahm va shafqatsiz sudxo`rlar, o`z hayotini behuda o`tkazayotgan mansabparast va shuhratparast kishilar - o`z maqsadlariga har qanday vositalar bilan erisha-digan kishilar bo`lgan?
A) Daniel Defo B) P. Bomarshe C) J. Svift
D) Onore de Balzak

22. A. S. Pushkin qaysi yillarda yashab o`tgan?
A) 1732-1799-yillarda
B) 1799-1837-yillarda
C) 1759-1805-yillarda
D) 1799-1850-yillarda

23. A. S. Pushkin qanday davrda yashadi?
A) Rossiyada krepostnoy huquqi bekor qilingan davrda
B) Rossiyada farovonlik boshlangan davrda
C) Rossiyada mutloq monarxiya bekor qilingan davrda
D) Rossiyada krepostnoylik zulmi kuchaygan, erkin fikrli kishilarni ta'qib etish avj olgan davrda

24. A. S. Pushkin kim bilan bo`lgan duelda halok bo`ldi?
A) J. Dantes B) J.Bankroft C) G.Leo
D) G.Gallom

25. Nemis kompozitorlaridan qay biri 1685-1750-yillarda yashab o`tgan?
A) V. Motsart B) L. Betxoven C) I. Bax
D) Onore de Balzak

26. Qaysi asarda Isoning shogirdi hikoya qilib bergan Isoning uqubatlari tarannum etiladi?
A) "Matfeyning uqubatlari" B) "Salomeya"
C) "Rekviyem" D) "Qahramonona simfoniya"

27.Ulug' kompozitorlardan kimni zamondoshlari "XVIII asrning haqiqiy mo'jizasi" deb atashgan?
A) J. Bizening B) V.A. Motsartning
C) I.S. Baxning D) L. van Betxovenning

28. V. Motsart qaysi yillarda yashab o`tgan?
A) 1685-1750-yillarda
B) 1756-1791-yillarda
C) 1770-1828-yillarda

D) 1799-1837-yillarda

29. Nemis kompozitorlaridan kim 3 yoshidan boshlab musiqa o`rgana boshlagan?
A) V. Motsart B) Onore de Balzak
C) I. Bax D) L. Betxoven

30. Qaysi nemis kompozitori Injildagi rivoyat asosida odamlarni qutqarish uchun o`zini qurbon qilgan qahramon dramasini bayon etgan?
